XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

Darslik

A.M. KARIMOVA, O.M. PARDAYEV,
Z.D. NIYOZOV, Z.X. ZAXIDOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
95 yilligiga bag‘ishlanadi

A.M. KARIMOVA, O.M.PARDAYEV,

Z.D. NIYOZOV, Z.X.ZAXIDOVA

XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

Darslik

Samarqand – 2026

UO‘K: 339.7
K23
KBK: 65.268ya73

A.M.Karimova, O.M.Pardayev, Z.D.Niyozov, Z.X.Zaxidova.
XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI *[Matn]: Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: .: «MAHORAT» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026 - 282 bet*

“Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” nomli darslikda xalqaro valyuta aloqalarining shakllanish jarayoni hamda jahon valyuta tizimining nazariy va amaliy jihatlari batafsil tahlil qilingan. Unda xalqaro valyuta tizimi va uning tuzilmasi, valyuta bozori faoliyati, tijorat banklarida bajariladigan valyuta operatsiyalarining mazmuni hamda ularning amalga oshirish tartibi keng yoritiladi. Shuningdek, valyuta siyosatining mohiyati, uning asosiy yo‘nalishlari, valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi ichki hamda tashqi omillar haqida ham atroflicha ma’lumot beriladi.

Darslikda, bundan tashqari, jahon valyuta tizimining shakllanish bosqichlari, Yevropa valyuta tizimining rivojlanish jarayoni, xalqaro kreditning iqtisodiy mohiyati, uning asosiy shakllari va turlari, xalqaro hisob-kitoblarning asosiy ko‘rinishlari hamda ularning amalga oshirilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, naqd valyuta o‘tkazmalari va ularni bajarish tartibi, xalqaro valyuta-kredit va moliya institutlari faoliyatiga oid masalalar ham keng tahlil qilingan. Darslik yakunida mavzularni mustahkamlashga xizmat qiluvchi nazorat savollari, test topshiriqlari, atamalar lug‘ati (glossariy) va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Taqrizchilar:

Z.O.Axrorov	TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasi mudiri i.f.d., prof.v.b.
K.J.Mirzayev	SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri i.f.d., prof.

Darslik institut Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (3-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 306-31/10).

ISBN: 978-9910-5132-6-8

©A.M.Karimova va b., SamISI. 2026 y.
©«MAHORAT» nashriyot-matbaa ijodiy uyi . 2026 y.

MUNDARIJA

KIRISH 6
I BOB. "XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI" FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI 8
1.1."Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanning maqsadi va asosiy vazifalari 8
1.2. "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog'liqligi 11
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 12
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 13
II BOB. XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI VA VALYUTA TIZIMI 16
2.1. Xalqaro valyuta munosabatlari tushunchasi va uning asosiy funksiyalari 16
2.2. Xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga solishning mohiyati va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari 27
2.3. Valyuta tizimining tushunchasi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va asosiy turlari 30
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 34
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 35
III BOB. VALYUTA, BIRJA VA BIRJADAN TASHQARI VALYUTA BOZORLARI VA ULARNING TUZILISHI 38
3.1. Valyuta bozori va uning turlari 38
3.2. Birja va birjadan tashqari valyuta bozori 43
3.3. Valyuta pozitsiyasi va uning turlari 45
3.4. Evrobondlar bozori va uning xususiyatlari 51
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 53
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 53
IV. BOB. VALYUTA INQIROZLARI MOHIYATI UNI YUZAGA KELISH SABABLAR, OQIBATLAR VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 57
4.1. Valyuta inqirozlari tushunchasi va ularning yuzaga kelish sabablari 57
4.2. Valyuta inqirozi paytida valyuta interventsiyasining roli 59
4.3. 2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablar, oqibatlar va o'ziga xos xususiyatlari 62
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 66
V BOB. VALYUTA SIYOSATINING MOHIYATI VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI 71

AXBOROT RESURS MARKAZI
74762

5.1. Valyuta siyosati va hukumat valyuta siyosatining tushunchasi, ularning asosiy shakllari 71
5.2. Markaziy bankning valyuta siyosati 75
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 83
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 83
VI.BOB. VALYUTA KURSINING MOHIYATI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR 86
6.1. Valyuta kursining mazmuni, ahamiyati va uning turlari 86
6.2. Valyuta kursi nazariyalari 92
6.3.Valyuta kursiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar 99
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 105
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 106
VII BOB. JAHON VALYUTA TIZIMI TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISHI 109
7.1. Jahon valyuta tizimi va uning xususiyatlari 109
7.2. Parij va Genuya valyuta tizimlari hamda ularning o'ziga xos jihatlari 114
7.3 Bretton-Vuds valyuta tizimi va jahon valyuta tizimidagi o'zgarishlar 119
7.4 Yamayka valyuta tizimi va zamonaviy valyuta tizimining xususiyatlari 121
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 124
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 124
VIII BOB. YEVROPA VALYUTA TIZIMI TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI 128
8.1. Yevropa iqtisodiy ittifoqining shakllanish bosqichlari 128
8.2. Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (IVI) bosqichlari 131
8.3. Evropa valyuta ittifoqining rivojlanishi 133
8.4. Evropada yagona valyuta ittifoqini shakllanish bosqichlari 135
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 142
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 143
IX BOB. XALQARO KREDIT TUSHUNCHASI UNING ASOSIY TURLARI VA SHAKLLARI 147
9.1. Xalqaro kreditning tushunchasi, tamoyillari va funksiyalari 147
9.2. Xalqaro kredit shakllari 152
9.3. Xalqaro kreditlar bo'yicha qarzdorlik muammosi va uning yechimlari 155
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 163
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 164

X BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR MOHIYATI VA ULARNING ASOSIY SHAKLLARI 167
10.1. Xalqaro hisob-kitoblar tushunchasi va ularni tashkil etish asoslari 167
10.2. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish talablari 174
10.3. Xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmlari 183
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 189
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 190
XI BOB. NAQD PUL (VALYUTA) O'TKAZMALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI 194
11.1. Xalqaro pul o‘tkazmalari mohiyati va mazmuni 194
11.2. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari 196
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 216
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 216
XII BOB. XALQARO VALYUTA-KREDIT VA MOLIYA INSTITUTLARI 220
12.1. Xalqaro moliya institutlari: tushunchasi, tamoyillari, vazifalari va maqsadlari 220
12.2. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) 225
12.3. Jahon Banki guruhi 227
12.4. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB) 231
Nazorat savollari (takrorlash uchun) 238
Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari 238
GLOSSARIY 242
ADABIYOTLAR RO‘YXATI 277

KIRISH

Jahon xo‘jaligining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarda mustahkam mavqeini shakllantirish hamda mamlakatni jahon moliyaviy tizimiga izchil integratsiyalashuvini yo‘lga qo‘yishda xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini izchil rivojlantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi.Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, uning tarkibiy tuzilmasini modernizatsiya qilish, tarmoqlar va hududlar o‘rtasidagi muvozanatli rivojlanishga erishish maqsadida ishlab chiqarish quvvatlarini oqilona joylashtirish hamda eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sanoat siyosati bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakat viloyatlari bilan xorijiy davlatlar o‘rtasida iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikni kengaytirish, valyuta bozorini liberallashtirish, iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash, sanoat salohiyatini mustahkamlash hamda hududlarning kompleks rivojlanishiga xizmat qiluvchi xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishga qaratilgan tizimli islohotlar olib borilmoqda.

Ushbu masalalarning samarali hal etilishida mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarida faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fani iqtisodiyot yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanadi. Mazkur darslik oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichida o‘qitiladigan “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanining o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, undan nafaqat talaba va o‘qituvchilar, balki amaliyotchi mutaxassislar, ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar hamda ushbu sohaga qiziqish bildirayotgan o‘quvchilar ham samarali foydalanishlari mumkin.

Darslikning asosiy maqsadi — moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro valyuta-kredit tizimida ro‘y berayotgan dolzarb iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ushbu sohadagi zamonaviy yo‘nalishlar va tendensiyalarni o‘rganish, shuningdek, talabalar ongida

nazariy bilimlar asosida mustahkam amaliy koʻnikmalarni shakllantirish va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Asarda xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta tizimining mohiyati, valyuta bozori va uning tuzilma jihatlari, tijorat banklarida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining mazmuni hamda ularni bajarish tartib-qoidalari keng yoritilgan. Shuningdek, unda valyuta siyosatining mazmuni va turlari, valyuta kursining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, jahon valyuta tizimining mohiyati hamda uning tarixiy rivojlanish bosqichlari, Yevropa valyuta tizimining shakllanish jarayonlari, xalqaro kreditning mazmuni, asosiy shakllari, turlari va ularning oʻziga xos xususiyatlari batafsil tahlil qilingan.

Darslikda xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va ularning asosiy shakllari, naqd valyuta oʻtkazmalari hamda ularni amalga oshirish tartib-qoidalari keng yoritilgan. Shuningdek, unda xalqaro valyuta-kredit va moliya institutlarining faoliyati batafsil tahlil qilingan. Ushbu darslikdan iqtisodiyot yoʻnalishidagi professor-oʻqituvchilar, magistrantlar, tadqiqotchilar, talabalar, amaliyotchi mutaxassislar hamda bank tizimiga qiziqish bildirayotgan keng kitobxonlar foydalana oladilar."Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanini chuqur oʻzlashtirish orqali talabalar mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro va xorijiy moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, valyuta operatsiyalari hamda xalqaro hisob-kitoblarni samarali tashkil etish, shuningdek, mamlakat toʻlov balansini boshqarish boʻyicha zarur nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarga ega boʻlish imkoniga ega boʻladilar.

Bundan tashqari, mazkur fan iqtisodiyotni modernizatsiya va liberallashtirish jarayonlarida belgilangan ustuvor yoʻnalishlarni samarali amalga oshirish uchun zarur boʻlgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim oʻrin egallaydi.

Darslikni yanada mukammallashtirish maqsadida bildiriladigan har qanday fikr, taklif va mulohazalar uning ilmiy-metodik sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, muallif bildirilgan barcha takliflar uchun chuqur minnatdorlik izhor etadi.

I BOB. “XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1.“Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanning maqsadi va asosiy vazifalari

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari — bu iqtisodiyot fanining muhim tarmog‘i bo‘lib, u davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital va moliyaviy resurslarning almashinuvi jarayonida yuzaga keladigan valyuta, kredit hamda moliyaviy munosabatlarni o‘rganadi. Ushbu fan xalqaro iqtisodiyotning moliyaviy mexanizmlarini, pul va kredit tizimlarining amal qilish tamoyillarini hamda ularning amaliyotdagi qo‘llanilish jarayonlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari jahon xo‘jaligi tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni ta’minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlar xalqaro moliya bozori, valyuta tizimi va kapital harakati bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, kredit ajratish, qarz olish, investitsiya kiritish hamda moliyaviy majburiyatlarni bajarish jarayonlarida shakllanadi.

Bugungi kunda xalqaro valyuta-kredit aloqalari faqatgina valyuta ayirboshlash operatsiyalarini emas, balki kapital oqimlarini boshqarish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, investitsion hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, global moliyaviy barqarorlikni ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Shuning uchun xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning murakkab tizimi, ya’ni valyuta va kredit vositalari orqali amalga oshiriladigan moliyaviy resurslar almashinuvi hamda jahon xo‘jaligida pul va kapital oqimlarini tartibga soluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar majmuasi sifatida ta’riflash mumkin.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari fani o‘z mazmuni jihatidan bir nechta asosiy ilmiy-amaliy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. **Davlatlararo moliyaviy operatsiyalar va valyuta ayirboshlash jarayonlari** — bu yo‘nalish turli mamlakatlarning bank va moliya institutlari o‘rtasida amalga oshiriladigan xalqaro hisob-kitoblar, valyuta konvertatsiyasi hamda pul-kredit tizimida qo‘llaniladigan mexanizmlarni tahlil qilishga qaratilgan.

2. **Xalqaro kreditlash va qarz majburiyatlarini tartibga solish** — unda davlatlar, xalqaro moliya tashkilotlari va boshqa iqtisodiy subyektlar tomonidan taqdim etiladigan kreditlarning shartlari, ularning qaytarilish mexanizmlari, foiz siyosati hamda qarzlarni boshqarish usullari o‘rganiladi.

3. **Jahon pul-kredit tizimining shakllanishi va evolyutsiyasi** — bu bo‘limda global moliya tizimining rivojlanish bosqichlari, xalqaro valyuta tizimlarining tarixiy asoslari, xalqaro moliya institutlarining paydo bo‘lishi va ularning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

4. **Valyuta kurslari va ularning dinamikasi** — valyuta kursining shakllanish qonuniyatlari, erkin suzuvchi va boshqariladigan kurs tizimlarining farqlari, shuningdek, kurs tebranishlarining milliy iqtisodiyot, tashqi savdo va investitsiyalar jarayonlariga ta’siri o‘rganiladi.

5. **Xalqaro moliya va bank institutlarining ahamiyati** — Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, mintaqaviy rivojlanish banklari, markaziy banklar hamda boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlarning global iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi funksiyalari, ularning hamkorlik mexanizmlari va faoliyat yo‘nalishlari tahlil etiladi.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari fanining asosiy vazifalari quyidagicha tavsiflanadi:

a) Nazariy bilimlarni shakllantirish. Fan xalqaro moliya tizimi va kredit munosabatlarining asosiy tamoyillari, tushunchalari hamda ularning amal qilish mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan. Talabalar davlatlararo moliyaviy operatsiyalar mohiyatini, valyuta kurslari va kredit majburiyatlari bilan bog‘liq qonuniyatlarni, shuningdek xalqaro moliya institutlarining faoliyat prinsiplarini chuqur o‘zlashtiradilar.

b) Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Bu yo‘nalish xalqaro moliyaviy amaliyotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi, xususan: valyuta kurslarini hisoblash va prognozlash, xalqaro kredit bitimlarini yuritish va nazorat qilish, moliyaviy xavf-xatarlarni baholash hamda ularni kamaytirish bo‘yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish, davlatlararo moliyaviy operatsiyalarni samarali tashkil etish.

c) Tahliliy va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish. Fanning muhim vazifalaridan biri — xalqaro moliya bozoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, iqtisodiy siyosatning moliyaviy natijalarini baholash, xalqaro kredit tizimlari va valyuta operatsiyalarining samaradorligini o‘rganishdir. Shuningdek, talabalarda strategik fikrlash, risklarni boshqarish va optimal moliyaviy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

d) Mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta’minlash. Bu yo‘nalish milliy iqtisodiyotning tashqi moliyaviy xavflarga bardosh berish qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, unda valyuta zaxiralarini oqilona boshqarish, davlat tashqi qarzlarini optimallashtirish, xalqaro moliyaviy majburiyatlarni samarali bajarish hamda milliy moliyaviy mustaqillikni ta’minlash masalalari o‘rganiladi.

Fanning nazariy va amaliy ahamiyati esa quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. **Davlat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash** — xalqaro moliya tizimi imkoniyatlaridan foydalanib, mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.
2. **Xalqaro moliyaviy integratsiyani chuqurlashtirish** — turli mamlakatlar o‘rtasidagi kredit, investitsiya va moliyaviy hamkorlik aloqalarini kengaytirish imkonini beradi.
3. **Moliyaviy siyosatni shakllantirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratish** — valyuta kurslarini tartibga solish, kredit siyosatini ishlab chiqish hamda qarz majburiyatlarini boshqarish jarayonlarida asosiy yo‘nalish sifatida foydalaniladi.
4. **Mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish** — xalqaro moliya bozorida ishlash, tahliliy fikrlash, strategik rejalashtirish hamda

moliyaviy boshqaruv koʻnikmalarini shakllantirish orqali amaliy faoliyatda yuqori natijaga erishish imkonini beradi.

1.2. “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bogʻliqligi

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari fani jahon xoʻjalik tizimida davlatlar oʻrtasida vujudga keladigan valyuta, kredit va moliyaviy aloqalarning iqtisodiy mohiyati, ularning shakllari hamda global iqtisodiyot rivojiga ta’sir mexanizmlarini oʻrganishga qaratilgan. Ushbu fan xalqaro moliya tizimi, kapital harakati, xalqaro toʻlovlar, valyuta siyosati va ularning oʻzaro bogʻliqligini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qiladi.

Fanning predmeti — xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladigan valyuta va kredit operatsiyalarining mazmuni, ularni tashkil etish tamoyillari, boshqarish usullari hamda davlatlar oʻrtasidagi moliyaviy hamkorlikni shakllantiruvchi omillar majmuasidir. Boshqacha aytganda, bu fan xalqaro kreditlash tizimlari, investitsiya oqimlari, qarz munosabatlari, valyuta kurslari shakllanishi va xalqaro hisob-kitoblar mexanizmini ilmiy asosda tahlil etadi.

Mazkur fan oʻz mohiyatiga koʻra boshqa iqtisodiy yoʻnalishdagi fanlar bilan uzviy bogʻlangan. Avvalo, u **“Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”** fanining tarkibiy qismi sifatida xalqaro savdo, toʻlov balansi, kapital harakati va global moliyaviy siyosatning chuqur tahliliga asoslanadi. Shu bilan birga, **“Moliya”**, **“Pul va kredit”** hamda **“Bank ishi”** fanlari bilan bevosita aloqada boʻlib, ular orqali xalqaro kredit mexanizmlari, bank operatsiyalari, valyuta siyosati va xalqaro moliya institutlari faoliyatining nazariy hamda amaliy asoslari oʻrganiladi.

Bundan tashqari, fan **“Makroiqtisodiyot”** va **“Mikroiqtisodiyot”** yoʻnalishlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, xalqaro valyuta-kredit jarayonlari mamlakatning ichki iqtisodiy muvozanati, pul muomalasi barqarorligi va ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta’sir koʻrsatishini tahlil qiladi. Shuningdek, u **“Buxgalteriya hisobi”** va **“Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari”** fanlari bilan

ham o‘zaro aloqada bo‘lib, xalqaro moliyaviy operatsiyalarni hisobga olish va tahlil qilish mexanizmlarini chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi.

Shu tariqa, **“Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari”** fani talabalarga global moliya tizimini puxta anglash, valyuta siyosati va xalqaro kredit mexanizmlarini tahlil etish, xalqaro moliyaviy oqimlarni boshqarish hamda jahon iqtisodiy jarayonlarida faol ishtirok etish uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Asosiy tushunchalar va iboralar

xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, jahon xo‘jaligi tizimi, valyuta tizimi, xalqaro kredit, valyuta kursi, xalqaro to‘lov tizimi, moliyaviy resurslar, valyuta siyosati, xalqaro moliya, kapital harakati bozori, kredit mexanizmi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro bank tizimi.

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanining predmeti nimani o‘rganadi?
2. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari fani nimani o‘rganadi va uning asosiy predmeti nima?
3. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining davlat iqtisodiy barqarorligidagi roli qanday?
4. Ushbu fan boshqa iqtisodiy fanlar bilan qanday bog‘liq? Masalan, “Makroiqtisodiyot”, “Mikroiqtisodiyot”, “Buxgalteriya hisobi” va “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari” bilan.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari fani talabalarga qanday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar beradi?
6. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari jarayonlari jahon moliya tizimi va xalqaro iqtisodiyotga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
7. Xalqaro moliya va bank institutlarining (masalan, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi) xalqaro valyuta-kredit munosabatlaridagi roli nima?

8. Valyuta kursi va xalqaro kredit tushunchalari, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati qanday?

9. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari fani orqali moliyaviy xavflarni baholash va boshqarish qanday amalga oshiriladi?

10. Fan amaliy va nazariy jihatdan qanday vazifalarni bajaradi?

11. Asosiy tushunchalar va atamalarni (valyuta siyosati, xalqaro moliya, kapital harakati bozori, kredit mexanizmi va boshqalar) izohlang.

12. Xalqaro kredit va valyuta operatsiyalarining asosiy turlari nimalardan iborat?

13. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

14. “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fani bilan xalqaro valyuta-kredit munosabatlari o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

15. “Bank ishi” fanining xalqaro valyuta-kredit tizimidagi o‘rni qanday izohlanadi?

16. Nima sababdan xalqaro valyuta-kredit munosabatlari global iqtisodiy barqarorlik uchun muhim hisoblanadi?

17. Xalqaro moliya bozoridagi o‘zgarishlar bu fan predmetiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

18. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida mamlakatlarning iqtisodiy siyosati qanday ahamiyatga ega?

19. Xalqaro kredit mexanizmlarini o‘rganish talabalarga qanday amaliy ko‘nikmalar beradi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanining asosiy predmeti nimani o‘rganadi?

A) Faqat ichki moliya tizimini

B) Mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta va kredit aloqalarini

C) Aholining daromadlarini taqsimlash jarayonini

D) Faqat bank faoliyatini

2. “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fani qaysi jarayonlar bilan bevosita bog‘liq?

A) Faqat tovar ishlab chiqarish bilan
B) Xalqaro moliya bozori, valyuta tizimi va kapital harakati bilan
C) Ichki soliq siyosati bilan
D) Aholi bandligi bilan

3. Quyidagilardan qaysi biri “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanining asosiy vazifasiga kirmaydi?
A) Xalqaro kredit mexanizmlarini tahlil qilish
B) Valyuta siyosatini o‘rganish
C) Ichki budjet xarajatlarini belgilash
D) Xalqaro moliyaviy oqimlarni o‘rganish

4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini o‘rganishning amaliy ahamiyati nimada?
A) Mamlakatlar o‘rtasida moliyaviy hamkorlikni mustahkamlashda
B) Faqat davlat budjetini oshirishda
C) Aholining soliqqa bo‘lgan majburiyatini kamaytirishda
D) Ichki ishlab chiqarishni to‘xtatishda

5. “Moliya” fani xalqaro valyuta-kredit munosabatlari bilan qanday aloqada?
A) Faqat soliq yig‘imi orqali
B) Moliyaviy oqimlar va resurslar boshqaruvi orqali
C) Tovar ishlab chiqarish orqali
D) Mehnat bozori orqali

6. “Pul va kredit” fani xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga qanday jihatdan yaqin?
A) Faqat davlat qarzini o‘rganadi
B) Pul muomalasi va kredit mexanizmlarini tahlil qiladi
C) Ishlab chiqarish vositalarini o‘rganadi
D) Eksport jarayonlarini boshqaradi

7. “Bank ishi” fani xalqaro valyuta-kredit tizimi bilan qanday bog‘liq?
A) Xalqaro to‘lov va hisob-kitob tizimi orqali
B) Faqat ichki kredit siyosati orqali

C) Mehnat resurslari orqali
D) Soliq siyosati orqali

8. “Makroiqtisodiyot” fanining xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga ta’siri nimada ko‘rinadi?

A) Aholining iste’mol darajasida
B) Pul muomalasi va iqtisodiy barqarorlikda
C) Faqat tashqi savdo hajmida
D) Iqtisodiy resurslarning kamayishida

9. “Buxgalteriya hisobi” va “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari” fanlari bilan bog‘liqlik nimalarda namoyon bo‘ladi?

A) Hisobot yuritish va moliyaviy natijalarni aks ettirishda
B) Faqat eksport hajmini hisoblashda
C) Faqat ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlashda
D) Soliq stavkalarini belgilashda

II BOB. XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI VA VALYUTA TIZIMI

2.1. Xalqaro valyuta munosabatlari tushunchasi va uning asosiy funksiyalari

Xalqaro valyuta munosabatlari — bu "...xalqaro iqtisodiy aloqalar, shuningdek, xalqaro moliya bozori va tizimida valyutalarning harakatiga bog‘liq tarzda shakllanadigan iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar majmuasini anglatadi. Ushbu munosabatlar jahon iqtisodiy tizimi va xalqaro moliya muhitida valyuta resurslarining aylanishi jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni o‘zida aks ettiradi"[1].


Hozirgi davr iqtisodiy sharoitida xalqaro valyuta munosabatlari faqatgina xorijiy valyutani sotish yoki sotib olish bilan cheklanmaydi. Aksincha, ular global moliya bozori va jahon xo‘jalik tizimi doirasida valyuta oqimlarining shakllanishi hamda ularning harakati jarayonida vujudga keladigan murakkab va ko‘p yo‘nalishli iqtisodiy aloqalarni qamrab oladi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining yo’nalishlari

Shu tariqa, xalqaro valyuta munosabatlari jahon moliya tizimining ajralmas elementi sifatida xalqaro iqtisodiy aloqalarda valyuta vositalari orqali amalga oshiriladigan turli iqtisodiy operatsiyalarni uyg‘unlashtiradi va tartibga soladi.

Mazkur munosabatlarning **asosiy obyekti** xorijiy hamda milliy valyutalardir. Shu bilan birga, valyutalar jahon moliya bozorining muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi o‘ziga xos mahsulot sifatida boshqa tovarlar bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham valyuta munosabatlari obyekti doirasida faqat valyutalarning o‘zi emas, balki global moliya bozorida muomalada bo‘lgan barcha moliyaviy vositalar, jumladan derivativ instrumentlar ham ko‘rib chiqiladi.

[1] Кучеров И.И. Законные платежные средства: теоретико-правовое исследование: монография. - "Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации", 2016 г.



2.1-rasm. Xalqaro valyuta munosabatlarining yo'nalishlari[2]

Xalqaro valyuta munosabatlari faqat iqtisodiy jarayonlar bilan chegaralanib qolmay, balki xalqaro **ijtimoiy va madaniy sohalarda** ham o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan, keng ma'noda valyuta munosabatlarining obyekti sifatida valyutalar hamda ular bilan bog'liq hosilaviy moliyaviy vositalar e'tirof etiladi. Ushbu vositalar xalqaro moliya bozorining valyuta segmentida faol muomalada bo'lib, jahon miqyosidagi iqtisodiy barqarorlik va likvidlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya bozorining barcha tarmoqlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, **valyuta operatsiyalari** moliya tizimining barcha segmentlariga, jumladan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, zamonaviy xalqaro valyuta munosabatlarining obyekti sifatida valyuta shaklida ifodalangan barcha moliyaviy aktivlar, mahsulotlar va xizmatlar majmuasi e'tirof etiladi.

[2] Mualiflar ishlanmasi

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
74762

Valyuta munosabatlarining faoliyat doirasi pul munosabatlariga nisbatan torroq bo‘lib, u asosan tashqi iqtisodiy aylanma, xalqaro moliya bozori hamda transmilliy ijtimoiy-madaniy aloqalar bilan chegaralangan. U xalqaro moliyaviy-iqtisodiy aloqalarning muhim bo‘g‘ini sifatida jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya tizimidagi pul munosabatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu bilan bir qatorda, bu munosabatlar xalqaro savdo, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish omillarining global taqsimlanishi, iqtisodiy integratsiya va mehnat migratsiyasi kabi jarayonlar bilan bevosita aloqador hisoblanadi.

O‘zining **ob’yektiv iqtisodiy mohiyati** tufayli xalqaro valyuta munosabatlari iqtisodiy qonuniyatlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Ularning vujudga kelishi va evolyutsiyasi jahon xo‘jaligi tizimi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarning tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Eng avvalo, bu jarayonlarga xalqaro ishlab chiqarishning kengayishi, global iqtisodiy makonning shakllanishi, mahsulot va xizmatlar bozorining xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi hamda iqtisodiy globallashuv omillari turtki bo‘lgan. Shu bilan birga, xalqaro valyuta munosabatlari ishlab chiqarishning moddiy sohalariga xizmat qilish bilan birga, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarining samarali amalga oshishiga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, xalqaro valyuta munosabatlari milliy iqtisodiy tizimlarning chegaralaridan chiqib, global miqyosdagi ishlab chiqarish va xo‘jalik jarayonlariga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Valyuta munosabatlari bilan ishlab chiqarish jarayonlari o‘rtasida o‘zaro ta’sirchan va ikki yo‘nalishli bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular bir-biriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bir tomondan, valyuta munosabatlari xalqaro ishlab chiqarish jarayonlarining shakllanishiga turtki beradi, bunda kapital, mehnat resurslari, mahsulot va xizmatlarning global miqyosda erkin harakati amalga oshadi. Bu jarayon xalqaro iqtisodiy integratsiya, investitsiyalar oqimi va transmilliy ishlab chiqarish tizimlarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi tomondan, xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanish darajasi bevosita jahon iqtisodiyoti holati, mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy kuchlar muvozanati, shuningdek, ularning o‘zaro iqtisodiy va siyosiy hamkorlik darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, valyuta munosabatlarining barqarorligi nafaqat iqtisodiy omillarga, balki geosiyosiy, diplomatik va institutsional sharoitlarga ham bog‘liqdir.

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi ko‘p omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuz beradi, jumladan jahon iqtisodiyotining o‘sishi, siyosiy barqarorlik, xalqaro savdoning kengayishi, sanoat va ishlab chiqarishning modernizatsiyasi hamda diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi bu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, xalqaro valyuta munosabatlari zamonaviy global iqtisodiy tizimning markaziy bo‘g‘ini sifatida jahon xo‘jaligi ishtirokchilarining o‘zaro moliyaviy hamkorligini ta’minlaydi va iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

“...Xalqaro valyuta munosabatlarining tarixiy taraqqiyot jarayonida valyuta shaklidagi pul oqimlari tizimi bilan doimiy aloqadorlik mavjud bo‘lgan. Ushbu munosabatlarning shakllanishi uchun asosan ikki muhim shart bajarilishi talab etiladi”[3]:

birinchidan, xalqaro iqtisodiy aloqalarda katta hajmdagi uzluksiz pul aylanmasining mavjudligi va xalqaro miqyosda pul munosabatlarining rivojlangan darajaga yetishi;

ikkinchidan, pulning jahon puli sifatidagi funksiyasining to‘liq shakllanishi.

“...Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro moliya bozori, jahon moliya tizimi va global xo‘jalik sub’yektlari tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar asosida xorijiy valyuta oqimlarining harakatini ifodalovchi asosiy iqtisodiy kategoriya hisoblanadi”[4].

---

[3] Эскиндаров М. Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. -М.: КноРус, 2020. 542 с

[4]ЩЕБАРОВА Н.Н. МЕЖДУНАРОДНЫЕ ВАЛЮТНО-ФИНАНСОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ.электронный ресурс.2-е издание, стереотипное

Mazkur munosabatlar nafaqat real sektor, ya'ni moddiy ishlab chiqarish sohasiga, balki jahon yalpi ichki mahsulotining taqsimoti, uning qayta taqsimlanishi va iste'mol qilinishiga ham xizmat qiladi. Jahon miqyosida takror ishlab chiqarish jarayonlari bilan global moliyaviy tizim o'rtasida ikki tomonlama — bevosita va bilvosita (teskari) aloqalar mavjud.

Bevosita aloqa ishlab chiqarish jarayonlarining moliyaviy resurslarga ehtiyojini qondirish orqali yuzaga keladi. Ya'ni, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar, kreditlar va valyuta oqimlari global moliyaviy tizim orqali ta'minlanadi. Shu tariqa, ishlab chiqarish sohalari o'z faoliyatini davom ettirish va kengaytirish uchun moliyaviy vositalarga bog'liq bo'ladi.

Bilvosita yoki teskari aloqa esa moliyaviy tizimning ishlab chiqarishga ko'rsatadigan ta'siri orqali yuzaga chiqadi. Global moliya bozorlaridagi o'zgarishlar, valyuta kurslarining tebranishi, investitsiyalarning yo'naltirilishi ishlab chiqarish hajmi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliyaviy inqiroz yoki spekulyativ kapital oqimlarining keskin o'zgarishi ishlab chiqarish sohasida yetishmovchiliklar va narx o'zgarishlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy tizimdagi barqarorlik ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti doirasidagi ishlab chiqarish jarayonlari va global moliyaviy tizim bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular o'zaro rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashga ta'sir qiladi. Ushbu ikki tomonlama aloqalar global iqtisodiy barqarorlik va o'sish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa, xalqaro iqtisodiy aloqalar doirasida valyuta oqimlarining harakati faqat ishlab chiqarish jarayonlarini emas, balki iqtisodiy resurslarning taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi, ayirboshlanishi va iste'mol qilinish jarayonlarini ham bevosita qamrab oladi.

"...Xalqaro valyuta munosabatlarining shakllanishiga zamin yaratadigan ikki asosiy manbani ajratish mumkin:

1. xalqaro iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilariga tegishli bo‘lgan valyuta mablag‘lari;

2. xalqaro moliya bozorlaridan jalb etilgan, qarz shaklida ifodalangan valyuta resurslari.” [5]

Mazkur manbalar xalqaro valyuta munosabatlarining moddiy bazasini tashkil etadi va global moliya tizimi faoliyatining uzluksizligini ta’minlaydi. Shu munosabatlar, ya’ni valyuta oqimlarining harakati, jahon xo‘jaligi hamda xalqaro moliya bozorining barcha ishtirokchilari — davlatlar, korporatsiyalar, banklar, investorlar va boshqa iqtisodiy agentlarning manfaat va ehtiyojlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Valyuta-moliya oqimlarining harakati o‘zining iqtisodiy mazmuni jihatidan **to‘rtta asosiy bosqich** orqali amalga oshadi. Har bir bosqich xalqaro moliyaviy munosabatlarning ma’lum funksional jihatini ifodalab, global iqtisodiy tizimdagi valyuta resurslarining samarali taqsimlanishiga ko‘maklashadi.

Valyuta-moliya oqimlarining harakati bosqichlari quyidagicha tavsiflanadi: [6]

Bosqichlar	Harakat mazmuni	Natijalar
1-bosqich. Shakllantirish	Ushbu bosqichda valyuta tushumlari shakllanadi. Ya’ni, iqtisodiy sub’yektlar tomonidan xalqaro bozorlarda mahsulot va xizmatlar realizatsiyasi natijasida xorijiy valyuta ko‘rinishidagi daromadlar olinadi.	Milliy iqtisodiyot sub’yektlarining xorijiy valyuta tushumlari shakllanadi va valyuta resurslari paydo bo‘ladi.
2-bosqich. Taqsimlash	Hosil bo‘lgan valyuta tushumlari ishlab chiqarish jarayonida qatnashgan omillar — mehnat, kapital, yer va tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha taqsimlanadi.	Valyuta resurslari iqtisodiy sub’yektlar o‘rtasida ulushlarga muvofiq taqsimlanadi, ishlab chiqarish xarajatlari qoplanadi.

[5] Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник -М.: КноРус, 2020. 542 с.

[6] Ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda mualiflar tomonidan tuzilgan

3-bosqich. Qayta taqsimlash	Bu bosqichda valyuta mablag‘lari turli shakllarda qayta taqsimlanadi. Xususan, yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlaridan, shuningdek, davlat byudjetlaridan xalqaro fondlar va tashkilotlarga ajratmalar amalga oshiriladi.	Valyuta resurslarining bir qismi ijtimoiy, moliyaviy yoki xalqaro maqsadlarga yo‘naltiriladi; global moliya tizimi orqali qayta taqsimlanish amalga oshadi.
4-bosqich. Foydalanish	Valyuta mablag‘larining yakuniy maqsadlarda ishlatilish bosqichi bo‘lib, bunda mablag‘lar oxirgi iste’molga yoki investitsiya faoliyatiga yo‘naltiriladi.	Valyuta resurslari investitsiya loyihalariga, ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki tovar va xizmatlar xaridiga sarflanadi; iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi.

Shu tarzda, valyuta-moliya oqimlarining har bir bosqichi xalqaro iqtisodiy aylanishning muhim tarkibiy qismini tashkil etib, global moliya tizimining samarali faoliyat yuritishida o‘zaro bog‘liq mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa, xalqaro valyuta munosabatlari faqat moliyaviy resurslarning global miqyosdagi harakatini emas, balki ularni shakllantirish, boshqarish va samarali foydalanish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu munosabatlarning rivojlanishi jahon siyosiy va iqtisodiy jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ularning yo‘nalishi va tarkibiy shakllanishiga ham bevosita turtki beradi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining kengayib borishi global iqtisodiy va siyosiy tizimlarning barcha yo‘nalishlariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan, ularni tavsiflashda “gipertizim” atamasi qo‘llaniladi, chunki bu munosabatlar o‘zaro integratsiyalashgan va yuqori darajadagi tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lgan xalqaro tuzilmani ifodalaydi. Bunda milliy valyuta-moliya tizimlari global darajada o‘zaro bog‘lanib, o‘zaro ta’sirchanlik va muvofiqlik asosida faoliyat yuritadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari jahon iqtisodiyoti va moliya tizimida kechayotgan barcha o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular ushbu o‘zgarishlarga mos tarzda evolyutsion ravishda rivojlanadi. Shu sababli, global moliyaviy muhitda yuz beradigan har qanday ijobiy yoki salbiy jarayonlar bevosita xalqaro valyuta munosabatlarining

barqarorligi, dinamikasi va rivojlanish sur'atlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur munosabatlar faqat iqtisodiy emas, balki me'yoriy-huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Xalqaro va milliy yuridik hujjatlar, normalar va tartib-taomillar ushbu munosabatlarning barcha bosqichlarini muvofiqlashtirib boradi va tartibga soladi.

Xalqaro valyuta munosabatlari global savdo tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular o'zaro ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, valyuta munosabatlari xalqaro savdo jarayonlarini tartibga soladi va ularning rivojlanishiga turtki beradi, ikkinchi tomondan esa, ularning o'zi aynan ushbu savdo munosabatlarining mavjudligi va hajmiga tayanadi. Shu bilan birga, xalqaro mehnat taqsimoti, xorijiy turizm, sarmoyalar oqimi hamda boshqa transchegaraviy iqtisodiy aloqalarning samarali amalga oshirilishida valyuta munosabatlarining o'rni beqiyosdir.

To'liq iqtisodiy integratsiyani ta'minlash uchun yagona valyuta hududini shakllantirish zarur bo'lib, bu holat nafaqat tovar va xizmatlar erkin aylanishini, balki umumiy moliyaviy siyosatni yuritishni ham taqozo etadi. Shuningdek, xalqaro kreditlash, sug'urta tizimlari hamda moliya bozorlarini barqaror va integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishini ta'minlash uchun rivojlangan va ishonchli valyuta munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, xalqaro valyuta munosabatlarining barqarorligi mamlakatning moliyaviy tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, pul-kredit siyosatini izchil olib borish imkonini beradi hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish uchun zarur asos yaratadi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omillardan biri bu jahon valyuta bozorida amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmining o'zgarishidir. Xususan, bozorda faol ishtirok etayotgan spekulyativ kapital egalari qisqa muddatli valyuta bitimlari orqali katta foyda olishga intiladilar. Biroq, bu turdagi operatsiyalar ko'pincha real sektor — ya'ni ishlab chiqarish, savdo va

xizmat ko‘rsatish sohalaridan ajralgan holda amalga oshiriladi, bu esa global moliyaviy barqarorlikka ma’lum xavf tug‘diradi.

“...Natijada, xalqaro valyuta munosabatlari real iqtisodiy jarayonlardan ajralib qolgan holda, sun’iy moliyaviy o‘sish yoki pasayishlar, ya’ni davriy valyuta inqirozlari yuzaga kelishi uchun iqtisodiy asos yaratadi. Bu holat xalqaro moliyaviy barqarorlikka tahdid tug‘dirib, valyuta bozorida keskin o‘zgarishlar va xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi.”[7]

Katta hajmdagi spekulyativ valyuta oqimlarining mamlakatlar o‘rtasida tez sur’atlarda harakatlanishi real sektor faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Avvalo, qisqa muddatli va tez foyda keltiruvchi spekulyativ operatsiyalar tufayli valyuta mablag‘lari jahon bozorida doimiy harakatda bo‘ladigan “issiq pullar” shaklini oladi. Bu holat kapitalni uzoq muddatli investitsiyalarga yo‘naltirish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Ikkinchidan, spekulyantlar tomonidan bank tizimidagi qisqa muddatli kreditlarga bo‘lgan yuqori talab foiz stavkalarining ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida real ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar va korxonalar uchun moliyaviy resurslarga kirishni qiyinlashtiradi.

Uchinchidan, spekulyativ kapital oqimlari nafaqat iqtisodiy muvozanatni izdan chiqaradi, balki valyuta kurslari barqarorligiga ham tahdid tug‘diradi. Natijada, milliy valyuta kursining keskin tebranishi kuzatilib, bu holat iqtisodiy beqarorlikni kuchaytiradi va hatto moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, xalqaro valyuta munosabatlari yuqori likvidli, katta daromad keltiruvchi, lekin bir vaqtning o‘zida yuqori riskka ega bo‘lgan soha hisoblanadi. Ular real iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lsa-da, ko‘plab moliyaviy ko‘rsatkichlar jihatidan ulardan bir necha baravar yirikdir.


Agar xalqaro valyuta munosabatlari zarur nazorat va tartibga solish mexanizmlaridan chetda rivojlansa, bu holat milliy valyutaning

[7] Красавина Л.Н. Международные валютные, кредитные и финансовые отношения. Учебник М.: Юрайт. 2016. 543 с.

barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Bunday vaziyatda mamlakatning valyuta zaxiralari kamayishi, valyuta kursining keskin o‘zgarishi va tashqi iqtisodiy muvozanatning buzilishi ehtimoli ortadi. Shu boisdan, har bir davlat xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok etar ekan, o‘zining iqtisodiy manfaatlari, tashqi savdo siyosati hamda moliyaviy xavfsizlik darajasini chuqur tahlil qilgan holda qatnashishi lozim.

Xalqaro valyuta munosabatlarining funksiyalari ularning iqtisodiy mohiyatini aniq mexanizmlar orqali namoyon etadi. Bu funksiyalar xalqaro moliyaviy tizimdagi valyuta oqimlarini shakllantirish, taqsimlash, qayta taqsimlash va samarali foydalanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning har birining amalga oshirish darajasi jahon moliya bozorida kapital harakati, investitsiyalar oqimi hamda to‘lov balansining holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, xalqaro valyuta munosabatlarining har bir yangi bosqichi global iqtisodiy tizimda sifat jihatidan yangi o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bunga xalqaro moliyaviy strukturalarning shakllanishi, valyuta kurslari tizimining o‘zgarishi, davlatlararo iqtisodiy hamkorlik shakllarining takomillashuvi hamda moliyaviy siyosatning xalqaro miqyosda uyg‘unlashuvi kiradi. Natijada, xalqaro valyuta munosabatlari nafaqat jahon iqtisodiyoti barqarorligining muhim omiliga, balki uning rivojlanishini boshqaruvchi strategik mexanizmga ham aylanadi.



2.2. rasm. Xalqaro valuta munosabatlarining asosiy funksiyalari

Qo‘yida bularni batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. *Valyuta mablag‘larini jamg‘arish va investitsiyalash funksiyasi*. Mazkur funksiya xalqaro moliyaviy resurslarning to‘planishi va ularni real iqtisodiyotga yo‘naltirish jarayonini anglatadi. Valyuta mablag‘larining jamg‘arilishi, asosan, eksportdan tushgan tushumlar, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy operatsiyalar va boshqa xalqaro hisob-kitoblar orqali amalga oshadi.

Shu mablag‘lar xalqaro kapital bozorlarida investitsion faoliyatga yo‘naltiriladi. Ya’ni, ular orqali infratuzilmaviy loyihalar, sanoat ishlab chiqarishi, texnologik yangilanishlar va boshqa iqtisodiy yo‘nalishlar moliyalashtiriladi. Bunda xalqaro valyuta munosabatlari investitsiyalarni jalb etuvchi muhim mexanizm vazifasini bajaradi. (misol uchun)

“...O’zbekiston valyuta bozorida asosan USD/UZS, EUR/UZS, RUB/UZS va CNY/UZS valyuta juftliklari bo‘yicha valyutaviy spot savdolari tashkil etilgan. Valyuta bilan asosiy operatsiyalar banklar orqali, shuningdek, banklararo valyuta birjasi orqali amalga oshiriladi. 2023 yilda valyuta bozoridagi savdolar umumiy hajmi 458,00 trln. so‘mni tashkil etib, 2022 yilgi mos ko‘rsatkichga (338,18 trln. so‘m) nisbatan 35,43 foizga oshdi”[8]

2. *Valyuta resurslari narxini (qiymatini) belgilash funksiyasi*. Valyuta bozorida turli milliy valyutalarning o‘zaro almashinuvi jarayonida ularning nisbiy qiymatlari, ya’ni kurslari shakllanadi. Bu jarayon bozor tamoyillari asosida — talab va taklif muvofiq amalga oshiriladi.

Narx shakllanishi funksiyasi orqali xalqaro valyuta munosabatlari global iqtisodiy aloqalarning narxli ifodasini belgilaydi. Bunda valyuta kursi nafaqat tovar va xizmatlar narxiga, balki investitsion jozibadorlik, milliy iqtisodiyotning barqarorligi va tashqi savdo muvozanatiga ham bevosita ta’sir qiladi.

“...2023 yilda xalqaro miqyosda kuzatilgan qat’iy pul-kredit sharoitida O’zbekiston ichki valyuta bozorida chet el valyutasiga talab taklifdan sezilarli oshishi kuzatildi. 2023 yilda chet el valyutasiga bo‘lgan talabning umumiy hajmi 42,5 mlrd dollarga yetib, 2022 yilga

[8] O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti, 2023.

nisbatan 16 foizga oshdi. Ushbu talabning 78,6 foizi yuridik shaxslar va 21,4 foizi jismoniy shaxslar hissasiga to‘g‘ri keldi. Ichki valyuta bozorida chet el valyutasidagi umumiy taklif hajmi esa(Markaziy bank intervensiyalarini hisobga olmaganda) 34,4 mlrd dollarni tashkil etib, shundan 14,7 mlrd dollari (43 foizi) xo‘jalik yurituvchi subyektlar, 13,5 mlrd dollari (39 foizi) banklar va jismoniy shaxslar hamda 6,2 mlrd dollari (18 foizi) markazlashgan manbalar hisobiga qondirildi”[9]

2.2. Xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga solishning mohiyati va zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari

Xalqaro valyuta munosabatlari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash hamda moliyaviy tizim barqarorligini saqlab qolish nuqtayi nazaridan ma’lum darajada davlat tomonidan tartibga solinishi zarur. Mazkur tartibga solish jarayoni – bu davlat tomonidan milliy valyutaning barqarorligini, uning almashuv kursining izchilligini va to‘lov balansining muvozanatini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir.

Valyuta sohasidagi tartibga solish jarayonidagi asosiy yo‘nalishlar:

- xalqaro hisob-kitoblar hamda to‘lov tizimlarini samarador boshqarish;
- xalqaro moliya va kredit manbalaridan oqilona tarzda foydalanish;
- valyuta kursi siyosatini aniqlash;
- milliy valyuta bozori hamda oltin bozorining faoliyatini uyg‘unlashtirish;
- milliy valyutaning konvertatsiya shartlarini me’yorlashtirish;
- valyuta cheklovlari va nazorat mexanizmlarini joriy qilish.

Shuningdek, mazkur tartibga solish tizimi doirasida xalqaro miqyosda yetarli hajmdagi valyuta likvidligini saqlash, ya’ni xalqaro hisob-kitoblar va to‘lov operatsiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan valyuta resurslarini doimiy ravishda ta’minlab borish ham eng muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi.

[9] O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti, 2023.

Xalqaro valyuta munosabatlari o‘z faoliyatini strategik yondashuv, taktik vositalar va samarali nazorat tizimining uyg‘unlashuvi asosida tashkil etadi. Bunda strategiya — uzoq muddatli maqsadlarni belgilash va ularni amalga oshirish yo‘nalishlarini aniqlashni anglatadi. Taktika esa ushbu maqsadlarga erishish uchun qisqa muddatli, moslashuvchan va amaliy harakatlar majmuasini ifodalaydi. Nazorat esa qabul qilingan qarorlarning bajarilishini monitoring qilish, tahlil etish va kerakli tuzatishlarni kiritish orqali xalqaro valyuta siyosatining izchilligini ta’minlaydi.

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular turli moliyaviy va iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog‘langan. Ushbu munosabatlarning harakati bir nechta asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi, bu yo‘nalishlar jahon iqtisodiyoti va moliyaviy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlaydi.

a)valyuta ayirboshlash operatsiyalari. Bunda xalqaro savdo va sarmoya oqimlarini ta’minlashda turli mamlakatlar valyutalari o‘rtasidagi ayirboshlash muhim ahamiyatga ega. Ayirboshlash operatsiyalari spot, forvard, fyuchers, svop va opsion shakllarida amalga oshiriladi.

b) valyuta kurslarini tartibga solish. Valyuta munosabatlari milliy valyutalarning kurslari va ularning xalqaro bozordagi nisbiy qiymatiga bevosita bog‘liq. Kurs siyosati orqali davlatlar eksport-import muvozanatini saqlash, inflyatsiyani nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga harakat qiladi.

c) xalqaro hisob-kitoblar va to‘lov tizimlari. Xalqaro savdo operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblar akkreditiv, inkasso, bank o‘tkazmalari va cheklar orqali amalga oshiriladi. Bu tizimlar valyuta munosabatlarining uzluksiz va ishonchli harakatini ta’minlaydi.

d) valyuta bozori va moliyaviy instrumentlar harakati. Xalqaro valyuta munosabatlari global moliya bozorida turli moliyaviy vositalar — obligatsiyalar, valyuta derivativlari, depozit sertifikatlari orqali amalga oshiriladi. Bu vositalar investorlar, banklar va moliyaviy tashkilotlar o‘rtasidagi operatsiyalarni tartibga soladi.

e) valyuta siyosati va tartibga solish mexanizmlari. Davlatlar valyuta munosabatlarining samarali faoliyat yuritishi uchun konvertatsiya rejimlari, valyuta cheklovlari, nazorat tizimlari va boshqa tartibga solish choralarini belgilaydi. Bu chora-tadbirlar moliyaviy xavfsizlik va iqtisodiy mustaqillikni saqlashga qaratilgan.

f) valyuta likvidligi va rezervlarini boshqarish. Xalqaro hisob-kitoblar va to‘lov majburiyatlarini bajarish uchun yetarli hajmdagi valyuta zahiralari (xususan, AQSh dollari, yevro, funt sterling kabi) saqlanishi zarur. Rezervlar darajasi davlatning tashqi iqtisodiy holatini va kredit reytingini belgilaydi.

g) xalqaro valyuta-kredit institutlari bilan hamkorlik. Xalqaro Valyuta Fondi (IMF), Jahon Banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) kabi tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalar valyuta siyosatini qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanish darajasi har doim jahon xo‘jalik tizimining umumiy holati bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanib kelgan. Kapital aylanishi jarayonida davlatlarning global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvi natijasida xalqaro valyuta, kredit, hisob-kitob, investitsiya, fond bozorlari, sug‘urta hamda boshqa moliyaviy operatsiyalar orqali pul kapitalining ma’lum qismi milliy valyutadan xorijiy valyutaga konvertatsiya qilinadi.

1990-yillarning boshlarida jahon iqtisodiyoti va xalqaro valyuta tizimida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi valyuta savdosining real vaqt rejimida amalga oshirilishiga va kapitalning transchegaraviy harakatining keskin tezlashishiga sabab bo‘ldi. Natijada, global miqyosda yangi elektron to‘lov tizimlari shakllandi. Texnologik taraqqiyot moliyaviy sektorda kapital aylanishining intensivligini oshirib, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratdi.

Moliyaviy globallashuv jarayoni xalqaro valyuta munosabatlari ishtirokchilariga zamonaviy to‘lov tizimlaridan keng foydalanish imkonini berdi. Shu bilan birga, milliy moliyaviy standartlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro

moliyaviy hamkorlikni chuqurlashtirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar jadallashdi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining erkinlashuvi jahon moliya bozorida yangi turdagi moliyaviy instrumentlarning shakllanishiga hamda tizimdagi tuzilmaviy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga turtki berdi. Murakkab moliyaviy vositalarning yaratilishi va ularning xalqaro savdo ob’yektiga aylanishi valyuta operatsiyalarining bank, kredit, fond, sug‘urta, tovar va ipoteka bozorlari bilan o‘zaro bog‘liqligini yanada kuchaytirdi.

Bundan tashqari, global valyuta oqimlari tobora mustaqil tus ola boshladi va ularning katta qismi real iqtisodiyotdan tashqarida harakatlana boshladi. Valyuta oqimlarining spekulyativ operatsiyalarda faol ishtiroki hamda risklarni xedjirlashga yo‘naltirilgan moliyaviy vositalarning kengayishi natijasida nomoliyaviy sektor korxonalarining samaradorligini oshirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va uzoq muddatli strategik rejalashtirishga bo‘lgan ehtiyoji pasaydi. Buning sababi shundaki, spekulyativ bitimlar ishlab chiqarish faoliyatini yuritmasdan ham qisqa muddatda daromad olish imkonini yaratgan edi.

2.3. Valyuta tizimining tushunchasi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va asosiy turlari

Valyuta tizimi — bu “...xalqaro yoki milliy miqyosda pul-moliya munosabatlarini tashkil etuvchi va tartibga soluvchi iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar yig‘indisidir”[10]. U valyuta ayirboshlash, to‘lov-hisob-kitoblar, valyuta kursini belgilash, konvertatsiya, valuta cheklovlari va valuta nazorati kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi.

Valyuta tizimi iqtisodiyotda valyuta bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. U davlatlar o‘rtasidagi valyuta aloqalarini, kapital oqimini, shuningdek, eksport-import operatsiyalarida yuzaga keladigan moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Valyuta tizimi quyidagi **asosiy turlarga** bo‘linadi:

[10] Кучеров И.И. Валютно-правовое регулирование: эволюция и современное состояние: монография. - "Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ: ИНФРА-М", 2018 г.

1. **Milliy valyuta tizimi** — *bu "...har bir davlatning o'z hududida amal qiluvchi pul-kredit siyosati va valyuta qonunchiligi asosida shakllanadigan tizimdir. U milliy valyutaning muomaladagi holati, konvertatsiya darajasi, valyuta kursining shakllanishi, valuta operatsiyalariga nisbatan cheklovlar, valuta zaxiralari bilan bog'liq siyosatni o'z ichiga oladi"*[11].

2. **Hududiy (mintaqaviy) valyuta tizimi** — *bu ...turdagi tizim ayrim davlatlar guruhining iqtisodiy va moliyaviy integratsiyasi asosida shakllanadi. Masalan, Yevro hududi bunga yaqqol misoldir. Ushbu tizimda umumiy valyutadan (masalan, yevro) foydalanish, yagona valyuta siyosatini yuritish va mintaqaviy moliyaviy institutlar orqali nazorat qilish mexanizmlari joriy etiladi"* [12].

3. ***Xalqaro valyuta tizimi*** — bu xalqaro valyuta tizimi butun dunyo miqyosida valyuta munosabatlarini tartibga soladi. Uning asosiy maqsadi — davlatlar o'rtasida to'lovlar muvozanatini ta'minlash, valyuta kurslarini barqarorlashtirish va moliyaviy inqirozlarning oldini olishdir. Bu tizim xalqaro moliya institutlari (Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki va boshqalar) orqali amalga oshiriladi.

Qo 'yida valyuta tizimining asosiy elementlarini ko 'rib chiqamiz. 2.3.rasm

Valyuta tizimi taraqqiyotida quyidagi tarixiy bosqichlar alohida ajralib turadi:


1. **Oltin standarti tizimi** (XIX asr – 1914 yilgacha): Barcha valyutalar oltinga bog'langan, ularning kursi oltin miqdori bilan belgilanardi. Bu tizim valyuta barqarorligini ta'minlasa-da, iqtisodiy erkinlikni cheklardi.

2. **Bretton-Vuds tizimi** (1944–1971): AQSh dollari markaziy valyuta sifatida belgilandi, u oltinga tenglashtirildi (1 untsiya = 35 dollar). Boshqa valyutalar dollarga bog'landi. Bu tizim Ikkinchi Jahon urushidan keyin global iqtisodiyotni tiklashda muhim rol o'ynadi.

---

[11] Н. А. Бабурина ; Российская Федерация, Министерство образования и науки, ФГБОУ ВПО Тюменский государственный университет, Институт дистанционного образования Финансово-экономичес кий институт Международные валютно-кредитные и финансовые отношения учебное пособие 2021 год……

[12] Usha manba



2.3.rasm. Valyuta tizimining asosiy elementlari[13]

3. **Jamao valyuta kurslari tizimi** (1971 yildan hozirgacha): Valyuta kurslari bozor tamoyillariga asoslanadi, ya’ni talab va taklif asosida belgilanadi. Markaziy banklar kurslarni faqat muayyan holatlarda tartibga soladi.

Valyuta tizimining asosiy turlari

1. **Milliy valyuta tizimi** – bu “...har bir davlat hududida amal qiluvchi valyuta siyosati va qonunlar asosida shakllangan tizimdir. U davlatning ichki iqtisodiy holati, moliyaviy siyosati, inflyatsiya darajasi va markaziy bank faoliyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Milliy tizim quyidagi vazifalarni bajaradi:

- valyuta kursini nazorat qilish;
- milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash;
- tashqi savdo balansiga ta’sir ko‘rsatish;
- valyuta bozorida spekulyativ harakatlarning oldini olish” [14].

1. **Mintaqaviy (hududiy) valyuta tizimi** — bu “...bir nechta davlatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida

[13] Н. А. Бабурина ; Российская Федерация, Министерство образования и науки, ФГБОУ ВПО Тюменский государственный университет, Институт дистанционного образования Финансово-экономичес кий институт Международные валютно-кредитные и финансовые отношения учебное пособие 2021 год……

[14] ПРАВОВЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО КРЕДИТОВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. http://elibrary.ru/item.asp?id=9447047

yaratiladigan tizimdir"[15]. Eng mashhur misol — Yevropa Ittifoqining yagona valyutasi – **yevro**dir. Ushbu tizim quyidagi afzalliklarga ega:

- savdoda valyuta risklari kamayadi;
- narxlar barqarorlashadi;
- kredit-moliya siyosati uyg‘unlashadi;
- mintaqaviy iqtisodiy o‘sishga turtki beradi.

2. Xalqaro valyuta tizimi butun jahon miqyosidagi davlatlararo valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi mexanizm bo‘lib, uning faoliyati Xalqaro Valyuta Fondi (IMF), Jahon banki va boshqa institutlar tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bu tizimning asosiy vazifalari:

- jahon valyuta bozorida barqarorlikni ta’minlash;
- valyuta krizislarining oldini olish;
- to‘lov balansidagi muvozanatni tiklash;
- xalqaro to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish.

Bugungi kunda valyuta tizimining rivojlanishida quyidagi yo‘nalishlar kuzatilmoqda:

- kriptovalyutalarning paydo bo‘lishi va ularning ayrim mamlakatlar iqtisodiyotidagi roli ortib borishi;
- valyuta integratsiyasi kengayishi — Yevrozonaga yangi a’zo davlatlarning qo‘shilishi;
- xalqaro rezerv valyutalar tarkibidagi o‘zgarishlar (AQSh dollari, Yevro, Yuan, Shveytsariya franki).
- elektron to‘lov tizimlari (SWIFT, PayPal, Ripple, Apple Pay, va boshqalar) valyuta harakatini tezlashtirmoqda;
- spekulyativ kapital oqimlari qisqa muddatli foydani ko‘zlab, real iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Valyuta tizimining har bir turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi global moliya tizimining barqaror ishlashini ta’minlaydi.

[15] ПРАВОВЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО КРЕДИТОВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. http://elibrary.ru/item.asp?id=9447047

Asosiy tushunchalar va iboralar

valyuta tizimi, milliy valyuta tizimi, xalqaro valyuta tizimi, mintaqaviy valyuta tizimi, valyuta kursi, konvertatsiya, valyuta bozorlari, to‘lov balansi, valyuta nazorati, valyuta siyosati, spekulyativ kapital, elektron to‘lov tizimlari, kriptovalyuta, xalqaro valyuta fondi (IMF), yevro hududi (EuroZone), oltin standarti, bretton-vuds tizimi, suzuvchi kurs rejimi, valyuta inqirozi, global valyuta oqimlari

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Valyuta tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy va xalqaro valyuta tizimi o‘rtasidagi farq nimada?
3. Valyuta tizimining asosiy tarkibiy qismlarini sanab bering.
4. Bretton-Vuds tizimining mohiyati nimalardan iborat edi?
5. Suzuvchi valyuta kursi qanday ishlaydi?
6. Valyuta konvertatsiyasi nima va uning turlari qanday?
7. Mintaqaviy valyuta tizimlariga misollar keltiring.
8. Bugungi kunda kriptovalyutalar valyuta tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?
9. Xalqaro valyuta munosabatlari qanday tashkil etiladi va ularning barqarorligi nimaga bog‘liq?
10. Spekulyativ kapital oqimlari real iqtisodiyotga qanday xavf tug‘diradi?
11. Nima uchun valyuta tizimining barqarorligi milliy iqtisodiyot uchun muhim hisoblanadi?
12. O‘zbekiston milliy valyuta tizimining asosiy xususiyatlarini izohlang.
13. Valyuta nazorati va valyuta cheklovlari nima uchun joriy etiladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Xalqaro valyuta munosabatlari deganda nimani tushunamiz?

A) Turli mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash jarayoni
B) Mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar tizimi
C) Ichki bozorda milliy valyutaning muomalasi
D) Mamlakatning ichki pul siyosati

2. Xalqaro valyuta tizimining asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Soliq siyosatini belgilash
B) Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil etish va valyuta kurslarini muvofiqlashtirish
C) Ichki byudjet daromadlarini oshirish
D) Mahalliy banklar faoliyatini nazorat qilish

3. Xalqaro valyuta tizimining eng muhim elementi qaysi?

A) Valyuta kursi
B) Davlat byudjeti
C) Savdo balansi
D) Markaziy bank zahiralari

4. Bretton-Vuds tizimi qachon joriy etilgan?

A) 1914-yil
B) 1944-yil
C) 1971-yil
D) 1980-yil

5. Bretton-Vuds tizimining asosiy xususiyati nimada edi?

A) Valyutalar oltin bilan bevosita ta’minlanmagan
B) AQSh dollari oltin bilan ta’minlangan asosiy rezerv valyuta bo‘lgan
C) Evro asosiy hisob birligi bo‘lgan
D) Suvuvchi valyuta kursi amal qilgan

6. Xalqaro hisob-kitoblar qanday shaklda amalga oshiriladi?

A) Faqat naqd pul orqali
B) Asosan bank o‘tkazmalari va akkreditivlar orqali

C) Faqat tovar ayirboshlash asosida
D) Naqd pul va barter asosida

7. Xalqaro valyuta fondi (XVF) qachon tashkil etilgan?

A) 1944-yilda
B) 1948-yilda
C) 1956-yilda
D) 1965-yilda

8. XVFning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Jahon savdosini soliqqa tortish
B) A'zolarining to'lov balansidagi muammolarni hal etish uchun yordam berish
C) Eksportni nazorat qilish
D) Oltin zaxiralarini taqsimlash

9. Suvuvchi valyuta kursi deganda nimani tushunamiz?

A) Valyuta kursi hukumat tomonidan qat'iy belgilanadi
B) Kurs talab va taklifga ko'ra erkin o'zgaradi
C) Kurs faqat oltin bilan belgilanadi
D) Kurs qat'iy muddatda o'zgartirilmaydi

10. Qaysi valyuta hozirda jahonning asosiy rezerv valyutasi hisoblanadi?

A) Yevro
B) AQSh dollari
C) Funt sterling
D) Yaponiya iyenasi

11. "Valyuta pariteti" nima?

A) Mamlakatning tovar narxlari indeksi
B) Ikki valyutaning nisbiy qiymatini oltin asosida belgilash
C) Valyuta kursining o'zgarish sur'ati
D) Savdo balansining tenglashuvi

12. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari nechta?

A) Uchta
B) To'rtta
C) Besh
D) Ikkita

13. Yevro valyutasi amaliy muomalaga qachon kiritilgan?

A) 1995-yil
B) 1999-yil
C) 2001-yil
D) 2002-yil

14. Xalqaro valyuta tizimi barqarorligi nimaga bog‘liq?

A) Savdo siyosati va iqtisodiy muvozanatga
B) Faqat oltin zaxiralariga
C) Faol tashqi siyosatga
D) Ichki iste’mol darajasiga

15. Valyuta birjasida tijorat banki qanday rol o‘ynaydi?

A) Faqat kuzatuvchi sifatida qatnashadi
B) Valyuta oldi-sotdisi bo‘yicha ishtirokchi sifatida faol qatnashadi
C) Birja faoliyatini boshqaradi
D) Faqat vositachi sifatida ishlaydi

III BOB. VALYUTA, BIRJA VA BIRJADAN TASHQARI VALYUTA BOZORLARI VA ULARNING TUZILISHI

3.1. Valyuta bozori va uning turlari

Valyuta bozori – bu "...turli mamlakatlarning valyutalarini xarid qilish va sotish maqsadida faoliyat yuritadigan maxsus tashkil etilgan markazlardir"[16].

Valyuta bozori o‘z mohiyatiga ko‘ra uchta asosiy shaklga ega bo‘lib, ular **milliy valyuta bozori**, **mintaqaviy valyuta bozori** hamda **jahon valyuta bozori**dan iboratdir.

Milliy valyuta bozori esa o‘z navbatida ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi:

- **valyuta birjasi**, ya’ni rasmiy birja savdolari o‘tkaziladigan maydon;
- **birjadan tashqari valyuta bozori**, ya’ni banklar va boshqa moliyaviy institutlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdolar sohasi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan **Valyuta birjasi** mamlakatda rasmiy valyuta bozori sifatida muhim o‘rin tutadi. Aynan shu maydonda milliy pul birligi – **so‘mning AQSh dollariga nisbatan rasmiy kursi** shakllanadi.

Yurtimizda so‘mning rasmiy birja kursi **maxsus buyurtmalar tizimi** orqali belgilanadi. Ushbu mexanizm quyidagicha ishlaydi: Valyuta birjasiga a’zo tijorat banklari ikki turdagi buyurtmalarni taqdim etadilar:

a) so‘mda ifodalangan – AQSh dollarini sotib olish bo‘yicha buyurtmalar;

b) dollarda ifodalangan – AQSh dollarini sotish bo‘yicha buyurtmalar.

Markaziy bankning bosh dileri buyurtmalarni qabul qilish jarayonini yakunlagach, har ikkala turdagi buyurtmalarning umumiy hajmi hisoblanadi. So‘ng, so‘mda berilgan buyurtmalar summasi dollarda berilgan buyurtmalar miqdoriga bo‘linadi va shu asosda **1**

[16] https://namdu.uz/books/

AQSh dollarining nominal kursi aniqlanadi. Mazkur usul **so‘m uchun to‘g‘ri kotirovka tizimi** qo‘llanilayotganini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan aniqlangan bu nominal kurs quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

- tijorat banklarining xorijiy valyutadagi aktiv va passivlarini qayta baholashda;
- bojxona to‘lovlarini hisoblashda;
- moliya hamda statistika hisobotlarini yuritishda;
- valyuta tushumlarining majburiy sotilishi zarur bo‘lgan qismini aniqlashda.

Rivojlangan davlatlarda, xususan AQSh, Yaponiya va Kanada kabi mamlakatlarda, **milliy valyuta kursi bozor mexanizmlari asosida**, **fiksing** deb ataluvchi maxsus tartib orqali belgilanadi. Fiksingning mohiyati shundan iboratki, kun davomida amalga oshiriladigan valyuta savdolari jarayonida maklerlar va tijorat banklari dilerlari tomonidan shakllanadigan **talab va taklif nisbatlari** asosida, kunning muayyan vaqtida milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursi belgilanadi. Shu tariqa, valyuta kursining aniq vaqt oralig‘ida aniqlanishi jarayoni **fiksing** deb yuritiladi.

Birjadan tashqari valyuta bozori asosan banklararo savdo maydoni sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu bozor orqali amalga oshiriladigan valyuta bitimlari tijorat banklari dilerlari o‘rtasida, odatda telefon aloqasi yoki internet tarmog‘i orqali bajariladi. Tijorat banklarining asosiy daromad manbai — bu **valyuta sotib olish va sotish kurslari o‘rtasidagi farq**, ya’ni *spred* hisoblanadi. Shu bilan birga, banklar xorijiy valyutadagi aktivlarni qayta baholash yoki avval tuzilgan bitimlarga qarshi operatsiyalarni amalga oshirish orqali ham qo‘shimcha foyda olish imkoniga egadirlar.

“…2002-yil 1-yanvardan boshlab **naqd yevroning muomalaga kiritilishi** natijasida Germaniya markasi, Fransiya franki, Italiya lirasi, Belgiya franki, Avstriya shillingi va Ispaniya pesetasi kabi bir qator milliy valyutalar pul aylanishidan chiqarildi. Bu jarayon oqibatida Yevropa banklari qariyb **5 milliard AQSh dollari miqdoridagi spred shaklidagi daromaddan** mahrum bo‘ldilar.

2003-yil 8-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi hukumati **Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)** Nizomining **VIII-moddasi 2-a bandi hamda 3- va 4-bo‘limlari** bo‘yicha o‘z zimmasiga rasmiy majburiyatlar oldi. Ushbu qaror 2003-yil 15-oktabrdan kuchga kirib, mamlakatda **konversion operatsiyalarni rivojlantirish** jarayoniga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mazkur majburiyatlarga ko‘ra, **so‘m joriy hisob-kitob operatsiyalari doirasida xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilinishi kafolatlanadi.** VIII-moddasining 2-a bandida belgilanishicha, O‘zbekiston hukumati joriy operatsiyalar bo‘yicha hech qanday valyutaviy cheklovlarni joriy etishga haqli emas.

Shuningdek, 3-bo‘limga binoan mamlakat **differensial yoki diskriminatsion valyuta siyosatini yuritish** huquqiga ega emas. 4-bo‘lim esa boshqa davlatlar tomonidan taqdim etilgan so‘mlarni ularning milliy valyutasiga yoki **Xalqaro Valyuta Fondining maxsus huquqlari (SDR)** ga almashtirish tartibini belgilaydi.”[17]

Biroq, “…2003-yil 15-oktabrgacha chet eldan keltirilgan yoki xorijdan olingan so‘mlar bo‘yicha O‘zbekiston hukumati ushbu majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmaydi. Shu bilan birga, **chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar** tomonidan olingan so‘mlar faqat **joriy operatsiyalar** doirasida olinishi mumkinligi qat’iy belgilangan.”[18]

Xorijiy valyutadagi bitimlar dunyoning ko‘plab banklarida ertalab soat 9:00 da boshlanadi, biroq dealerlarning ish jarayoni ushbu bitimlarni amalga oshirishdan kamida bir soat oldin boshlanadi. Har kuni ertalab, xorijiy valyuta bo‘yicha mas’ul xodim (bo‘lim boshlig‘i) o‘z jamoasini bitimlar tuzish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar, zarur ma’lumotlar va so‘nggi yangiliklar bilan ta’minlaydi. U o‘z yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqadi (bozorni bir necha oy oldindan tahlil qiladi) va quyidagi asosiy omillarga tayangan holda taktikasini belgilaydi:

---

[17] https://e-library.na mdu.uz/65%20%D0%98%D 0%BA%D1%82%D0%B8%D1% 81%D0%BE%D0%B4/Iqtis odiyot%20-%20UMKlar/ Makroiqtisodiyot/Mak roiqtisodiy_siyosat_ Asqarova_2021_@iqtis odchi_kutubxonasi.pdf

[18] https://e-library.na mdu.uz/65%20%D0%98%D 0%BA%D1%82%D0%B8%D1% 81%D0%BE%D0%B4/Iqtis odiyot%20-%20UMKlar/ Makroiqtisodiyot/Mak roiqtisodiy_siyosat_ Asqarova_2021_@iqtis odchi_kutubxonasi.pdf

a) Floating tizimida almashuv kurslarini belgilovchi valyuta va foiz stavkalaridagi iqtisodiy o‘zgarishlar asosiy rol o‘ynaydi. Bu holda, ular bitim muddatini kurs pasayishi va oshishini hisobga olgan holda rejalashtiradilar.

b) Siyosiy omillar. Bu omillarga ijtimoiy vaziyat, hukumat almashinuvi va boshqa valyuta bozoriga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlar kiradi. Ko‘pincha, bunday omillar bozordagi vaziyatni aniqlovchi eng muhim faktor sifatida qaraladi.

v) Bankning xorijiy valyutadagi pozitsiyasi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda kurs asosan yirik banklar hamda yirik milliy va transmilliy kompaniya va korporatsiyalarning marketmeykerlari tomonidan, kutilayotgan talab va taklif o‘rtasidagi farqga qarab belgilanadi.

Market-meykerlar — bu “…turli valyutalarni sotib olish va sotish kurslarini doimiy ravishda taqdim etadigan moliyaviy tashkilotlardir.”[19] Bozorning passiv ishtirokchilari sezilarli miqdorda kapitalga ega bo‘lsa-da, ular bozorda kuchsiz ta’sir ko‘rsatadi va ularning faoliyati ochiq bozordagi kurslarni professional tarzda tartibga solishni talab qilishi mumkin.

Market-meykerlar faqat xorijiy valyutalarni milliy valyuta bilan solishtirmasdan, milliy valyutaga tegmagan holatda ham o‘zlarining xorijiy valyuta kotirovkalarini amalga oshiradilar. Umuman olganda, ma’lum bir valyutaning emittenti bo‘lgan mamlakatlarda shu valuta bo‘yicha market-meykerlar aynan shu mamlakatda joylashadi.

Masalan, evro bo‘yicha yetakchi market-meykerlar Germaniyada, Shveysariya franki bo‘yicha esa Shveysariyada faoliyat yuritadi. Market-meykerlar o‘z mutaxassisligi asosida valuta sotib olish va sotish kurslarini taklif qiladilar. Nisbatan kam banklar esa butun dunyo bo‘yicha valyuta kotirovkasini taqdim etadi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyaning keng tarmoqli clearing banklari mijozlarga keng ko‘lamli kotirovkalarni taklif qiladi.

---

[19] https://e-library.na mdu.uz/65%20%D0%98%D 0%BA%D1%82%D0%B8%D1% 81%D0%BE%D0%B4/Iqtis odiyot%20-%20UMKlar/ Makroiqtisodiyot/Mak roiqtisodiy_siyosat_ Asqarova_2021_@iqtis odchi_kutubxonasi.pdf

Valyuta bozorida kamdan-kam uchraydigan valyutalar bilan bog‘liq bitimlarni odatda Markaziy bankning diling bo‘limi emas, balki maxsus qo‘shimcha bo‘limlar amalga oshiradi. Bunday valyutalar, odatda, valyuta bozori to‘liq rivojlanmagan yoki xorijiy valyuta bilan operatsiyalarni amalga oshirishga cheklovlar joriy etilgan mamlakatlarda uchraydi. Bu kabi cheklovlar, ko‘pincha, xorijiy valyutaning mamlakat hududidan chiqib ketishiga taqiq qo‘yilishini anglatadi, ammo uning kirib kelishiga nisbatan bunday cheklovlar odatda mavjud bo‘lmaydi.

Agar tijorat banklari kam ishlatiladigan valyutalar bo‘yicha mijozlar talabini mustaqil ravishda qondira olmasa, ular o‘z filiallari yoki vakolatli banklar orqali, boshqa valyutalarda to‘lov va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida xorijiy valyutadagi bitimlarning amalga oshirilishi **1998-yil 28-martda tasdiqlangan “Xorijiy valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun Markaziy bankka litsenziya berish tartibi” (31-sonli qaror)** bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatga muvofiq, uch turdagi litsenziyalar berilishi belgilangan:

1. **Bosh litsenziya** – ushbu hujjatga ega bo‘lgan vakolatli banklar O‘zbekiston hududida ham, xorijda ham barcha turdagi valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladilar.
2. **Ichki litsenziya** – bu turdagi litsenziyaga ega banklar faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘liq yoki qisman cheklangan ko‘rinishdagi valyuta operatsiyalarini bajarish huquqiga ega bo‘ladi.
3. **Bir martalik litsenziya** – mazkur litsenziya egalari aniq belgilangan xorijiy valyutada faqat bitta yoki bir nechta maxsus operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

So‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining liberallashuvi hamda xalqaro valyuta bozorlari bilan integratsiya jarayonining kuchayishi natijasida valyuta operatsiyalari **Markaziy bank uchun yangi, muhim daromad manbai** sifatida shakllanmoqda.

“...2020–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida (O‘zRVB) amalga oshirilgan konversiyon operatsiyalar hajmi haqida

aniq statistik ma’lumotlar mavjud emas. Biroq, umumiy savdo hajmi va bozorning o‘sish dinamikasi haqida ma’lumotlar mavjud.
2024 yilda O‘zRVBda umumiy savdo hajmi 1,198 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2023 yilga nisbatan 19,84%ga ko‘p. Bu ko‘rsatkich birja uchun rekord darajada bo‘lib, savdoning asosiy qismi pul bozoriga to‘g‘ri keldi (55,85%), valyuta bozori 38,96% va qimmatli qog‘ozlar bozori 5,19%ni tashkil etdi.” [20]

O‘zRVBning rasmiy veb-saytida “...2020–2023 yillar uchun konversiyon operatsiyalar hajmi bo‘yicha aniq statistik ma’lumotlar mavjud emas. Biroq, 2021 yilda ichki valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslar bilan amalga oshirilgan valyuta operatsiyalari hajmi 20,3 milliard AQSh dollarini tashkil etgani ma’lum.”[21]

O‘zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida 2020–2024 yillarda konversiyon operatsiyalar hajmi bo‘yicha aniq statistik ma’lumotlar mavjud emas. Biroq, umumiy savdo hajmi va bozorning o‘sish dinamikasi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, bu O‘zbekistonning valyuta bozoridagi faollikning oshganini ko‘rsatadi.

3.2. Birja va birjadan tashqari valyuta bozori

Valyuta bozori xalqaro va milliy miqyosda turli shakllarda faoliyat yuritadi. Ushbu bozorlar ichida ikki asosiy segment ajralib turadi: birja valyuta bozori va birjadan tashqari valyuta bozori.

Birja valyuta bozori — bu “...rasmiy va tartibga solingan joyda, ya’ni valyuta birjalarida faoliyat yuritadigan bozor. Bu yerda savdo qat’iy qoidalarga amal qilgan holda, belgilangan vaqtlarda amalga oshiriladi.” Milliy valyuta kursi ham asosan birjada aniqlanadi. Birja bozori savdo ishtirokchilari orasida oshkoralikni ta’minlaydi, shuningdek, kurslarni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu bozorda banklar, moliyaviy institutlar, kompaniyalar va boshqa investorlar qatnashadi.

---

[20] https://e-library.na mdu.uz/65%20%D0%98%D 0%BA%D1%82%D0%B8%D1% 81%D0%BE%D0%B4/Iqtis odiyot%20-%20UMKlar/ Makroiqtisodiyot/Mak roiqtisodiy_siyosat_ Asqarova_2021_@iqtis dchi_kutubxonasi.pdf

[21] O‘zRVBning rasmiy veb-sayti ma’lumotlari

Birjadan tashqari valyuta bozori esa "...tartibga solinmagan, yoki kamroq tartibga solingan bozor bo'lib, unda valyuta savdosi banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar o'rtasida amalga oshiriladi. Bu bozor ko'proq telefon, elektron platformalar yoki boshqa kommunikatsiya vositalari orqali ishlaydi. Birjadan tashqari bozor yuqori likvidlikka ega va unga kirish imkoniyati kengroq. Bu yerda savdo hajmi katta bo'lishi sababli, kurslar tez o'zgarishi mumkin".

Birja va birjadan tashqari bozorlardagi narxlar o'rtasida farqlar bo'lishi mumkin, chunki ularning ishlash mexanizmlari va qatnashchilari farq qiladi. Birjadan tashqari bozor ko'proq korxona va banklar o'rtasidagi katta hajmdagi valyuta almashinuvi uchun xizmat qiladi.

Natijada, milliy va xalqaro valyuta kurslarini belgilashda ham birja, ham birjadan tashqari valyuta bozorlari o'z o'rniga ega. Har ikki bozor o'ziga xos xususiyatlari bilan iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi va global moliyaviy tizimning samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Valyuta birjalari va ularning faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

Valyuta birjasi — bu valyutalar savdosi amalga oshiriladigan maxsus tashkilot yoki bozor maydoni bo'lib, unda milliy va xorijiy valyutalar sotib olinadi va sotiladi. Valyuta birjasi xalqaro va milliy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi, chunki u erda milliy valyutaning almashuv kursi shakllanadi.

Valyuta birjalarining asosiy xususiyatlari:

1. **Rasmiylik va tartibga solish.** Valyuta birjalari davlat yoki maxsus moliyaviy organlar tomonidan tartibga solinadi. Ularning faoliyati qonun va qoidalarga muvofiq olib boriladi, bu esa savdoning oshkoraligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

2. **Savdo mexanizmi.** Birjada valyuta savdosi odatda elektron platformalar yoki an'anaviy yo'llar bilan amalga oshiriladi. Bu yerda narxlar talab va taklifga ko'ra shakllanadi. Savdo jarayoni qat'iy vaqtlarda o'tadi va qatnashuvchilar o'zaro shaffof hamda adolatli sharoitlarda bitimlar tuzadilar.

3. **Likvidlik va kurs aniqligi.** Birja bozori yuqori likvidlikka ega bo‘lib, unda katta hajmdagi valyuta almashinuvi sodir bo‘ladi. Natijada, valyuta kurslari aniq va o‘z vaqtida aniqlanadi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

4. **Ishtirokchilar.** Valyuta birjasida banklar, moliyaviy institutlar, kompaniyalar va individual investorlar faol ishtirok etadi. Ularning har biri bozorda o‘z manfaatlariga muvofiq savdo olib boradi.

5. **Kurslarning shaffofligi.** Birjada narxlar va kurslar oshkor qilinadi, bu esa ishtirokchilarga bozor holati haqida aniq ma’lumot beradi va manipulyatsiya imkoniyatlarini kamaytiradi.

6. **Monitoring va nazorat.** Birjalarda moliyaviy organlar faoliyatni doimiy nazorat qiladi, bu esa noqonuniy faoliyatlarning oldini oladi va bozor ishonchliligini saqlaydi.

Valyuta birjalarining faoliyati milliy iqtisodiyotning barqarorligi va xalqaro moliya tizimidagi o‘zaro bog‘liqlik uchun juda muhimdir. Ular orqali milliy valyutalar global bozorlarda o‘z bahosini topadi va iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshirilishiga ko‘maklashadi.

3.3. Valyuta pozitsiyasi va uning turlari

Valyuta pozitsiyasi — bu tijorat banki yoki moliyaviy tashkilotning ma’lum bir vaqt ichida ushlab turgan valyutalar miqdori bo‘lib, uning hajmi va tuzilishi tashkilotning valyutaga bo‘lgan umumiy talab va taklifini hamda moliyaviy holatini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, valyuta pozitsiyasi — “...bu bank yoki kompaniyaning chet el valyutasidagi aktivlari va passivlari orasidagi farqdir.” [22]

Valyuta pozitsiyasini samarali boshqarish muhimdir, chunki bu bankning valyuta risklarini nazorat qilish va valyuta kursining o‘zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida chet el valyutasidagi operatsiyalar ichki valyuta bozorida faqatgina valyuta operatsiyalarini amalga oshirish barcha tijorat banklar orqali amalga oshiriladi.

---

[22] https://e-library.na mdu.uz/65%20%D0%98%D 0%BA%D1%82%D0%B8%D1% 81%D0%BE%D0%B4/Iqtis odiyot%20-%20UMKlar/ Makroiqtisodiyot/Mak roiqtisodiy_siyosat_ Asqarova_2021_@iqtis odchi_kutubxonasi.pdf

Valyutali banklar xorijiy valyutani xarid qilish va sotish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan “...Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish tartibi” [23]ga muvofiq, ochiq valyuta pozitsiyasi uchun quyidagi cheklovlar belgilangan:

- Har bir operatsion kun yakunlanganda, har bir valyuta bo‘yicha ochiq pozitsiyaning limiti bankning regulyativ kapitalining 5 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak;
- Bankning umumiy ochiq valyuta pozitsiyasi esa operatsion kun yakunida regulyativ kapitalning 20 foizidan oshmasligi shart.

So‘mdagi ochiq valyuta pozitsiyasida, asosan, uzoq valyuta pozitsiyasi saqlanadi. Bank xorijiy valyutani sotish yoki sotib olishda faqat ochiq pozitsiyadangina foydalanib qolmaydi. Kun davomida banklar o‘zlarining umumiy valyuta pozitsiyasini “Nostro” hisobvarag‘i orqali boshqaradilar. Bu pozitsiyalar to‘lov amalga oshiriladigan sanagacha belgilanadi. Agar to‘lovlar va tushumlar bir vaqtda amalga oshsa yoki hisoblar orasida pullarni o‘tkazishda xatolik yuz bersa, bank kun mobaynida maxsus ochiq hisob bo‘yicha qayta tekshiruv o‘tkazadi.

Banklar xorijiy valyutani sotish va xarid qilish jarayonida belgilangan valyuta pozitsiyasi limitlariga amal qilishlari shart. Valyuta operatsiyalari bajarilayotgan vaqtda bank o‘z valyuta aktivlari va majburiyatlarining bir qismini sarflaydi. Bu esa, xorijiy valyutalarga bo‘lgan talab va majburiyatlar nisbatini o‘zgartiradi. Bankning xorijiy valyutalar bilan bog‘liq talab va majburiyatlari orasidagi ushbu nisbat **valyutaviy holat** deb ataladi. Bu holat esa ochiq yoki yopiq ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Istalgan bir xorijiy valyuta bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasi deganda, bankning aynan shu valyutada bo‘lgan aktivlari miqdorining uning majburiyatlaridan ortiq bo‘lgan qismi tushuniladi. Bunday holat “uzun valyuta pozitsiyasi” deb ataladi. Bank xorijiy valyutani xarid qilgan paytda, u shu valyuta bo‘yicha talabga ega bo‘lgan holatga keladi, chunki valyutani sotgan tomon uni yetkazib berish majburiyatini olgan bo‘ladi.

---

[23] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qarori, 07.05.2021 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3301

Aksincha, agar ma'lum bir valyuta bo'yicha bank majburiyatlari uning aktivlaridan ko'p bo'lsa, ya'ni valyutani sotish hajmi uni xarid qilishdan yuqori bo'lsa, bu holat "qisqa valyuta pozitsiyasi"ni yuzaga keltiradi. Valyuta sotilganida, bankda uni xaridor tomoniga yetkazib berish majburiyati hosil bo'ladi va shu sababli pozitsiya qisqa hisoblanadi.

Agar valyuta bo'yicha talab va majburiyatlar o'zaro teng bo'lsa, u holda valyuta pozitsiyasi "yopiq" bo'ladi.

Valyuta pozitsiyasining umumiy holati (yoki miqdori) deganda barcha xorijiy valyutalar bo'yicha mavjud bo'lgan uzun va qisqa pozitsiyalar yig'indisi nazarda tutiladi.

Agar bank operatsion kun davomida amalga oshirgan valyuta operatsiyalari ochiq valyuta pozitsiyasi uchun belgilangan limitdan oshib ketsa, ya'ni bank ortiqcha miqdorda valyuta sotib olgan bo'lsa, u holda pozitsiyani muvozanatlashtirish uchun ortiqcha sotib olingan valyuta sotiladi va shu tarzda ochiq pozitsiya yopiladi.

Vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasi limiti hisobga olingan holda, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, moddiy boyliklar bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini ham amalga oshirish huquqiga ega. Shuningdek, vakolatli banklar o'z hududiy filiallari uchun ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha cheklovlarni mustaqil belgilashlari mumkin. Biroq, barcha filiallar uchun belgilangan ochiq pozitsiyalar yig'indisi bankning o'z mablag'lari umumiy hajmining 20 foizidan oshmasligi lozim.

Vakolatli banklar har oyning 3-kuniga qadar Markaziy bankka o'zlarining ochiq valyuta operatsiyalari va ularning belgilangan limitlarga rioya qilinishi haqida hisobot topshirishlari shart.

Valyuta pozitsiyasi bir nechta turlarga ajratiladi:

a) Musbat valuta pozitsiyasi (long position)

Musbat valyuta pozitsiyasi — bu bank yoki moliyaviy muassasada ma'lum bir chet el valutasida aktivlar passivlardan ko'p bo'lgan holatdir. Bunday holatda ular ma'lum miqdorda valyutani sotib olgan, ammo uni hali sotmagan yoki sotishga bo'lgan majburiyati past.

Misol uchun:

Agar bankda 1 million dollar miqdorida valyuta aktivlari bo‘lsa, lekin passivlari 700 ming dollarni tashkil etsa, bu holda bankda 300 ming dollar miqdorida musbat valyuta pozitsiyasi mavjud.

Musbat pozitsiyada bo‘lgan tashkilot valyuta kursining oshishidan foyda ko‘rishi mumkin, chunki uning qo‘lida ko‘proq valyuta mavjud va uni yuqori kursda sotish imkoniga ega.

b) Manfiy valyuta pozitsiyasi (shot position)

Manfiy valyuta pozitsiyasi — bu aktivlardan kamroq passivlarga ega bo‘lgan holatdir. Bu degani, bank yoki kompaniya kelajakda ma’lum bir valyutani sotib olish majburiyatiga ega, ammo hozirda bu valyutani yetarli miqdorda ushlab turmaydi.

Misol uchun:

Bankda 500 ming dollar aktiv mavjud, lekin 700 ming dollar passivlar bo‘lsa, u holda 200 ming dollar miqdorida manfiy valyuta pozitsiyasi bor.

Bunday pozitsiyada valyuta kursi pasaysa, bank yoki kompaniya zarar ko‘rishi mumkin, chunki ular qimmat narxda valyutani sotib olishga majbur bo‘ladi.

c) Neytral (nol) valyuta pozitsiyasi

Neytral valyuta pozitsiyasi — bu aktivlar va passivlar miqdori teng bo‘lgan holatdir. Bunday pozitsiyada tashkilot valyuta kursining o‘zgarishidan kam ta’sirlanadi.

Misol uchun:

Agar bankda 1 million dollar aktivlar va 1 million dollar passivlar bo‘lsa, u holda valyuta pozitsiyasi neytral hisoblanadi.

Bu holat valyuta kursi o‘zgarishining moliyaviy ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

3. *Valyuta pozitsiyasini boshqarishning ahamiyati*

Valyuta pozitsiyasini nazorat qilish moliyaviy muassasalar uchun juda muhimdir, chunki:

- **Risklarni kamaytiradi:** Kutilmagan valyuta kursining o‘zgarishidan kelib chiqadigan yo‘qotishlarni kamaytiradi.

- **Likvidlikni ta'minlaydi:** Har doim mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun yetarli miqdorda valyuta mavjud bo'lishini ta'minlaydi.
- **Qonunchilikka rioya qiladi:** Ko'plab mamlakatlarda banklar valyuta pozitsiyasini qonuniy cheklovlar doirasida ushlab turishlari shart.
- **Iqtisodiy barqarorlikni saqlaydi:** Bank va kompaniyalar to'g'ri valyuta pozitsiyasini boshqarish orqali mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shadi.

Valyuta pozitsiyasi moliyaviy tashkilotlar uchun o'z faoliyatini samarali olib borishda muhim ko'rsatkichdir. To'g'ri boshqarilgan valyuta pozitsiyasi moliyaviy barqarorlikni saqlash va valyuta kursining o'zgarishidan keladigan xavflarni kamaytirishda yordam beradi. Shuning uchun har bir bank va moliyaviy tashkilot o'z valyuta pozitsiyasini muntazam nazorat qilib, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

Valyuta pozitsiyasini boshqarish — bu "...bank yoki moliyaviy muassasaning chet el valyutalaridagi aktivlari va passivlari o'rtasidagi balansni nazorat qilish jarayoni hisoblanadi". Maqsad — valyuta kursining o'zgarishidan kelib chiqadigan moliyaviy risklarni kamaytirish va tashkilotning barqaror moliyaviy holatini ta'minlash.

Valyuta bozorida kurslar doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shu sababli, agar moliyaviy muassasa valyutalardagi pozitsiyasini to'g'ri boshqarmasa, kutilmagan kurs o'zgarishlari tufayli katta zarar ko'rishi mumkin. Valyuta pozitsiyasini samarali boshqarish orqali:

- Kutilmagan valyuta kursi o'zgarishlaridan himoyalanish;
- Likvidlikni saqlab qolish;
- Bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- Qonunchilik va regulyativ talablarni bajarish imkoniyati yaratiladi.

Valyuta pozitsiyasini boshqarish usullari

a) Pozitsiyalarni diversifikatsiya qilish. Valyuta portfelini turli valyutalar bo'yicha taqsimlash orqali risklarni kamaytirish mumkin.

Shu yo‘l bilan ayrim valyutalardagi kurs o‘zgarishlari boshqa valyutalardagi foydalarni qoplaydi.

b) Hedjing (sug‘urtalash) instrumentlaridan foydalanish. Banklar va korporatsiyalar valyuta kursidagi o‘zgarishlardan kelib chiqadigan xavflarni kamaytirish maqsadida fyucherslar, opsionlar hamda forward bitimlar kabi moliyaviy vositalardan foydalanadilar. Bu vositalar kelajakdagi valyuta kursini oldindan belgilashga yordam beradi.

c) Valyuta pozitsiyasini muntazam monitoring qilish. Valyuta pozitsiyasining hajmi va tuzilishini doimiy ravishda kuzatish va tahlil qilish, vaqtida chora ko‘rish uchun zarurdir. Bozor sharoitlari o‘zgarishiga mos ravishda pozitsiyani qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

d) Limitlar belgilash. Bank yoki tashkilotning valyuta pozitsiyasini boshqarishda ichki limitlar joriy qilinadi. Bu limitlar tashkilotning riskga chidamliligini belgilab beradi va ortiqcha risk olishdan saqlaydi.

Valyuta pozitsiyasini boshqarishning asosiy vazifalari

- **Riskni kamaytirish** — valyuta kursining kutilmagan o‘zgarishlaridan himoyalanish;
- **Likvidlikni ta’minlash** — mijozlarning talablariga javob berish uchun yetarli valyuta zaxirasini ushlab turish;
- **Qonunchilikka muvofiqlik** — regulyatorlar tomonidan belgilangan me’yorlarga rioya qilish;
- **Daromadlilikni oshirish** — valyuta kurslaridagi o‘zgarishlardan foyda olish imkoniyatlarini yaratish.

Valyuta pozitsiyasini boshqarish moliyaviy institutlar uchun juda muhim jarayon bo‘lib, bu orqali ular bozorning o‘zgaruvchan sharoitlarida o‘z moliyaviy barqarorliklarini saqlab qoladilar. To‘g‘ri boshqarilgan valyuta pozitsiyasi nafaqat risklarni kamaytirishga, balki foyda olish imkoniyatlarini oshirishga ham yordam beradi. Shu sababli, banklar va moliyaviy tashkilotlar valyuta pozitsiyasini doimiy ravishda nazorat qilib, zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llashi zarur.

3.4. Evrobondlar bozori va uning xususiyatlari

Evrobondlar bozori — bu "...xalqaro miqyosda yirik moliyaviy institutlar, davlatlar va korporatsiyalar tomonidan xorijiy valyutada chiqarilgan uzoq muddatli qarz qog'ozlari (obligatsiyalar) savdosi va sotib olinadigan bozor hisoblanadi."[24] Ushbu bozor global moliya tizimining muhim qismi bo'lib, u moliyaviy resurslarni xalqaro darajada samarali taqsimlash imkonini beradi.

Evrobondlar odatda yirik investorlarga — fondlar, banklar va sug'urta kompaniyalariga mo'ljallangan bo'lib, ular ko'pincha bir nechta mamlakatlarda sotuvga chiqariladi va xalqaro birjalarda savdoga tushadi.

Evrobondlar bozorining asosiy xususiyatlari

a) Xalqaro xarakter. Evrobondlar ko'pincha bir necha davlatlar valyutasida chiqariladi va turli mamlakatlarda investorlar tomonidan sotib olinadi. Bu ularni milliy obligatsiyalardan farqlaydi va butun dunyo bo'ylab pul oqimini ta'minlashga yordam beradi.

b) Valyuta tanlovi erkinligi. Evrobondlarni chiqaruvchi tashkilotlar istalgan valyutada qarz qog'ozlarini chiqarishlari mumkin — AQSh dollari, yevro, yapon iyenasi yoki boshqa xalqaro valyutalar. Bu investorlarga valyuta risklarini boshqarish imkoniyatini beradi.

c) Muddati va foiz stavkalari. Evrobondlarning muddati odatda o'rtacha va uzoq muddatli bo'ladi — 5 yildan 30 yilgacha. Foiz stavkalari esa har xil shaklda bo'lishi mumkin: doimiy (fixed), o'zgaruvchan (floating) yoki kuponsiz (zero-coupon).

d) Likvidlik. Evrobondlar bozori ko'p miqdorda yirik investorlar qatnashadigan bozor bo'lgani uchun nisbatan likvid hisoblanadi. Bu esa investorlarning o'z aktivlarini tezda naqd pulga aylantirish imkonini yaratadi.

e) Keng investitsion imkoniyatlar. Evrobondlar orqali davlatlar, korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar o'zlari uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qiladilar. Bu investorlar uchun esa portfellarning diversifikatsiyasi imkoniyatini oshiradi.

---

[24] Бурлачков В.К. «Денежные механизмы глобальной и национальных экономик» МОНОГРАФИЯ (2019).

Evrobondlar bozorining afzaliklari

– **Xalqaro investitsiya imkoniyatlari** investorlar uchun turli mamlakatlar va valyutalarda chiqarilgan obligatsiyalarni o‘z portfellariga kiritish imkonini beradi.

- **Yuoqri likvidlik** — yirik va faol bozor tufayli qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish nisbatan oson.
- **Valyuta riskini kamaytirish** — investorlar valyuta tanlovini amalga oshirib, riskni diversifikatsiya qilishlari mumkin.
- **Qarzdorlar uchun pastroq xarajatlar** — xalqaro raqobat tufayli qarzdorlar ko‘pincha milliy bozorga nisbatan qulayroq shartlar oladilar.

Evrobondlar bozorining kamchiliklari xavflari

- **Valyuta kursi o‘zgarishlari** — valyutalar o‘rtasidagi kurs farqlari investorlar uchun qo‘shimcha risk bo‘lishi mumkin.
- **Kredit xavfi** — qarzdor tomonning to‘lov qobiliyatsizligi ehtimoli mavjud.
- **Bozorning global o‘zgarishlarga sezgirligi** — siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy voqealar bozor narxlariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Evrobondlar bozori xalqaro moliya tizimining muhim elementlaridan biri bo‘lib, davlatlar va korporatsiyalar uchun global moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini yaratadi. Bu bozor investorlarga keng imkoniyatlar va diversifikatsiya variantlarini taqdim etadi, ammo u bilan bog‘liq valyuta va kredit xavflari ham mavjud. Shu sababli, evrobondlar bilan ishlashda malakali tahlil va ehtiyotkorlik talab etiladi.

Asosiy tushunchalar va iboralar

valyuta pozitsiyasi, musbat pozitsiya (long position), manfiy pozitsiya (short position), neytral pozitsiya, valyuta risklari, diversifikatsiya, Hedjing (hedging), Evrobondlar bozori, xalqaro obligatsiyalar, kredit xavfi,valyuta tanlovi, bozor likvidligi, market-meykerlar, clearing banklar, litsenziya turlari (bosh, ichki, bir martalik).

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Valyuta bozori nima va uning qanday asosiy turlari mavjud?
2. Milliy valyuta bozori qanday bo‘linadi va har birining vazifasi nimadan iborat?
3. Valyuta birjasi qanday ishlaydi va uning asosiy ishtirokchilari kimlar?
4. So‘mning rasmiy kursi qanday aniqlanadi va bu jarayonda qanday buyurtmalar ishtirok etadi?
5. Fiksing nima va u qaysi mamlakatlarda qo‘llaniladi?
6. Birjadan tashqari valyuta bozori qanday ishlaydi va unda qanday vositalar qo‘llaniladi?
7. Spread nima va banklar undan qanday foyda olishadi?
8. O‘zbekistonda valyuta kursi qanday mexanizm asosida shakllanadi?
9. Markaziy bank tomonidan beriladigan valyuta litsenziyalarining turlari nimalardan iborat?
10. Xalqaro Valyuta Fondi Nizomining VIII-moddasi O‘zbekistonga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
11. Valyuta pozitsiyasining qanday turlari bor va ularning farqi nimada?
12. Valyuta pozitsiyasini boshqarishda qanday choralar ko‘riladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Valyuta bozori deganda nima tushuniladi?

A) Tovarlar oldi-sotdisi amalga oshiriladigan bozor
B) Chet el valyutalari va u bilan bog‘liq moliyaviy instrumentlar savdosi amalga oshiriladigan bozor
C) Faqat oltin savdosiga ixtisoslashgan bozor
D) Aksiyalar bozori

2. Valyuta bozorining asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Valyuta kursini aniqlash va xalqaro to‘lovlarni ta’minlash
B) Ichki tovar ishlab chiqarishni nazorat qilish
C) Soliq yig‘imlarini oshirish
D) Byudjet taqchilligini kamaytirish

3. Valyuta bozori qanday turlarga bo‘linadi?

A) Mahalliy va xalqaro bozor

B) Chakana va ulgurji bozor

C) Naqd va naqdsiz valyuta bozori

D) Yuqoridagi barchasi

4. Naqdsiz valyuta bozori deganda nima tushuniladi?

A) Faqat naqd pullar bilan savdo qilinadigan bozor

B) Banklar va yirik korxonalar o‘rtasida elektron hisob-kitoblar orqali valyuta oldi-sotdisi amalga oshiriladigan bozor

C) Bozor savdo rastalarida ishlovchi valyutafurushlar faoliyati

D) Turizm bilan bog‘liq ayirboshlash joylari

5. Valyuta kursi qanday omillar ta’sirida shakllanadi?

A) Talab va taklif, inflyatsiya, foiz stavkalari, siyosiy barqarorlik

B) Faqat markaziy bank qarorlari

C) Faqat tashqi qarz miqdori

D) Faqat eksport hajmi

6. “Spot” bozori qanday bozor turiga kiradi?

A) Bitimlar kelajakda bajariladigan bozor

B) Bitimlar ikki ish kuni ichida bajariladigan valyuta bozori

C) Omonat bozor turi

D) Kredit bozor turi

7. “Forward” bozori deganda nimani tushunamiz?

A) Chet el valyutasini zudlik bilan sotish joyi

B) Kelajakda belgilangan muddatda ma’lum kurs bo‘yicha bitim bajariladigan bozor

C) Naqd pul muomalasi amalga oshiriladigan joy

D) Kredit bitimlari bozoridir

8. Valyuta bozorining infratuzilmasiga nimalar kiradi?

A) Valyuta birjalari, banklar, brokerlik kompaniyalari, to‘lov tizimlari

B) Faqat markaziy bank

C) Faqat moliya vazirligi

D) Faqat soliq tizimi

9. “Interbank” bozori qanday faoliyatni o‘z ichiga oladi?

A) Banklar o‘rtasida chet el valyutasini oldi-sotdisi

B) Aholi o‘rtasidagi valyuta ayirboshlash

C) Naqd pul o‘tkazmalari

D) Sug‘urta xizmatlari

10. Xalqaro valyuta bozori markazlari asosan qayerlarda joylashgan?

A) London, Nyu-York, Tokio, Frankfurt, Singapur

B) Moskva, Tashkent, Dushanbe

C) Pekin, Seul, Astana

D) Parij, Madrid, Mexiko

11. Valyuta bozorining barqarorligi nimaga bog‘liq?

A) Siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka, talab-taklif muvozanatiga

B) Faqat eksport hajmiga

C) Soliq to‘lovlariga

D) Davlat byudjeti profitsitiga

12. Markaziy bank valyuta bozorida qanday rol o‘ynaydi?

A) Kursni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladi va intervensiyalar orqali barqarorlikni ta’minlaydi

B) Faqat kuzatuvchi sifatida qatnashadi

C) Faqat tijorat banklariga kredit beradi

D) Soliq to‘lovlarini yig‘adi

13. Valyuta operatsiyalaridan olingan daromad bank balansida qanday tasniflanadi?

A) Asosiy faoliyat daromadi sifatida

B) Boshqa operatsion daromad sifatida

C) Xarajat moddasida

D) Kredit yo‘qotishlari sifatida

14. Valyuta konvertatsiyasi nima?

A) Bir valyutani boshqa valyutaga almashtirish jarayoni

B) Bankdagi depozitni yechib olish

C) Kredit olish jarayoni

D) Hisob raqam ochish

15. Tijorat banklari xalqaro to‘lovlarni qanday amalga oshiradi?

A) Xalqaro banklararo tizimlar orqali (SWIFT, SEPA va h.k.)
B) Faqat naqd pul jo‘natish orqali
C) Mijozlarning tashriflari orqali
D) Faqat mahalliy pul o‘tkazmalari orqali

16. Valyuta hisob-raqami nima uchun ochiladi?

A) Valyutada pul mablag‘larini saqlash va operatsiyalarni amalga oshirish uchun
B) Faqat kredit olish uchun
C) Faqat depozit joylashtirish uchun
D) Tijorat bankining ichki ehtiyojlari uchun

17. Quyidagilardan qaysi biri valyuta operatsiyalarini tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi?

A) Markaziy bankning qonunlari va reglamentlari
B) Tijorat bankining ichki me’yorlari
C) Mijozning shaxsiy so‘rovi
D) Xususiy shartnoma

IV. BOB. VALYUTA INQIROZLARI MOHIYATI UNI YUZAGA KELISH SABABLAR, OQIBATLAR VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

4.1. Valyuta inqirozlari tushunchasi va ularning yuzaga kelish sabablari

Valyuta inqirozi — bu “...mamlakat milliy valyutasining keskin qadrsizlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy muammo bo‘lib, u odatda xalqaro bozorlarda ishonchsizlik ortishi natijasida sodir bo‘ladi. Bu holatda, valyutaga bo‘lgan talab keskin kamayadi, investorlar aktivlarini boshqa xavfsizroq valyutalarga aylantira boshlaydi, natijada almashuv kursi tezda pasayadi.” [25]

Valyuta inqirozi — bu iqtisodiy inqirozning maxsus ko‘rinishi hisoblanadi. Iqtisodiy inqiroz yoki retsessiya deganda mamlakat iqtisodiy faolligining bunday holati tushuniladi: yalpi ichki mahsulot hajmi kamida ikki chorak davomida uzluksiz kamayadi.

Valyuta inqirozlari ko‘pincha boshqa iqtisodiy muammolar, xususan, moliyaviy, fiskal yoki siyosiy inqirozlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ko‘p hollarda, bunday inqirozlar oldindan sezilmaydi va qisqa fursat ichida mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazadi.

Valyuta inqiroziga quyidagi holatlar xos: fond bozorining hajmi 20 foizdan ortiq qisqarishi, banklararo kredit bozorida foiz stavkalarining ikki baravar oshishi, shuningdek, milliy valyutaning kursi 10 foizdan yuqori pasayishi.

Valyuta inqirozi bir necha omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Quyida ushbu omillarning muhimlari keltirilgan:

1. **To‘lov balansining muvozanatsizligi.** Agar mamlakat uzoq muddat davomida importni eksportdan ko‘ra ko‘proq amalga oshirsa, valyuta zaxiralari kamayib boradi. Bu esa milliy valyutaga bo‘lgan bosimni kuchaytiradi va o‘z navbatida uning qadrsizlanishiga olib keladi.

2. **Past foiz stavkalari va investitsion ishonchsizlik.** Foiz stavkalarining past bo‘lishi xorijiy investorlarni milliy aktivlardan voz

[25] Бурлачков В.К. «Денежные механизмы глобальной и национальных экономик» МОНОГРАФИЯ (2019).

kechishga undaydi. Shu tariqa, kapital oqimi kamayadi, valyuta kursi pasayadi.

3. **Davlat qarzining ortib borishi.** Davlat ichki yoki tashqi qarzlarini nazorat qila olmasa, investorlar mamlakat to‘lovga qodirligiga shubha bilan qaray boshlaydi. Bu esa valyutaning ommaviy tarzda sotilishiga va inqirozga sabab bo‘ladi.

4. **Siyosiy barqarorlikning yo‘qligi.** Ishonchsizlik faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga emas, balki siyosiy muhitga ham bog‘liq. Saylovlar, korrupsiya, noroziliklar yoki siyosiy inqirozlar valyutaga bo‘lgan ishonchni keskin kamaytiradi.

5. **Valyuta siyosatidagi noto‘g‘ri qarorlar.** Markaziy bank tomonidan almashuv kursini majburan ushlab turish yoki zaxira mablag‘larini samarali boshqara olmaslik valyuta inqiroziga zamin yaratadi. Ayniqsa, qat’iy kurs tizimlarida (fixed exchange rate) bu xavf kuchli bo‘ladi.

6. **Spekulyativ hujumlar.** Ba’zida yirik investorlar yoki fondlar valyuta bozori ishtirokchilari orasida vahima keltirib chiqaradi. Bu holatda, bir vaqtning o‘zida katta hajmda valyuta sotilishi oqibatida valyutaning qadri keskin tushib ketadi.

Shuningdek:

- bank tizimining umumiy aktivlari ichida ishlamaydigan (yomon) aktivlarning ulushi 10 foizdan oshganda;
- bank tizimini qo‘llab-quvvatlash uchun sarflanadigan xarajatlarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan ulushi 2 foizdan yuqori bo‘lsa;
- banklar bankrotlikka uchragan yoki milliylashtirilgan bo‘lsa;
- hukumat moliyaviy bozor va institutlarni saqlab qolish uchun favqulodda chora-tadbirlarni joriy qilsa;
- bundan tashqari, iqtisodiy va moliyaviy inqirozning chuqurlashuvi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning yomonlashishi, shuningdek, ushbu jarayonlarning ichki va xalqaro maydonda davom etishi.

XX asrda yuz bergan jahon valyuta inqirozlari asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq bo‘lgan:

- yirik rivojlangan mamlakatlarning uzoq muddat davomida davlat byudjeti defitsiti va salbiy tashqi savdo balansiga ega bo‘lishi;
- davlatning tashqi qarzi hajmining yalpi ichki mahsulotga nisbatan tez sur’atda oshishi;
- noratsional pul-kredit siyosati olib borilishi va qayta moliyalash stavkalari uzoq vaqt davomida past darajada saqlanishi natijasida qarzga bog‘liq holatlarning odatga aylanishi;
- ipoteka kreditlarini berish siyosatining ortiqcha yumshatilishi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin oshishi;
- moliyaviy institutlarning majburiyatlari va ustav kapitali o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi;
- qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha reyting agentliklari tomonidan noto‘g‘ri yoki soxta baholashlar berilishi;
- moliyaviy audit va professional etikaning buzilishi, shuningdek soxta audit hisobotlarining taqdim etilishi;
- yuqori xavfli va murakkab hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning paydo bo‘lishi.

Ushbu omillar turli mamlakatlarda iqtisodiyotga har xil ta’sir ko‘rsatadi va inqirozga qarshi samarali kurashish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqishda e’tiborga olinishi lozim.

Valyuta inqirozlari – bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlik uchun ham jiddiy tahdid sanaladi. Ularning oldini olish uchun davlatlar sog‘lom fiskal va monetar siyosat yuritishi, tashqi savdoda muvozanatni saqlashi va investorlar ishonchini mustahkamlashi lozim. Aynan barqarorlik, shaffoflik va ehtiyotkorlik valyuta tizimini inqirozlardan asrashning eng asosiy yo‘lidir.

4.2. Valyuta inqirozi paytida valyuta interventsiyasining roli

Valyuta inqirozi odatda milliy valyutaning nominal kursida keskin tebranishlar yuzaga kelishiga olib keladi. Bunday holat xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ishtirokchilar uchun moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, valyuta interventsiyasi — bu

kursning o‘zgarish chegarasini kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi.

XX asrning 70-90-yillari davomida ko‘plab markaziy banklar valyuta interventsiyasini AQSH dollariga nisbatan olib borishgan. Bu vaqt mobaynida asosiy maqsad AQSH dollarining narxi keskin o‘zgarishining oldini olish yoki ushbu valyutaning Yevropa valyuta tizimidagi (EVT) valyutalar kurslariga salbiy ta’sirini kamaytirish edi.

Ammo 1992-1993-yillarda yuz bergan valyuta inqirozi vaqtida EVT a’zosi bo‘lgan ayrim mamlakatlarning, xususan, Angliya va Italiya markaziy banklari tomonidan amalga oshirilgan interventsiyalar samara bermadi. Masalan, funt sterling va Italiya lirasi kursining pasayish tendensiyasini to‘xtatishga urinishlarga qaramay, bu valyutalar kursi tushishda davom etdi va natijada ular EVT tizimidan chiqarib yuborildi.

1979-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi davlatlarida valyuta interventsiyasi tizimi tubdan o‘zgardi. Har bir milliy valyuta uchun Yevropa valyutalar birligiga (EKYu) nisbatan markaziy kurs belgilanib, faqat maxsus sharoitlarda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin edi. Har qanday ikkita valyutaning EKYu ga nisbatan markaziy kurslari o‘rtasidagi nisbat ikki tomonlama paritet deb atalardi. Ushbu paritet atrofida valyuta kursining ±4,5% gacha o‘zgarishi ruxsat etilgan edi, chunki milliy valyutalarning o‘zaro tebranish diapazoni ±2,25% darajasida belgilangan edi. Agar ikkita valyutaning kursi ushbu chegaraga yetib kelsa, markaziy banklar tomonidan majburiy valyuta interventsiyasi amalga oshirilardi, bu chora ikkala tomon tomonidan ham birgalikda qo‘llanilar edi.

Kuchli valyutaning emitenti zaif valyutani cheksiz miqdorda sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, shu bilan birga kuchli valyutani bozorga chiqarishi mumkin. Zaif valyuta emitenti esa, o‘z navbatida, kuchli valyutani o‘z milliy valutasiga cheklanmagan hajmda almashtirishi mumkin. Majburiy valyuta interventsiyasi amalga oshirilishi uchun kuchli valyuta emitenti tomonidan zaif valyuta emitentiga chegara qo‘yilmagan kredit liniyasi ochilishi shart. Bu kreditlar dastlab valyuta

interventsiyasidan keyingi 45 kun davomida amal qilardi, keyinchalik bu muddat 75 kungacha uzaytirildi.

Bunday kreditlar, zarurat tug‘ilganda, markaziy banklarning murojaati asosida 3 oygacha uzaytirilishi mumkin, ammo bu holatda kredit hajmi mamlakatning qisqa muddatli kreditlar fondidagi badalidan ikki barobar ko‘p bo‘lmasligi kerak edi.

AQSHda “Katrina” va “Rita” to‘fonlari oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek Afg‘oniston va Iroqdagi urushlar sababli davlat byudjeti xarajatlari sezilarli darajada oshdi, bu esa AQSH dollarining taklifini ko‘payishiga olib keldi. Natijada, AQSH dollarining boshqa asosiy valyutalarga nisbatan jahon valyuta bozoridagi pozitsiyasi zaiflashdi. Bu holat Federal zaxira tizimini (FZT) foiz stavkalarini sezilarli darajada oshirishga majbur qildi.

2001–2004-yillar davomida yevroning AQSh dollari hamda boshqa yetakchi jahon valyatalariga nisbatan qadri sezilarli darajada oshdi. Bunday holat esa yevrozonaga kiruvchi mamlakatlarning eksport salohiyatiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, **Yevropa Markaziy Banki (EMB)** 2004–2005-yillar mobaynida foiz stavkalarini keskin oshirish va **valyuta interventsiyalari**ni amalga oshirish choralarini ko‘rishga majbur bo‘ldi.

AQSHning katta davlat qarzi, savdo balansidagi katta defitsit va byudjet defitsiti Federal zaxira tizimining qayta moliyalash siyosatining moslashuvchanligini oshirgan bo‘lsa-da, bu omillar dollarning kursining katta diapazonda tebranishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, jahon valyuta tizimining barqarorligiga salbiy ta’sirlar yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, AQSH dollari hanuz dunyoning asosiy rezerv valyutasi maqomini saqlab qolmoqda. 2013-yil 1-yanvardagi ma’lumotlarga ko‘ra, SDR (Maxsus tortishish huquqi) valyuta savatida AQSH dollarining ulushi 41,9 foizga teng edi.[26] AQSH dollarining nominal almashuv kursidagi tebranishlarga sabab bo‘layotgan asosiy omillardan biri mamlakatning savdo balansidagi katta defitsitdir.

[26] www.imf.org.

So‘nggi yillarda AQSH va Xitoy o‘rtasidagi savdo munosabatlarida defitsit hajmining oshishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, AQSH davlat byudjeti defitsiti va tashqi qarzi xalqaro standartlarda qabul qilingan chegaralardan ancha yuqori bo‘lib, bu dollarning nominal kurs barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro me’yorlarga ko‘ra, davlat byudjetining yalpi ichki mahsulotga nisbatan defitsiti 3 foizdan oshmasligi kerak, tashqi qarz esa yalpi ichki mahsulotning 30 foizidan oshmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun esa, davlatning umumiy qarzi (ichki va tashqi qarzlarning yig‘indisi) yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60 foiz chegarasida belgilanadi.[27]

Yaponiya misolida esa, davlat va markaziy bank muammoli aktivlarni sotib olish orqali makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning yomonlashuvini biroz yumshatishga harakat qilmoqda. Ayniqsa, 2008-2010-yillarda Yaponiya Markaziy banki 55 trillion iyen miqdoridagi muammoli aktivlarni xarid qilgan, 2011-yilda esa yana 10 trillion iyenlik aktivlarni sotib olish qarori qabul qilingan. Bu chora-tadbirlar orqali hukumat va markaziy bank ko‘plab kompaniya va banklarning moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmasligini ta’minladi.

Agar ushbu muammoli aktivlar sotib olinmaganida, ularning bozor qiymatining keskin pasayishi natijasida emitentlar bozor mavqeini sezilarli darajada yo‘qotgan bo‘lar edi. Qiziqarli tomoni shundaki, 2009-yil yanvar oyida Yaponiya to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limida 172,8 milliard iyen defitsit qayd etildi. Bu esa, avvalgi 13 yil mobaynida joriy operatsiyalar balansida defitsit kuzatilmagani bilan katta farq qiladi.[28]

4.3. 2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablar, oqibatlar va o‘ziga xos xususiyatlari

2008-yilda yuzaga kelgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz asosan AQShdagi ipoteka kreditlari bozoridagi muammolardan boshlangan. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimovning

[27] www.imf.org.

[28] Экономика Европейского Союза. Под ред. Р.К. Щенина. - М.: КноРус, 2012. - 560 с.

ta’kidlashicha, “inqiroz AQShda ipoteka kreditlash tizimida yuzaga kelgan tanglikdan avj olib, keyinchalik butun moliya tizimiga yoyildi. Natijada yirik banklar va moliyaviy tashkilotlarning likvidligi zaiflashib, ularning to‘lov qobiliyati kamaydi va moliyaviy inqiroz yuzaga keldi. Bu holat jahon fond bozorlarida yirik kompaniyalar aksiyalarining narxining keskin pasayishiga olib keldi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda ishlab chiqarish sur’ati susayib, ishsizlik va boshqa salbiy iqtisodiy oqibatlar yuzaga keldi.”

2008-yilgi inqirozning rivojlanishi quyidagi bosqichlarda kechdi:

1. AQSh ko‘chmas mulk bozoridagi muammolar — 2008-yil avgustgacha davom etdi.
2. Investitsion banklarda likvidlikning susayishi — 2008-yil maydan boshlab sezildi.
3. Kreditlash jarayonining to‘xtash holatiga kelishi — avgust-sentabr oylarida yuz berdi.
4. Kotragentlarga ishonchning pasayishi — 2008-yil sentabrda aniq ko‘zga tashlandi.
5. Yetakchi banklarning yumshoq shaklda natsionalizatsiya qilinishi — sentabr-oktabr oylarida amalga oshirildi.
6. Korporatsiyalar va aholining daromadlarining qisqarishi, shuningdek talabning kamayishi — oktabr oyida yuzaga keldi.
7. Xalqaro moliya tizimini monitoring qilish va tartibga solish tizimini tubdan takomillashtirish zarurati.

“...2008–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida an’anaviy pul-kredit qoidalari o‘zgardi. Ayniqsa, markaziy banklar tijorat banklariga avvalgidan ko‘ra ko‘proq va uzoqroq muddatli kreditlar ajratishni boshladilar. Shu davrda AQSH Federal zaxira tizimi (FZT), Yevropa Markaziy banki (EMB), Angliya, Shveytsariya va Yaponiya markaziy banklari umumiy hisobda 600 milliard yevrodan ziyod miqdorda qayta moliyalashtirish kreditlarini taqdim etdi”.[29]

2008-yilgacha rivojlangan davlatlarning markaziy banklari tijorat banklariga kreditlar ajratgan bo‘lsa-da, bu kreditlar odatda qisqa

[29] Зальем ли нефтедолларами пожар экономики. E-MAIL EG@ ECONOMIC, 2008. 165

muddatli bo‘lib, faqat banklarning joriy likvidligini saqlashga qaratilgan edi. Ammo 2007-yil dekabr oyidan boshlab FZT tijorat banklariga 6 oygacha davom etadigan markazlashgan kreditlar berishni boshladi. Shu bilan birga, 2008-yilning 16-oktabridan boshlab EMB ham tijorat banklariga 6 oygacha bo‘lgan muddatga markazlashgan kreditlar taqdim eta boshladi.

EMB o‘zining qayta moliyalashtirish dasturida garov sifatida qabul qilinadigan qimmatli qog‘ozlarning doirasini kengaytirdi. Avval faqat davlat qimmatli qog‘ozlari hamda kompaniyalar va banklarning aktivlari bilan ta’minlangan obligatsiyalar garov sifatida qabul qilinsa, inqiroz boshlanganidan keyin korporativ aksiyalar va ipoteka obligatsiyalari ham garovga qabul qilindi. Shu tariqa, 2008-yilda EMB 8000 ga yaqin banklarga lombard kreditlari berish imkoniyatini yaratdi.

Qiziq tomoni shundaki, Angliya Markaziy banki inqirozning dastlabki davrida qayta moliyalashtirish kreditlarini oshirishga shoshilmadi. Shu bilan birga, bank hukumat qimmatli qog‘ozlari, shuningdek, kompaniyalar va banklarning obligatsiyalari hamda ipoteka obligatsiyalarini garovga olib tijorat banklariga kredit ajratish amaliyotini oldindan amalga oshirib kelgan edi.

Ma’lumki, pul taklifi tez sur’atlarda oshganda inflyatsiya bosimi kuchayadi. 2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu inqiroz avvalo rivojlangan davlatlarda boshlandi va qisqa vaqt ichida global darajada barcha mintaqalar va mamlakatlarga tarqaldi.

2. Inqiroz tarkibiy tabiatga ega bo‘lib, jahon iqtisodiyoti tarkibi va texnologik bazasida tub o‘zgarishlarni talab qiladi. Bu esa ishlab chiqarish kuchlarining geografik va tarmoqlar bo‘yicha qayta taqsimlanishiga olib keladi.

3. Inqiroz innovatsion xususiyatga ega. So‘nggi yillarda moliyaviy sohada yangi turdagi moliyaviy instrumentlar, xususan, derivativlar keng tarqalib, ular barqaror o‘sishni ta’minlash o‘rniga inqirozning kuchayishiga sabab bo‘ldi.

4. Moliya va bank tizimidagi muammolar dunyoning deyarli barcha hududlarini qamrab olib, iqtisodiy faollik pasayishi, investitsiya hajmining qisqarishi, talab va global savdo ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib keldi. Buning natijasida ko‘plab mamlakatlarda jiddiy ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi mumkin.

5. Global moliyaviy inqiroz jahon moliya va bank tizimidagi tub kamchiliklarni ochib berdi va ushbu tizimni isloh qilishning zarurligini aniq ko‘rsatdi.

Jahon moliyaviy inqirozi shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa o‘z manfaatlarini ustuvor qo‘ygan, kredit va qimmatli qog‘ozlar bozorida spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklarning faoliyatiga yetarli darajada nazorat o‘rnatilmagan edi.

6. Har bir davlatda moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ko‘lami, darajasi va ta’sirlari ko‘p jihatdan o‘sha davlatning moliya va valyuta tizimining mustahkamligiga, milliy kredit muassasalarining kapital va likvidlik holatiga, ularning chet ellik va korporativ banklarga qaramligiga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi va xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bularning barchasi oxir-oqibat mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, diversifikatsiyasi va raqobatbardoshligi darajasini belgilaydi.

7. Jahon moliyaviy inqirozidan tezroq chiqish va uning zararlarini kamaytirish esa nafaqat har bir davlatning ichki choralariga, balki global hamjamiyatning birgalikdagi harakatlariga bog‘liq. Ularning samaradorligi va uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish maqsadida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirdi:

- Moliya bozorlarini tartibga soluvchi yangi qoidalar ishlab chiqish hamda mamlakatlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga yangi talablarni joriy etish (Maastrixt shartnomasiga o‘xshash).
- XVFning moliyaviy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirib, 250 milliard dollardan 1 trillion dollarga yetkazish.
- G‘arbning 20 ta yirik davlatining xalqaro moliya tizimidagi rolini oshirish va ularning maqomini mustahkamlash.

- Reyting agentliklari faoliyatini yagona tartibga solish tizimini joriy etish.

- Yangi xalqaro moliya tashkilotini tashkil etish yoki mavjudlarini qayta tuzish orqali a'zo davlatlarning moliya va fiskal siyosatini yagona standartlarga moslashtirish.

- Derivativ moliyaviy vositalar muomalasini tartibga soluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish.

Asosiy tushunchalar va iboralar

valyuta inqirozi , moliyaviy barqarorlik ,valyuta kursi ,valyuta rezervlari , inflatsiya ,deflyatsiya ,kapital oqimi ,valyuta spekulyatsiyasi ,tashqi qarz , iqtisodiy destabilizatsiya ,bank tizimi ,pul-kredit siyosati ,iqtisodiy balansi , valyuta bozori ,bozor ishonchi .

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Valyuta inqirozi tushunchasi nimani anglatadi va u qanday moliyaviy jarayonlar bilan bog'liq?
2. Valyuta inqirozining yuzaga kelishida makroiqtisodiy omillar qanday rol o'ynaydi?
3. Noratsional pul-kredit siyosati valyuta inqiroziga qanday ta'sir qiladi?
4. Ipoteka va kredit siyosatidagi xatoliklar valyuta inqirozini qanday kuchaytiradi?
5. Valyuta inqirozining o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?
6. Yirik davlatlarning uzoq muddatli byudjet defitsiti va tashqi savdo balansining salbiyligi valyuta inqiroziga qanday hissa qo'shadi?
7. Moliyaviy institutlarning majburiyatlari va ustav kapitali o'rtasidagi muvozanat buzilishi qanday oqibatlarga olib keladi?
8. Reyting agentliklari tomonidan noto'g'ri baholashlar valyuta inqirozini qanday ta'sir qiladi?
9. Valyuta kursining tez o'zgarishi eksport-import salohiyatiga qanday ta'sir qiladi?
10. Banklar va kompaniyalar valyuta kursi risklarini kamaytirish uchun qaysi moliyaviy instrumentlardan foydalanadi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Valyuta inqirozi nima?

A) Valyuta kursining barqaror oshishi
B) Valyuta kursining keskin pasayishi yoki bozor tartibsizligi
C) Iqtisodiy o‘sish
D) Tashqi qarzning kamayishi

2. **Valyuta inqirozining asosiy sabablaridan biri nima hisoblanadi?**

A) Valyuta rezervlarining etishmasligi
B) Iqtisodiy barqarorlik
C) Investitsiya oqimining ko‘payishi
D) Inflatsiya pasayishi

3.**Valyuta inqirozining oqibatlariga nima kiradi?**

A) Tashqi qarz kamayishi
B) Inflyatsiyaning oshishi va iqtisodiy barqarorlikning pasayishi
C) Valyuta kursining barqarorligi
D) Bozor ishonchining oshishi

4. **Valyuta inqirozining o‘ziga xos xususiyatlari qaysi biri bilan bog‘liq?**

A) Bozor ishonchi va spekulyativ harakatlar
B) Faqat tashqi qarz bilan
C) Faol investitsiyalar bilan
D) Iqtisodiy o‘sish bilan

5. **Valyuta inqirozi yuzaga kelishining ichki omillari qaysilar bo‘lishi mumkin?**

A) Moliyaviy siyosatdagi xatoliklar va bank tizimi zaifligi
B) Tashqi qarzning kamayishi
C) Iqtisodiy eksportning o‘sishi
D) Valyuta rezervlarining ko‘payishi

6. Valyuta kursi nimaga bog‘liq bo‘ladi?

A) Bozor talab va taklifiga
B) Faqat markaziy bank qarorlariga
C) Mijozlarning so‘roviga
D) Tijorat bankining ichki siyosatiga

7. Valyuta kursi qanday o‘zgarishi mumkin?

A) Bozor sharoitlariga qarab o‘zgaradi
B) Har doim barqaror va o‘zgarmas bo‘ladi
C) Mijozlar soniga bog‘liq
D) Bank xodimlarining qaroriga bog‘liq

8. Valyuta konvertatsiyasi jarayonida qaysi xizmat turi taqdim etiladi?

A) Pul almashtirish
B) Kredit berish
C) Hisob raqam ochish
D) Moliyaviy maslahat

9. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarida xavfsizlik qanday ta’minlanadi?

A) Maxsus regulyatsiya va ichki nazorat mexanizmlari orqali
B) Faqat mijozlarning o‘ziga ishonish orqali
C) Bank xodimlarining shaxsiy nazorati orqali
D) Faqat pulni naqd olish bilan

10. Tijorat banklarida valyuta depozitlari va kreditlari orasidagi asosiy farq nima?

A) Depozit - mijoz pul qo‘yadi, kredit - mijoz pul oladi
B) Depozit - kredit olish jarayoni, kredit - depozitni yechish jarayoni
C) Ikkalasi ham bir xil ma’noga ega
D) Faqat depozitlar foizsiz bo‘ladi

11. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari deganda nima tushuniladi?

A) Bankning ichki kredit faoliyati

B) Chet el valyutasi bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalar majmui
C) Naqd pul muomalasini tartibga solish jarayoni
D) Soliq to‘lovlarini hisoblash

12.Valyuta operatsiyalarining asosiy maqsadi nimadan iborat?
A) Foyda olish va mijozlarning xalqaro hisob-kitoblarini ta’minlash
B) Bank xodimlari ish haqlarini oshirish
C) Ichki bozorda narxlarni tartibga solish
D) Soliq stavkalarini belgilash

13. Tijorat banklarida valyuta risklari qanday kamaytiriladi?
A) Diversifikatsiya va xedjirlash orqali
B) Yangi ofislar ochish orqali
C) Xodimlar sonini kamaytirish orqali
D) Reklama kampaniyasi orqali

14.Konversiya operatsiyasi deganda nimani tushunamiz?
A) Chet el valyutasini milliy valyutaga yoki aksincha almashtirish jarayoni
B) Kreditni qayta rasmiylashtirish
C) Bank hisobvarag‘ini yopish
D) Naqd pulni omonatga qo‘yish

15.Spot operatsiyasi qaysi xususiyatga ega?
A) Hisob-kitoblar kelajakda amalga oshiriladi
B) Hisob-kitoblar ikki ish kuni ichida bajariladi
C) Naqd pul bilan amalga oshirilmaydi
D) Faqat ichki bozor uchun mo‘ljallangan

16.Forward operatsiyasi qanday bitim turiga kiradi?
A) Kelishuv tuzilgan zahoti hisob-kitob qilinadigan bitim
B) Kelgusida belgilangan muddatda ma’lum kurs bo‘yicha valyuta sotib olish yoki sotish bitimi
C) Faqat naqd valyutada bajariladigan operatsiya
D) Omonat shartnomasi

17.Tijorat bankining vakillik hisobvarag‘i nima uchun xizmat qiladi?

A) Chet el banklari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun
B) Ichki mijozlarga kredit berish uchun
C) Soliq to‘lovlarini yig‘ish uchun
D) Bank kapitalini oshirish uchun

18.Banklarda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqi qanday hujjat bilan beriladi?

A) Soliq organining litsenziyasi
B) Markaziy bankning maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi)
C) Moliya vazirligining sertifikati
D) Tashqi savdo shartnomasi

18. Banklarning xalqaro to‘lov tizimlaridagi ishtiroki qanday shaklda bo‘ladi?

A) SWIFT tizimi orqali elektron hisob-kitoblar
B) Faqat pochta orqali to‘lovlar
C) Naqd pul o‘tkazmalari
D) Omonat hisobvaraqlari orqali

20.Bank mijozining tashqi iqtisodiy shartnomasi bo‘yicha to‘lovni amalga oshirishda asosiy hujjat nima hisoblanadi?

A) Shaxsiy guvohnoma
B) Tashqi savdo kontrakti va to‘lov topshirig‘i
C) Soliq deklaratsiyasi
D) Bankning ichki buyrug‘i

V BOB. VALYUTA SIYOSATINING MOHIYATI VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

5.1. Valyuta siyosati va hukumat valyuta siyosatining tushunchasi, ularning asosiy shakllari

Valyuta siyosati – bu “...valyuta munosabatlarini tashkil etish va tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar yig‘indisidir.”

Valyuta siyosatining ikki asosiy turi mavjud:

1. diskont siyosati; 2. deviz siyosati.

Diskont siyosati – bu Markaziy bank tomonidan diskont stavkasini o‘zgartirish orqali milliy valyutaning nominal almashuv kursi va to‘lov balansiga ta’sir ko‘rsatadigan siyosatdir. Markaziy bankning diskont stavkasi – bu tijorat banklari va hukumatga beriladigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasidir. Deviz siyosatining asosiy shakllari quyidagilardan iborat:



5.1-rasm. Deviz siyosatining shakllari

Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2007–2012-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta — **so‘mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi devalvatsiya yo‘nalishida** harakatlangan. 2012-yilga kelib, so‘mning umumiy devalvatsiya darajasi 2007-yil ko‘rsatkichlariga nisbatan 6,4 foizga ortgan. Devalvatsiya jarayonining tezlashganiga qaramay, mamlakatda **inflyatsiya darajasi barqaror holatda qolgan** va keskin o‘sish

kuzatilmagan. Hozirgi kunda **Markaziy bankning pul-kredit siyosati** inflyatsiyani belgilangan maqsadli koʻrsatkich doirasida ushlab turishga yoʻnaltirilgan.

Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik sharoitida e'tibor qaratilishi zarur boʻlgan muhim jihatlardan biri — **milliy valyuta kursini sun'iy tarzda yuqori darajada ushlab turishdan saqlanish**dir. Chunki bunday yondashuv milliy valyutaning asosiy savdo hamkorlari valyutalariga nisbatan **real almashuv kursining oshishiga** olib keladi. Natijada, mamlakatning **xalqaro valyuta zaxiralari qisqaradi** va **eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligi** pasayadi.

Milliy valyutaning qadri oshib borayotgan, ya'ni **revalvatsiya jarayoni kutilayotgan holatlarda**, iqtisodiy siyosat nuqtai nazaridan bu oʻzgarish doimo maqsadga muvofiq boʻlmasligi mumkin. Bunday sharoitda **Markaziy bank valyuta interventsiyalari orqali** iqtisodiyot uchun maqbul almashuv kursini saqlab turish choralarini koʻradi.

Masalan, **Yaponiya tajribasi**da milliy valyutaning — **yenning ortiqcha qadrlanishiga yoʻl qoʻyilmaydi**. Chunki yen kursining oshishi eksportchilarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini pasaytiradi, bu esa eksport hajmining kamayishiga, valyuta tushumlarining qisqarishiga va **tashqi savdo balansining salbiy oʻzgarishiga** sabab boʻladi. Shu bois Yaponiyada hukumat eksportni qoʻllab-quvvatlovchi **kurs siyosatini** yuritadi va yenning revalvatsiyasini cheklaydi, garchi bunga barcha iqtisodiy imkoniyatlar mavjud boʻlsa ham.

Hukumatning valyuta siyosati mamlakatning valyuta bozorini rivojlantirish, **eksport salohiyatini oshirish**, hamda **valyuta nazorati mexanizmlarini takomillashtirish**ga qaratilgan boʻlib, u iqtisodiy oʻsishning barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon boʻladi.

Oʻzbekistonda muddatli valyuta shartnomalari bozorini rivojlantirishda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi[30] qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, (xozirgi kunda ushbu qaror o’z ko’chini yo‘qotgan). Ushbu qarorga ko‘ra, birjadan tashqari valyuta bozorini barqaror rivojlantirish uchun erkin muomaladagi valyutada Birlashtirilgan barqarorlashtirish jamg‘armasi tashkil etildi.

Tijorat banklarining jalb qilinadigan bo‘sh valyuta mablag‘larini Birlashtirilgan barqarorlashtirish jamg‘armasiga yo‘naltirishda olinadigan marja summasi vakolatli banklar daromadlarining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 12 iyuldagi 247-sonli «Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi[31] qarorning qabul qilinishi O‘zbekiston hukumati tomonidan birjadan tashqari valyuta bozorini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur qarorga muvofiq, 2002 yil 16 iyuldan boshlab import qilingan iste’mol tovarlari va xizmatlar (jumladan, transport va aloqa xizmatlari) sotilishidan olingan so‘mdagi tushumlarni konvertatsiya qilish tijorat banklari tomonidan erkin kurs asosida, talab va taklifga muvofiq amalga oshiriladi. Shuningdek, iste’mol tovarlari va xizmatlarni import qilish bo‘yicha ushbu qaror qabul qilinishidan oldin tuzilgan va vakolatli banklar tomonidan hisobga olingan kontraktlar ham tijorat banklari tomonidan erkin kurs sharoitida, talab va taklifga muvofiq bajarilishi lozimligi belgilandi.

O‘zbekistonda 2003 yil 15 oktabrdan joriy valyuta operatsiyalari bo‘yicha barcha cheklovlar bekor qilindi. Bu o‘zgarish 2003 yil 8 oktabrda O‘zbekiston hukumati Xalqaro Valyuta Fondi nizomining VIII-moddasi bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilishi bilan bog‘liq edi.

Xalqaro valyuta tizimi rivojlanishi davomida “konvertatsiya qilinishi” tushunchasi ham o‘zgarib bordi. Hozirgi kunda valyutaga egalik qiluvchi har qanday shaxs uni bozorda — qat’iy belgilangan yoki suzuvchi kurs asosida xalqaro zaxira valyutalariga (masalan,

---

[30] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. 263-son 2001 yil 22 iyun. (xozirgi kunda ushbu qaror o’z ko’chini yo‘qotgan).

[31] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 12 iyuldagi 247-sonli «Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi

AQSh dollari, Yevro va boshqalar) almashtirish huquqiga ega bo‘lsa, bu valyutaning “to‘liq konvertatsiyasi” deyiladi.

Umuman olganda, konvertatsiyaning joriy etilishi xorijiy valyutani ma’muriy tartibda taqsimlashni kamaytiradi. Milliy valyutaning konvertatsiyalanishi esa mamlakat iqtisodiyoti ochiqligi va iqtisodiy erkinlik belgilaridan biri bo‘lib, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Valyutalarning konvertatsiyasiga oid cheklovlar odatda tashqi savdo va kapital harakatlariga doir bo‘lib, ular alohida ko‘rib chiqiladi. Bunday cheklovlar ikki shaklda va mustaqil ravishda, turli sabablar asosida joriy etilishi mumkin.

Odatda, valyuta cheklovlari ko‘plab mamlakatlarda tashqi hisob-kitoblarga oid operatsiyalarning keng doirasini qamrab oladi va qat’iy nazorat ostida bo‘ladi. Bu valyuta resurslari yetishmovchiligi va ularni ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga muvofiq taqsimlash zarurati bilan bog‘liq. 1980-yillarning boshida Xalqaro Valyuta Fondiga a’zo 113 mamlakatdan 95 tasida to‘lov balansi bo‘yicha, 91 ta mamlakatda esa kapital harakatlari bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha valyuta cheklovlari mavjud edi.

Valyuta cheklovlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- xorijga to‘lovlarni amalga oshirish, kapitalni olib chiqish, foyda, oltin, pul birligi va qimmatli qog‘ozlarni repatriatsiya qilish tartibini nazorat qilish;
- davlat tomonidan majburiy tarzda xorijiy valyutani topshirish (rsmiy kurs asosida milliy valyutaga almashtirish evaziga).

Amaliyotda quyidagilar keng qo‘llaniladi:

- import qiluvchilarga xorijiy valyutani sotish uchun litsenziya berish;
- valyuta qiymatlarining davlat idoralari maxsus ruxsatisiz olib kirilishi va olib chiqilishini taqiqlash;
- jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi mablag‘larga egalik qilish va ulardan foydalanishni cheklash;
- xorijga shaxsiy daromadlarni o‘tkazishni tartibga solish;

• sug‘urta va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish;

• xorijga chiqishda milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirishni limitlash.

Ichki ayirboshlash rezidentlarning mamlakat ichida xorijiy valyutadagi ma’lum aktivlarni (masalan, bank depozitlarini) saqlash va tegishli tarzda milliy valyutani konvertatsiya qilish huquqini anglatadi. Biroq, valyutaga egalik va uni ayirboshlash huquqi mamlakat ichida to‘lovlarni amalga oshirish, xorijga mablag‘ o‘tkazish yoki chet eldagi aktivlarga egalik qilishni o‘z ichiga olmaydi.

5.2. Markaziy bankning valyuta siyosati

Markaziy bank tomonidan valyuta siyosati doirasida amalga oshiriladigan operatsiyalar xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llaniladigan uch asosiy turga ajratiladi. Ushbu operatsiyalar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Valyuta intervensiyasiga oid operatsiyalar. Mazkur turdagi operatsiyalar xorijiy valyutani milliy valyutaga sotib olish yoki sotish orqali milliy valyuta kursining keskin o‘zgarishlarini yumshatishga qaratilgan. O‘zbekiston sharoitida intervensiyaning asosiy vositasi sifatida **AQSh dollari** qo‘llaniladi, shu sababli Markaziy bankning ushbu faoliyati odatda dollarning sotib olinishi yoki sotilishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Markaziy banklar, odatda, intervensiya samaradorligini ta’minlash maqsadida **xorijiy valyutadagi intervensiya fondi miqdori** yoki **intervensiya hisobvarag‘idagi qoldiq** to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaga oshkor etmaydi. Buning sababi shundaki, bunday ma’lumotlar bozorda kutilmagan psixologik ta’sirlar keltirib chiqarishi mumkin. Aslida, valyuta intervensiyasining asosiy maqsadi – **milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursidagi keskin tebranishlarni oldini olish**dan iborat.

Agar iqtisodiy subyektlar Markaziy bank tomonidan xorijiy valyuta sotish hajmi oshirilayotganini sezsa-yu, shu bilan bir vaqtda milliy valyuta qadrsizlanish tendensiyasini davom ettirsa, bu holat bozorda **vahima kayfiyatini kuchaytiradi** va natijada xorijiy valyutaga bo‘lgan

talab keskin ortadi. Xalqaro amaliyotda bunday vaziyatlarga ko‘plab misollar mavjud.

Masalan, **1992-yil sentabr oyida G‘arbiy Yevropa valyuta bozorlarida yuz bergan inqiroz** natijasida Buyuk Britaniya funti sterlingi hamda Italiya lirasi kurslari keskin pasaygan va natijada har ikki mamlakat o‘z milliy valyutalarini **Yevropa valyuta tizimidan (EVT)** chiqishga majbur bo‘lgan. Ushbu holat Angliya va Italiya markaziy banklarining intervensiya orqali milliy valyuta kurslarini barqarorlashtirishga bo‘lgan urinishlari samarasiz chiqqanini ko‘rsatdi.

Xususan, **Angliya Markaziy banki** valyuta intervensiyasi jarayonida AQSh dollarini sotish hajmini oshirganda, **London valyuta bozori ishtirokchilari** ham o‘z navbatida dollarga bo‘lgan talabni kuchaytirdilar. Natijada, intervensiya kutilgan natijani bermadi, chunki bozor ishtirokchilarining psixologik reaksiyasi vahimaga aylanishi oqibatida AQSh dollariga bo‘lgan talab yanada ortdi.

Valyuta intervensiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Markaziy bankning yetarli darajada oltin-valyuta zaxiralariga ega bo‘lishi zarur. Bu yerda yetarli daraja deganda milliy valyutaning keskin tebranishlarini bartaraf etishga yetadigan zaxiralar tushuniladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Markaziy bankida ushbu shart bajarilgan.

Quyida O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi tashqi savdo aylanmasi va o‘sish sur’atlariga oid ma’lumotlar keltirilgan:

- 2024 yilda davlatning tashqi savdo aylanmasi taxminan **65,9 mlrd AQSh dollari**ni tashkil etib, bu 2023-yilgiga nisbatan ~**3.8 % o‘sish**ni bildiradi[32].
- 2024 yilning yanvar–noyabrida tashqi savdo aylanmasi ~**59.4 mlrd AQSh dollari**ga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan ~**3.6 % o‘sish** kuzatilgan. [33]
- 2025 yilning yanvar–iyun davrida aylanma ~**37 mlrd AQSh dollari** bo‘lib, bu 2024 yilning shu davriga nisbatan ~**16.1 % o‘sishni** ko‘rsatadi.[34]

---

[32] Times of Central Asia. “Uzbekistan’s Foreign Trade Turnover Grows by 3.8% in 2024.” URL: https://timesca.com

[33] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Расмий маълумотлар: ташқи савдо айланмаси ва иқтисодий кўрсаткичлар — https://stat.uz

[34] Daryo.uz (Иқтисод бўлими).

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari va ularning ahamiyati

2. Tashqi qarzni to‘lash bo‘yicha amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari

Ayrim rivojlangan davlatlar, masalan AQSh, Germaniya va Fransiyada hukumat o‘z ixtiyorida xorijiy valyuta zaxirasini saqlamaydi. Chunki bu davlatlarda barcha oltin-valyuta zaxiralari qonuniy tarzda Markaziy bank balansiga o‘tkazilgan. Shu sababli hukumat tomonidan tashqi qarzlar bo‘yicha to‘lovlar bevosita Markaziy bank zaxiralari hisobidan amalga oshiriladi. To‘lov bajarilgach, Markaziy bank hukumatning joriy hisobidan, to‘langan xorijiy valyutaning milliy valyutadagi ekvivalentini ushlab qoladi.

Bunday tartib hukumatni tashqi qarz tuzog‘iga tushib qolishdan asraydi. Zero, Markaziy bank milliy valyutada zarur mablag‘ mavjud bo‘lmagan sharoitda to‘lov topshiriqnomalarini qabul qilmaydi. Bunda muhim jihat shundaki, Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil faoliyati ta’minlangan bo‘lishi lozim. Faqatgina shunday holatda bank rahbariyati hukumatdan tashqi qarzlarning qonuniy asosda to‘lanishini talab qila oladi. Aks holda, hukumat Markaziy bankni majburan tashqi qarz to‘lovlarini amalga oshirishga undashi mumkin. Bu esa Markaziy bank kreditlarini tashqi qarzlarni to‘lash uchun manba sifatida ishlatishga olib keladi.

3. Oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish operatsiyalari

Xalqaro moliyaviy amaliyot tajribasiga tayanilgan holda, hozirgi zamon Markaziy banklari o‘z balansida mavjud oltin va valyuta zaxiralarini boshqarishda bir qator ilg‘or mexanizmlardan foydalanadilar. Ular, odatda, quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish** – bu usul Markaziy bank aktivlarini turli valyutalar o‘rtasida taqsimlash orqali risklarni kamaytirish hamda zaxira portfelining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Uzbekistan’s Foreign Trade Turnover Rises 16.1% YoY in 1H25 Reaching $37bn.”
URL: https://daryo.uz/en/2025/07/23/uzbekistans-foreign-trade-turnover-rises-161%25-yy-in-1h25-reaching-37bn

• **Valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish** – mazkur operatsiyalar orqali Markaziy banklar boshqa davlatlarning markaziy banklari yoki yirik moliya institutlari bilan vaqtinchalik valyuta almashinuvi asosida likvidlikni boshqaradilar.

• **Oltin svopi (gold swap) operatsiyalaridan foydalanish** – bu turdagi bitimlar oltin zaxiralaridan vaqtinchalik likvid resurs sifatida foydalanish imkonini beradi, shu orqali moliyaviy tizimdagi likvidlik yetishmovchiligi qisqa muddatda bartaraf etiladi.

• **Ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirish** – bu usul orqali Markaziy banklar valyuta kursi o‘zgarishidan kelib chiqadigan moliyaviy yo‘qotishlar xavfini kamaytiradilar.

Ushbu mexanizmlar zamonaviy markaziy banklar faoliyatida valyuta zaxiralarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda xalqaro to‘lov qobiliyatini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda, bir vaqtning o‘zida bir nechta barqaror xorijiy valyutalarda zaxiralarni shakllantirish tushuniladi. Shu bilan birga, nisbatan beqaror valyutalarni sotib, ularning o‘rniga barqaror valyutalarni xarid qilish orqali zaxira tarkibini yangilash ham diversifikatsiya turiga kiradi.

Fikrimizcha, bu yondashuv mutlaqo mantiqiy va asoslidir. Chunki zaxiralar tarkibini muntazam yangilab borish orqali ularning **barqarorlik darajasi oshadi**, **riskga uchrash ehtimoli kamayadi**, va shu orqali mamlakat valyuta siyosati barqaror yo‘nalishda olib boriladi.

O‘zbekiston milliy valyuta bozoridagi hozirgi holat va Markaziy bankning imkoniyatlari. Yurtimiz iqtisodiyotining bugungi rivojlanish bosqichida

O‘zbekiston milliy valyuta bozoridagi hozirgi holat

1. **Valyuta bozori ochiqligi va erkinligi.** O‘zbekiston milliy valyuta bozori so‘nggi yillarda sezilarli darajada liberallashtirildi. Valyuta kursi bozor mexanizmlari asosida shakllantirildi, rasmiy va bozor kurslari orasidagi farq yo’qoldj.

2. **Valyuta kursining barqarorligi.** Markaziy bank va hukumat tomonidan valyuta kursini barqarorlashtirishga qaratilgan siyosatlar

olib borilmoqda. Buning natijasida so‘mning kursi o‘rtacha barqaror saqlanmoqda, inflyatsiya bosimi kamaymoqda.

3. **Valyuta ayirboshlash punktlari va banklar faoliyati.** Valyuta ayirboshlash punktlari va tijorat banklari orqali valyuta operatsiyalari ko‘paygan. Rasmiy va norasmiy bozor orasidagi tafovutlar kamaymoqda. (malumotlarni ilova qilaelik)

4. **Valyuta rezervlari.** O‘zbekiston Markaziy bankining valyuta rezervlari so‘m kursini qo‘llab-quvvatlash va chet eldan kirib kelayotgan to‘lovlarni qoplash imkonini beradi. Rezervlar darajasi yetarli darajada saqlanmoqda. (malumotlarni ilova qilaelik)

5. **Valyuta siyosatining liberalizatsiyasi.** Valyuta siyosatida cheklovlar kamaytirilib, valyuta erkin harakati qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu eksport-import operatsiyalarini osonlashtiradi va investorlar uchun qulayliklar yaratadi.

Markaziy bankning imkoniyatlari

1. **Valyuta kursini boshqarish.** Markaziy bank so‘m kursining barqarorligini ta’minlash uchun bozorga aralashish imkoniyatiga ega (valyuta intervensiyalari). Zarurat bo‘lganda, u valyuta sotib olish yoki sotish orqali kursni boshqaradi.

2. **Pul-kredit siyosatini yuritish.** Markaziy bank foiz stavkalarini belgilash orqali iqtisodiyotdagi pul massasi va valyuta talabini tartibga soladi, inflyatsiyani nazorat qiladi.

3. **Valyuta rezervlarini boshqarish.** Markaziy bank valyuta rezervlarini samarali boshqaradi, bu esa to‘lov balansi muvozanatini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

4. **Regulyativ nazorat.** Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga cheklovlar o‘rnatish orqali valyuta bozorining barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

5. **Valyuta siyosati strategiyasini ishlab chiqish.** Markaziy bank iqtisodiy sharoitga mos valyuta siyosati strategiyalarini ishlab chiqadi, shu bilan ichki va tashqi moliya oqimlarini muvofiqlashtiradi.

6. **Axborot va prognozlash.** Bozor holatini doimiy kuzatib borib, iqtisodiy o‘zgarishlarni oldindan bashorat qilish orqali vaqtida chora ko‘rish imkoniyatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta svoplari hamda **oltin (GOLD) svop** operatsiyalaridan foydalanish orqali milliy valyuta bozoridagi xorijiy valyutalar taklifiga bevosita va amaliy ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega. Ushbu imkoniyatlar quyidagi asosiy omillar bilan izohlanadi:

1. **O‘zbekistonning jahon oltin bozoridagi o‘rni** – mamlakat dunyoda eng yirik oltin qazib oluvchi va eksport qiluvchi o‘nta davlat qatoriga kiradi. Shu sababli, Markaziy bank o‘z aktivlarining muhim qismini oltin shaklida jamg‘arish imkoniga ega bo‘lib, bu GOLD svop operatsiyalarini keng qo‘llash uchun mustahkam resurs bazasini yaratadi.
2. **Zarur infratuzilmaning mavjudligi** – Markaziy bankda svop operatsiyalarini amalga oshirish uchun texnik, moliyaviy va institutsional infratuzilma to‘liq shakllangan. Bu esa xorijiy hamkorlar bilan qisqa va o‘rta muddatli likvidlik bitimlarini samarali tarzda tuzishga zamin yaratadi.
3. **Ichki valyuta bozorining markazlashgan tuzilishi** – mamlakat ichida amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining 90 foizdan ortig‘i respublika valyuta birjasi orqali bajariladi. Shu sababli, Markaziy bank xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va taklifdagi o‘zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatib borish, shuningdek, ularga tezkor tarzda javob qaytarish imkoniyatiga ega.

Ushbu omillar Markaziy bankka milliy valyuta kursining barqarorligini saqlash, valyuta likvidligini boshqarish va xalqaro moliyaviy bozorlar bilan samarali integratsiyalashuv jarayonini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, xalqaro oltin bozorlari (jumladan, London va Tsyurixdagi savdo maydonchalari)da oltinni qulay narxlarda sotish uchun tajribali kadrlarning mavjud bo‘lishi muhim. Agar mamlakatimizda oltin savdosi bo‘yicha ixtisoslashgan mutaxassislar yetarli bo‘lmasa, bunday hollarda **GOLD svop** operatsiyalarini **Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS)** orqali amalga oshirish mumkin.

Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) o‘z a’zosi bo‘lgan markaziy banklarga quyidagi xizmatlarni taklif etadi:

- oltin va valyutada zaxiralarni joylashtirish;
- depozit-kredit operatsiyalarini tashkil qilish;
- svop kelishuvlari orqali zaxiralarni boshqarish bo‘yicha amaliy ko‘mak berish.

Bundan tashqari, Markaziy bank O‘zbekiston hukumatiga ham amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin. Jumladan, hukumatning xorijiy investitsiyalar va tashqi kreditlar bo‘yicha bergan **kafolat majburiyatlari**ni bajarishda **GOLD svop** mexanizmidan foydalanish mumkin.

Bunda quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1. Markaziy bank oltinni spot shartlar asosida sotadi va bu orqali xorijiy valyutada kerakli tushumni oladi.
2. Ushbu tushum hukumat ixtiyoriga o‘tkaziladi.
3. So‘ng, Markaziy bank va hukumat o‘rtasida tuzilgan shartnomadagi muddatga asoslanib, Markaziy bank xorijiy moliyaviy muassasa bilan valyuta bo‘yicha forvard shartnoma tuzadi.
4. Forvard muddati tugagach, hukumatdan olingan xorijiy valyutadagi tushum hisobiga Markaziy bank oltinni forvard kursi bo‘yicha qayta xarid qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan 2005-yil 31-avgustdan boshlab quyidagi cheklovlar joriy etilgan:

1. Tijorat bankining biror valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasi hajmi uning reglamentlangan kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak.
2. Bankning barcha valyutalardagi umumiy yakuniy netto valyuta pozitsiyasi miqdori esa reglamentlangan kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Mazkur cheklovlar bo‘yicha belgilangan normativ darajalarning turli mamlakatlarda keskin farq qilmasligining asosiy sababi – ushbu tartibotlar xalqaro miqyosda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni yaratganlar orasida Вазель qo‘mitasi mutaxassislari mavjud. Shu bois, respublikamiz bank amaliyotida qo‘llanilayotgan cheklovlar Yevropa davlatlaridagi cheklovlarga yaqin ko‘rinishda belgilangan.

Milliy valyuta kursining iste'mol tovarlari narxlariga nisbatan salbiy ta'sirini yumshatish – markaziy banklar yuritayotgan valyuta siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Buning sababi, inflyatsiya darajasi bilan valyuta kursi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligidadir.

Odatda milliy valyutaning qadrsizlanishi kelgusida inflyatsiya bosimining kuchayishiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda inflyatsiyani jilovlash maqsadida foiz stavkalarini oshirish orqali pul massasining qisqarishiga erishish mumkin. Ammo foiz stavkalarining ko'tarilishi o'z navbatida investitsion faollikning pasayishiga va iste'mol talabining qisqarishiga olib keladi.

Agar milliy valyuta qadrsizlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya portfellarida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida sodir bo'lsa, bu jarayon odatda kuchli inflyatsion to'lqinlarni keltirib chiqaradi. Shu holatda foiz stavkalarini oshirish inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turishning eng samarali choralaridan biri hisoblanadi.

Biroq, agar valyuta qadrsizlanishi tashqi savdo shartlarining yomonlashuvi natijasida yuzaga kelayotgan bo'lsa, aksincha, foiz stavkalarini pasaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu holatda sof eksport hajmi kamayadi, umumiy talab esa qisqaradi, ya'ni iqtisodiy faollikning sustlashuvi kuzatiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, milliy valyuta qadrsizlanishi natijasida umumiy talab pasaygan vaziyatlarda Markaziy bank tomonidan restriktiv (cheklovchi) pul-kredit siyosatini amalga oshirish iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari sekinlashadi va iqtisodiy faollik pasayadi.

Asosiy tushunchalar va iboralar

valyuta siyosati, milliy valyuta, valyuta kursi, inflyatsiya, devalvatsiya, revalvatsiya, foiz stavkalari, sof eksport, monetar siyosat, pul-kredit siyosati, restreksion siyosat, ekspansion siyosat, valyuta intervensiyasi, valyuta rezervlari, xalqaro to'lov balansi, valyuta cheklovlari, ochiq valyuta pozitsiyasi, regulyativ kapital, Markaziy bank roli, bozor kursi va rasmiy kurs.

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Valyuta siyosati nima va u qanday asosiy maqsadlarni ko‘zlaydi?

2. Markaziy bankning valyuta siyosatidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3. Valyuta kursining o‘zgarishi inflyatsiyaga qanday ta’sir qiladi?

4. Devalvatsiya va revalvatsiya nima, ular qanday farqlanadi?

5. Restreksion va ekspansion pul-kredit siyosatlarining o‘zaro farqi nimada?

6. Valyuta siyosatining qaysi turlari mavjud va ular qanday hollarda qo‘llaniladi?

7. Valyuta intervensiyasi nima va u qanday maqsadda amalga oshiriladi?

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq valyuta pozitsiyasi bo‘yicha cheklovlari qanday?

9. Milliy valyutaning qadrsizlanishi qanday iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

10. Valyuta siyosati bilan xalqaro to‘lov balansi o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Valyuta siyosatining asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Tashqi savdo muvozanatini buzish

B) Valyuta kursi barqarorligini ta’minlash va to‘lov balansini mustahkamlash

C) Foyda olish

D) Oltin zaxiralarini kamaytirish

2. Valyuta siyosatining turlari qanday ajratiladi?

A) Faol va passiv valyuta siyosati

B) Kredit va soliq siyosati

C) Ichki va tashqi siyosat

D) Markazlashgan va bozor siyosati

3. Faol valyuta siyosatining mohiyati nimada?

A) Bozordagi o‘zgarishlarga davlatning faol aralashuvi orqali valyuta kursini barqarorlashtirish

B) Faqat bozor kuchlariga tayanish

C) Valyuta kursini butunlay erkin qo‘yib yuborish

D) Faqat soliq stavkalarini o‘zgartirish

4. Passiv valyuta siyosatining xususiyati nimada?

A) Davlatning valyuta kursiga bevosita aralashmasligi

B) Kursni qat’iy belgilab qo‘yish

C) Eksportni to‘xtatish

D) Importni taqiqlash

5. Devalvatsiya nima?

A) Milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi

B) Milliy valyutaning qiymatining oshishi

C) Valyuta kursining o‘zgarmasligi

D) Yangi valyuta joriy etilishi

6. Revalvatsiya deganda nimani tushunamiz?

A) Valyutaning xalqaro bozorda kursi pasayishi

B) Milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrlanishi

C) Valyutaning to‘liq almashtirilishi

D) Oltin bilan ta’minlanmagan valyuta chiqarish

7. Valyuta intervensiyasi nima?

A) Markaziy bankning valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish yoki sotish orqali kursga ta’sir ko‘rsatish amaliyoti

B) Soliq to‘lovlarini kamaytirish siyosati

C) Kredit stavkalarini belgilash jarayoni

D) Valyuta zaxiralarini yashirish

8. Diskont siyosati qanday maqsadni ko‘zlaydi?

A) Foiz stavkalarini o‘zgartirish orqali valyuta kursiga va kapital oqimiga ta’sir ko‘rsatish

B) Soliq imtiyozlarini belgilash

C) Eksportni rag‘batlantirish

D) Importni cheklash

9. Valyuta cheklovlari nima?

A) Chet el valyutasi bilan barcha operatsiyalarni erkinlashtirish

B) Xorijiy valyuta harakatini davlat tomonidan nazorat qilish va cheklash choralari

C) Soliq to‘lovlarini kamaytirish

D) Kredit berishni to‘xtatish

10. Valyuta siyosatining uzoq muddatli strategik maqsadi nimadan iborat?

A) Milliy valyuta barqarorligini ta’minlash va jahon moliya tizimida ishonchni oshirish

B) Faqat eksport hajmini oshirish

C) Soliq stavkalarini pasaytirish

D) Bank kapitalini kamaytirish

11. Qattiq (qat’iy) valyuta siyosati deganda nima tushuniladi?

A) Davlatning valyuta kursini qat’iy belgilashi va uni saqlab turishga intilishi

B) Valyuta kursini erkin o‘zgarishga qo‘yib berish

C) Chet el valyutalarini erkin muomalaga chiqarish

D) Valyuta zaxiralarini kamaytirish

12. Yumshoq (moslashuvchan) valyuta siyosati qanday belgilanadi?

A) Kursning talab va taklifga qarab o‘zgarishiga ruxsat beriladi

B) Kurs qat’iy tarzda belgilab qo‘yiladi

C) Faqat oltin bilan ta’minlanadi

D) Valyuta zaxirasi muzlatiladi

VI.BOB. VALYUTA KURSINING MOHIYATI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

6.1. Valyuta kursining mazmuni, ahamiyati va uning turlari

Valyuta kursi — bu "...bir mamlakatning pul birligining boshqa bir davlat pul birligiga nisbatan qiymatini koʻrsatib beruvchi iqtisodiy koʻrsatkich hisoblanadi". Oddiyroq qilib aytganda, bu bir valyutaning boshqa valyutaga almashish bahosidir.

"Valyuta" atamasi oʻz manbasini italyancha "valuta" soʻzidan olgan boʻlib, bu soʻz "qiymat" maʼnosini bildiradi. Har bir mamlakatning oʻz pul birligi mavjud boʻlib, u shu davlatning milliy valyutasi sifatida eʼtirof etiladi.

Misol uchun:

Agar 1 AQSh dollari 12 000 soʻmga teng boʻlsa, demak, soʻmning dollarga nisbatan kursi 12 000 soʻmni tashkil qiladi.

Valyuta kursining miqdori bozordagi talab va taklifga qarab oʻzgarib turadi. Agar xorijiy valyutaga talab oshsa, u qimmatlashadi, aksincha talab kamayganda, uning narxi tushadi.

Valyuta kursining ahamiyati shundan iboratki u iqtisodiyotda bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi:

1) **Xalqaro savdo uchun asosiy vosita.** Xalqaro savdo munosabatlarida, yaʼni import va eksport jarayonlarida, valyuta kursining oʻzgarishi tovar hamda xizmatlar qiymatini belgilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Agar milliy valyuta qadrsizlansa, eksport hajmi oshadi, chunki bu hol mahsulotlarning narxini nisbatan arzonlashtiradi. Aksincha, milliy pul birligi mustahkamligini yoʻqotsa, import kamayadi, chunki xorijdan keltiriladigan mahsulotlar yanada qimmatlashadi.

2) **Makroiqtisodiy barqarorlik omili.** Valyuta kursidagi oʻzgarishlar inflyatsiya darajasiga va umumiy iqtisodiy muvozanatga taʼsir qiladi. Kursdagi keskin tebranishlar narxlar oshishiga, iqtisodiy muammolarga sabab boʻlishi mumkin.

3) **Investorlar uchun yo‘nalish.** Xorijiy investorlar odatda valyuta kursi barqaror bo‘lgan davlatlarga sarmoya kiritishni afzal ko‘rishadi. Bu omil ularning ishonchini oshiradi.

4) **Pul-kredit siyosatini yuritish vositasi.** Markaziy banklar valyuta kursi orqali inflyatsiyani nazorat qilish, iqtisodiyotga pul massasini ta’sir ettirish kabi strategiyalarni amalga oshiradilar.

Xalqaro iqtisodiy amaliyotda quyidagi **valyuta turlari** ajratib ko‘rsatiladi:

№	turning nomi	izohi
1.	**Erkin aylanadigan valyuta (freely usable currency)**	Bunday turdagi valyutalar to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha hech qanday cheklovlar mavjud bo‘lmagan davlatlarga tegishli bo‘lib, ular xalqaro hisob-kitob jarayonlarida erkin qo‘llanilishi mumkin.
2.	**Barqaror yoki qattiq valyuta (hard currency)**	Ushbu valyutalar iqtisodiy va siyosiy jihatdan ishonchli mamlakatlarga tegishli bo‘lib, ularning kursi nisbatan barqaror bo‘ladi va xalqaro savdoda keng qo‘llaniladi.
3.	**Barqaror bo‘lmagan yoki yumshoq valyuta (soft currency)**	Bunday valyutalar tashqi bozorlarda konvertatsiya qilinmaydi va xalqaro to‘lov vositasi sifatida keng tan olinmaydi. Ular cheklangan miqyosda muomalaga kiradi.
4.	**Xalqaro rezerv valyutalar (reserve currency)**	Bular global darajada xalqaro hisob-kitoblarda keng foydalaniladigan va aksariyat mamlakatlar tomonidan rasmiy zaxira valyutasi sifatida tan olingan yetakchi valyutalardir.

Asosiy valyutalarga “xalqaro zaxira valyutasi” maqomi Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan beriladi. XVF belgilagan talablarga ko‘ra, bunday valyutalar mamlakatlarning xalqaro zaxiralarini saqlash, shuningdek, turli moliyaviy bitimlar va kredit ajratish jarayonlarida qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan quyidagi pul birliklariga xalqaro zaxira valyutasi maqomi berilgan:

– AQSh dollari (USD),
– Yevro (EUR),
– Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP),
– Yaponiya iyeni (JPY),
– Xitoy yuani (CNY).

Bugungi davrda jahon valyuta bozorlarida amalga oshirilayotgan konversion operatsiyalarning 90 foizdan ortig‘i sakkizta yetakchi valyuta ulushiga to‘g‘ri keladi. Ushbu valyutalar quyidagilardir: AQSh dollari (USD), yevro (EUR), Yaponiya iyeni (JPY), Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP), Shveytsariya franki (CHF), Kanada dollari (CAD), Avstraliya dollari (AUD) hamda Xitoy yuani (CNY). Shulardan beshtasi — AQSh dollari, yevro, Yaponiya iyeni, Buyuk Britaniya funt sterlingi va Xitoy yuani — XVF tomonidan xalqaro rezerv valyutasi sifatida e’tirof etilgan.

AQSh dollari va funt sterling 1944-yilda, Bretton-Vuds valyuta tizimi shakllangan davrda xalqaro rezerv valyuta sifatida tan olingan edi.

Keyinchalik, 1976–1978-yillar oralig‘ida Yamayka konferensiyasida to‘rtinchi jahon valyuta tizimi shakllantirildi va shu asosda Yaponiya iyeni hamda sobiq G‘arbiy Germaniyaning doychemarkasiga xalqaro rezerv maqomi berildi.

1999-yil 1-yanvarda yevro muomalaga kiritilishi bilan, doychemarka muomaladan chiqarildi va uning o‘rnini yevro egalladi.

Xalqaro rezerv valyutalarning nominal almashuv kurslarining beqarorligi, ya’ni ularning keng oraliqlarda tebranib turishi — bugungi kunda jahon valyuta tizimining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, **AQSH dollari** va **yevro** kurslarining tez-tez o‘zgarib turishi bu muammoning yanada keskinlashuviga olib kelmoqda.

AQSH iqtisodiyotida bir qator salbiy omillar mavjud bo‘lib, ular dollar kursining tebranishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan:

- AQSH davlat qarzining yuqori darajada bo‘lishi;
- Tashqi savdo balansida katta miqdordagi salbiy farq (defitsit) mavjudligi;
- Davlat byudjetining ham sezilarli defitsit bilan shakllanishi;
- Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan olib borilayotgan **moslashuvchan pul-kredit siyosati.**

Mazkur omillar ta'siri ostida AQSh dollarining nominal almashuv kursi keng chegaralarda o'zgarib turadi. Bu holat esa o'z navbatida butun jahon valyuta tizimining umumiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunga qaramay, **AQSH dollari hanuzgacha dunyo bo'yicha asosiy rezerv valyuta maqomini saqlab qolmoqda.** 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, **Xalqaro valyuta fondining** SDR (maxsus qarz olish huquqi) "valyuta savati"da AQSH dollarining ulushi 41,7%ni tashkil etgan[4].

So'nggi yillarda AQSH dollarining almashuv kursi ancha keng oraliqlarda o'zgarib turmoqda. Bu holat esa, boshqa mamlakatlar tomonidan asosli e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Sababi shundaki, ko'plab davlatlar o'z milliy valyutalarining nominal kurslarini aynan AQSH dollariga nisbatan belgilaydilar. Shunday ekan, dollar kursining notekis harakati boshqa mamlakatlarning valyuta kurslariga ham bevosita ta'sir qiladi va ularning kurslarida ham o'zgarishlar yuzaga keladi.

Dollar kursidagi bunday beqarorlikning muhim sabablaridan biri sifatida AQSH savdo balansining katta salbiy ko'rsatkichga ega ekani ko'rsatiladi. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, AQSH tashqi savdo balansidagi defitsit 466,3 milliard AQSH dollarini tashkil etgan[35]. Bu esa juda katta miqdor bo'lib, milliy valyutaning nomozor (nominal) almashuv kursida sezilarli beqarorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Quyida USD (AQSH dollari) va EUR (yevro) ning 2020-2024 yillar oralig'ida o'rtacha almashuv kurslari (dollar/yevroga nisbatan) bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

[35] http://lenta.ru/news/2012.

Jadval 6.1.

USD (AQSH dollari) va EUR (yevro) ning 2020 2024 yillar oralig‘ida o‘rtacha almashuv kurslari (dollar/yevroga nisbatan)[36]

Yil	O‘rtacha kurs	Izoh (tahliliy sharh)
2020	≈ **1.22** USD per EUR	bu davrda AQSH dollari nisbatan zaiflashgan. COVID-19 pandemiyasining kuchli ta’siri, FZT (Federal zaxira tizimi) tomonidan amalga oshirilgan **yumshoq pul-kredit siyosati**, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash paketlari va pasaytirilgan foiz stavkalari dollar kursining tushishiga olib keldi. Yevro esa pandemiyaning dastlabki bosqichida nisbatan barqaror edi.
2021	≈ **1.14** USD per EUR	AQSH iqtisodiyoti tiklana boshlagan davr. FZT hali ham yumshoq siyosat yuritgan bo‘lsa-da, iqtisodiy faollikning tiklanishi dollarga bo‘lgan talabni biroz kuchaytirdi. Shu bilan birga, Yevro hududi iqtisodiy tiklanishda biroz sust harakat qildi. Natijada, dollar bir oz mustahkamlandi.
2022	≈ **1.07** USD per EUR	bu yilda **inflyatsiyaning keskin o‘sishi** FZTni foiz stavkalarini ko‘tarishga majbur qildi. Foiz stavkalarining oshishi AQSH dollarining boshqa valyutalarga nisbatan mustahkamlanishiga sabab bo‘ldi. Yevro esa Rossiya-Ukraina urushi va energiya inqirozi tufayli bosim ostida qoldi.
2023	≈ **1.10** USD per EUR	bozorlarda nisbiy barqarorlik qayta tiklana boshladi. FZT foiz stavkalarini barqaror ushlab tura boshladi, Yevro esa iqtisodiy tiklanish bosqichiga o‘tdi. Yevro va dollar o‘rtasidagi farq unchalik katta bo‘lmagan, nisbatan muvozanatli kurs shakllandi.
2024	≈ **1.04** USD per EUR	Bu davrda AQSH dollarining yana mustahkamlanishi kuzatilmoqda. Inflyatsiyaga qarshi siyosat, foiz stavkalarining nisbatan yuqori darajada ushlab turilishi va geosiyosiy xavflar dollarga bo‘lgan ishonchni oshirdi. Yevro esa nisbatan zaiflashdi.

Yuqoridagi jadvaldan anglashilishicha, 2020-yildan 2024-yilga qadar AQSh dollari bosqichma-bosqich mustahkamlanib borgan. Bunga asosiy omillar sifatida foiz stavkalarining oshirilishi, inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan qat’iy choralar hamda global iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarning ta’siri sabab bo‘lgan.

[36] FocusEconomics sayti “United States Exchange Rate (USD per EUR, eop)”

Yevroning zaiflashuvi ko‘pincha Yevrozonadagi iqtisodiy sekinlik, energiya inqirozi va siyosiy noaniqliklar bilan bog‘liq.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda AQSHning Xitoy bilan olib borayotgan savdo aloqalarida salbiy balansning oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Ya’ni, AQSH Xitoydan ko‘proq tovar import qilmoqda va eksportdan kamroq daromad olmoqda, bu esa savdo defitsitining ortishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, AQShning davlat byudjeti taqchilligi va tashqi qarz hajmining ortishi xalqaro miqyosda belgilangan me’yorlardan yuqoriligi tufayli, bu omillar AQSh dollarining nominal almashuv kursi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim iqtisodiy xavf sifatida baholanadi.

Masalan, 2017-yil yakunida AQShning davlat tashqi qarzi hajmi yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko‘rsatkichidan oshib ketgan. Bunday holat esa xalqaro moliyaviy standartlarga zid bo‘lib, davlat moliyaviy barqarorligining zaiflashuvi sifatida talqin etiladi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan me’yorlarga ko‘ra, mamlakatning tashqi qarzi YaIMga nisbatan 30 foizdan oshmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa bu talab yanada qat’iy shaklda belgilanib, davlatning jami (ichki va tashqi) qarzi YaIMning 60 foizidan oshmasligi zarur shart etib qo‘yilgan.

Zaxira valyutalar kurslaridagi tebranishlar O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham bilvosita salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning sababi shundaki, milliy valyutamiz — so‘mning nominal almashuv kursi asosan eng asosiy zaxira valyutalardan biri bo‘lgan AQSh dollariga nisbatan belgilanadi. Shu bois, dollar kursidagi har qanday o‘zgarishlar so‘mning barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Shu jihatdan, so‘mning almashuv kursi barqarorligini ta’minlash maqsadida uni faqat AQSh dollariga emas, balki bir nechta asosiy rezerv valyutalardan (masalan, AQSh dollari, yevro, Yaponiya iyeni) tashkil topgan **“valyuta savati”**ga nisbatan belgilash g‘oyasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bunday yondashuv valyuta kursining keskin tebranishlarini yumshatadi va milliy valyuta barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba ham bu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Rossiyada rubl kursini “ikki valyutali savat” (bivalyuta savati) asosida belgilash nafaqat valyuta barqarorligini ta’minladi, balki yevroning konversion operatsiyalardagi ulushini sezilarli darajada oshirdi. Natijada, 2011-yil yakunlariga ko‘ra, yevroda amalga oshirilgan konversion bitimlar ulushi 30,3 foizga yetib, bu ko‘rsatkich xalqaro amaliyotda yuqori natija sifatida e’tirof etilgan.

6.2. Valyuta kursi nazariyalari

Valyuta kursi (exchange rate, foreign exchange rate) — bu “…bir mamlakat pul birligining boshqa davlatning valyutasiga nisbatan qiymatini ifodalovchi ko‘rsatkichdir.” [37].

Valyuta kursi bilan bog‘liq dastlabki nazariyalardan biri bu — valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasidir, va u asosan ingliz iqtisodchilari D. Yum hamda D. Rikardo tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga asoslanadi. D. Rikardoning fikriga ko‘ra, agar mamlakatning savdo balansida defitsit yuzaga kelsa, bu holat funt sterlingning qadrsizlanishiga olib keladi. Unga ko‘ra, valyutalarning xarid kuchi ularning muomaladagi hajmi o‘rtasidagi nisbat orqali aniqlanadi[38].

Mazkur nazariyaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, valyuta kursi ikki mamlakat pul birliklarining nisbiy qiymatlariga qarab belgilanadi. Bu nisbiy qiymat esa o‘z navbatida mamlakatlar ichidagi narxlar darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu yondashuvga ko‘ra, tovar va xizmatlar narxi muomaladagi pul miqdori asosida shakllanadi. Valyutalarning xarid kuchi nazariyasini ilgari surgan iqtisodchilar to‘lov balansida muvozanatni ta’minlab beradigan optimal (mo‘tadil) kursni aniqlash mumkin deb hisoblaydilar. Shu bois, ular xalqaro hisob-kitoblardagi nomutanosibliklar bozor mexanizmlari orqali avtomatik tarzda muvozanatlashadi, degan fikrga tayanadilar.

---

[37] Рикардо Д. Сочинение. Том 2. Пер. с англ. — М.: Политическая литература, 1955. - С. 55.
[38] Рикардо Д. Сочинение. Том 2. Пер. с англ. — М.: Политическая литература, 1955. - С. 55.

Valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasi ilk bor 1918-yilda shved iqtisodchisi Gustav Kassel tomonidan ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Olim o‘z tadqiqotlarida shunday xulosaga kelganki, normal savdo sharoitida valyuta kursi shunday darajada shakllanadiki, u har ikki mamlakat pul birliklarining o‘zaro nisbiy xarid qobiliyatini ifodalaydi.

G. Kasselning konsepsiyasidan kelib chiqadiki, valyuta kursining shakllanish jarayoni bevosita valyutalarning xarid kuchiga bog‘liq bo‘lib, bunda asosiy urg‘u pul birliklarining miqdoriy salohiyatini aniqlashga qaratilgan.

Biroq, ushbu nazariya doirasida **valyuta kursiga ta’sir etuvchi ob’yektiv omillar**, xususan, **Markaziy banklar siyosati**, hisobga olinmagan. Holbuki, zamonaviy sharoitda valyuta kursining shakllanish jarayonida **siyosiy beqarorlik**, **spekulyativ kapital harakati**, **investitsiya oqimlari** kabi ko‘plab tashqi va ichki omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, Markaziy banklarning **pul-kredit siyosati orqali** valyuta bozoriga aralashuvi ham real hayotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tartibga solinadigan valyuta kurslari nazariyasi asoschilaridan biri sifatida mashhur iqtisodchi **J.M. Keyns** tan olinadi. Bu nazariyaning shakllanishiga **1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi** asosiy turtki bo‘lgan.[39]

Mazkur inqiroz neoklassik iqtisodiy maktab vakillari ilgari surgan, ya’ni **erkin raqobatga va davlatning iqtisodiyotga aralashuviga qarshi bo‘lgan yondashuvlarning zaif tomonlarini** ochib berdi. Ularning valyuta kursiga oid nazariyalari o‘zini oqlamadi va inqirozga qarshi yetarli yechim taklif qila olmadi. Shu sababli, **20-asrning 1950–60-yillarida keynschilik yondashuvi rivojlangan mamlakatlarda hukmron iqtisodiy nazariyaga aylandi**.

Valyuta kursiga oid nazariyalar tizimida suzib yuruvchi kurslar konsepsiyasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvni ilgari surgan olimlar, asosan, neoklassik iqtisodiy maktab vakillari

[39]Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money.* — London: *Economica*, 1936. — 230 p..

hisoblanib, ular qatoriga M. Fridmen, F. Maxlup, A. Lindbek, G. Jonson, L. Erxard, G. Girsh va E. Dyurrlami kiradi. .[40]

Suzib yuruvchi valyuta kursi tarafdorlari bu modelni faol himoya etib, uning bir qator ustun jihatlarini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, bunday kurs rejimi:

- to'lov balansidagi nomutanosibliklarni avtomatik tarzda muvozanatlashtirish imkonini yaratadi;
- milliy iqtisodiy siyosat choralarini tashqi bosimlarsiz mustaqil ravishda tanlashga sharoit beradi;
- valyutaviy spekulyatsiyalarga qarshi samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi;
- xalqaro savdoning yanada faollashishiga turtki bo'ladi;
- valyuta kursining erkin bozor mexanizmlari asosida shakllanishini ta'minlaydi.

M. Fridmen o'z nuqtayi nazarida shuni ta'kidlaydiki, valyuta kursi bozor talab va taklifi asosida erkin shakllanishi kerak, davlat esa bu jarayonga aralashmasligi lozim. Uningcha, bozor mexanizmlari orqali shakllangan kurs iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.

Biroq, amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, suzib yuruvchi valyuta kursining nazariy afzalliklari real sharoitda har doim ham to'liq o'z aksini topavermaydi. Milliy valyutaning suzish rejimida ham, ba'zida davlat tomonidan valyuta bozoriga aralashuv zarur bo'ladi. Masalan, iqtisodchi J. Vaynman shunday fikr bildiradi: "...Erkin bozor narxlari mavjud bo'lgan iqtisodiyotda ham xorijiy valyutalar bozorini davlatning to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aralashuvisiz tasavvur qilib bo'lmaydi." [41] [42].

Bugungi global iqtisodiy sharoitda, milliy valyuta kursining keskin o'zgarishlarining oldini olish maqsadida davlat tomonidan kursga ta'sir o'tkazish — xususan, valyuta interventsiyalarini amalga oshirish — amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat, ayniqsa,

---

Machlup F. International payments, debts, and gold. - London: George Allen & Unwin, 1966, - P. 7-50; Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working. -American Enterprise Institute, 1973. -№8. - P. 5; Johnson G. Formulation of Exchange Rate Policies in Adjustment Programs, IMF Occasional Paper - № 36. — Washigton: IMF, 1985.-P. 17- 19.

[11] Friedman M. How Well are Fluctuating Exchange Rates Working. -American Enterprise Institute, 1973. -№8 - P.5.

[42] Viner J. Problems of Monetary Control. - Princeton, 1964. -P. 245.

spekulyativ kapitallar xalqaro miqyosda tez va katta hajmda harakatlanayotgan bir paytda, Markaziy banklarni faol aralashishga majbur qilmoqda.

Valyuta kurslariga oid yondashuvlar orasida belgilangan paritetlar va kurslar nazariyasi ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, to‘lov balansidagi nomutanosibliklarni valyuta kursining o‘zgarishi orqali tartibga solish yetarli samaradorlik bermaydi, chunki xalqaro bozorlarda shakllanadigan narxlar darajasi kursdagi tebranishlarga tezkor va to‘liq tarzda moslasha olmaydi.

Xususan, importga talab ortganida, bu holat avtomatik tarzda xorijiy valyutalarga talab oshishiga olib keladi. Bunday sharoitda eksport va import orasidagi muvozanatni saqlab turadigan kurs faqat qisqa muddatli davrlarga mos keladi. Biroq bu oraliqda, bozorda mavjud bo‘lgan xorijiy valyuta miqdori ortiqcha talabni qoplash uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Natijada, xorijiy valyutaning bahosi oshadi, lekin bu jarayonda taklif hajmi bilan milliy valyuta kursi o‘rtasida bevosita muvofiqlik shakllanmaydi. Ya’ni, valyuta kursining o‘zgarishi orqali avtomatik muvozanatga erishish mexanizmi har doim ham ishlamaydi.

Valyuta kurslari bilan bog‘liq zamonaviy nazariyalar qatorida iqtisodchi F. Maxlup tomonidan ishlab chiqilgan “Valyuta kursi nazariyasi” alohida o‘rin tutadi. Ushbu ilmiy ishda Maxlup “...valyuta kursining shakllanish jarayonlariga turli omillarning, jumladan, kapital harakati, spekulyativ operatsiyalar va davlat siyosatining ta’sirini chuqur tahlil qiladi”. [43]

Iqtisodchi olim F. Maxlup o‘z tadqiqotlarida valyuta kursiga xorijiy valyuta taklifi qanday ta’sir ko‘rsatishini asosan tashqi savdo — ya’ni eksport va import operatsiyalari misolida tahlil qilgan. Biroq, uning bu tahlilida valyuta kursiga ta’sir qiluvchi boshqa muhim omillar — masalan, kapital oqimi, investor kayfiyati, siyosiy barqarorlik yoki spekulyativ harakatlar kabi faktorlar e’tiborga olinmagan.

[43] Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статьей. Пер. с англ - М.: Дело, 2001.-С. 22-82.

F. Maxlupning qarashlariga koʻra, agar mamlakatda eksport va import oʻrtasida nisbiy muvozanat mavjud boʻlsa, xorijiy valyutalar taklifidagi oʻzgarishlar milliy valyuta kursiga maʼlum vaqt oʻtgach taʼsir koʻrsatadi. Ammo shunday sharoitda import hajmi keskin oshsa, bozorda xorijiy valyutaga talab tez ortadi, bu esa taklif va kurs oʻrtasidagi bogʻliqlikning darhol namoyon boʻlishiga sabab boʻladi — yaʼni, taʼsir darhol sezila boshlaydi, vaqtinchalik oraliq yuzaga kelmaydi.

Valyuta kursi haqidagi nazariyalarning amaliy hayotda qanday natija berishi — ularning haqiqiy foydaliligi va dolzarbligini baholashda asosiy mezonlardan biridir. Shu sababli, F. Maxlup nazariyasining amaliy qiymatini aniqlash uchun uni Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyoti sharoitida sinab koʻrish zarur boʻladi. Bunda eksport va import hajmlarining muvozanatlangan vaziyatida xorijiy valyuta taklifining soʻm kursiga qanday taʼsir koʻrsatishini tahlil qilish asos boʻlib xizmat qiladi.

2002–2006-yillar mobaynida Oʻzbekiston Respublikasida tashqi savdo aylanmasi ijobiy saldosining oʻrtacha yillik hajmi 1,1 milliard AQSH dollarini tashkil etganiga qaramay, milliy valyuta — soʻmning AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanish surʼati har yili oʻrtacha 6,5 foiz atrofida boʻlgan. Agar F. Maxlup tomonidan ilgari surilgan valyuta kursi nazariyasi har qanday iqtisodiy sharoitda toʻliq amaliy tasdigʻini topuvchi model boʻlganida, eksport va import oʻrtasida muvozanat saqlanayotgan vaziyatda milliy valyutaning bunday darajadagi qadrsizlanishi kuzatilmagan boʻlardi.

Amalda esa, koʻplab rivojlanayotgan davlatlarda, xususan, Oʻzbekistonda toʻlov balansining asosiy qismini eksport tushumlari va import uchun toʻlovlar tashkil etadi**.** Shunday sharoitda eksportning importdan yuqori boʻlishi milliy valyuta barqarorligini taʼminlaydigan muhim iqtisodiy omil sifatida qaraladi.

F. Maxlup valyuta kurslari nazariyasining taraqqiyotiga muhim hissa qoʻshgan. U oʻz tadqiqotlarida xorijiy valyutaga boʻlgan talab va taklif elastikligini **va** xorijiy valyutalarga talab ortganida taklif elastikligining qanday taʼsir koʻrsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Maxlup fikricha, "...xorijiy valyutalarning eksportga bog'liq taklifiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil — bu boshqa davlatlar tomonidan importga nisbatan cheklovlar, xususan, kvotalarning joriy qilinishidir. Agar xorijiy hukumatlar bizning eksport tovarlarimiz bo'yicha import cheklovlarini kuchaysa, bu holat xorijiy valyutaga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmaydi, shuningdek, bizning eksport hajmimiz ham ko'paymaydi."[44]

Maxlup shuni ta'kidlaydiki, "...bizning eksportga bo'lgan tashqi talabning elastikligi muayyan darajagacha mavjud bo'lib, u bosqichdan keyin nolga tenglashadi. Bu nuqtadan pastda esa xorijiy valyutalar taklifi mutlaqo noelastik holga keladi." [45]

Shunga qaramay, ba'zi import pozitsiyalari bo'yicha xorijiy davlatlar tomonidan hech qanday cheklovlar qo'llanilmaydi, va aynan shu yo'nalishlarda bizning eksportyorlar erkin harakat qila oladi. [46]

F. Maxlupning ta'kidlashicha, agar xorijiy mamlakatlar tomonidan importga nisbatan belgilangan boj stavkalari va mavjud valyuta kursi sharoitida muayyan miqdordagi tovarlarni chetga sotish imkoni mavjud bo'lsa, eksport hajmini oshirish uchun xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan kursining ko'tarilishi zarur bo'ladi. Bunday o'sish natijasida, eksport qilinayotgan mahsulotlar xorijlik xaridorlar uchun arzonroq ko'rinadi va bu, o'z navbatida, ularning xarid qilish ehtimolini oshiradi.

Shu bilan birga, agar norezidentlar xarid qilayotgan tovarlarning qiymatida maxsus import bojlarining ulushi yuqori bo'lsa va ushbu mahsulotlar xorijda mahalliy valyutada to'lanayotgan bo'lsa, xorijiy valyuta kursining oshishi ularning umumiy narxini sezilarli darajada pasaytirishga olib kelmaydi.Bunday holatda, xorijiy xaridorlarning eksport tovarlariga bo'lgan talabi almashuv kursining o'zgarishiga past sezuvchanlik bilan javob beradi.

Shuningdek, Maxlup fikricha, eksport tovarlarini tashish va xorijiy bozorlarda taqsimlash bilan bog'liq xarajatlar ham eksportga boj

---

[44] Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статьей. Пер. с англ - М.: Дело, 2001.-С. 22-82.
[45] usha manba
[46] usha manba

stavkalari kabi ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, bu xarajatlar qanchalik yuqori bo'lsa, talabning valyuta kursi o'zgarishiga nisbatan elastikligi shunchalik pasayadi.

Bundan tashqari, Maxlup quyidagi muhim xulosani ilgari suradi: agar xorijiy bozorlar bizning eksport qilayotgan mahsulotlar bilan raqobatlasha oladigan tovarlarni o'zlari ishlab chiqarishga qodir bo'lsa, bu mahsulotlar taklifining elastikligi yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa, xorijiy valyutalarning taklif elastikligini oshiradi.

Uning fikricha: "Agar mamlakatimizdan eksport qilinayotgan ayrim tovarlar xorijda ham ishlab chiqarilsa, u holda xorijiy xaridorlar uchun bizning mahsulotlar narxining pasayishi xorijiy valyutaning dollardagi qiymatining o'zgarishi bilan birgalikda yuz beradi**.** Shu sababli, eksport hajmining o'sishi ko'pincha xorijdagi raqobatchi mahsulotlar hajmining kamayishi bilan bog'liq bo'ladi. Agar xorijda ishlab chiqarilayotgan tovarlar yuqori elastiklikka ega bo'lsa, ya'ni ular ishlab chiqarilishini qisqartirish oson bo'lsa, bizning eksportchilarning narxlarni sezilarli darajada pasaytirishi zarur bo'ladi." [47]

Xulosa qilib aytganda, "Valyuta kursi" milliy iqtisodiyotning tashqi sektoridagi muvozanatni ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uning shakllanish jarayoni turli nazariy yondashuvlar hamda real iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixiy jihatdan olganda, valyuta kursining shakllanishi haqidagi dastlabki qarashlar, jumladan, G. Kassel va D. Rikardo tomonidan ilgari surilgan valyutalarning xarid qobiliyati nazariyasi, pul birliklarining nisbiy xarid kuchi farqiga asoslanadi. Biroq, zamonaviy iqtisodiy muhitda bu nazariyaning amaliy chegaralari yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga davlatning iqtisodiy siyosati, xalqaro kapital oqimlari, spekulyativ harakatlar hamda siyosiy barqarorlik darajasi ham kiradi.

XX asrda J.M. Keyns **va** M. Fridmen kabi iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan tartibga solinadigan va suzib yuruvchi kurslar nazariyalari davlatning iqtisodiy rolini turlicha talqin qiladi. Ayniqsa,

[47] Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статьей. Пер. с англ. - М.: Дело, 2001.-С. 30.

suzib yuruvchi kurs tarafdorlari valyuta kursi bozor talab va taklifi orqali erkin shakllanishi kerak deb hisoblaydi. Biroq, amaliyotda davlat aralashuvi, xususan, **valyuta interventsiyasi** ko‘plab hollarda zarur bo‘lib qolmoqda.

F.Maxlup tomonidan ishlab chiqilgan “Valyuta kursi nazariyasi” ushbu yondashuvlar evolyutsiyasiga muhim hissa qo‘shdi. U xorijiy valyutalarning taklif va talab elastikligini, bojxona to‘siqlari va tashqi savdo siyosatining valyuta kursiga ta’sirini chuqur o‘rgandi. Maxlupga ko‘ra, eksport va import o‘rtasidagi muvozanat sharoitida xorijiy valyuta taklifi milliy valyuta kursiga kechiktirilgan ta’sir ko‘rsatadi, ammo import hajmi keskin oshgan holatlarda bu ta’sir darhol namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2002–2006-yillarda tashqi savdo balansining ijobiy saldosiga qaramay, milliy valyuta qadrsizlanish tendensiyasi kuzatilgan. Bu holat F. Maxlup nazariyasining amalda har doim ham to‘liq ishlamasligini ko‘rsatadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, valyuta kursiga faqat savdo balansining holati emas, balki boshqa makroiqtisodiy va tashqi omillar ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, F. Maxlupning ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, eksportchilarning raqobatbardoshligini belgilovchi omillar — xorijiy bozorlardagi boj stavkalari, raqobatchi mahsulotlarning mavjudligi hamda tashish xarajatlari — valyuta kursining eksport faoliyatiga ta’sirini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, valyuta kursi nazariyalari uni shakllantiruvchi omillarni tahlil qilish va anglash uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Biroq har bir nazariyaning amaliy samaradorligi mavjud iqtisodiy sharoit, davlatning iqtisodiy siyosati hamda global omillar ta’siriga qarab o‘zgaradi. Shu sababli, real iqtisodiyotda kompleks va moslashuvchan yondashuvni qo‘llash zarurdir.

6.3.Valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

Valyuta kursining shakllanish jarayoniga bir qator asosiy omillar ta’sir etadi. Ulardan eng muhimlaridan biri — to‘lov balansida manfiy saldo yuzaga kelishidir. To‘lov balansidagi manfiylik xorijiy valyutada

amalga oshiriladigan to‘lovlarning ko‘payishiga va natijada mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari kamayishiga olib keladi. Bu holat ichki valyuta bozorida xorijiy valyutaning taklifi qisqarishiga sabab bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida milliy valyutaning nominal almashuv kursiga kuchli bosim o‘tkazadi.

Shuningdek, valyuta kursiga ta’sir qiluvchi yana bir asosiy omil – bu davlat byudjetidagi tanqislikdir. Bu holat ayniqsa rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Sababi, bunday mamlakatlarning ko‘pchiligida Markaziy banklar iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqillikka to‘liq ega emas. Davlat byudjeti tanqisligini qoplash uchun esa ko‘pincha Markaziy bank tomonidan emissiya vositasiga murojaat qilinadi. Natijada muomalaga tovar va xizmatlar bilan ta’minlanmagan ortiqcha pul tushadi va bu esa inflyatsiyani kuchaytirib, milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib keladi.

Shu bois, davlat byudjetidagi tanqislikning me’yoriy darajada saqlanishi milliy valyuta barqarorligini ta’minlashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribada esa davlat byudjeti tanqisligining nominal YaIMga nisbatan 3 foizdan oshmasligi me’yoriy ko‘rsatkich sifatida e’tirof etilgan.

Markaziy bankning monetar siyosati va uning valyuta kurslariga ta’siri

Markaziy bank tomonidan olib boriladigan monetar siyosat milliy valyutaning almashuv kurslariga, xususan, uning nominal qiymatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir.

Ma’lumki, mazkur siyosat iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

1. **Restriksion monetar siyosat**
2. **Ekspansionistik monetar siyosat**

Restriksion monetar siyosat, odatda, muomaladagi pul massasining haddan tashqari o‘sishini jilovlash va uni nazorat ostida ushlab turishga qaratiladi.

Bu siyosatni amalga oshirish jarayonida Markaziy bank quyidagi asosiy vositalardan foydalanadi:

- majburiy zaxira me'yorlarini oshirish orqali bank tizimidagi erkin likvidlik hajmini qisqartiradi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish sharti bilan sotish (repo) amaliyotlarini amalga oshiradi;
- hukumat va tijorat banklarining vaqtincha bo'sh mablag'larini depozit hisobvaraqlariga jalb etadi;
- valyuta siyosati doirasida milliy pul massasining ortishini cheklovchi operatsiyalarni amalga oshiradi.

Ekspansionistik monetar siyosatning mazmuni va ta'siri. **Ekspansionistik monetar siyosat** — bu muomaladagi pul massasining ko'payishini, ya'ni uning multiplikativ kengayishini ta'minlash orqali ichki to'lovga qodir talabni faollashtirishga yo'naltirilgan pul-kredit siyosatidir.

Bunday siyosatni amalga oshirish jarayonida Markaziy bank quyidagi asosiy chora-tadbirlarni qo'llaydi:

- qayta moliyalashtirish stavkalarini pasaytirish orqali tijorat banklariga beriladigan markazlashtirilgan kreditlar hajmini kengaytiradi;
- tijorat banklarining kreditlash hajmiga qo'yilgan cheklovlar (limitlar)ni oshirib, ularning iqtisodiyotga ko'proq kredit ajratish imkoniyatini kengaytiradi;
- majburiy zaxira me'yorlarini pasaytirish orqali banklar tasarrufida ko'proq likvid mablag'larni qoldiradi;
- tijorat banklaridan qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish sharti bilan xarid qilib, revers repo operatsiyalarini amalga oshiradi;
- valyuta siyosati doirasida muomaladagi milliy pul massasini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, **restriksion monetar siyosat** milliy valyutada muomaladagi pul hajmining o'sishini sekinlashtiradi yoki kamaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, milliy valyutaning qadri ortishiga olib keladi. Biroq, bunday siyosat ichki talabni susaytiradi va

makroiqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Aksincha, **ekspansionistik monetar siyosat** esa ichki talabni qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi. Bu esa pul massasining jadal o‘sishiga va iqtisodiyotda multiplikativ kengayish jarayonining yuzaga kelishiga xizmat qilishi mumkin.

Siyosiy xavf (mamlakat riski) va uning valyuta kursiga ta’siri. Milliy valyutaning nominal almashuv kursiga ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biri bu — siyosiy xavf, ya’ni mamlakat riski hisoblanadi. Odatda, siyosiy beqarorlik kuchaygan paytda mamlakatdan katta miqdordagi oltin-valyuta zaxiralari chiqib ketadi. Natijada ichki valyuta bozorida xorijiy valyutaning taklifi keskin kamayadi va to‘lov balansidagi salbiylik (debitsit) yanada chuqurlashadi. Bu holat milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib keladi.

Hozirgi davrda **AQSh dollarining almashuv kursidagi beqarorlik** Yaponiyaning, Germaniyaning, Fransiyaning, Buyuk Britaniyaning hamda Xitoyning moliyaviy manfaatlariga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur davlatlarning **xalqaro valyuta zaxiralari**ning katta qismi **AQSh dollarida saqlanadi**, shu bois dollar kursidagi o‘zgarishlar ularning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.


Mazkur holatdan kelib chiqib, **1999-yil yanvar oyida Yaponiya va Germaniya moliya vazirlari** AQSh hukumatiga rasmiy tarzda murojaat qilib, **dollar, yevro va iena kurslarini o‘zaro barqaror nisbatda bog‘lash** taklifini ilgari surganlar. Bu tashabbusning maqsadi jahon moliya bozorlaridagi keskin kurs tebranishlarini kamaytirish hamda **xalqaro valyuta tizimida uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash**dan iborat edi.

Biroq bu taklifga AQSh Federal zaxira tizimi (FZT)ning o‘sha vaqtdagi rahbari A. Grinspen hamda Moliya vaziri R. Rubin keskin qarshi chiqdilar. Ularning ta’kidlashicha, asosiy valyutalarning kurslarini bir-biriga bog‘lab qo‘yish g‘oyasi FZTning mustaqil ravishda

pul-kredit siyosatini olib borish, xususan, ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi kurashishdagi imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[48]

Milliy valyuta kursining barqarorligiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri, shubhasiz, inflyatsiya jarayonidir. Inflyatsiya yuzaga kelganda milliy pul birligining haqiqiy qiymati pasayib, uning xarid qobiliyati susayadi.

"Inflyatsiya" atamasi lotin tilidagi *"inflatio"* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "shishish" yoki "ko'payish" ma'nolarini bildiradi. 6.3.1- rasm.



6.1-rasm. Inflyatsiyaning asosiy turlari

1-rasmdan ko'rinib turganidek, inflyatsiya bir nechta asosiy shakllarda namoyon bo'ladi va ularning har biri milliy valyutaning almashuv kursiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Inflyatsiya quyidagi asosiy yo'nalishlarda ifodalanadi:

- milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanishi;
- milliy valyutaning ichki bozordagi tovar va xizmatlar narxlariga nisbatan o'z qiymatini yo'qota borishi;
- milliy pul birligining oltin va boshqa qimmatbaho metallar bilan taqqoslaganda qadrsizlanishi.

[48] Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2007. - С. 625-626.

Shunday qilib, inflyatsiya uchta asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi va ularning barchasi milliy valyutaning qiymatini pasaytiruvchi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Davlat tashqi qarzining valyuta kursiga ta’siri. **Davlat tashqi qarzi** — bu hukumat yoki hukumat kafolati ostida olingan, xorijiy kreditlar va qarz majburiyatlarining umumiy hajmini anglatadi. Bunday qarzlar odatda xorijiy valyutada bo‘lgani sababli, ularning milliy valyuta kursiga ta’siri bevosita va sezilarli bo‘lishi mumkin.

1. Tashqi qarz va valyuta bozori o‘rtasidagi bog‘liqlik. Agar davlat tashqi qarzining hajmi yuqori bo‘lsa, qarzlarni so‘ndirish uchun zarur bo‘lgan to‘lovlar xorijiy valyutada amalga oshiriladi. Bu esa ichki bozorda xorijiy valyutaga talabni oshiradi. Xorijiy valyutaga talab ortib, taklif o‘zgarmasa, milliy valyutaning kursiga bosim kuchayadi va u qadrsizlana boshlaydi.

2. Investorlar ishonchi va risklar.Tashqi qarzning YaIMga nisbatan yuqori bo‘lishi xalqaro investorlar tomonidan riskli holat sifatida baholanadi. Bunday vaziyatda xorijiy kapital oqimi sekinlashishi yoki to‘xtashi mumkin, bu esa milliy valyuta kursining beqarorligiga olib keladi.

Shuningdek, tashqi qarzning yuqoriligi hukumat tomonidan yangi qarzlar jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi va foiz stavkalarining oshishiga olib keladi, bu esa valyutaga bo‘lgan bosimni kuchaytiradi.

3. Zaxiralar va to‘lov qobiliyati. *Davlat o‘z tashqi qarzini o‘z vaqtida va to‘liq qaytarishi uchun yetarli darajada valyuta zaxirasiga ega bo‘lishi lozim. Agar zaxiralar yetarli bo‘lmasa yoki kamayib borayotgan bo‘lsa, bu holat milliy valyutaga nisbatan ishonchni pasaytiradi. Natijada, valyuta kursida keskin o‘zgarishlar yuz berishi mumkin.*

4. Xalqaro me’yorlar. *Xalqaro amaliyotda davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatan 60% dan oshmasligi me’yoriy daraja sifatida qaraladi. Agar bu nisbatdan oshib ketsa, iqtisodiy xavf kuchayadi va bu bevosita valyuta kursining zaiflashishiga olib kelishi mumkin.*

5. O‘zbekiston misolida holat. Masalan, 2014-yilda O‘zbekiston Respublikasining tashqi qarzi YaIMga nisbatan 17% atrofida bo‘lgan. Bu past va barqaror daraja hisoblangan. Biroq keyingi yillarda tashqi qarz miqdori ortib bordi va 2024-yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 55–60% atrofida baholandi. Bu esa valyuta kursiga bosim oshayotganini anglatadi, lekin hanuzgacha xavfli chegara (60%) yaqinida.

Davlatning tashqi qarzi milliy valyuta kursiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Uning ortishi ichki valyuta bozorida xorijiy valyutaga talabni kuchaytiradi, valyuta zaxiralari bosim ostida qoladi va investorlar ishonchiga salbiy ta’sir qiladi. Shu bois tashqi qarz darajasini optimal va boshqariladigan holatda ushlab turish valyuta kursining barqarorligi uchun zaruriy shartlardan biridir.

Asosiy tushunchalar va iboralar

valyuta kursi, milliy valyuta, xorijiy valuta, tashqi qarz, inflyatsiya, to’lov balansi, davlat byudjeti, markaziy bank, monetar siyosat, restriksion siyosat, expansionistik siyosat, valyuta zaxiralari, siyosiy risk, xalqaro rezervlar, talab va taklif, kurs beqarorligi, kreditlash, pul massasi, multiplikator, emissiya.

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Valyuta kursi nima va u qanday shakllanadi?
2. Milliy valyuta kursiga eng ko‘p ta’sir qiluvchi omillar qaysilar?
3. Tashqi qarz milliy valyuta kursiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
4. Inflyatsiya va valyuta kursi o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday?
5. Tўlov balansining deficiti valyuta kursiga qanday ta’sir qiladi?
6. Davlat byudjeti defitsiti valyuta kursining barqarorligiga qanday ta’sir qiladi?
7. Markaziy bankning monetar siyosati valyuta kursiga qanday ta’sir qilishi mumkin?
8. Restriksion va expansionistik monetar siyosat farqlari nimada?
9. Siyosiy risklar valyuta kursining o‘zgarishiga qanday sabab bo‘ladi?

10. Valyuta kursini barqarorlashtirish uchun qanday chora-tadbirlar qo‘llaniladi?

11. Talab va taklif printsipi valyuta kursiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

12. Milliy valyuta qadrsizlanishini oldini olish uchun davlat nimalar qilishi kerak?

13. Valyuta zaxiralari nima uchun muhim hisoblanadi?

14. Pul massasining o‘sishi valyuta kursiga qanday ta’sir qiladi?

15. Milliy valyutaning qiymatini saqlash uchun qanday iqtisodiy siyosatlar qo‘llaniladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Valyuta kursi deganda nima tushuniladi?

A) Davlat byudjeti daromadlarining taqsimoti

B) Bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat puli bilan nisbatda ifodalangan qiymati

C) Bank foiz stavkasi

D) Tashqi savdo balansi

2. Real valyuta kursi qanday aniqlanadi?

A) Nominal kursni inflyatsiya farqi bilan tuzatish orqali

B) Markaziy bank tomonidan belgilash orqali

C) Faqat eksport hajmi asosida

D) Xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlash orqali

3. Valyuta kursining turlari qaysilar?

A) Doimiy va o‘zgaruvchan kurs

B) Faol va passiv kurs

C) Ichki va tashqi kurs

D) Mahalliy va xalqaro kurs

4. Suvurtalangan (qat’iy) valyuta kursi qanday belgilanadi?

A) Bozor talab va taklifiga qarab

B) Markaziy bank tomonidan belgilab, uzoq muddat o‘zgarmasdan turadi

C) Har kuni erkin suzuvchi bozor mexanizmi asosida
D) Xalqaro tashkilotlar tomonidan avtomatik belgilanadi

5. Suzuvchi valyuta kursi deganda nimani tushunamiz?

A) Kursning davlat tomonidan qat'iy belgilanishi
B) Kursning xalqaro tashkilotlar tomonidan nazorat qilinishi
C) Bozor talab va taklifiga qarab doimiy o‘zgarib turadigan kurs
D) Faqat eksport tovarlariga bog‘liq kurs

6. Valyuta kursiga eng ko‘p ta’sir qiluvchi omillar qaysilar?

A) Inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, to‘lov balansi holati
B) Ish haqi miqdori, soliqlar, transport narxlari
C) Yer solig‘i, demografik o‘sish, ekologiya
D) Faqat davlat qarzlari

7. To‘lov balansining ijobiy bo‘lishi valyuta kursiga qanday ta’sir qiladi?

A) Milliy valyutani mustahkamlaydi
B) Valyutani qadrsizlantiradi
C) Kursni pasaytiradi
D) Ta’sir qilmaydi

8. Valyuta bozorida talab ortsa, kursga qanday ta’sir qiladi?

A) Milliy valyuta qadrsizlanadi
B) Milliy valyuta mustahkamlanadi
C) Kurs o‘zgarmaydi
D) Faqat import oshadi

9. Valyuta kursining o‘zgarishi eksport va importga qanday ta’sir qiladi?

A) Milliy valyuta qadrsizlansa, eksport ortadi, import kamayadi
B) Milliy valyuta mustahkamlansa, eksport ortadi
C) Kurs o‘zgarmasa, eksport kamayadi
D) Har doim bir xil ta’sir ko‘rsatadi

10. Markaziy bank valyuta kursiga qanday yo‘l bilan ta’sir qiladi?

A) Foiz stavkalarini o‘zgartirish, valuta zaxiralarini boshqarish orqali
B) Faqat soliqlarni oshirish orqali

C) Importni taqiqlash orqali
D) Valyuta kursini bozorga topshirish orqali

11. Nominal valyuta kursi bu —

A) Pulning oltin miqdoridagi qiymati
B) Valyuta birligining nominal bahosi
C) Rasmiy ravishda e’lon qilinadigan, bozordagi real kursdan farq qiladigan kurs
D) Xarid qobiliyatiga tenglashtirilgan kurs

12. Real valyuta kursi qanday aniqlanadi?

A) Nominal kursni inflyatsiya farqi bilan tuzatish orqali
B) Markaziy bank tomonidan belgilash orqali
C) Faqat eksport hajmi asosida
D) Xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlash orqali

13. Valyuta kursining barqarorligi nimani anglatadi?

A) Kursning keskin tebranishsiz uzoq muddat saqlanishi
B) Kursning tez-tez o‘zgarib turishi
C) Inflyatsiyaning yuqori bo‘lishi
D) Kursning faqat pasayish tendensiyasida bo‘lishi

VII BOB. JAHON VALYUTA TIZIMI TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISHI

7.1. Jahon valyuta tizimi va uning xususiyatlari

Jahon valyuta tizimi — bu "xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, turli mamlakatlarning valyutalari o'rtasidagi o'zaro nisbatlarni tartibga solish hamda global moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi xalqaro iqtisodiy mexanizmlar majmuasidir."[49]U o'z navbatida milliy valyuta tizimlarining shakllanishi, xalqaro savdoning kengayishi va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi jarayonida bosqichma-bosqich tarkib topgan.

Jahon valyuta tizimi — bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qo'llaniladigan yagona qoidalar, valyuta birliklari, hisob-kitob shakllari va moliyaviy institutlarning o'zaro uyg'un tizimidir. Uning asosiy mazmuni shundaki, u milliy valyuta tizimlari o'rtasida muvofiqlikni ta'minlaydi va xalqaro to'lovlar tizimida yagona tartibni o'rnatadi.

Mazkur tizimning bosh vazifalari quyidagilardan iborat:

- xalqaro savdo operatsiyalarida to'lovlarning uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlash;
- turli valyutalar o'rtasidagi kurs nisbatlarini barqarorlashtirish va ularni muvozanatda ushlab turish.
- to'lov balansi muvozanatini saqlab turish;
- global moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash.

Jahon valyuta tizimi bir necha bosqichlarda shakllangan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga ega bo'lgan.

1. **Oltin standarti tizimi (XIX asr – XX asr boshlarida).** Bu davrda milliy valyutalar oltin zaxirasi bilan ta'minlangan bo'lib, ularning qiymati bevosita oltin miqdoriga bog'langan edi. Har bir davlat o'z milliy valyutasining oltin paritetini belgilagan va uni istalgan vaqtda oltin bilan almashtirish imkoniga ega bo'lgan. Bu tizim xalqaro hisoblarda barqarorlik va ishonchni ta'minlagan.

[49] https://www.rea.ru/r u/org/branches/krasn odar/Documents/B1.V. 14_MVK_i_FO.pdf

2. **Bretton-Vuds tizimi (1944–1971 yillar).** Ikkinchi jahon urushidan so‘ng jahon moliyaviy tizimini barqarorlashtirish maqsadida AQShda Bretton-Vuds konferensiyasi o‘tkazilgan. Ushbu tizimda AQSh dollari asosiy zahira valyutasi sifatida belgilangan va u oltin bilan qat’iy kursda bog‘langan (1 unsiya oltin = 35 dollar). Bu davrda Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) va Jahon banki tashkil etilgan.

3. **Jamaika tizimi (1976 yildan hozirgacha).** Bretton-Vuds tizimi inqirozga uchragach, valyutalarni oltin bilan bog‘lash amaliyoti bekor qilindi. Yangi tizimda valyuta kurslari bozor mexanizmlari orqali shakllanadigan bo‘ldi. Bu davrda erkin suzuvchi (floating) kurs siyosati joriy etildi, oltin esa xalqaro to‘lov vositasi sifatidagi maqomini yo‘qotdi.

Jahon valyuta tizimi qo‘yidagi asosiy xususiyatlaridan iborat:

1. **Valyuta kurslarining erkin harakati** – valyutalar qiymati bozor talab va taklifiga qarab belgilanadi.
2. **Zahira valyutalarning mavjudligi** – AQSh dollari, yevro, iyena, funt sterling va yuanning xalqaro aylanmadagi ustun roli.
3. **Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning faoliyati** – Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Jahon banki va boshqa institutlar jahon moliya tizimini muvofiqlashtiradi.
4. **Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari** – mamlakatlar o‘rtasida kreditlash, to‘lov balansi defitsitini qoplash va valyuta inqirozlarining oldini olish choralari ko‘riladi.
5. **Kapital harakatining erkinligi** – sarmoya, kredit va moliyaviy oqimlarning xalqaro miqyosda erkin aylanishi.

Jahon valyuta tizimi global iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, xalqaro savdo, investitsiyalar va kapital harakatini tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur tizim orqali:

1. mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy hamkorlik mustahkamlanadi;
2. xalqaro to‘lov tizimlarining barqaror faoliyati ta’minlanadi;
3. valyuta xavflarini kamaytirish uchun sharoit yaratiladi;
4. iqtisodiy integratsiya va o‘zaro hamkorlik jarayonlari yanada chuqurlashadi.

Jahon valyuta tizimi — bu jahon xo‘jaligi faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, u mamlakatlarning moliyaviy siyosatini uyg‘unlashtiradi va xalqaro hisob-kitoblarning barqarorligini ta’minlaydi. Uning rivojlanishi global iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va siyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shunday qilib, zamonaviy jahon valyuta tizimi bugungi kunda xalqaro moliyaviy tizimning asosiy tayanchi sifatida shakllanib, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Tarixiy nuqtai nazardan, jahon valyuta tizimi milliy valyuta tizimlarining shakllanish jarayoni hamda ular orqali mamlakat ichida va xalqaro miqyosda barqaror to‘lov va hisob-kitob munosabatlarini yo‘lga qo‘yish zarurati natijasida vujudga kelgan. XIX asr boshlariga kelib, davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarining kengayishi va xalqaro tovar ayirboshlash hajmining ortishi natijasida turli milliy valyuta tizimlari o‘rtasida o‘zaro muvofiqlik va konvertatsiya mexanizmlarini yaratish ehtiyoji paydo bo‘lgan.

Dastlab bunday munosabatlar oltin standarti tizimi asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda oltin pul muomalasining asosiy vositasi sifatida qabul qilingan. Oltin standart amal qilgan mamlakatlarda davlat qonuniy ravishda milliy valyutaning oltindagi miqdoriy qiymatini belgilab, ichki bozorda oltin tangalarni cheklanmagan miqdorda muomalaga chiqargan. Boshqa pul birliklari esa oltinga nisbatan ikkilamchi ahamiyat kasb etgan va ularni istalgan paytda oltin bilan erkin almashish imkoniyati mavjud bo‘lgan.

Shuningdek, davlat barcha tovarlarning narxini oltin birligida hisoblab, oltinni mamlakat hududiga olib kirish va olib chiqishga ruxsat berardi. Shunday qilib, milliy valyuta qiymati oltin bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, hukumatlar faqat oltin zaxirasiga mos miqdorda qog‘oz pullar chiqarishga intilar edilar. Bu holat ortiqcha pul emissiyasining oldini olib, inflyatsiyani cheklab turardi.

Bundan tashqari, turli mamlakatlar milliy valutalari o‘rtasidagi nisbatlar oldindan belgilanib, barqaror saqlangan. Bu esa xalqaro hisob-

kitoblarda ishonch va muvozanatni ta’minlagan. Masalan, 1929 yilda 1 funt sterling 7,32 gramm sof oltin qiymatiga ega bo‘lgan, 1 AQSh dollari esa 1,5 gramm sof oltinga teng bo‘lgan. Shu sababli ular orasidagi oltin pariteti (ya’ni o‘zaro tenglik) 1 funt sterling = 4,86 AQSh dollari tarzida ifodalangan.

Keyinchalik esa barcha mamlakatlarda qog‘oz pullarni oltin bilan almashtirish to‘xtatildi. Oltinning muomala doirasi torayib, u faqat yirik xalqaro hisob-kitoblar bilan cheklanadigan bo‘ldi. Natijada oltin bilan bog‘liq operatsiyalarni faqat markaziy banklar va ayrim yirik xususiy moliya institutlari amalga oshira boshladilar.

Jahon valyuta tizimi o‘zining shakllanishida mamlakatlarning ichki va tashqi iqtisodiy muomalalarida barqaror to‘lovlarni ta’minlay oladigan milliy valyuta tizimlarining rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan. XIX asr boshlariga kelib, davlatlar o‘rtasida xalqaro savdo aloqalarining kengayishi ularning milliy valyuta tizimlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni yaratish zaruratini keltirib chiqardi.

Dastlab bu o‘zaro bog‘liqlik **oltin standarti** asosida amalga oshirilgan bo‘lib, u oltin asosidagi pul tizimiga tayangan. Oltin standart amal qilgan davlatlarda hukumat qonuniy tarzda milliy valyutaning oltin miqdorini belgilab qo‘ygan, ichki bozorda esa cheklanmagan miqdorda oltin tangalar muomalaga chiqarilgan. Boshqa pul birliklari oltinga nisbatan ikkinchi darajali o‘rin egallagan va istalgan paytda oltin bilan erkin almashtirilgan.

Bundan tashqari, davlat barcha tovar va xizmatlar narxini oltin birligi asosida hisoblab, oltinni mamlakatga olib kirish hamda olib chiqishga ruxsat bergan. Shunday qilib, milliy valyuta qiymati oltin bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, har bir mamlakat hukumati oltin zaxirasi bilan ta’minlanadigan miqdorda qog‘oz pul chiqarishga intilgan. Bu esa ortiqcha pul emissiyasining oldini olib, inflyatsiyani jilovlab turgan.

Shuningdek, turli davlatlar milliy valyutalari o‘rtasidagi nisbatlar belgilangan va nisbatan barqaror bo‘lib, xalqaro hisob-kitoblarda ishonch va muvozanatni ta’minlagan. Masalan, 1929 yilda 1 funt sterling 7,32 gramm sof oltinga, 1 AQSh dollari esa 1,5 gramm sof

oltinga teng bo‘lgan. Shu asosda ularning o‘zaro nisbatlari, ya’ni oltin pariteti, 1 funt sterling = 4,86 AQSh dollari deb belgilangan.

Evropa Markaziy Banki Yevrozonaning moliyaviy yuragi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Uning pul va valyuta siyosati nafaqat inflyatsiyani nazorat qilish, balki iqtisodiy o‘sish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. EMBning mustaqilligi va professionalligi yevrozonadagi ishonch va barqarorlik asoslaridan biridir.

Asosiy tushunchalar va iboralar

Yevropa valyuta tizimi (YVT), Yevropa valyuta birligi (ECU), Maastrix shartnomasi, Yevrozona (Eurozone), Valyuta mexanizmi (ERM I va ERM II), Moliyaviy barqarorlik va inflyatsiya nazorati, Konvergentsiya mezonlari (iqtisodiy yaqinlashuv shartlari), Yevropa Ittifoqi (YI), Pul-kredit siyosati uyg‘unligi.

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Yevropa valyuta tizimi deganda nima tushuniladi?
2. Yevropa valyuta tizimi qachon va qanday maqsadda tashkil etilgan?
3. Yevropa valyuta tizimining shakllanishiga qanday iqtisodiy omillar turtki bo‘lgan?
4. “Yevropa valyuta birligi (ECU)” nima va u qanday vazifani bajargan?
5. Valyuta mexanizmi (ERM) tizimining asosiy maqsadi nimadan iborat?
6. Yevropa valyuta tizimining shakllanish bosqichlarini sanab bering.
7. Maastrix shartnomasining Yevropa valyuta tizimidagi ahamiyati nimada?
8. Yevro valyutasi qachon joriy etilgan va naqd pul shaklida muomalaga qachon kirgan?
9. Yevrozonaga a’zo bo‘lish uchun mamlakatlar qanday iqtisodiy shartlarni bajarishi kerak?
10. Yevropa Markaziy bankining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
11. Yevropa valyuta tizimi a’zolari o‘rtasida valyuta kursi qanday tartibda belgilanadi?
12. Yevro joriy etilishi Yevropa iqtisodiyotiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatdi?
13. Yevropa valyuta tizimining muhim afzalliklari va kamchiliklarini aytib bering.

14. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining yagona valyutaga o‘tishi jarayonida qanday muammolar kuzatilgan?

15. Yevropa valyuta tizimi bugungi kunda global moliya tizimida qanday o‘rin egallaydi?

16. Nega Yevropa mamlakatlari milliy valyutalarini yagona valyutaga almashtirishga qaror qildilar?

17. Yevro joriy etilishi Yevropa iqtisodiy mustaqilligiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

18. Agar bir mamlakat Yevrozonadan chiqsa, bu tizim barqarorligiga qanday ta’sir qiladi?

19. Yevropa valyuta tizimi va Bretton-Vuds tizimi o‘rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?

20. Yevrozonaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida sizning fikringiz qanday?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Yevropa valyuta tizimi (YVT) deganda nima tushuniladi?

A) Yevropa davlatlari o‘rtasida yagona soliq siyosatini shakllantirish tizimi

B) Yevropa mamlakatlari o‘rtasida valyuta kurslari va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash tizimi

C) Faqat Yevropa Ittifoqining tashqi siyosati

D) Milliy iqtisodiyotlarni birlashtirish jarayoni

2. Yevropa valyuta tizimi tashkil etilishining asosiy maqsadi nima edi?

A) Yagona siyosiy ittifoqni yaratish

B) Yevropa mamlakatlari o‘rtasida valyuta kurslarini barqarorlashtirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish

C) Oltin zaxiralarini ko‘paytirish

D) AQSh dollarini muomaladan chiqarish

3. Yevropa valyuta tizimi rasmiy ravishda qachon tashkil etilgan?

A) 1973-yilda

B) 1979-yilda

C) 1992-yilda
D) 1999-yilda

4. Yevropa valyuta tizimi qaysi tashkilot asosida shakllangan?

A) Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)
B) Yevropa xavfsizlik kengashi
C) NATO
D) BMT

5. Yevropa valyuta tizimining muhim elementi bo‘lgan “ECU” (European Currency Unit) nima edi?

A) Maxsus bank krediti
B) Yevropa hisob-kitob birligi (valyuta savatiga asoslangan birlik)
C) Milliy valyuta nomi
D) Sug‘urta kompaniyasi

6. ECU valyuta birligi qachon o‘rnini Yevroga bo‘shatgan?

A) 1990-yilda
B) 1999-yilda
C) 1985-yilda
D) 2005-yilda

7. “Valyuta mexanizmi” (ERM) nima uchun joriy etilgan edi?

A) Valyutalarning bir-biriga nisbatan kurs o‘zgarishlarini cheklash uchun
B) Soliq siyosatini muvofiqlashtirish uchun
C) Eksportni kamaytirish uchun
D) Yevropa banklarini milliylashtirish uchun

8. Yevropa valyuta tizimining rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biri — Maastrix shartnomasi qachon imzolangan?

A) 1991-yilda
B) 1992-yilda
C) 1995-yilda
D) 1999-yilda

9. Maastrix shartnomasi asosida qaysi yangi bosqich boshlangan edi?

A) Yevropa xavfsizlik tizimining shakllanishi
B) Yevropa iqtisodiy va valyuta ittifoqining (EMU) yaratilishi

C) Yagona savdo bozorining yopilishi
D) ECU bekor qilinishi

10. Yevro (EUR) rasmiy hisob-kitob birligi sifatida qachon joriy etilgan?
A) 1995-yilda
B) 1999-yilda
C) 2000-yilda
D) 2002-yilda

11. Yevro naqd pul shaklida muomalaga qachon kiritilgan?
A) 1999-yilda
B) 2002-yilda
C) 1995-yilda
D) 2005-yilda

12. Yevropa Markaziy banki (YMB)ning asosiy vazifasi nimadan iborat?
A) Yevro zonasining moliyaviy siyosatini yuritish va narx barqarorligini saqlash
B) Har bir mamlakat uchun alohida valyuta chiqarish
C) Soliq yig‘imlarini nazorat qilish
D) Xalqaro savdo tashkilotlarini boshqarish

13. “Konvergentsiya mezonlari” deganda nimani tushunamiz?
A) Yevropa davlatlarining Yevrozonaga qo‘shilish uchun bajarishi lozim bo‘lgan iqtisodiy shartlar majmuasi
B) Yevropa davlatlarining mudofaa ittifoqi
C) Xalqaro to‘lov tizimi
D) Savdo aloqalarining qisqarishi

14. Yevropa valyuta tizimining shakllanishiga qaysi omil eng katta ta’sir ko‘rsatgan?
A) Xalqaro savdoning o‘sishi va iqtisodiy integratsiya zarurati
B) Yevropa mamlakatlarining siyosiy ajralishi
C) Oltin zaxiralarining kamayishi
D) AQSh dollari kursining pasayishi

15. Yevrozonaga kiruvchi mamlakatlar soni vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgardi?

A) Dastlab 6 ta bo‘lgan, hozir 20 dan ortiq davlat a’zo
B) Dastlab 12 ta bo‘lgan, hozir 5 ta qolgan
C) Har yili kamayib bormoqda
D) Hech qachon o‘zgarmagan

16. Yevropa valyuta tizimining shakllanishi necha bosqichda amalga oshgan?

A) 2 bosqichda
B) 3 bosqichda
C) 4 bosqichda
D) 5 bosqichda

17. Birinchi bosqichda asosiy maqsad nima edi?

A) Valyuta kurslarini erkin suzuvchi holatga o‘tkazish
B) Iqtisodiy siyosatni yaqinlashtirish va moliyaviy intizomni kuchaytirish
C) Yevroni darhol joriy etish
D) Yagona bank tizimini bekor qilish

18. Ikkinchi bosqichda qaysi muhim institut tashkil etilgan?

A) Yevropa Markaziy banki (YMB)
B) Xalqaro valyuta jamg‘armasi
C) Yevropa Savdo kengashi
D) Bretton-Vuds qo‘mitasi

19. Uchinchi bosqichda amalga oshirilgan asosiy o‘zgarish —

A) Yevro valyutasining joriy etilishi
B) ECU bekor qilinishi
C) Valyuta kurslarining erkin suzuvchanligini oshirish
D) Yevropa Ittifoqining tarqatilishi

IX BOB. XALQARO KREDIT TUSHUNCHASI UNING ASOSIY TURLARI VA SHAKLLARI

9.1. Xalqaro kreditning tushunchasi, tamoyillari va funksiyalari

Xalqaro kredit — bu "..bir mamlakat, tashkilot yoki xususiy korxona tomonidan boshqa davlatga muayyan shartlar asosida, vaqtincha foydalanish uchun mablag‘ ajratilishi bo‘lib, u belgilangan muddatda va shartlarga muvofiq qaytarilishi lozim. Odatda, bunday kreditlar tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish yoki qisqa muddatli likvidlik muammolarini hal etish maqsadida beriladi". [53]

Xalqaro kreditning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati uning **asosiy tamoyillari**da yaqqol ifodalanadi. Ayniqsa, u ishlab chiqarish jarayonlarining qayta tiklanishi bilan chambarchas bog‘liq. Queidagi jadvalda izohlangan 9.1- jadval

9.1-Jadval

Xalqaro kreditning asosiy tamoyillari[54]

	Tamoyili	izoh	
1.	**Qaytarilish tamoyili**	Kredit olish — bu mablag‘ egasidan uni muayyan muddatga vaqtincha foydalanish huquqini olish demakdir. Shartnoma asosida olingan mablag‘lar belgilangan sanada va tartibda to‘liq qaytarilishi kerak. Xalqaro kredit ham ichki kredit kabi belgilangan muddat ichida to‘liq qaytarilishi lozim. Agar qarz o‘z vaqtida qaytarilmasa, u moliyalashtirish vositasi emas, balki qaytarilmaydigan kapital shakliga aylanadi.	– bu tamoyil xalqaro kreditning eng asosiy poydevoridir. – qaytarilish tamoyili moliyaviy intizomni ta’minlaydi. – qarz oluvchi tomonidan kechiktirilgan yoki to‘lanmagan kreditlar nafaqat qarzdorning, balki kredit beruvchi bankning moliyaviy barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
2.	**Muddatlilik**	Har bir xalqaro kredit aniq	– muddatlilik tamoyili

[53] State regulation of the national currency exchange rate by gold and foreign currency reserve management https://core.ac.uk/download/322492626.pdf

[54] Olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida mualiflar tomonidan tuzilgan

		muddatga beriladi. Belgilangan vaqti tugagach, qarzdor kredit summasini to‘liq va o‘z vaqtida qaytarishi shart. Ushbu tamoyil kredit munosabatlarining poydevorini tashkil etadi va moliyaviy intizomni saqlashga xizmat qiladi.	kredit munosabatlarini tartibga soladi. – belgilangan muddatga rioya qilinishi nafaqat moliyaviy intizomni, balki iqtisodiy rejalashtirishni ham ta’minlaydi. – muddatlarning uzaytirilishi yoki kechikishi qarzdor mamlakatning xalqaro obro‘siga ta’sir qiladi.
3.	**To‘lovlilik**	Xalqaro kreditlarning aksariyati kredit beruvchi tomon uchun daromad manbai hisoblanadi. Qarz oluvchi nafaqat asosiy summani, balki foiz ko‘rinishida qo‘shimcha to‘lovni ham amalga oshiradi. Bu jarayon kredit kapitalining iqtisodiy samaradorligini oshiradi hamda kredit narxining shakllanishini ta’minlaydi.	– to‘lovlilik tamoyili kreditning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. – foizlar kredit kapitali narxining shakllanishini ta’minlaydi va banklarning foyda olishini kafolatlaydi. – ushbu tamoyil orqali kredit beruvchi mablag‘ni qayta investitsiya qilish imkoniga ega bo‘ladi.
4.	**Moddiy ta’minlanganlik**	Xatarlarni kamaytirish maqsadida, xalqaro kreditlar odatda garov, kafolat yoki sug‘urta bilan ta’minlanadi. Ba’zi hollarda, davlat yoki xalqaro tashkilotlar kreditni qaytarilishiga kafolat beradi. Bu esa kredit beruvchining xavfini kamaytirib, qarzning xavfsizligini ta’minlaydi.	– bu tamoyil kredit xavfini kamaytiradi. – davlatlararo yoki xalqaro tashkilotlar kafolati kreditning xavfsizligini oshiradi. – garov va sug‘urta tizimlari kredit beruvchilarni moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qiladi.
5.	**Maqsadli yo‘naltirilganlik**	Kredit mablag‘lari faqat oldindan belgilangan maqsadlar uchun beriladi. Ular ko‘pincha eksportni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish yoki iqtisodiy barqarorlikni	– maqsadli yo‘naltirilganlik tamoyili mablag‘larning samarali ishlatilishini ta’minlaydi. – bu tamoyil eksportni rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va

		mustahkamlash kabi yo‘nalishlarda ishlatiladi.	iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. – noto‘g‘ri yo‘naltirilgan kreditlar iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi va qarzdorlik muammolarini keltirib chiqaradi.
6.	**Xavflarni hisobga olgan holda berilishi.**	Xalqaro kreditlash siyosiy, iqtisodiy va valyuta xavflariga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, kredit beruvchi tomon qarz oluvchining iqtisodiy barqarorligi, to‘lov qobiliyati va siyosiy xavf darajasini sinchiklab tahlil qiladi.	– kredit beruvchi qarzdorning iqtisodiy barqarorligi va siyosiy vaziyatini tahlil qiladi. – bu tamoyil risklarni oldindan baholash va ularni kamaytirish mexanizmlarini qo‘llash imkonini beradi. – xavflarni hisobga olmagan kreditlar yuqori qarzdorlik va moliyaviy inqirozlarga olib keladi.

Xalqaro kredit o‘ziga xos funksiyalari orqali ssuda kapitalining jahon xo‘jaligidagi muhim o‘rnini namoyon etadi. Ushbu funksiyalar quyidagi yo‘nalishlarda ifodalanadi:

1. ***Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish.*** Xalqaro kredit vositasida moliyaviy resurslar mamlakatlar o‘rtasida taqsimlanib, ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Kredit mexanizmi orqali ssuda kapitali foyda olish maqsadida turli iqtisodiy tarmoqlarga kiritiladi. Natijada, milliy iqtisodiyotning umumiy daromadi ortadi va ishlab chiqarishning kengayishiga xizmat qiladi.

2. ***Xalqaro hisob-kitoblarni takomillashtirish.*** Kredit tizimi xalqaro to‘lovlarning tez va qulay amalga oshirilishiga yordam beradi. Elektron to‘lovlar va naqdsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanishi natijasida oltin va kumush tangalarga asoslangan to‘lovlar o‘rnini samarali kredit vositalari egallaydi. Shu bilan birga, xalqaro kredit operatsiyalari orqali hisob-kitob xarajatlari kamayadi va pul aylanishi tezlashadi.

Bugungi kunda xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan moliyaviy vositalar turlari tobora kengayib bormoqda. Ular orasida

an'anaviy veksel va chekdan tashqari, bank o'tkazmalari, depozit sertifikatlari hamda boshqa kredit instrumentlari ham mavjud. Kredit kapitalining aylanish davri qisqargani sari ishlab chiqarish jarayoniga ajratiladigan vaqt ortadi, bu esa ishlab chiqarish sur'atlarini tezlashtiradi va daromadlarni oshiradi.

3. ***Kapitalning to'planishi va markazlashuvini ta'minlash.*** Chet eldan olinadigan kreditlar hisobiga kapitalning tez jamg'arilishi, shaxsiy jamg'armalar hajmining kengayishi va kapital aylanishining faollashuvi yuz beradi. Natijada, ayrim mamlakatlardagi tadbirkorlar boshqa davlatlarning resurslaridan foydalanib, o'z moliyaviy salohiyatini oshirish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, xalqaro kredit orqali xorijiy mamlakatlar kapitali, mehnat kuchi va mulk ustidan ma'lum ta'sir o'tkazish imkoniyati vujudga keladi. Imtiyozli kreditlar asosan yirik kompaniyalar tomonidan olinayotganligi sababli, kichik biznes subyektlari xalqaro ssuda bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu hol esa kapitalning yanada markazlashuvi va konsentratsiyasiga olib keladi.

4. **Kapital harakatining vositasi.** Xalqaro kreditlar orqali moliyaviy mablag'lar bir mamlakatdan boshqasiga oqib o'tadi. Bu ayniqsa, kapital tanqis bo'lgan davlatlar uchun muhim manba bo'lib, ularning iqtisodiy faolligini ta'minlaydi.

5. **Tashqi savdoni rivojlantirish.** Eksport va import operatsiyalarini moliyalashtirishda xalqaro kredit muhim o'rin tutadi. Ushbu moliyaviy manba savdo bitimlarini tez, ishonchli va samarali tarzda amalga oshirish imkonini yaratadi.

6. **Valyuta balansini muvozanatlashtirish.** Agar mamlakatning joriy hisob balansi manfiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, xalqaro kredit vositasida vaqtincha moliyaviy barqarorlikni tiklash mumkin. Shu yo'l bilan tashqi iqtisodiy bosim yumshatiladi va valyuta tizimi muvozanatga keltiriladi.

7. **Investitsion faoliyatni rag'batlantirish.** Katta ishlab chiqarish loyihalari, infratuzilma obyektlari yoki energetika sohasidagi sarmoyaviy dasturlarni moliyalashtirishda xalqaro kreditlar muhim

omil hisoblanadi. Ular iqtisodiy o‘sish va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtiradi.

8. **Texnik va moliyaviy yordam shakli.** Ba’zi hollarda xalqaro kredit grantlar yoki past foizli qarzlar tarzida ajratilib, iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarga yordam ko‘rsatish maqsadida beriladi. Bunday imtiyozli kreditlar rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Qarz mablag‘lari o‘z maqsadiga ko‘ra bir necha asosiy turlarga bo‘linadi:

1) ***Tijorat kreditlari*** — asosan tashqi savdo operatsiyalari hamda xizmat ko‘rsatish sohasidagi bitimlarni moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlardir. Ular eksportyor va importyor o‘rtasidagi hisob-kitoblarni soddalashtirib, savdo aylanmasining kengayishiga yordam beradi.

2) ***Moliyaviy kreditlar*** — yanada keng ko‘lamli maqsadlarda qo‘llaniladi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarini amalga oshirish, yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish, qimmatli qog‘ozlar xaridi, tashqi qarzlarni qaytarish yoki valyuta bozoridagi muvozanatni saqlash uchun ishlatiladi.

3) ***Oraliq kreditlar*** — kapital, tovar va xizmatlarning o‘zaro almashinuvini qo‘llab-quvvatlovchi kreditlar bo‘lib, ular ko‘pincha pudrat ishlarini bajarish, loyihalarni moliyalashtirish yoki texnik hamkorlik shaklida taqdim etiladi.

Bundan tashqari, ko‘rinishiga qarab xalqaro kreditlar quyidagi ikki asosiy turga ajratiladi:

1) ***Tovar krediti*** — eksport qiluvchi tomonidan xaridor (importyor)ga beriladigan qarz bo‘lib, u tovar yoki xizmat shaklida taqdim etiladi.

2) ***Valyuta krediti*** — bank yoki moliya institutlari tomonidan pul (valyuta) shaklida beriladigan kreditdir.

Umuman olganda, xalqaro kredit zamonaviy jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi, balki global moliyaviy barqarorlikni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Kredit munosabatlarining asosiy

tamoyillariga qat'iy amal qilinishi esa ushbu tizimning barqaror, samarali va xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

9.2. Xalqaro kredit shakllari

Jahon amaliyotida beriladigan kreditlar turli shakllarda namoyon bo'lib, ular moliyaviy bitimlarda ishtirok etuvchi subyektlar, kreditning maqsadi, muddati va valyuta turi kabi mezonlarga ko'ra farqlanadi. Har bir kredit turi o'zining o'ziga xos jihatlariga ega bo'lib, ma'lum iqtisodiy talab va zaruratlarni qondirishga xizmat qiladi.

1. **Davlatlararo kreditlar.** Bu kredit shakli ikki yoki undan ortiq davlat o'rtasida bevosita tuziladigan kelishuvlar asosida beriladi. Ular, asosan, strategik ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirish, savdo balansi muvozanatini ta'minlash yoki favqulodda vaziyatlarda moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi. Davlatlararo kreditlar odatda siyosiy va diplomatik munosabatlar doirasida rasmiylashtiriladi.

2. **Xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari.** Bu turdagi kreditlar Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) kabi yirik xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ajratiladi. Ular, odatda, uzoq muddatli, past foizli va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan shartlar asosida beriladi.

3. **Tijorat kreditlari.** Mazkur kredit shakli yirik banklar, korporatsiyalar yoki sug'urta kompaniyalari tomonidan eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish uchun taqdim etiladi. Ular qisqa yoki o'rta muddatli bo'lib, tijorat shartlariga asoslanadi va ko'pincha akkreditivlar, veksellar yoki boshqa hisob-kitob hujjatlari orqali rasmiylashtiriladi.

4. **Lizing va forfeyting asosidagi kreditlash.**

Lizing — texnika, uskunalar yoki boshqa ishlab chiqarish vositalarini uzoq muddatga ijaraga berish shaklida taqdim etiladigan moliyaviy yordamdir.

Forfeyting esa eksportyorning qarz majburiyatlarini darhol to'lab berish va ushbu risklarni uchinchi tomonga o'tkazish mexanizmini

anglatadi. Har ikkala shakl xalqaro savdo bitimlarida keng qo‘llanilib, eksport-import jarayonlarini soddalashtiradi.

5. **Konsortsium kreditlari.** Yirik hajmdagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bir nechta bank yoki moliya tashkilotlari hamkorlikda kredit ajratadi. Har bir ishtirokchi o‘z ulushini qo‘shib, risklarni taqsimlaydi. Bunday kreditlar ko‘pincha infratuzilma, transport va energetika loyihalarida ishlatiladi.

6. **Tovar krediti.** Bu shakldagi kredit eksportyor tomonidan importyor (xaridor)ga mahsulot yoki xizmatni qarzga berish shaklida amalga oshiriladi. Xaridor tovarni olgach, belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshiradi. Tovar kreditlari xalqaro savdo faoliyatini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

7. **Qarzlarni qayta moliyalashtirish (refinanslash).** Bu usulda qarzdor o‘zining avvalgi majburiyatlarini yopish uchun yangi, ko‘pincha qulayroq shartlardagi kredit oladi. Refinanslash mexanizmi mamlakatlarga qarz yukini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish xarajatlarini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni saqlashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro kreditlar turli shakllarda namoyon bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos iqtisodiy maqsad, foyda darajasi va xavf omillariga ega. To‘g‘ri tanlangan kredit shakli xalqaro moliyaviy hamkorlik samaradorligini oshiradi hamda global iqtisodiyot barqarorligiga hissa qo‘shadi.

Xalqaro kredit odatda ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi:

1. **Xalqaro bank krediti** — bu turdagi kredit ko‘pincha valyuta (pul) shaklida beriladi va moliyaviy institutlar orqali amalga oshiriladi.

2. **Xalqaro tijorat krediti** — asosan tovar shaklida taqdim etiladi hamda eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur ikki asosiy shakl negizida bir qator turli ko‘rinishdagi kredit turlari shakllanadi:

1. **Firma (tijorat) krediti.** Bu holatda eksport qiluvchi mamlakatdagi korxona importyor mamlakatdagi hamkor kompaniyaga to‘lovni keyinga qoldirish sharti bilan tovar yetkazib beradi. Bunday kredit turi tashqi savdo operatsiyalarida keng qo‘llanilib, tovar

ayirboshlash jarayonini yengillashtiradi. Odatda, firma kreditining muddati 2 yildan 7 yilgacha davom etadi.

2. **Vekselli kredit.** Bu shaklda eksportchi o‘z mahsulotini sotish bo‘yicha kelishuvni amalga oshirgach, importyorga o‘tkazma veksel — **tratta**ni taqdim etadi. Importyor esa ushbu hujjatni qabul qilib, unda belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi, ya’ni vekselni **aktsept** qiladi.

3. **Ochiq hisoblar (ochiq hisob-kitobli kreditlar).** Bu kredit shakli eksportyor va importyor o‘rtasidagi o‘zaro ishonch asosida amalga oshiriladi. Eksportyor har bir yetkazib berilgan mahsulot qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida yozib boradi, importyor esa belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshiradi. Ushbu kredit turi odatda uzoq muddatli va doimiy hamkorlik aloqalari mavjud bo‘lgan firmalar o‘rtasida qo‘llaniladi.

Bank kreditlari esa, asosan, eksport va import operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ssuda shaklida taqdim etiladi. Ular tovarlar, ularning hujjatlari, shuningdek, veksellar yoki trattalar garoviga asoslanadi. Ayrim hollarda banklar yirik, ishonchli eksportyor korxonalarga hech qanday rasmiy kafolatsiz, ya’ni **blank kredit** ko‘rinishida ham mablag‘ ajratishi mumkin.

Eksport krediti — bu “...eksport qiluvchi mamlakat banki tomonidan importyor davlat bankiga mashina, uskuna yoki boshqa turdagi investitsion tovarlarni xarid qilishni moliyalashtirish maqsadida beriladigan moliyaviy resursdir”.[55] Bunday kreditlar odatda naqd shaklda taqdim etilib, “bog‘langan kreditlar” sifatida tanilgan, chunki ular faqat kreditor mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotib olish uchun yo‘naltiriladi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. **Asosiy stavka.** Bu odatda AQShdagi yirik banklarning eng ishonchli mijozlari uchun belgilanadigan **prime rate** yoki Londondagi banklar tomonidan qisqa muddatli ssudalar bo‘yicha qo‘llaniladigan **LIBOR** (London Interbank Offered Rate) ko‘rsatkichidir. LIBOR

[55] ПРАВОВЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО КРЕДИТОВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. http://elibrary.ru/item.asp?id=9447047

rasmiy tarzda belgilanmaydi — u banklararo bozor talab va taklifiga qarab shakllanadi hamda valyuta turlari va muddatlariga qarab (1, 3, 6 yoki 12 oy) farqlanadi.

2. **Ustama (marja).** Bu kredit oluvchi va beruvchi o‘rtasida kelishilgan qo‘shimcha foiz yoki komissiya to‘lovidir. Komissiya summasi bank tomonidan ajratilgan mablag‘ni taqdim etish, uni saqlash va boshqarish xizmatlari uchun undiriladi. Agar kredit bir nechta banklardan iborat konsortsium tomonidan berilsa, bu to‘lovlar kreditni boshqaruvchi asosiy bank yoki tashkilotning faoliyat xarajatlarini qoplash uchun yo‘naltiriladi.

Konsortsium kreditlarida boshqaruvchi bank (yoki asosiy tashkilot) kredit mablag‘larining taqsimlanishini, foiz to‘lovlarini yig‘ishni va boshqa tashkiliy jarayonlarni nazorat qiladi. Shu xizmat evaziga u bir martalik komissiya to‘lovi oladi.

Xalqaro kreditlashda risklarni kamaytirish maqsadida sug‘urta kompaniyalariga maxsus sug‘urta mukofoti to‘lanadi. Bu kompaniyalar qarz to‘lanmay qolish yoki boshqa moliyaviy yo‘qotishlar sodir bo‘lganda ularni oldindan kelishilgan miqdorda qoplash majburiyatini oladilar. Bugungi kunda eksport kreditlarini sug‘urtalash darajasi odatda 80–90% miqdorida bo‘ladi, ayrim hollarda esa qarz to‘liq hajmda — 100% sug‘urta bilan ta’minlanadi.

9.3. Xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosi va uning yechimlari

Xalqaro kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilmasligi muammosi so‘nggi o‘n yilliklarda jahon moliya tizimida eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Kredit majburiyatlarini bajara olmaslik holatlari ko‘plab xalqaro banklar, moliya institutlari hamda kredit beruvchi tashkilotlarning faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1982-yilda Argentina hukumati tomonidan defolt e’lon qilinishi xalqaro qarzdorlik inqirozining eng yuqori cho‘qqisiga chiqishiga sabab bo‘ldi. Shu voqeadan keyin davlatlarning to‘lov qobiliyatsizligi va xalqaro bankrotlik muammolari global miqyosda keng muhokama etila boshlandi.

Qarzdorlik muammosining asosiy sabablari

1. **Valyuta bozorlaridagi beqarorlik.** Kredit olgan davlatlarda iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi, valyuta siyosatining zaiflashuvi va cheklovlarning kamayishi xalqaro qarzdorlik muammosini kuchaytiradi.

2. **Milliy valyutalarning qadrsizlanishi.** Masalan, 1982-yilda Meksika pesosining keskin qadrsizlanishi natijasida AQSh dollarida olingan qarzlarni qaytarish imkoni cheklangan. Shunga o‘xshash holat O‘zbekistonda ham kuzatilgan: 1994-yil iyulda 1 AQSh dollari 7 so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yil oktabrida bu ko‘rsatkich **12 820 so‘m**gacha oshdi. Bu jarayon import mahsulotlari narxining ko‘tarilishiga va inflyatsiya bosimining kuchayishiga olib keldi.

3. **Investitsion loyihalarning yetarlicha tahlil qilinmasligi.** Xalqaro kredit mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan loyihalar chuqur iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazilmaganda, ularning samaradorligi past bo‘ladi. Natijada, ishlab chiqarish rentabelligi pasayadi va kreditni qaytarish uchun zarur daromad shakllanmaydi.

4. **Eksport daromadlarining pasayishi.** Jahon bozoridagi narxlarning o‘zgarib turishi eksport tushumlarini kamaytiradi. Natijada, xorijiy kreditlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur valyuta resurslari yetishmay qoladi.

5. **Kreditlarning yetarli kafolatsiz berilishi.** Kredit operatsiyalarining ta’minot darajasi past bo‘lsa, ularning qaytarilishi kafolatlanmaydi. Bu esa kredit xavflarining ortishiga va moliyaviy muammolarning chuqurlashishiga olib keladi.

6. **Moliyaviy inqirozlar va ishlab chiqarish hajmining qisqarishi.** Global yoki mintaqaviy moliyaviy inqirozlar iqtisodiy faollikning pasayishiga sabab bo‘ladi. Natijada, korxonalar daromadi kamayadi, bu esa qarzlarni o‘z vaqtida qaytarish imkoniyatini cheklaydi.

O‘zbekiston hukumati xalqaro kreditlar bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish va valyuta bozorining barqarorligini ta’minlash maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 2001-yilda qabul qilingan

“Milliy valyuta bozorini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaror ushbu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi.

Ushbu qarorning qabul qilinishi bir qator muhim natijalarga olib keldi:

– milliy valyuta bozorining likvidligi sezilarli darajada oshdi;

– xorijiy investorlar o‘z daromadlari va foydalarini mamlakatdan cheklovlarsiz olib chiqish huquqiga ega bo‘ldilar;

– eksportchilarga valyuta tushumining 50 foizini majburiy ravishda sotish talabi joriy etildi;

– import operatsiyalari hamda yangi jalb qilingan kreditlar bo‘yicha hisob-kitoblar erkin ayirboshlash kursi asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida valyuta kurslari bozor tamoyillari asosida shakllana boshladi, milliy valyuta — so‘mning birja kursi keskin pasayishining oldi olindi va moliyaviy tizimning barqaror ishlashi ta’minlandi.

Xalqaro qarzdorlik muammosi — bu nafaqat ayrim mamlakatlar, balki butun jahon moliya tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi. Uning oldini olish uchun mamlakatlar o‘zining tashqi qarz siyosatini puxta rejalashtirishi, kredit mablag‘larini maqsadli va samarali yo‘naltirishi zarur. Shu bilan birga, valyuta barqarorligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish va investitsion loyihalarni chuqur tahlil asosida amalga oshirish xalqaro kreditlardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

2008-yilda sodir bo‘lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi global ishlab chiqarish hajmiga jiddiy zarba berdi. Ko‘plab mamlakatlarda tovar ishlab chiqarish hajmining keskin kamayishi natijasida xalqaro kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish jarayoni murakkablashdi. Bunga o‘xshash holat 1973-yilda neft narxining o‘n barobarga oshishi oqibatida yuzaga kelgan **neft inqirozi** davrida ham kuzatilgan edi. O‘sha paytda neft import qiluvchi mamlakatlarning to‘lov balansida katta defitsit shakllandi, bu esa ularning tashqi qarz yukini og‘irlashtirdi.

Aksincha, neft eksport qiluvchi davlatlar katta miqdordagi AQSh dollaridagi tushumlarga ega bo‘ldilar, biroq bu mablag‘larni ichki iqtisodiyotda to‘liq joylashtirish imkoniyatlari mavjud emas edi. Shu sababli ularning ortiqcha mablag‘lari yevrovalyuta bozorlariga yo‘naltirildi. Bu esa transmilliy banklarning kredit berish salohiyatini keskin oshirdi. Biroq rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishi va energiya narxlarining ko‘tarilishi sababli bu banklarning kreditlariga bo‘lgan talab kamaydi. Natijada, rivojlanayotgan davlatlar transmilliy banklarning resurslaridan faol foydalanishga kirishib, o‘z hukumatlari kafolati ostida katta hajmda qarzlar oldilar. 1980-yillar boshida ushbu davlatlar xalqaro kreditlar bo‘yicha katta miqdordagi to‘lovlarni amalga oshirishga majbur bo‘ldilar.

O‘sha davrda xalqaro kreditlarning uchdan ikki qismi AQSh dollarida ajratilgan edi. Dollar kursining keskin oshishi esa rivojlanayotgan mamlakatlarning qarz xizmatiga sarflanadigan xarajatlarni ko‘paytirdi. Natijada, 1990-yillar boshlariga kelib xalqaro qarzdorlik muammosi yanada chuqurlashdi va Meksika kabi ayrim davlatlarda defolt holatlari yuzaga keldi.

Rivojlangan hamda iqtisodiy o‘tish davrida bo‘lgan davlatlar tijorat banklari o‘zaro vakillik aloqalarini kengaytirgan bo‘lib, bu orqali import to‘lovlari, kapital harakati va kredit operatsiyalari xorijiy banklarning mamlakatdagi “Vostro” hisob raqamlari orqali amalga oshirilgan. Shu sababli ularning “Nostro” hisob raqamlaridagi qoldiqlarga bu operatsiyalar bevosita ta’sir ko‘rsatmagan.

Xalqaro qarzdorlik hajmining ortib borishi Bazel qo‘mitasini kredit risklarini baholashning yangi mexanizmini ishlab chiqishga majbur etdi. Natijada **Bazel-II standarti** joriy etildi. Ushbu standartga muvofiq, xalqaro kredit riskini aniqlashda bir qator omillar hisobga olinadi, jumladan:

– mamlakatning suveren kredit reytingi;

– bankning ishonchlilik darajasi;

– qarz oluvchi tashkilot yoki korxonaning kredit reytingi;

– kreditning turi va operatsiya xarakteri.

Bazel-II standartining asosiy tamoyillaridan biri shundan iboratki, zaxira ajratmalari yetarli bo‘lmagan xalqaro kreditlar yuqori risk toifasiga kiritiladi. Agar qarz muddati tugaganidan so‘ng 90 kundan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa va bank tomonidan ajratilgan zaxira miqdori jami qarzning 20 foizidan kam bo‘lsa, bunday kreditlar uchun risk ko‘rsatkichi 150 foizgacha oshiriladi.

Bu holat ayniqsa muddati kechiktirilgan kreditlar ulushi yuqori bo‘lgan tijorat banklari uchun katta xavf tug‘diradi, chunki ularning likvidlik va kapital barqarorligi pasayadi. Buning asosiy sabablari:

1. Kredit zararlarini qoplash uchun ajratiladigan zaxira fondlari banklarning xarajatlarini oshiradi, bu esa ularning sof foydasini kamaytiradi.
2. Risk darajasi 150 foizga oshirilgan kreditlar bankning riskga tortilgan aktivlari hajmini ko‘paytiradi, natijada kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti pasayadi.
3. Nostro hisob raqamlari orqali berilgan kreditlar qaytarilmagan taqdirda, bankning likvid aktivlari kamayadi, bu esa joriy likvidlik ko‘rsatkichining yomonlashuviga olib keladi.

O‘zbekistonda xalqaro kreditlar holati (2024-2025-yil misolida)

1.Xalqaro kreditlarning hozirgi holati

2024-yil: O‘zbekiston xalqaro kreditlar orqali 2,8 milliard AQSh dollari miqdorida mablag‘ jalb qilgan.

2025-yil: Bu ko‘rsatkich bir yil ichida 1,5 baravar oshib, 4,2 milliard AQSh dollariga yetdi.

Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) va Xitoy kabi xalqaro moliya institutlari ajratgan mablag‘lar asosan energetika, transport infratuzilmasi hamda qishloq xo‘jaligi loyihalariga yo‘naltirilgan.

- **O‘sish tendensiyasi:** 2024-yilda O‘zbekiston 2,8 mlrd USD miqdorida xalqaro kredit jalb qilgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 4,2 mlrd USD ga yetgan. Ya’ni, bir yilda 1,5 baravar oshgan.
- **Donorlar:** Jahon Banki, OTB, Xitoy kabi xalqaro moliya institutlari.

• **Yo‘naltirish:** Kredit mablag‘lari asosan energetika, transport infratuzilmasi va qishloq xo‘jaligi kabi ustuvor sohalarga yo‘naltirilgan.

Tahlil: Bu tendensiya mamlakatning xalqaro moliya bozorida ishonchli sherik sifatida tan olinayotganini va loyihalarni moliyalashtirishdagi diversifikatsiyani ko‘rsatadi.

2. Kreditlar taqsimoti va bank faoliyati

• **Ipoteka kreditlari:** 2025-yilning birinchi yarmida ipoteka kreditlari hajmi 9,43 trillion so‘mga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 37%ga oshgan. Kredit oluvchilar soni esa 31,5 ming kishiga yetib, 20%ga ko‘paygan.

• **Muammoli kreditlar:** 2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, muammoli kreditlar ulushi jami kredit portfelining 3,8% darajasida bo‘lib, bu bank sektoridagi aktivlarning sifat jihatdan barqarorlashayotganidan darak beradi.

• **Ipoteka kreditlari:** Hajmi 9,43 trillion so‘m, o‘sish sur’ati 37%, kredit oluvchilar soni 31,5 ming (20% o‘sish).

• **Muammoli kreditlar:** Ulushi 3,8%, so‘nggi yillardagi eng past ko‘rsatkichlardan biri.

Tahlil: Ipoteka bozorining kengayishi aholi turar-joy sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Muammoli kreditlar ulushining kamayishi bank sektorining barqarorligini va aktivlar sifatining yaxshilanganini ko‘rsatadi.

3. Genderga yo‘naltirilgan kreditlar

• **Ayollarga ajratilgan kreditlar:** 2025-yilning birinchi yarmida xotin-qizlarga 11,4 trillion so‘m miqdorida kredit berilgan. Bu borada yetakchilikni Agrobank va Xalq banki o‘z zimmasiga olgan.

Ayollarga kreditlar: 11,4 trillion so‘m, yetakchi banklar – Agrobank va Xalq banki.

Tahlil: Ayollarga ajratilgan kreditlar ijtimoiy tenglikni oshirish va gender siyosatini amalga oshirishga qaratilgan. Bu shuningdek, iqtisodiyotda ayollarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Kreditlashning iqtisodiy ta’siri

• **Qarz yuki:** 2024-yilda aholining oylik daromadiga nisbatan qarz yuki o‘rtacha 34% ni tashkil qilgan.

• **Moliyaviy barqarorlik:** Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, kredit oluvchilarning 40% oylik daromadining yarmini qarz to'lovlariga sarflamoqda.

Tahlil: Kreditlash aholiga moliyaviy qo'shimcha yuk bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, barqaror bank tizimi va tartibga soluvchi mexanizmlar aholi qarzini boshqarishga yordam beradi.

5.Kelajak istiqbollari

• **Xalqaro kreditlar:** O'zbekiston xalqaro kreditlar jalb qilish bo'yicha faoliyatini davom ettirmoqda, bu esa iqtisodiyotning turli tarmoqlarida rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

• **Ipoteka bozori:** Ipoteka kreditlari hajmining oshishi davom etmoqda, bu esa aholi uchun turar-joy sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi.

• **Gender tengligi:** Ayollarga berilayotgan kreditlar sonining oshishi, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

• Xalqaro kreditlar davom etmoqda → iqtisodiyotning turli sohalari rivojlanadi.

• Ipoteka hajmi oshadi → turar-joy sharoitlari yaxshilanadi.

• Ayollarga ajratilgan kreditlar oshadi → gender tengligi kuchayadi.

Tahlil: Kelajak istiqbollari optimistik bo'lib, mamlakatning moliyaviy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasiga mos keladi. Xalqaro kreditlar va ichki ipoteka bozoridagi o'sish, shuningdek, ayollar faolligini qo'llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun imkon yaratadi.

Shunday qilib,

1. O'zbekiston xalqaro kreditlar jalb qilishda barqaror o'sish ko'rsatmoqda.
2. Bank sektori aktivlarining sifati va muammoli kreditlar ulushi yaxshilanmoqda.
3. Ipoteka bozori aholi turar-joy sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi.

4. Genderga yo‘naltirilgan kreditlar ijtimoiy barqarorlik va tenglikni oshiradi.

5. Kreditlash aholining moliyaviy yukini oshiradi, ammo iqtisodiy o‘sish va moliyaviy barqarorlik bilan muvozanatlangan.

Xalqaro kredit — bu “...jahon xo‘jaligi tizimining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, kapital oqimini tartibga solish va global moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat ishlab chiqarish jarayonini kengaytiradi, balki tashqi savdo, investitsiya va texnologik rivojlanish uchun zarur moliyaviy manbani ham yaratadi”.[56]

Xalqaro kredit munosabatlari qaytarilish, muddatlilik, to‘lovlilik, moddiy ta’minlanganlik, maqsadlilik va xavflarni hisobga olish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tamoyillarga rioya etilishi kredit tizimining ishonchliligini oshiradi, qarz mablag‘larining to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta’minlaydi va global moliya bozorida barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Kreditning funksiyalari — ishlab chiqarishni kengaytirish, xalqaro hisob-kitoblarni yengillashtirish, kapitalning tezroq jamg‘arilishi, tashqi savdoni rivojlantirish, valyuta balansini tartibga solish va investitsion jarayonlarni rag‘batlantirish orqali o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan xalqaro kreditlar milliy iqtisodiyotlarni jahon moliyaviy tizimi bilan uzviy bog‘laydi.

Kreditlar o‘z turlari va shakllariga ko‘ra turlicha bo‘lib, ular davlatlararo, tijorat, moliyaviy, konsortsium, tovar, lizing hamda forfeyting kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Har bir kredit shakli o‘zining maqsadi, daromad miqdori va xavf darajasi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, xalqaro kreditlarning samarali boshqarilishi mamlakatlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, tashqi qarz yukini kamaytirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro kredit tizimi — bu nafaqat moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash vositasi, balki jahon

[56] Реферат на тему Параметры современной мировой валютной системы. https://natalibrilenova.ru/parametryi-sovremennoj-mirovoj-valyutnoj-sistemyi/

iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlovchi va mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtiruvchi muhim mexanizmdir.

Asosiy tushunchalar va iboralar

xalqaro kredit, xalqaro moliyaviy munosabatlar, kredit munosabatlari, kreditning qaytariluvchanlik tamoyili, kreditning to‘lovlilik tamoyili, kreditning muddatlilik tamoyili, kreditning maqsadlilik tamoyili, vekselli kredit (tratta), ochiq hisoblar krediti, konsorsium krediti, davlatlararo kredit, qarzlarni qayta moliyalashtirish (refinanslash), suzib yuruvchi foiz stavkasi, LIBOR (London Interbank Offered Rate), ustama foiz (marja), kredit xavfi (kredit risk)

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1) Xalqaro kreditlarning mohiyati va iqtisodiyotdagi roli nimadan iborat?

2) 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi xalqaro kreditlarning qaytarilishiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

3) 1973-yilgi neft inqirozining xalqaro qarzdorlik muammosiga qanday aloqasi bor edi?

4) Nima sababdan neft eksport qiluvchi davlatlar o‘z ortiqcha mablag‘larini yevrovalyuta bozorlariga yo‘naltirdilar?

5) Rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro qarzdorlikning ortishiga olib kelgan asosiy omillar nimalardan iborat?

6) “Vostro” va “Nostro” hisob raqamlari o‘rtasidagi farq nimada?

7) Bazel qo‘mitasi xalqaro kredit risklarini baholashda qanday rol o‘ynaydi?

8) Bazel-II standartida kredit riskini aniqlashda qaysi asosiy ko‘rsatkichlar e’tiborga olinadi?

9) Nima sababdan kredit muddati 90 kundan oshgan taqdirda risk darajasi 150 foizgacha oshiriladi?

10) Kreditlar bo‘yicha zaxira ajratmalari banklarning foydadorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

11) O‘zbekiston misolida 2023-yilda xalqaro kreditlar hajmi qanchaga oshgan?

12) Qaysi xalqaro moliya institutlari O‘zbekistonga eng ko‘p kredit ajratgan?

13) 2023-yilda xalqaro kreditlarning asosiy qismi qaysi tarmoqlarga yo‘naltirilgan?

14) Qaysi tijorat banklar eng ko‘p xorijiy mablag‘ jalb qilgan?

15) Xalqaro qarzdorlik muammosini bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rish mumkin?

16) O‘zbekiston Respublikasida xalqaro kreditlardan samarali foydalanishni ta’minlash uchun qanday siyosiy va moliyaviy mexanizmlar zarur?

17) Milliy valyutaning qadrsizlanishi xalqaro qarzdorlikka qanday ta’sir qiladi?

18) Xalqaro kreditlarning qaytarilmasligi mamlakatning suveren reytingiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

19) Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning (OTB, Jahon banki, ITB) kreditlari odatda qanday shartlarda beriladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Xalqaro kredit deganda nima tushuniladi?

A) Faqat ichki bozorda beriladigan qarz turi

B) Bir mamlakat iqtisodiy subyektining boshqa mamlakat subyektiga vaqtincha qarz shaklida mablag‘ berishi

C) Faqat banklar o‘rtasidagi bitim

D) Davlat subsidiyasi

2. Xalqaro kreditning ijobiy ta’sirlaridan biri —

A) Xorijiy investitsiyalarni kamaytirish

B) Kapital aylanishini tezlashtirish va iqtisodiy faollikni oshirish

C) Inflyatsiyani kuchaytirish

D) Savdoni cheklash

3. Xalqaro kreditning qisqa muddatli turi odatda qancha muddatga beriladi?

A) 1 oydan kam

B) 1 yildan kam

C) 3 yildan ortiq
D) 10 yildan ortiq

4. Xalqaro kreditning obyekti nima hisoblanadi?

A) Faoliyat turi
B) Pul mablag‘lari, tovarlar yoki xizmatlar
C) Soliq tizimi
D) Ishlab chiqarish quvvatlari

5. Xalqaro kreditning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

A) Tovar ayirboshlash, erkin savdo, foyda olish
B) Qaytarilish, muddatlilik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik
C) To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya, sug‘urtalash
D) Kreditni to‘lashdan ozodlik

6. “Qaytarilish” tamoyili nimani anglatadi?

A) Kredit beruvchi foyda olishi kerakligini
B) Olingan kredit belgilangan muddatda qaytarilishi kerakligini
C) Kredit faqat davlat kafolati bilan berilishini
D) Kreditning muddatsiz bo‘lishini

7. “To‘lovlilik” tamoyili nimani bildiradi?

A) Kredit bepul beriladi
B) Kredit uchun foiz to‘lanishi shart
C) Kredit faqat tovar shaklida qaytariladi
D) Kreditni qaytarish majburiy emas

8. “Muddatlilik” tamoyili qanday talqin qilinadi?

A) Kredit faqat qisqa muddatli bo‘lishi kerak
B) Kredit ma’lum muddatga beriladi va shu vaqt ichida qaytarilishi kerak
C) Kredit muddatsiz beriladi
D) Kredit muddati cheklanmagan

9. “Ta’minlanganlik” tamoyili deganda nima tushuniladi?

A) Kreditning garov, kafolat yoki sug‘urta bilan himoyalanishi
B) Kreditning davlat tomonidan to‘lanishi
C) Kreditning to‘liq qaytarilmasligi
D) Kreditning foizsiz berilishi

10. Xalqaro kreditning asosiy funksiyalaridan biri —

A) Tovar ishlab chiqarishni to‘xtatish

B) Xalqaro kapital oqimini ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish

C) Savdo balansi salbiyligini oshirish

D) Soliq yukini kamaytirish

11. Xalqaro kredit qanday iqtisodiy munosabatlarni rivojlantiradi?

A) Ichki iste’molni

B) Xalqaro moliyaviy va savdo munosabatlarini

C) Faqat davlat byudjeti balansini

D) Mahalliy soliqlarni

12. Uzoq muddatli xalqaro kreditlar odatda qanday maqsadda beriladi?

A) Tovar importi uchun

B) Investitsion loyihalar va infratuzilma qurilishi uchun

C) Kundalik xarajatlar uchun

D) Qisqa muddatli savdo operatsiyalari uchun

13. Xalqaro bank krediti deganda nima tushuniladi?

A) Davlatlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam

B) Banklar tomonidan xorijiy qarzdorlarga beriladigan kredit turi

C) Faqat ichki bank amaliyoti

D) Foizsiz qarz berish

14. Tijorat krediti kimlar o‘rtasida beriladi?

A) Davlatlar o‘rtasida

B) Tadbirkorlar yoki firmalar o‘rtasida tovar shaklida

C) Bank va mijoz o‘rtasida

D) Xalqaro tashkilotlar o‘rtasida

X BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR MOHIYATI VA ULARNING ASOSIY SHAKLLARI

10.1. Xalqaro hisob-kitoblar tushunchasi va ularni tashkil etish asoslari

Xalqaro hisob-kitoblar — bu "...xorijiy valyutalarda ifodalangan talab va majburiyatlarni bajarish hamda boshqarishga yo‘naltirilgan tizim bo‘lib, u turli mamlakatlardagi yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida shakllanadigan iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar natijasida yuzaga keladi".[57]

Xalqaro hisob-kitob munosabatlari bir tomondan — to‘lovlarni amalga oshirish mexanizmi, ularning shartlari va tartibini belgilasa, ikkinchi tomondan — tijorat banklarining bu jarayonlarni amalga oshirishdagi kundalik faoliyatini ham qamrab oladi. Bozor iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida bank tizimi har doim xalqaro iqtisodiy aloqalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib va rivojlanib kelgan.

Banklar xalqaro moliyaviy aloqalarda hisob-kitoblarni yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga kreditlar taqdim etish, kapital oqimlarini qayta taqsimlashda vositachilik qilish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga keng ko‘lamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish orqali ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli darajada hissa qo‘shadilar.

Xalqaro tijorat banklari keng tarmoqqa ega bo‘lgan rivojlangan filiallar tizimi hamda banklararo vakillik hisobvaraqlari orqali faoliyat yuritadi. Bu ikki muhim omil ularning xalqaro moliyaviy munosabatlar (XIM) tizimidagi yetakchi o‘rni va ta’sirini belgilovchi asosiy shartlardan hisoblanadi. Tijorat banklari o‘rtasidagi xalqaro vakillik aloqalari ularning joylashgan hududi, operatsiyalar turi hamda o‘zaro aloqalarning xarakteriga qarab farqlanadi.

Bu vakillik munosabatlari geografik yo‘nalishiga qarab ichki va tashqi turlarga bo‘linadi. Ichki vakillik munosabatlari — bir davlat ichida faoliyat yurituvchi tijorat banklari o‘rtasida shakllangan

---

57

aloqalardir. Xalqaro hisob-kitoblarning katta qismi aynan tashqi vakillik munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu operatsiyalar "Nostro" va "Vostro" hisobvaraqlari yordamida bajariladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi tijorat banklari bilan faqat bir tomonlama tashqi vakillik munosabatlariga ega bo'lishi xalqaro bank amaliyotlarining kengayish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur masalaning mohiyati shundaki, respublikamizning yirik tijorat banklari rivojlangan xorijiy davlatlardagi tijorat banklarida o'zlariga tegishli "Nostro" vakillik hisobvaraqlariga ega bo'lsalar-da, aksincha, chet ellik banklar respublikamiz banklarida o'zlarining "Vostro" hisobvaraqlariga ega emaslar.

Tijorat banklarining xalqaro vakillik aloqalari operatsiyalarning yo'nalishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalar;
2. banklarning o'z faoliyatiga doir operatsiyalari.

Mijozlarga oid operatsiyalar tarkibi

1. Ishonch asosidagi xizmatlar

– mijoz nomidan **trast (ishonchnoma)** orqali vakillik xizmatlarini bajarish;

3. Xalqaro tijorat operatsiyalari

– mijozlarning **xorijiy savdo bitimlari**ni amalga oshirishda bank vositachiligi;

4. **To'lov topshiriqlari**

– mijozlarning **moliyaviy majburiyatlari**ni bajarish bilan bog'liq to'lovlarni amalga oshirish;

5. **Cheklar bo'yicha hisob-kitoblar**

– **cheklar orqali to'lov** operatsiyalarini tashkil etish;

6. **Hujjatli hisob-kitob vositalari**

– **hujjatli akkreditiv** va **inkasso** shaklidagi xalqaro to'lovlarni amalga oshirish;

7. **Qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar**

– **aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar** bilan operatsiyalarni bajarish;

8. **Kafolat va qo‘shimcha moliyaviy xizmatlar**

– **bank kafolatlari**, majburiyatlarni ta’minlash va boshqa **moliyaviy xizmatlarni** ko‘rsatish.

Bankning o‘z operatsiyalariga esa quyidagilar kiradi:

– xorijiy valyutada kreditlar berish va jalb qilish;

– depozitlarni qabul qilish;

– valyutalar va qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish operatsiyalari.

Shuningdek, hozirgi kungacha O‘zbekiston tijorat banklarining birortasi ham xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorining listingiga kiritilmagan. Bu holat ularning xorijiy valyutada chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash faoliyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Yana bir muhim jihat shuki, respublikamiz tijorat banklarining xorijiy valyutani sotib olish bo‘yicha operatsion faolligi ularning mavjud salohiyatidan ancha past darajada. Bunday vaziyat quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

a) respublikamiz tijorat banklarining xalqaro valyuta bozorlaridagi ishtiroki nihoyatda cheklangan bo‘lib, ular asosan import shartnomalari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish bilan chegaralanadi.

B) chet el valyutasiga oid optsionlar va fyyucherslar bilan bog‘liq muddatli operatsiyalar amalda yo‘q.

V) banklarimizda svop operatsiyalari keng rivojlanmagan va bu yo‘nalishda faollik past darajada.

Tijorat banklarining xalqaro vakillik aloqalari o‘zaro munosabatlarning xarakteriga qarab ikkiga bo‘linadi:

– hisobvaraq ochish asosida o‘rnatiladigan,

– hisobvaraq ochmasdan yo‘lga qo‘yiladigan aloqalar.

Ko‘pgina holatlarda vakillik aloqalari bir tomonlama yoki ikki tomonlama shaklda, hisobvaraq ochish orqali amalga oshiriladi.

Ammo ayrim hollarda hisobvaraq ochmasdan ham xalqaro vakillik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish mumkin. Bunda xalqaro hisob-kitoblar uchinchi bankdagi ochilgan hisobvaraq orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob tizimidagi o‘rnini belgilovchi yana bir muhim omil – bu ularning xalqaro elektron to‘lov tizimlariga ulanish darajasidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, bank sohasida olib borilgan islohotlar natijasida qisqa muddatda milliy elektron to‘lov tizimi joriy qilindi. Bu esa, respublikamizdagi tijorat banklari o‘rtasida xo‘jalik subyektlarining o‘zaro to‘lovlarini tezlashtirishga xizmat qildi. Quyidagi diagrammada ushbu o‘zgarishlar tasvirlangan.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob sohasidagi faoliyati o‘ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Xususan,

- importyor va eksportyor subyektlar hamda ularning xizmat ko‘rsatuvchi banklari o‘rtasidagi hamkorlik bevosita tashqi savdo shartnomasiga asoslanmaydi, balki ushbu shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar doirasida amalga oshiriladi. Bunday o‘zaro aloqalar jarayonida tovar hujjatlarini rasmiylashtirish, ularni tekshirish va uzatish, shuningdek, to‘lovlarni bajarish kabi bosqichlar orqali xalqaro hisob-kitob munosabatlari shakllanadi.

- tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalari milliy qonunchilik hamda xalqaro normalar bilan tartibga solinadi.

Masalan, AQShda yagona Savdo kodeksi mavjud bo‘lib, unda banklar tomonidan xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yuridik asoslar belgilangan.

- ***bunday operatsiyalar unifikatsiya qilinadigan munosabatlar turiga kiradi,*** ya’ni ular xo‘jalik aloqalarining xalqaro xarakter kasb etishi va bank xizmatlarining standartlashtirilishiga asoslangan.

Banklarning xalqaro hisob-kitoblarida ikki xil to‘lov sharti mavjud:

a) hujjatlarga qarshi to‘lov.

b) akseptga qarshi to‘lov.

Birinchi holatda, import qiluvchi shaxs to‘lovni bajarganidan so‘nggina unga hujjatlar taqdim etiladi.

Ikkinchi holatda esa, importyor veksellarni aksept qilganidan keyin hujjatlar topshiriladi.

- ***ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda milliy valyutalar yetarlicha barqaror bo‘lmaganligi*** hamda ularning banklari rivojlangan mamlakatlardagi banklar bilan asosan **bir tomonlama vakillik aloqalariga** ega ekani sababli xalqaro hisob-kitob operatsiyalari cheklangan tarzda rivojlanmoqda.

- ***xalqaro hisob-kitob operatsiyalarining deyarli 90 foizi faqat besh xil valyutada amalga oshiriladi*:** AQSh dollari, Yevro, Yaponiya iyenasi, Angliya funti sterlingi va Shveysariya franki.

Ushbu valyutalarning barchasi **erkin suzuvchi kurs tizimi**ga ega bo‘lganligi sababli, xalqaro hisob-kitoblardagi **valyuta riski** va **to‘lov riski** kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarini tasniflash asoslari ham xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimida dolzarb masalalardan biridir.

Xalqaro hisob-kitoblarni to‘g‘ri tasniflash asosida bank operatsiyalarining samaradorligini baholash imkoniyati yuzaga keladi. Sababi, har bir xalqaro to‘lov shaklida tijorat banki uchun mavjud **to‘lov riski** turlicha bo‘ladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining hisob-kitob operatsiyalari iqtisodiy mazmuniga qarab, **ikki asosiy guruhga** ajratiladi:

1. sof to‘lovlar

2. hujjatli to‘lovlar

Bu turkumlashda mezon sifatida **to‘lov shartlari** olinadi.

Masalan, sof to‘lovlar quyidagi uch shart asosida amalga oshiriladi:

a) tovar qiymatining bir qismini oldindan to‘lash;

b) tovar yetkazilgandan so‘ng to‘lovni amalga oshirish;

v) ochiq hisobvaraqlar orqali hisob-kitob qilish.

Agar yuqorida sanab o‘tilgan shartlarning hech bo‘lmaganda biri bajarilsa, bunday to‘lov turi sof to‘lov sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli, sof to‘lovlar jumlasiga xalqaro to‘lov topshiriqnomalari hamda cheklar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalari kiradi.

To‘lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladigan hisob-kitobda, odatda, import qilingan tovar uchun to‘lov, mahsulot qabul

qilinganidan keyin amalga oshiriladi. Bu jarayonda importyor avval hujjatlarni qo‘lga kiritadi, keyin esa ular orqali tovarni ombor yoki portdan olib chiqadi. Mahsulot sifatini tekshirgach, to‘lov topshirig‘i yoziladi. Bu usulda to‘lov bank tomonidan amalga oshirilganida, **tijorat banki uchun to‘lov riski mavjud bo‘lmaydi.** Shu bilan birga, bunday hisob-kitob shakli **importyor uchun qulay,** biroq **eksportyor uchun to‘lov xavfini oshiradi.** Aynan shunday vaziyatda to‘lov riski chuqurlashishi hisobidan **debitor qarzdorlik ortadi** va natijada mamlakat eksport tushumlari kamayishi mumkin. Bu holat esa o‘z navbatida **milliy valyuta kursiga bosim o‘tkazadi** hamda eksport qiluvchi subyektlarning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro savdoni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan hisob-kitob munosabatlarida tijorat banklarining orderli cheklari keng qo‘llaniladi. Afsuski, hozirgi kunda bu amaliyot O‘zbekiston bank tizimida mavjud emas.

Tijorat banklari tomonidan orderli cheklar orqali amalga oshiriladigan xalqaro hisob-kitoblarda, bank ushbu chekni mijozning yozma arizasiga asosan rasmiylashtiradi. Shu bilan birga, chek summasi bank balansida alohida hisobga olinmaydi. Bu esa bank uchun to‘lov riski mavjud emasligini anglatadi.

Biroq xalqaro bank amaliyotida ko‘rinib turibdiki, orderli cheklar asosan importyorning xorijiy valyutadagi mavjud mablag‘lari yetarli bo‘lmaganda, tijorat banklari tomonidan berilgan kredit hisobidan qoplanadi. Shu bois, garchi bu vosita bank uchun moliyaviy risk tug‘dirmasa-da, yuqori daromad manbai sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda esa ochiq hisobvaraqlar orqali hisob-kitob qilish amaliyoti keng tarqalgan. Bu jarayonda eksportyor bankida alohida balans hisobvarag‘i ochiladi va tashqi savdo shartnomasida tovar jo‘natish vaqtlari aniq ko‘rsatiladi. Har bir tovar partiyasi jo‘natilishidan oldin, importyor tegishli summani eksportyor bankida ochilgan hisobga o‘tkazishi kerak bo‘ladi. Eksportyor mahsulotni jo‘natgach, bank bu mablag‘ni eksportyorning joriy valyuta hisobiga o‘tkazadi.

Bunday hisob-kitoblarda to‘lov riski tijorat banki emas, eksportyor zimmasida bo‘ladi. Shu sababli bunday to‘lov usuli ko‘proq uzoq yillik ishonchli hamkorlikka ega bo‘lgan korxonalar orasida qo‘llaniladi.

Xalqaro hisob-kitoblarning shakllanishi va evolyutsiyasi tovar ishlab chiqarish hamda almashinuv jarayonlarining faqat milliy darajada emas, balki jahon miqyosida kengayib borishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bunday hisob-kitoblar faqat tashqi savdo operatsiyalarini emas, balki davlatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan kredit va kapital harakatiga doir moliyaviy bitimlarni ham o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, xalqaro hisob-kitoblar deganda turli mamlakatlarga mansub yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida iqtisodiy yoki moliyaviy operatsiyalar natijasida vujudga keladigan pul majburiyatlari va talablar bo‘yicha to‘lovlarning amalga oshirilishi tushuniladi. Bu munosabatlar, bir tomondan, xalqaro huquq me’yorlariga asoslangan umumiy qoidalarni, ikkinchi tomondan esa to‘lovlarni bajaruvchi banklarning amaliy faoliyat jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Xalqaro hisob-kitoblarda to‘lovlar, odatda, naqd pulsiz shaklda — bank hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Shu bois, bu sohada banklarning o‘rni beqiyosdir.

Banklar bunday hisob-kitoblarni bajarishda o‘zlarining xorijdagi filiallari yoki xorijiy banklar bilan tuzilgan korrespondentlik munosabatlaridan foydalanadi. Bu munosabatlar doirasida banklar bir-birida "loro" (xorijiy bankning mahalliy bankdagi hisobi) va "nostro" (mahalliy bankning xorijiy bankdagi hisobi) hisobvaraqlarini ochadi. Ushbu hisob-kitob mexanizmlari shartnoma asosida belgilanib, unda komissiyalar miqdori, operatsion xarajatlarni qoplash usullari va hisob-kitob shartlari aniqlashtiriladi.

Tarixan xalqaro hisob-kitoblarda dunyoning yetakchi davlatlarining milliy kredit pul birliklaridan foydalanilgan. Birinchi jahon urushigacha dunyoda 80% pul hisob-kitoblari **funt sterling** birligidagi o'tkazma veksellar (tratta) asosida amalga oshirilgan. Keyinchalik, ushbu o‘rinni urushdan so‘ng AQSh dollari, SDR (Xalqaro Valyuta Fondining maxsus tortish huquqlari) va EKYu kabi

xalqaro pul birliklari egalladi. 1999 yildan boshlab esa ularning o‘rnini **Yevro** birligi egalladi.

Xalqaro hisoblashlarda oltinning to‘lov vositasi sifatidagi roli yuqori darajada bo‘lmagan, faqat favqulodda vaziyatlarda xalqaro majburiyatlarda undan foydalanish kuchaygan. Shu bilan birga, oltin samarali to‘lov vositasi sifatida o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmagan.

Xalqaro hisob-kitoblarning shakllanishi va samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamda siyosiy aloqalarning holati;

– mamlakat ichki valyuta siyosati va amaldagi qonunchilik me’yorlari;

– xalqaro savdo munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar;

– tijorat banklari amaliyotlari va ularning xalqaro hamkorlik tajribasi;

– tashqi savdo shartnomalari hamda kredit bitimlarida belgilangan majburiy shartlar.

10.2. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish talablari

Xalqaro savdo bitimlari doirasida bajariladigan pul hisob-kitoblari muhim va murakkab jarayon hisoblanadi. Pul hisob-kitoblarining shakli va shartlari to‘lovlarning tezligi va to‘liq bajarilishini ta’minlab, pul o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarning hajmiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, tashqi savdo ishtirokchilari to‘lov shartlari bo‘yicha oldindan kelishib olib, keyin ularni bitimga kiritadilar.

Bitimdagi valyuta, moliyaviy va to‘lov shartlarini ishlab chiqishda eksportchi va importchi tomonlarning manfaatlari ko‘pincha qarama-qarshi bo‘ladi. Chunki eksportchi tomon valyutani tez va to‘liq olishni istaydi, importchilar esa to‘lovlarni tovarni olib, uni qayta ishlashgacha kechiktirishga intilishadi.

Hukumatlararo kelishuvlarda hisob-kitoblarning umumiy tartib va qoidalari belgilansa, tashqi savdo bitimlarida esa aniq shartlar ko‘rsatiladi.

Ushbu shartlar orasida quyidagilar mavjud:

- narx qaysi valyutada belgilanadi;
- narx qaysi valyutada amalga oshiriladi;
- to‘lov shartlari;
- to‘lov vositalari;
- hisob-kitob shakli;
- qaysi banklar hisob-kitobni bajaradi.

Endi bu elementlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Narx valyutasi va to‘lov valyutasi bitimning valyuta tushumi nuqtai nazaridan samaradorligini aniqlaydi.

Eksport-import shartnomalaridagi narx tovarni yetkazib beruvchidan xaridorgacha bo‘lgan xarajatlar o‘zgarishi sababli dinamik tarzda o‘zgarib borishi mumkin.

Tovar narxini shakllantirishda qo‘llaniladigan valyuta usullari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. **Qat’iy narx** — bitim tuzilgan vaqtdan to uning ijrosigacha o‘zgarmaydigan narx shakli. Ushbu usul odatda jahon bozorlarida narxlar pasayish tendensiyasi kuzatilayotgan holatlarda qo‘llaniladi.

2. **Oldindan belgilangan tamoyil asosida narx aniqlash** — shartnoma tuzilgan paytda narx belgilash prinsipi ko‘rsatiladi, biroq yakuniy narx bitim ijrosi davomida aniqlanadi. Bu usul asosan narxlar o‘sib borayotgan davrlarda keng qo‘llaniladi.

3. **Farq chegarasi bilan belgilangan narx** — bitim tuzilgan paytda narx qat’iy belgilanadi, biroq bozor narxidagi o‘zgarishlarga mos ravishda muayyan cheklangan oraliqda o‘zgarishiga ruxsat beriladi. Masalan, agar bitim imzolanishidan so‘ng narx 10 % ga oshsa, bu o‘zgarish shartnoma narxiga ham tatbiq etiladi.

4. **Sirpanuvchi (indeksatsiyalanadigan) narx** — ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish xarajatlarining o‘zgarishiga bog‘liq holda belgilanadi. Bunday yondashuv, ayniqsa, qurilish ishlari yoki buyurtma asosidagi uskuna ishlab chiqarishda qo‘llaniladi, bunda narxning yuqori chegarasi yoki ayrim xarajat turlari bo‘yicha tuzatishlar inobatga olinadi.

5. **Aralash narx shakli** — bunda narxning bir qismi qat'iy belgilanadi, qolgan qismi esa sirpanuvchi usul asosida, ya'ni xarajatlar yoki bozor sharoitlariga qarab o‘zgaruvchi tarzda aniqlanadi.

Narx vositasi deganda, bitim predmeti hisoblangan tovarning qiymati qaysi valyutada ifodalanishini anglatadi. Tovar narxining valyutasini tanlashda tovarning turi, narxni belgilash usuli, shuningdek, hukumatlararo bitimlar va xalqaro amaliyotda shakllangan an'analar muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi hollarda tovar qiymati bir emas, balki bir nechta valyutada yoki xalqaro hisob-kitob birliklarida belgilanadi.

To‘lov valyutasi esa importchi yoki qarzdor tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarishda qo‘llaniladigan valyutani bildiradi. Agar valyuta kurslari beqaror bo‘lsa, odatda narx eng barqaror valyutada belgilanadi, to‘lov esa importchining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

Narx valyutasi va to‘lov valyutasi o‘rtasida farq mavjud bo‘lsa, bitim shartlariga ko‘ra ularning birini boshqasiga aylantirish kursi orqali qayta hisob-kitob qilinadi. Bunday tafovut valyuta riskini sug‘urtalashning eng sodda shakli sifatida qaraladi. Masalan, agar narx valyutasi (masalan, AQSh dollari) qadrsizlansa, to‘lov amalga oshiriladigan valyuta (masalan, o‘zbek so‘mi) miqdori shunga mos ravishda kamayadi; aksincha, dollar kursining oshishi esa importchi uchun qo‘shimcha xarajatni anglatadi. Shu tariqa, valyuta kursining pasayish xavfi eksportchi zimmasida, uning o‘sish xavfi esa importchining zimmasida qoladi.

To‘lov shartlari — tashqi iqtisodiy bitimlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular bitim ishtirokchilari o‘rtasidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarish tartibini belgilaydi. Ushbu shartlar quyidagi asosiy shakllarni o‘z ichiga oladi:

1. **Naqd pul orqali to‘lov**
2. **Kredit asosida to‘lov**
3. **Naqd pul bilan yoki opsion kredit asosida to‘lov**

Xalqaro hisob-kitoblarda **naqd pul bilan to‘lov** odatda tovarlar yetkazib berilgandan so‘ng yoki bitimga muvofiq tarzda tovar

jo‘natilganini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, konossament yoki yuk xati) taqdim etilgach amalga oshiriladi. Hozirgi sharoitda esa, ko‘plab holatlarda tovarlar to‘lov hujjatlaridan avval xaridorga yetkaziladi. Bunday vaziyatda importchi to‘lovni amalga oshirishdan oldin ishonch (trast) xati yoki bank kafolatiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Shu bois, amaliyotda to‘lov ko‘pincha tovar manzilga yetkazilganidan keyin, tegishli hujjatlar olingach amalga oshiriladi. Bundan faqatgina tovar yetib kelganini tasdiqlovchi bildirishnoma olingan holatlar mustasno.

Kontragentlar o‘rtasidagi kelishuvga asosan, importchi to‘lovni ma’lum bosqichlarda amalga oshirishi ham mumkin. Bunda to‘lov quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- tovarlar yuklash portida to‘liq yuklab bo‘lingani haqida xabar kelgach;
- tovar hujjatlar to‘plami (faktura, konossament, sug‘urta polisi va boshqalar) olingandan so‘ng;
- tovar belgilangan manzilga yetkazilib, qabul qilingach.

Ba’zi hollarda tovar turiga qarab **aralash to‘lov usuli** ham qo‘llaniladi, ya’ni:

- to‘lovning bir qismi tovar hujjatlari olinganida amalga oshiriladi;
- qolgan qismi esa tovarlar to‘liq yetkazilgach to‘lanadi.

Xalqaro hisob-kitoblar jarayoni savdo ishtirokchilari o‘rtasida valyuta almashinuvi va kredit munosabatlarining mavjudligi sababli murakkab tizimni tashkil etadi. Shu bois, xalqaro valyuta, kredit va hisob-kitob operatsiyalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri aynan ushbu jarayonda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Sotilayotgan mahsulotning turi (masalan, mashinalar, texnika vositalari yoki boshqa investitsion tovarlar)ga qarab, eksportchilar ko‘pincha bozordagi raqobatni kuchaytirish hamda mahsulotini yanada jozibador qilish maqsadida uni **kredit shartlarida sotishga** intiladilar. Shu sababli, tashqi savdo amaliyotlarida **tijorat kredit**idan foydalanish tobora keng tarqalmoqda. Tijorat krediti odatda eksportchi tomonidan importchiga 5–8 yil muddatga, ayrim hollarda esa bundan ham uzoq davrga taqdim etiladi.


Bunday kredit munosabatlari doirasida importchi o‘z majburiyatlarini bajarish uchun **oddiy veksellar** yoki eksportchi tomonidan chiqarilgan **o‘tkazma veksellar (tratta)** ni qabul qilib, to‘lovni amalga oshirishga yozma ravishda rozilik bildiradi.

Ko‘p hollarda esa ayrim eksportchilar tovar uchun to‘lovni **naqd shaklda** amalga oshirishga rozi bo‘lgan xaridorlarga chegirma shaklida rag‘bat yaratadilar. Shu sababli, importchi to‘lovni kechiktirganda, u ushbu chegirma imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Xalqaro hisob-kitoblar bir nechta vositalar orqali amalga oshiriladi, jumladan:

- veksellar,
- to‘lov topshiriqlari,
- bank o‘tkazmalari **(pochta yoki telegraf orqali),**
- cheklar,
- plastik kartalar.

Umuman olganda, xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:



10.1-Rasm. Xalqaro hisob-kitobning asosiy shakllari

Xalqaro hisob-kitoblarning o‘ziga xos jihatlari quyidagi asosiy tamoyillar orqali namoyon bo‘ladi:

1. **Importchi, eksportchi va ularning banklari o‘rtasidagi munosabatlar.** Tashqi savdo bitimlari jarayonida tomonlar o‘zaro moliyaviy aloqalar o‘rnatadi. Ushbu jarayon doirasida tovar va to‘lov hujjatlari rasmiylashtiriladi, tekshiriladi, uzatiladi hamda yakuniy to‘lov amalga oshiriladi.

2. **Normativ-huquqiy tartibga solish.** Xalqaro hisob-kitoblar nafaqat milliy qonunchilik hujjatlari, balki xalqaro bank amaliyoti va tartib-qoidalari asosida boshqariladi.

3. **Unifikatsiya va standartlash.** Xalqaro hisob-kitoblar yagona xalqaro me'yorlar asosida unifikatsiyalanadi, bu esa global xo'jalik aloqalarining rivojlanishi va bank operatsiyalarining universallashuvi bilan bevosita bog'liq.

4. **Hujjatli xususiyat.** Xalqaro hisob-kitoblar odatda hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ular ikki turga bo'linadi:

- **Moliyaviy hujjatlar:** oddiy va o'tkazma veksellar, cheklar, to'lov tilxatlari.
- **Tijorat hujjatlari:**

a) hisob-fakturalar;

b) tovarlarning jo'natilganligini yoki yetkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (konossement, temir yo'l, avtomobil yoki havo transporti yuk xatlari, pochta kvitansiyasi, aralash tashish hujjatlari);

v) sug'urta hujjatlari;

g) qo'shimcha hujjatlar — mahsulot ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi sertifikatlar, sifat sertifikatlari, bojxona deklaratsiyalari va boshqa tegishli hujjatlar.

5. **Valyuta operatsiyalari bilan uzviy bog'liqlik.** Xalqaro hisob-kitoblar turli valyutalarda amalga oshirilgani sababli, ular valyuta konversiyasi va kurs o'zgarishlari bilan chambarchas aloqador.

6. **Kafolat mexanizmlariga rioya qilish.** Xalqaro hisob-kitoblarda kafolatlar muhim o'rin tutadi va ular quyidagi majburiy elementlarni o'z ichiga oladi:

1. kafolat beruvchi to'lov amalga oshirilmaguncha kafolat summasini undirish huquqiga ega emas;
2. bitimning mazmuni va tavsifi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak;
3. da'vo qilish uchun zarur hujjatlar ro'yxati keltiriladi;
4. kafolatning amal qilish muddati va hujjatlarni kafolat bergan bankka taqdim etish sanasi belgilanadi;
5. kafolat muddati tugagach, u qaytarilishi lozim.

Bu jihatlar xalqaro hisob-kitoblarning murakkab tuzilmasini, ularning yuridik, moliyaviy va amaliy asoslarini belgilab beradi.

Xalqaro hisob-kitob shakllariga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. **Tashqi savdo obyekti bo'lgan tovarning turi.** Tovarlarning xususiyatlari, ularning transportirovka va saqlash sharoitlari, shuningdek, bozordagi barqarorlik darajasi hisob-kitob shaklini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Kredit kelishuvining mavjudligi.** Agar bitimda tovarlar yoki xizmatlar kredit asosida yetkazilsa, hisob-kitob shakli kredit shartlariga muvofiq belgilanadi.

3. **Kontragentlarning moliyaviy barqarorligi va obro'-e'tibori.** Tashqi iqtisodiy aloqalarda ishtirok etuvchi tomonlarning to'lov qobiliyati va ishonchliligi xalqaro hisob-kitob shaklini tanlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

4. **Jahon bozorida tovarlarga bo'lgan talab va taklif.** Bozor kon'yunkturasi, narxlarning o'zgaruvchanligi hamda raqobat darajasi ham to'lov shaklini tanlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Har bir tashqi savdo bitimida xalqaro hisob-kitoblarning aniq shartlari, tartibi va shakllari shartnoma matnida batafsil ko'rsatilishi zarur.

Umuman olganda, xalqaro hisob-kitoblar murakkab huquqiy munosabatlar tizimini tashkil etadi. Ular nafaqat eksport-import faoliyatini, balki **tijorat tusiga ega bo'lmagan to'lovlarni** ham o'z ichiga oladi. Bunday to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- xalqaro sayohatlar bilan bog'liq to'lovlar;
- sport musobaqalari va madaniy tadbirlar uchun hisob-kitoblar;
- fuqarolarning xorijdagi shaxslarga pul o'tkazmalari;
- chet eldagi diplomatik yoki savdo vakolatxonalarining xarajatlari;
- xorijiy davlatlardagi harbiy qismlarni moliyalashtirish bilan bog'liq to'lovlar;
- kapital va kredit harakati doirasidagi moliyaviy hisob-kitoblar.

Shu tarzda, xalqaro hisob-kitoblar global iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib, ular davlatlar o'rtasidagi

moliyaviy oqimlarni muvofiqlashtirish va tartibga solish vazifasini bajaradi.

Bu sohada asosiy huquqiy baza sifatida Xalqaro savdo palatasi tomonidan qabul qilingan yagona xalqaro qoidalar tan olinadi. Tashqi iqtisodiy shartnomalarni tuzishda esa 1980 yilda ishlab chiqilgan BMTning "Xalqaro tovar oldi-sotdi shartnomalari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi" muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u to‘lov shartlari va ularni amalga oshirish tartibini belgilab beradi. Mazkur Konvensiyada importchining tovar uchun to‘lov majburiyati, to‘lov muddati, to‘lov o‘tkaziladigan joy, to‘lov bajarilmasa qanday oqibatlar yuzaga kelishi, kechikkan har bir kun uchun penya hisoblanishi, tomonlar o‘rtasidagi zararning qanday taqsimlanishi kabi holatlar aniq bayon etilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, **O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomalar majburiy kuchga ega** bo‘lib, bu Konstitutsiyada ham belgilab qo‘yilgan. "...Agar xalqaro shartnomada amaldagi qonunchilikdan farqli qoida ko‘rsatilgan bo‘lsa, aynan o‘sha xalqaro shartnomada belgilangan qoidalar ustuvor hisoblanadi."[58]

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi yana bir hujjat bu 1964 yilda qabul qilingan **Gaaga konvensiyasi** bo‘lib, "Xalqaro tovar oldi-sotdi shartnomalarini tuzish tartibi to‘g‘risida"gi qonunlar to‘plamidan iborat. Ammo bu konvensiyani kam sonli davlatlar imzolaganligi sababli u amaliyotda keng tarqalmagan.

Gaaga konvensiyasi umumiy yondashuvga ega bo‘lib, unda huquqiy tizimlar, tamoyillar, institutlar ko‘rib chiqilgan. Unda rivojlanayotgan davlatlar manfaatlari inobatga olingan yangi xalqaro iqtisodiy tartibni yaratish masalasi ham aks etgan. Ushbu konvensiya asosida keyinchalik **1980 yilda Vena konvensiyasi** ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi bu konvensiyaga muvofiq, agar shartnoma tomonlaridan biri O‘zbekistonning xo‘jalik yurituvchi subyekti bo‘lsa, bunday xalqaro oldi-sotdi shartnomalari davlat nazoratida amalga oshiriladi.

[58]O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI T.:"O’zbekiston" 2023 yil III bob 15 modda

Tashqi savdo shartnomalaridagi to‘lov shartlari 1994 yilda UNIDROIT (Huquqni unifikatsiyalash instituti) tomonidan qabul qilingan “Xalqaro tijorat shartnomalari tamoyillari”da keng yoritilgan. Amaliyotda esa tashqi iqtisodiy faoliyatda **xalqaro odat va udumlar** asos qilib olinadi.

Xalqaro savdoda yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida, Xalqaro Savdo Palatasi 1953 yilda **“Incoterms”** (International Commercial Terms) to‘plamini ishlab chiqdi. Ushbu hujjat vaqt o‘tishi bilan takomillashtirib, yangidan nashr etib borildi. U fakultativ (ixtiyoriy) xususiyatga ega bo‘lib, bu xususiyat “Incoterms” hujjatining 22-bandida aniq ko‘rsatilgan. 1990 yilda nashr etilgan “Incoterms”ga asoslanib ishlayotgan ko‘plab tadbirkorlar aynan shu to‘plamdagi asosiy tamoyillar orqali savdo faoliyatlarini yuritadilar. Bazis shartlar bajarilishi orqali tomonlar o‘rtasida huquq va majburiyatlar teng taqsimlanadi.

Tijorat hujjatlarining eng muhimlaridan biri bu – hisob-faktura bo‘lib, unda to‘lanishi kerak bo‘lgan summa, tovarning to‘liq va aniq nomi aks ettiriladi va importchiga taqdim etiladi.

Transport hujjatlari esa hisob-faktura uchun asosiy dalil hisoblanadi. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- konossement (dengiz va daryo transporti uchun) – bu hujjat mahsulotga egalik qilish huquqini beradi;
- yuk xatlari (temir yo‘l, avtomobil va havo transporti uchun);
- qabul qilish-topshirish dalolatnomalari;
- pochta kvitansiyalari;
- sertifikatlar va boshqa hujjatlar.

Sug‘urta polis va sug‘urta sertifikatlari — yukning yetib bormaslik, shikastlanishi yoki yo‘qolishiga qarshi sug‘urta shartnomasi mavjudligini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar hisoblanadi.Tashqi savdo shartnomasida esa, albatta, eksport qiluvchi tomonidan taqdim etilishi lozim bo‘lgan barcha hujjatlar ro‘yxati aniq ko‘rsatiladi. Bu hujjatlar, ayniqsa, to‘lovni amalga oshirish va tovarlarni rasmiylashtirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

10.3. Xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmlari

Xalqaro hisob-kitoblarga asosan to‘rtta asosiy shakldan foydalaniladi:

1. to‘lov topshiriqnomasi
2. chek
3. hujjatli akkreditiv
4. inkasso

Jahon amaliyotida, ayniqsa, hujjatli akkreditiv va hujjatli inkasso orqali hisob-kitoblar boshqa usullarga nisbatan kengroq qo‘llaniladi. Bu holatning asosiy sababi, akkreditiv orqali to‘lovlarda eksportyor uchun pul tushumiga kafolat borligi va inkassoli hisob-kitobda esa tovar hujjatlari faqat to‘lovdan keyin berilishi bilan bog‘liq. Bu shartlar o‘z navbatida import qiluvchi tomonni o‘z vaqtida to‘lovni amalga oshirishga rag‘batlantiradi.

Yurtimizdagi xo‘jalik subyektlari va banklar amaliyotida to‘liq shakldagi sof inkasso usuli amaliyotga joriy etilmagan. Bu holat, asosan, respublikamizda tijorat veksellari muomalasi amalda mavjud emasligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz banklari tomonidan ochilayotgan akkreditivlarning naqd pulsiz hisob-kitoblar ichidagi ulushi juda past. Qolaversa, amaldagi hujjatli akkreditivlarning asosiy qismi to‘liq ta’minlangan akkreditivlar hisoblanadi. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar mablag‘larining ma’lum qismini aylanmadan chiqarib qo‘yishga olib kelmoqda.

Quyida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda keng qo‘llanilayotgan, ta’minlanmagan hujjatli akkreditiv shaklidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Xalqaro hisob-kitoblar quyidagi izchil bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. Tashqi savdo shartnomasining tuzilishi. Eksportchi va importchi o‘rtasida mahsulot yetkazib berish shartlari, jumladan, to‘lov shakli (odatda hujjatlashtirilgan akkreditiv) ko‘rsatilgan shartnoma imzolanadi.

2. Importchining bankka murojaati. Importchi tashkilot o‘z xizmat ko‘rsatuvchi bankiga akkreditiv ochish to‘g‘risida rasmiy ariza taqdim etadi.

3. Importchi banki tomonidan akkreditiv ochilishi. Bank akkreditiv ochadi va uning shartlarini o‘z ichiga olgan maxsus xabarni (telegramma yoki elektron xabar) eksportchining bankiga yuboradi.

4. Eksportchi bankining mijozni xabardor qilishi. Eksportchining banki akkreditiv bo‘yicha ma’lumotlarni tekshiradi va eksportchini akkreditiv ochilganligi haqida rasmiy ravishda ogohlantiradi.

5. Mahsulotni yetkazib berish. Eksportchi, akkreditivda ko‘rsatilgan talab va muddatlarga muvofiq tarzda, tovarni importchiga jo‘natadi.

6. Hujjatlarni taqdim etish. Eksportchi jo‘natilgan tovar bilan bog‘liq barcha zarur hujjatlarni (invoys, konosament, sug‘urta polisi va boshqa tegishli hujjatlar) o‘z bankiga topshiradi.

7. Eksportchi bankining hujjatlarni tekshiruvi. Bank taqdim etilgan hujjatlarning akkreditiv shartlariga to‘liq mosligini tekshiradi va ularni importchining bankiga yuborishga tayyorlaydi.

8. Hujjatlarning importchi bankiga yuborilishi. Eksportchining banki to‘lovni amalga oshirish uchun hujjatlarni importchining bankiga yetkazadi.

9. To‘lovning bajarilishi. Agar hujjatlar akkreditiv shartlariga to‘liq javob bersa, importchining banki to‘lovni o‘z mablag‘lari yoki oldindan ajratilgan hisobdan amalga oshiradi.

10. Hujjatlarning importchiga topshirilishi. To‘lov amalga oshirilgach, importchining banki tegishli hujjatlarni importchiga beradi, bu esa unga tovarni olish huquqini ta’minlaydi.

11. Eksportchi bankining xabardor qilinishi. Importchi banki, to‘lov amalga oshirilgani va hujjatlar importchiga topshirilgani haqida eksportchi bankini rasmiy tarzda xabardor qiladi.

12. Mablag‘ning eksportchi hisobiga o‘tkazilishi. Eksportchi banki olingan to‘lov summasini eksportchining joriy hisob raqamiga o‘tkazadi.

13. Bank ko‘chirmasining taqdim etilishi. So‘ngra eksportchi banki mijozga mablag‘ o‘tkazilgani to‘g‘risida rasmiy bank ko‘chirmasini taqdim etadi.

Mazkur bosqichlar xalqaro akkreditiv tizimi orqali hisob-kitoblarning shaffof, xavfsiz va ishonchli tarzda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqadiki, hujjatli akkreditiv tizimida tovarlarga oid hujjatlar importchiga faqat to‘lov amalga oshirilganidan so‘ng topshiriladi. Shu jihatdan, importchi banki ushbu to‘lov uchun asosiy kafolatlovchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Natijada, ta’minlanmagan hujjatli akkreditiv eksportchilar uchun xalqaro hisob-kitoblarning eng qulay va xavfsiz shakllaridan biri hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xo‘jalik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda odatda ta’minlangan akkreditiv shaklidan keng foydalanadilar. Buning sababi shundaki, ushbu davlatlar xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan, Bazel qo‘mitasi ekspertlari va boshqa nufuzli tashkilotlar tomonidan yuqori risk darajasiga ega hududlar sifatida baholanadi. Shu sababdan, ular bilan olib boriladigan xalqaro savdo operatsiyalarida to‘lov kafolati mavjud bo‘lgan va to‘lov xavfini minimal darajaga tushiruvchi hisob-kitob mexanizmlariga ustuvorlik beriladi. Shunday mexanizmlardan biri — hujjatli akkreditiv hisoblanadi, chunki u to‘lov kafolatini ham, tomonlarning moliyaviy xavfsizligini ham ta’minlaydi.

Ta’minlangan akkreditiv shaklida to‘lov summasi alohida hisobraqamda deponent qilinadi yoki oldindan eksportchining bankiga o‘tkaziladi.

Aksincha, rivojlangan davlatlar bank amaliyotida keng qo‘llaniladigan ta’minlanmagan hujjatli akkreditivda akkreditiv miqdori uchun alohida balans hisobvarag‘i ochilmaydi. Bunda to‘lov majburiyatini bajarish bo‘yicha kafolat to‘liq importchi banki zimmasida bo‘ladi, bu esa savdo jarayonini soddalashtiradi va tranzaksiya tezligini oshiradi.

Hujjatli inkasso asosida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Tashqi savdo shartnomasini tuzish.** Eksportyor va importyor o‘rtasida mahsulot yetkazib berish hamda to‘lov shartlari belgilangan shartnoma imzolanadi.

2. **Eksportyor tovarlarni yuboradi.** Shartnomaga muvofiq tovarlar importyorga jo‘natiladi.

3. **Eksportyor hujjatlarni tayyorlaydi.** Tovarlar bilan bog‘liq barcha zarur tijorat hujjatlari rasmiylashtiriladi.

4. **Eksportyor banki hujjatlarni qabul qiladi.** Eksportchi o‘z bankiga tovar jo‘natilganini tasdiqlovchi hujjatlarni topshiradi.

5. **Eksportyor banki hujjatlarni importyor bankiga yuboradi.** Mazkur hujjatlar inkasso shaklida to‘lovni amalga oshirish uchun yuboriladi.

6. **Importyor banki hujjatlarni inkassoga oladi.** Ularni ko‘rib chiqib, hisob-kitob jarayonini boshlaydi.

7. **Importyor xabardor qilinadi.** Importyor banki hujjatlar kelib tushganini mijoziga bildiradi.

8. **To‘lov topshiriqnomasi rasmiylashtiriladi.** Importchi to‘lovni amalga oshirish uchun bankka topshiriqnoma beradi.

9. **To‘lov amalga oshiriladi.** Importyor banki mijozning topshirig‘i asosida to‘lovni bajaradi.

10. **Eksportyor banki xabardor qilinadi.** Importyor banki to‘lov bajarilgani haqida eksportyor bankiga ma’lumot yuboradi.

11. **Mablag‘ eksportyorga o‘tkaziladi.** Eksportyor banki kelgan summani eksportyorning joriy valyuta hisobiga o‘tkazadi.

12. **Hisobdan ko‘chirma taqdim etiladi.** Eksportyor banki mijozga mablag‘ o‘tkazilganini tasdiqlovchi bank ko‘chirmasini beradi.

Ushbu tartibdan ko‘rinib turibdiki, hujjatli inkasso tizimida tovarlarga oid hujjatlar importchiga faqat to‘lov amalga oshirilganidan so‘ng taqdim etiladi. Bu mexanizm importchini to‘lovni o‘z vaqtida bajarishga majbur qiladi, chunki agar to‘lov kechiktirilsa, u hujjatlarni ololmaydi va shunga mos ravishda tovarni ombordan yoki temir yo‘l bekatidan chiqara olmaydi. Natijada tovarning saqlanish muddati uzayadi, bu esa bojxona omborlari yoki temir yo‘l stansiyalari

tomonidan undiriladigan jarima va saqlash to‘lovlarining oshishiga olib keladi.

Inkasso amaliyotining ikki asosiy shakli mavjud:

- **Sof inkasso** — bunda faqat **to‘lov hujjatlari** inkassoga olinadi.
- **Hujjatli inkasso** — bu shaklda **tijorat hujjatlari**, yoki **tijorat va to‘lov hujjatlari birgalikda** inkassoga olinadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan O‘zbekiston Respublikasida, eksport-import hisob-kitoblarini moliyalashtirish jarayonida tijorat banklarining orderli cheklaridan keng foydalanilmaydi. Bu holat esa xalqaro hisob-kitoblarning samaradorligini pasaytiradi va moliyaviy operatsiyalarni cho‘zilishiga olib keladi.

Banklarning orderli cheklari orqali xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Tashqi savdo shartnomasini imzolash.** Eksportyor va importyor o‘rtasida mahsulot yetkazib berish va to‘lov tartibi belgilangan shartnoma tuziladi.
2. **Importyorning bankka murojaati.** Import qiluvchi o‘z bankiga orderli chek yozish bo‘yicha yozma ko‘rsatma beradi.
3. **Bank tomonidan orderli chek rasmiylashtiriladi.** Importyor banki belgilangan miqdordagi orderli chekni yozadi.
4. **Chekning importyorga topshirilishi.** Bank tayyorlangan chekni importyorga beradi.
5. **Tovarlarni jo‘natish.** Eksportyor shartnoma shartlariga muvofiq tovarlarni importyorga jo‘natadi.
6. **Tijorat hujjatlarini yuborish.** Eksportyor tovarlar bilan bog‘liq barcha zarur hujjatlarni importyorga yetkazadi.
7. **Chekning eksportyorga taqdim etilishi.** Importyor to‘lov sifatida orderli chekni eksportyorga topshiradi.
8. **Eksportyor tomonidan chekni bankka taqdim etish.** Eksportchi o‘z bankiga chekni inkasso uchun beradi.
9. **Eksportyor banki chekni qabul qiladi.** Chekni olgan bank uni tekshiradi va qayta ishlash jarayonini boshlaydi.

10. **Chekning importyor bankiga yuborilishi.** Eksportyor banki chekni to‘lovni amalga oshiruvchi bankka – importyor bankiga yuboradi.

11. **To‘lovning bajarilishi.** Importyor banki chek bo‘yicha to‘lovni amalga oshiradi.

12. **Eksportyor bankini xabardor qilish.** Importyor banki to‘lov bajarilganini rasmiy xat orqali eksportyor bankiga ma’lum qiladi.

13. **To‘lov summasini o‘tkazish.** Eksportyor banki olingan mablag‘ni eksportyorning joriy valyuta hisobiga o‘tkazadi.

14. **Hisobdan ko‘chirma taqdim etish.** Eksportyor banki mijozga o‘tkazma amalga oshirilgani haqida rasmiy bank ko‘chirmasini beradi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida banklarning orderli cheklari eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirishda keng qo‘llaniladi. Ularning asosiy afzalligi shundaki, bunday cheklar indossament (ya’ni, orqa tarafdagi yozuv orqali huquqni boshqasiga o‘tkazish) yordamida uchinchi shaxslarga berilishi mumkin. Shu jihatdan orderli cheklar korxonalar o‘rtasidagi debitorlik va kreditorlik qarzdorligini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Biroq ayrim hollarda sof inkasso shaklining amalda qo‘llanilmasligi naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini kengaytirishga to‘sqinlik qiladi. Chunki tijorat veksellari indossament orqali boshqa subyektlarga o‘tkazilganda, bir tomondan naqd pulsiz to‘lovlar miqdori oshadi, ikkinchi tomondan esa xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi qarzdorlik darajasi kamayadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning to‘lov talabnomasi shakli esa bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga to‘liq mos kelmaydi. Chunki bunda to‘lovi undirilmasdan jo‘natilgan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar amalga oshiriladi. Aslida, to‘lovi kechiktirilgan bunday operatsiyalar kredit asosida savdo sifatida qaralishi va ma’lum foiz stavkasi asosida qo‘shimcha to‘lovlar bilan qoplanishi lozim. Yoki kamida bu summalar uchun tijorat vekseli tuzilishi kerak. Ammo amaliyotda bunday hollarda tovarlar kreditga sotilgan deb hisoblanmaydi.

Shuningdek, to‘lov talabnomasidan foydalanishdagi muammolardan biri — bu to‘lovlarni solishtirish dalolatnomasi asosida

o‘z vaqtida undirishdagi qiyinchiliklardir. Masalan, ayrim fermer xo‘jaliklari xususiy firmalardan mahsulot sotib olganida, keyinchalik ushbu firmalarning faoliyatini to‘xtatib qo‘yishi yoki yopilishi to‘lovni undirish jarayonini murakkablashtiradi.

Hozirda mamlakatimizda to‘lovlarni amalga oshirishning maqsadli ketma-ketligi joriy etilgan bo‘lib, unda Davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarni birinchi navbatda qoplash ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq to‘lovlarining keyingi davrlarda majburiy undirilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ya’ni korxonalarning likvidlik darajasini pasaytirib, moliyaviy barqarorlikni cheklamoqda.

Asosiy tushunchalar va iboralar

xalqaro hisob-kitoblar, to‘lov shakllari, tashqi savdo, pul o‘tkazmalari, tashqi iqtisodiy faoliyat, to‘lov topshiriqnomasi, cheklar, hujjatlashtirilgan akkreditiv, hujjatli inkasso, moliyaviy kafolatlar, tashqi moliyalashtirish, bank amaliyoti, moliyaviy operatsiyalar.

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Xalqaro hisob-kitoblar nima va ularning asosiy shakllari qaysilar?
2. To‘lov topshiriqnomasi xalqaro hisob-kitoblarda qanday rol o‘ynaydi?
3. Cheklar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning afzalliklari va kamchiliklari nimada?
4. Hujjatlashtirilgan akkreditiv nima va uning xalqaro savdodagi ahamiyati qanday?
5. Hujjatli inkasso shaklida to‘lov qanday amalga oshiriladi?
6. Nima uchun xalqaro hisob-kitoblarda bank kafolati muhim hisoblanadi?
7. Tashqi iqtisodiy faoliyatda hisob-kitob shakllarini tanlashda qanday omillar hisobga olinadi?
8. Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro hisob-kitob shakllarining roli qanday?

9. Xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi moliyaviy risklarni kamaytirishda qanday hisob-kitob shakllari yordam beradi?

10. Tashqi savdo shartnomasida hisob-kitob shakllari bo‘yicha qanday shartlar kiritilishi kerak?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. Xalqaro hisob-kitob deganda nima tushuniladi?

A) Ichki bozordagi to‘lov jarayoni

B) Turli mamlakatlar o‘rtasidagi savdo, xizmat va moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish tizimi

C) Soliq yig‘imlarini hisoblash jarayoni

D) Faqat banklar o‘rtasidagi hisoblash

2. Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Foyda olish

B) Xalqaro savdo operatsiyalarida o‘zaro to‘lovlarni osonlashtirish

C) Soliq to‘lovlarini kamaytirish

D) Valyuta kursini barqarorlashtirish

3. Xalqaro hisob-kitoblarning ishtirokchilari kimlar bo‘lishi mumkin?

A) Faqat davlat tashkilotlari

B) Tadbirkorlar, banklar, eksportyor va importyorlar, xalqaro moliya institutlari

C) Faqat jismoniy shaxslar

D) Sug‘urta kompaniyalari

4. Xalqaro hisob-kitoblar qaysi valyutalarda amalga oshiriladi?

A) Faqat milliy valyutada

B) Asosan xalqaro hisob-kitob valyutalarida (dollar, yevro, funt sterling va boshqalar)

C) Faqat oltin bilan

D) Har qanday tovar bilan

5. Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

A) To‘lovlilik, ishonchlilik, tezkorlik va xavfsizlik

B) Soliqlik, nazorat, byudjetlilik
C) Barterlik, muvozanat, tenglik
D) Faqat davlat kafolati

6. Xalqaro hisob-kitoblar qanday yo‘l bilan amalga oshiriladi?
A) Naqd pul orqali
B) Banklar va xalqaro to‘lov tizimlari orqali o‘tkazmalar yordamida
C) Faqat tovar ayirboshlash orqali
D) Shartnomalarsiz

7. Xalqaro hisob-kitoblarni tashkil etishda asosiy rolni kim bajaradi?
A) Sug‘urta kompaniyalari
B) Tijorat banklari
C) Bojxona organlari
D) Faqat eksportyorlar

8. Hisob-kitob shakli nima?
A) To‘lov amalga oshiriladigan usul va tartib
B) Valyuta kursi o‘zgarishi
C) Soliq tizimi
D) Foyda miqdori

9. Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllariga nimalar kiradi?
A) Naqd pul, kredit, depozit
B) Inkasso, akkreditiv, bank o‘tkazmasi, ochiq hisob
C) Tovar ayirboshlash, barterni amalga oshirish
D) Faqat elektron to‘lovlar

10. Inkasso shaklidagi hisob-kitobda kimning tashabbusi bilan to‘lov amalga oshiriladi?
A) Importyor tashabbusi bilan
B) Eksportyorning topshirig‘iga ko‘ra bank orqali
C) Bankning o‘z tashabbusi bilan
D) Xalqaro tashkilot tomonidan

11. Akkreditiv shaklidagi hisob-kitobning o‘ziga xosligi nimada?
A) To‘lov bevosita bank kafolati bilan amalga oshiriladi

B) To‘lov shartnoma tugaganidan keyin amalga oshiriladi
C) To‘lov faqat tovar yetkazilgandan keyin kechiktiriladi
D) To‘lov naqd shaklda amalga oshiriladi

12. Akkreditiv kim tomonidan ochiladi?

A) Eksportyor tomonidan
B) Importyor tomonidan o‘z bankida
C) Xalqaro tashkilot tomonidan
D) Markaziy bank tomonidan

13. “Ochiq hisob” shaklidagi to‘lov nimani anglatadi?

A) Importyor tovarni olgach, keyinchalik to‘lovni amalga oshiradi
B) To‘lov oldindan amalga oshiriladi
C) Banklar o‘rtasida naqd hisob-kitob bo‘ladi
D) Tovar bepul yetkaziladi

14. Bank o‘tkazmasi orqali hisob-kitob qilishda to‘lov qanday amalga oshiriladi?

A) To‘lovchi o‘z bankiga topshiriq beradi va mablag‘ eksportyor hisobiga o‘tkaziladi
B) Naqd pul bilan to‘lov amalga oshiriladi
C) Har ikki tomon shaxsan uchrashadi
D) To‘lov faqat sug‘urta orqali amalga oshiriladi

15. Xalqaro hisob-kitoblarning samarali tashkil etilishi nimaga yordam beradi?

A) Tashqi savdoning rivojlanishi va to‘lov intizomini oshirishga
B) Ichki narxlarning pasayishiga
C) Davlat byudjeti kamomadini kamaytirishga
D) Faqat milliy valyuta kursini mustahkamlashga

16. Akkreditiv shakli asosan qaysi holatda qo‘llaniladi?

A) Xaridor va sotuvchi bir-biriga ishonmaydigan holatlarda
B) Faqat uzoq muddatli shartnomalarda
C) Davlatlar o‘rtasidagi yordam sifatida
D) Faqat xizmat ko‘rsatishda

17. Inkasso shaklida eksportyor qanday hujjatlarni bankka topshiradi?

A) Tovar yukxati va hisob-faktura

B) Faqat shaxsiy hujjatlar
C) Soliq deklaratsiyasi
D) Valyuta kursi jadvali

18. Xalqaro hisob-kitob tizimida SWIFT tizimi qanday rol o‘ynaydi?

A) Xalqaro elektron to‘lov va axborot almashish tizimi sifatida xizmat qiladi
B) Bojxona ma’lumotlarini saqlaydi
C) Faqat kreditlarni nazorat qiladi
D) Soliqlarni yig‘adi

19. Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta riski deganda nima tushuniladi?

A) Tovar narxining oshishi xavfi
B) Valyuta kursi o‘zgarishi natijasida zarar ko‘rish ehtimoli
C) Banklarning foiz stavkasi o‘zgarishi
D) Sug‘urta to‘lovlarining oshishi

XI BOB. NAQD PUL (VALYUTA) O'TKAZMALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

11.1. Xalqaro pul o‘tkazmalari mohiyati va mazmuni

Xalqaro pul o‘tkazmalari — bu “...jahon bo‘ylab shaxslarning mablag‘larini juda qisqa muddat ichida yuborishga imkon beruvchi noyob bank xizmatidir. Pul jo‘natmalari yuqori xavfsizlik darajasiga ega bo‘lib, istalgan masofaga bir necha daqiqa ichida yetkaziladi va faqat ko‘rsatilgan shaxsga naqd pul shaklida topshirilishi kafolatlanadi”.

Jo‘natmachi o‘tkazma uchun vositachilik haqini to‘laydi.

Pul o‘tkazmasini amalga oshirishda, siz tanlaysiz: o‘tkazma usulini, mablag‘ miqdorini, pul o‘tkazmasini oluvchi davlatni hamda vositachilik to‘lovining miqdorini. Pul o‘tkazmasini oluvchi shaxs esa nazorat raqamini, pul miqdorini, shuningdek, jo‘natmachi haqida ma’lumotlar va jo‘natilgan davlat nomini taqdim etishi kerak.

Xalqaro pul jo‘natmalarining asosiy xususiyatlari

- tezkorlik: pul odatda bir necha daqiqa yoki bir necha soat ichida qabul qiluvchiga yetib boradi.
- xavfsizlik: mablag‘ maxsus tizimlar orqali shifrlanadi va xavfsizlik choralar qo‘llaniladi.
- keng qamrov: ko‘plab mamlakatlar va banklar orqali pul jo‘natish mumkin.
- ko‘p turdagi xizmatlar: naqd pul ko‘rinishida, bank hisob raqamiga yoki elektron hamyonga jo‘natish mumkin.

Xalqaro pul jo‘natmalarini amalga oshirish usullari

- banklar orqali: swift va boshqa xalqaro bank tizimlari yordamida pul o‘tkaziladi.
- pul jo‘natmalari kompaniyalari orqali: western union, moneygram, contact kabi kompaniyalar tezkor xizmat ko‘rsatadi.
- elektron to‘lov tizimlari orqali: paypal, payoneer va boshqalar orqali ham pul jo‘natish mumkin.

Xalqaro pul jo‘natmalarining ahamiyati

- iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash: xorijdagi mehnat migrantlari yuborgan pullar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim manba hisoblanadi.
- tadbirkorlikni rivojlantirish: xalqaro savdo va biznes operatsiyalarini soddalashtiradi.
- oilaviy yordam: mehnat muhojirlari oila a’zolariga pul yuborishlari mumkin.

Xalqaro pul jo‘natmalari — bu bir davlatdan boshqa davlatga pul mablag‘ini tez va xavfsiz tarzda yuborish xizmatidir. Bu xizmat asosan xorijda ishlayotgan fuqarolar, tadbirkorlar yoki oila a’zolari o‘rtasida pulni uzatish uchun ishlatiladi.

Xalqaro pul jo‘natmalarining asosiy xususiyatlari

- tezkorlik: pul odatda bir necha daqiqa yoki bir necha soat ichida qabul qiluvchiga yetib boradi.
- xavfsizlik: mablag‘ maxsus tizimlar orqali shifrlanadi va xavfsizlik choralar qo‘llaniladi.
- keng qamrov: ko‘plab mamlakatlar va banklar orqali pul jo‘natish mumkin.
- ko‘p turdagi xizmatlar: naqd pul ko‘rinishida, bank hisob raqamiga yoki elektron hamyonga jo‘natish mumkin.

Xalqaro pul jo‘natmalarini amalga oshirish usullari

- banklar orqali: swift va boshqa xalqaro bank tizimlari yordamida pul o‘tkaziladi.
- pul jo‘natmalari kompaniyalari orqali: western union, moneygram, contact kabi kompaniyalar tezkor xizmat ko‘rsatadi.
- elektron to‘lov tizimlari orqali: paypal, payoneer va boshqalar orqali ham pul jo‘natish mumkin.

Xalqaro pul jo‘natmalarining ahamiyati

- iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash: xorijdagi mehnat migrantlari yuborgan pullar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim manba hisoblanadi.
- tadbirkorlikni rivojlantirish: xalqaro savdo va biznes operatsiyalarini soddalashtiradi.

– oilaviy yordam: mehnat muhojirlari oila a’zolariga pul yuborishlari mumkin.

11.2. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari

O‘zbekiston xalqaro pul o‘tkazmalari bozorida bir qancha yirik va ishonchli tizimlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizimlar xorijda yashovchi fuqarolarimizga tez va xavfsiz pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Western Union

Western Union — bu dunyo bo‘yicha eng yirik xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlaridan biri bo‘lib, 200 dan ortiq davlat va hududlarda faoliyat yuritadi. O‘zbekiston ham ushbu tizimga kiradi va mamlakat bo‘ylab ko‘plab filiallar va agentliklar orqali xizmatlar taqdim etiladi.

📍 **O‘zbekistondagi Western Union agentliklari**

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida Western Union xizmatlarini taqdim etuvchi filiallar mavjud. Masalan:

- **Toshkent**: Yunusobod tumanidagi filial orqali Western Union orqali pul o‘tkazish mumkin.
- **Samarqand va Buxoro**: Bu hududlarda ham tizim faoliyat ko‘rsatadi.

💳 **Western Union orqali pul yuborish va qabul qilish**

- **Pul yuborish**: Pul jo‘natish uchun sizga jo‘natiladigan summa, jo‘natiladigan mamlakat va qabul qiluvchining to‘liq ismi kerak bo‘ladi. Odatda jarayon bir necha daqiqa ichida yakunlanadi.
- **Pul qabul qilish**: Qabul qiluvchi shaxsga mablag‘ni olish uchun ham pul miqdori, yuborilayotgan mamlakat va qabul qiluvchining to‘liq ismi talab etiladi. Pul olish jarayoni ham tezkor amalga oshiriladi.

Apelsin ilovasi orqali Western Union

Apelsin — bu Kapitalbank tomonidan taqdim etilgan mobil ilova bo‘lib, u orqali Western Union tizimi orqali pul yuborish va qabul qilish mumkin. Ilova yordamida siz:

- Pul yuborish va olish operatsiyalarini bajarishingiz mumkin.
- Jo‘natilgan yoki kelayotgan mablag‘larni kuzatishingiz mumkin.
- Pul yuborish va olish uchun zarur ma’lumotlarni kiritishingiz mumkin.

Western Union xizmatlaridan Apelsin ilovasi orqali foydalanish uchun Kapitalbankda hisob qaydnomangiz bo‘lishi kerak.

MoneyGram

MoneyGram xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha yana bir mashhur tizimdir. O‘zbekiston bo‘ylab ko‘plab filiallari mavjud bo‘lib, mijozlar naqd pul yuborish yoki olish, shuningdek, onlayn xizmatlardan foydalanishlari mumkin. MoneyGram tizimi xavfsiz va ishonchli xizmat ko‘rsatish bilan tanilgan.

MoneyGram — bu dunyo bo‘ylab 200 dan ortiq davlatlarda faoliyat ko‘rsatadigan xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi bo‘lib, O‘zbekistonda ham keng qo‘llaniladi. U orqali naqd pul yuborish yoki bank hisob raqamiga pul o‘tkazish imkoniyati mavjud. Xizmatlar tez va xavfsiz tarzda taqdim etiladi, ko‘plab bank va agentliklar orqali ishlaydi.

O‘zbekistondagi MoneyGram xizmatlari

O‘zbekistonda MoneyGram tizimidan foydalanish uchun quyidagi banklar va agentliklar mavjud:

- Kapitalbank
- Ipak Yo‘li Bank
- Trastbank
- Agrobank
- InFinBank
- Mikrokreditbank
- Uzpromstroybank
- Orient Finans Bank

- Turonbank
- Milliy Bank (NBU)
- Alokabank

Ushbu banklar orqali naqd pul jo‘natish va olish, shuningdek bank hisob raqamiga mablag‘ yuborish mumkin.

💰 MoneyGram orqali pul yuborish tariflari

MoneyGram xizmatlari bo‘yicha tariflar jo‘natiladigan mamlakat va summa miqdoriga qarab farqlanadi. Masalan:

- 800–1,000 AQSh dollari miqdoridagi pul jo‘natmalarida: transfer narxi taxminan 15,000 so‘m.
- 1,500–2,000 AQSh dollari miqdoridagi jo‘natmalar uchun: transfer narxi taxminan 40,000 so‘m.

Tariflar har bir bank yoki agentlikka qarab o‘zgarishi mumkin, shuning uchun pul jo‘natishdan oldin bank bilan bog‘lanib, so‘rovnoma to‘ldirib, to‘lovni amalga oshirish tavsiya etiladi.

📱 MoneyGram ilovasi orqali xizmatlar

MoneyGram mobil ilovasi orqali quyidagi imkoniyatlardan foydalanish mumkin:

- **Pul yuborish**: Ilova orqali jo‘natish jarayonini boshlash mumkin.
- **Pul qabul qilish**: Jo‘natilgan mablag‘ni ilova yordamida kuzatish va olish manzilini aniqlash mumkin.
- **Tariflarni tekshirish**: Turli mamlakatlarga pul jo‘natish xarajatlarini solishtirish imkoniyati mavjud.

Ilovani **Google Play** yoki **App Store** orqali yuklab olish mumkin.

Paysend

Paysend — bu xalqaro pul jo‘natmalari tizimi bo‘lib, 170 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi. O‘zbekiston ham bu tizimga kiradi va mamlakat bo‘ylab ko‘plab banklar orqali xizmatlar taqdim etiladi. Paysend orqali pul jo‘natish va olish jarayoni tez, xavfsiz va arzon bo‘lib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.

🏢 O‘zbekistondagi Paysend xizmatlari

O‘zbekistonda **Paysend** xizmatlari **Ipoteka Bank** tomonidan taqdim etiladi. Ushbu xizmat orqali siz:

- **HUMO va Uzcard kartalariga pul jo‘natishingiz mumkin**. ИпотекаБанк
- **Visa, Mastercard, MIR, Sberbank kartalari orqali pul jo‘natishingiz mumkin**. ИпотекаБанк
- **Pul jo‘natish uchun komissiya**: Misol uchun, Rossiyadan pul jo‘natish uchun komissiya **49 rubl**ni tashkil etadi. ИпотекаБанк

💳 Paysend orqali pul jo‘natish uchun kerakli kartalar

Paysend tizimi orqali pul jo‘natish uchun quyidagi kartalardan foydalanishingiz mumkin:

- **Visa**
- **Mastercard**
- **Maestro**
- **Humo**
- **Uzcard** (shu jumladan, Uzcard-UnionPay va Uzcard-Mastercard)

Kartangizda **CVV/CVC kodi** bo‘lishi va **3D-Secure texnologiyasini qo‘llab-quvvatlashi** kerak. help.paysend.com

💰 Pul jo‘natish tariflari

Paysend tizimi orqali pul jo‘natishning tariflari jo‘natilayotgan mamlakatga qarab farq qiladi. Misol uchun:

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB) — xalqaro moliyaviy institut bo‘lib, 1991-yilda tashkil etilgan. Bankning yaratilishiga asosiy sabab sobiq ijtimoiy tuzumdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarga zarur moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatish talabidir. Bankning bosh maqsadi — mamlakatlarning iqtisodiy tizimini raqobatbardosh va ochiq bozor tamoyillariga moslashtirishdir.

Boshlang‘ich faoliyati Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo va sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi davlatlarga qaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda bankning ish doirasi sezilarli darajada kengaygan. U Janubi-Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Turkiya, O‘rta Osiyo va Janubiy O‘rta Yer dengizi mintaqalarini ham qamrab oladi.

– YTTBning asosiy e’tibor markazi **xususiy sektorni rivojlantirish** va **bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini mustahkamlash**ga qaratilgan. Bank o‘z faoliyatini quyidagi strategik yo‘nalishlar asosida amalga oshiradi:

– **Xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash.** YTTB kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta’minlab, ularning raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashadi. Shu orqali mamlakatlarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash va bozor iqtisodiyoti tamoyillarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

– **Infratuzilmani rivojlantirish.** Bank transport tarmoqlari, energetika, suv ta’minoti va kommunal xizmatlar kabi strategik infratuzilma sohalariga sarmoya yo‘naltirib, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashni maqsad qiladi.

– **Moliyaviy institutlarni isloh qilish.** YTTB banklar, sug‘urta kompaniyalari hamda moliya bozorlarini zamonaviy boshqaruv standartlariga moslashtirish, ularning samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor beradi.

– **Atrof-muhitni muhofaza qilish.** Bank ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida “**yashil moliya**” dasturlari doirasida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashuvchi loyihalarni moliyalashtiradi. Ushbu tashabbuslar qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni kamaytirish va ekologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

– Natijada, YTTB o‘z faoliyati orqali nafaqat iqtisodiy islohotlarni jadallashtiradi, balki **barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz iqtisodiy muhitni** shakllantirishga ham hissa qo‘shadi.

Bank mijozlariga quyidagi moliyaviy vositalarni taklif qiladi:

- uzoq va o‘rta muddatli kreditlar;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital sarmoyalari (aksiyalar sotib olish orqali);
- moliyaviy kafolatlar va xavfni boshqarish vositalari;
- texnik yordam va maslahatchilik xizmatlari.

Bu ko‘p qirrali yondashuv bankga nafaqat moliyaviy, balki institutsional islohotlarni amalga oshirishda ham samarali hamkorlik qilish imkonini beradi.

YTTBga 70 dan ortiq davlat a’zo bo‘lib, Yevropa Ittifoqi va Yevropa investitsiya banki ham faol a’zolar qatorida hisoblanadi. Bankning bosh qarorgohi Londonda joylashgan.

Boshqaruv tizimi ikki darajali:

- **Boshqaruvchilar kengashi** — har bir a’zo davlat vakillaridan iborat bo‘lib, strategik qarorlarni qabul qiladi;
- **Ijrochi direktorlar kengashi** — kundalik faoliyatni boshqaradi va loyihalarni amaliy jihatdan nazorat qiladi.

YTTB prezidenti odatda a’zo davlatlar o‘rtasidagi kelishuv asosida tayinlanadi va vakolati 4 yilga mo‘ljallangan.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki global moliyaviy tizimda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini ilgari suradi, islohotlarni qo‘llab-quvvatlaydi, xususiy sektorni rivojlantiradi va ekologik muammolarga qarshi samarali choralar ko‘radi. Bankning

moliyaviy va texnik yordam ko‘plab davlatlarga iqtisodiy barqarorlik sari yo‘l ochadi.

Osiyo Taraqqiyot Banki

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB / Asian Development Bank — ADB) 1966-yilda tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda uning a’zolari soni 67 davlatni tashkil qiladi. Shulardan 48 tasi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida joylashgan. Bankning asosiy vazifasi — mintaqadagi iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash, a’zo davlatlar o‘rtasida moliyaviy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdir. Faoliyatining markaziy yo‘nalishlari qashshoqlikni kamaytirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan.

OTBning strategik maqsadlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a’zo davlatlarning iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantirish;
- osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish orqali mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish;
- a’zo davlatlarning iqtisodiy siyosatini uyg‘unlashtirishda yordam berish.

Bankning bosh qarorgohi Filippinning Manila shahrida joylashgan. Tashkil etilgan dastlabki paytda a’zolari soni kam bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib u 60 dan ortiq davlatni qamrab olgan. Ko‘pchiligi Osiyo va Tinch okeani hududidagi mamlakatlar bo‘lsa, qolganlari boshqa mintaqalardan hamkor sifatida ishtirok etadi.

OTBning asosiy faoliyat yo‘nalishlari:

1) **Infratuzilma rivoji:** transport, energetika, ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimlariga sarmoya kiritish orqali iqtisodiy infratuzilmani mustahkamlash;

2) **Ijtimoiy rivojlanish:** ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish orqali aholi farovonligini oshirish;

3) **Atrof-muhit va iqlim barqarorligi:** ekologik xavfsiz “yashil” texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash va iqlim o‘zgarishiga qarshi chora-tadbirlarni moliyalashtirish;

4) **Xususiy sektorni rivojlantirish:** kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish;

5) **Mintaqaviy hamkorlik:** savdo, logistika va bojxona tizimida integratsion loyihalarni amalga oshirish.

Bankning asosiy sarmoyadorlari yetti davlat hisoblanadi:

- Yaponiya
- AQSH
- Xitoy
- Hindiston
- Pokiston
- Indoneziya
- Bangladesh

Yaponiya va AQSH OTBdagi eng katta ulushga ega bo‘lib, har biri bankning ustav kapitalining 15 foizini tashkil etadi. Nizomga muvofiq, prezident lavozimiga faqat Osiyo mintaqasidan bo‘lgan vakillar tayinlanadi. Shu sababli bank tashkil topganidan beri ushbu lavozimni doimiy ravishda Yaponiyaliklar egallab kelmoqda, bu esa Yaponiya bankdagi eng yirik osiyolik aksiyador ekanligi bilan izohlanadi. So‘nggi yillarda esa Xitoyning ulushi sezilarli darajada oshib, yaqin kelajakda bankdagi asosiy ulush egalaridan biriga aylanishi mumkin.

OTB rivojlanayotgan davlatlarga moliyaviy yordamni ikki asosiy manba orqali taqdim etadi:

1. **Oddiy fondlar hisobidan:** Tijorat shartlariga asoslangan, odatda 25 yilgacha bo‘lgan kreditlar. Bu turdagi kreditlar bank portfelining taxminan 2/3 qismini tashkil etadi.

2. **Osiyo taraqqiyot maxsus fondi:** Kam rivojlangan mamlakatlarga 1–3% yillik stavkalar bilan imtiyozli kreditlar ajratadi. Ularning muddati esa 40 yilgacha bo‘lishi mumkin. 2011–2013-yillarda ushbu fonddagi mablag‘lar barqaror bo‘lib, 2013-yilga kelib hatto biroz o‘sish kuzatildi.

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) moliyaviy va texnik yordamni quyidagi shakllarda taqdim etadi:

- **Kreditlar:** uzoq muddatli, past foizli yoki hatto foizsiz moliyalashtirish shaklida, ayniqsa kam daromadli mamlakatlarga mo‘ljallangan;
- **Grantlar:** moliyaviy imkoniyati cheklangan davlatlarga beg‘araz yordam sifatida ajratiladi;
- **Texnik yordam:** loyihalarni tayyorlash, monitoring qilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni joriy etish bo‘yicha maslahatlar berish va treninglar o‘tkazish.

OTB boshqaruvi ikki asosiy tarkibiy bo‘limdan iborat:

1. **Boshqaruvchilar kengashi** — har bir a’zo davlat o‘z vakilini (odatda moliya yoki iqtisodiyot vaziri) yuboradi va bu kengash bankning strategik yo‘nalishlarini belgilaydi;
2. **Ijrochi direktorlar kengashi** — bankning kundalik faoliyatini nazorat qiladi va moliyalashtiriladigan loyihalarni tasdiqlaydi.

Bank prezidenti a’zo davlatlar o‘rtasidagi kelishuv asosida tayinlanadi va u bank strategiyasini amalga oshirish uchun javobgardir.

O‘zbekiston va OTB hamkorligi:

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilda OTBga a’zo bo‘lgan. Respublikamiz bankning ustav kapitalida 0,765% ulushga ega. 1995–2010-yillar davomida O‘zbekiston bankdan jami 1,9 milliard AQSH dollariga teng kreditlar olgan.

2010-yilning 1–4 may kunlari Toshkent shahrida OTBning yillik navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Tadbir davomida O‘zbekistonga qo‘shimcha 1,14 milliard AQSH dollari miqdorida moliyaviy yordam ajratish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

OTB faqat moliyaviy resurslar taqdim etuvchi muassasa emas, balki mintaqaviy rivojlanish jarayonining faol ishtirokchisidir. Bankning yordami orqali infratuzilma yaxshilanmoqda, ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda va iqtisodiy islohotlar jadallashmoqda. Shu tariqa, OTB Osiyo va Tinch okeani mintaqasida barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo‘shmoqda. Osiyo Taraqqiyot Banki mintaqadagi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim xalqaro moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi. U kreditlar, grantlar va texnik yordam orqali davlatlar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga, infratuzilmani

rivojlantirishga va qashshoqlikni kamaytirishga salmoqli hissa qo‘shadi.

Islom Taraqqiyot Banki (ITB)

Islom Taraqqiyot Banki 1974-yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy vazifasi — islom diniga e’tiqod qiluvchi davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdir. Hozirda bank tarkibiga Islom Hamkorlik Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 35 ta mamlakat kiradi. ITBning faoliyati to‘liq islomiy moliyalashtirish prinsiplari asosida tashkil etilgan bo‘lib, unda foiz (ribo) asosidagi operatsiyalar qat’iyan man etilgan.

Islomiy moliyalashtirish tamoyillari tufayli ITB an’anaviy foizli kreditlar o‘rniga, foizsiz moliyaviy vositalardan foydalanadi. Bu shariatga muvofiqlikni ta’minlash va foiz olish yoki berish taqiqlanishi bilan bog‘liqdir.

Bankning asosiy moliyalashtirish shakllari quyidagilardan iborat: **musharaka** va **mudaraba**.

1. **Musharaka (Sheriklik asosida moliyalashtirish).** Ushbu shaklda bank va tadbirkor loyiha kapitalini birgalikda moliyalashtiradi. Loyihadan tushgan foyda oldindan kelishilgan ulushlarga ko‘ra taqsimlanadi, zarurat tug‘ilganda esa zarar ham sheriklar o‘rtasida bir xil taqsimlanadi. Musharaka shartnomalari nafaqat asosiy kapital, balki kompaniyaning aylanma mablag‘lari ehtiyojlarini qoplashda ham qo‘llaniladi.

2. **Mudaraba (Ishonchli boshqaruv asosidagi moliyalashtirish)**. Mudaraba shartnomasida bank o‘z mablag‘ini tadbirkorga (mudarib) ishonch bilan topshiradi va garov talab qilinmaydi. Bu mexanizm asosan qisqa va o‘rta muddatli loyihalarni moliyalashtirishda ishlatiladi. Tadbirkor loyihani amalga oshirib daromad olganda, uni oldindan belgilangan ulush asosida bank bilan bo‘lishadi.

ITBning moliyaviy manbalari a’zo davlatlarning kvotalari, ilgari berilgan kreditlardan tushgan to‘lovlar, islomiy obligatsiyalar (sukuklar) orqali olingan mablag‘lar hamda donorlar va hamkor tashkilotlarning ko‘magi orqali shakllanadi.

Bankning o‘ziga xos jihatlaridan biri — shariatga rioya qilinishini nazorat qiluvchi **Ulamolar kengashi** mavjudligi. Ushbu kengash bankning moliyaviy amaliyotlarini diniy jihatdan tekshiradi va shariatga zid bo‘lgan operatsiyalarni rad etadi.

ITB faoliyati uchun asosiy moliyaviy manbalar quyidagilardan iborat:

- a’zo davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar;
- oldingi kreditlar bo‘yicha tushgan to‘lovlar;
- islom obligatsiyalari (sukuklar) orqali yig‘ilgan mablag‘lar;
- donorlar va hamkor tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy yordamlar.

Islom Taraqqiyot Bankining har bir qarori va moliyaviy mahsuloti shariat qonunlariga to‘liq muvofiq bo‘lishi shart. Shu maqsadda bank tarkibida **Ulamolar Kengashi** faoliyat yuritadi. Kengashga tajribali shayxlar va nufuzli diniy ulamolar kiradi. Ular bank ishini doimiy nazorat qilib, shariatga zid bo‘lgan moliyaviy operatsiyalarni rad etish huquqiga ega.

Islom Taraqqiyot Banki (ITB) nafaqat xalqaro moliyaviy tashkilot, balki islomiy prinsiplar asosidagi iqtisodiy hamkorlik modeli sifatida ham alohida o‘rin tutadi. Bank foizsiz kreditlar, sheriklik tamoyiliga asoslangan investitsiyalar va diniy e’tiqodga zid bo‘lmagan moliyaviy vositalarni tatbiq etish orqali musulmon mamlakatlar o‘rtasida barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi. Shu tariqa u nafaqat moliyaviy, balki madaniy jihatdan ham o‘ziga xos institut sifatida ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Islom Taraqqiyot Banki — musulmon davlatlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan noyob tashkilot bo‘lib, shariat normalariga rioya qilgan holda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Asosiy tushunchalar va iboralar

xalqaro moliya instituti, moliyaviy resurslar, tamoyillar, vazifalar, maqsadlar, ko‘p tomonlama moliyaviy yordam, infratuzilma loyihalari, ijtimoiy rivojlanish loyihalari, barqaror iqtisodiy o‘sish, mintaqaviy integratsiya, kvota, boshqaruv kengashi, ijrochi direktorlar kengashi,

sukuklar, kredit, imtiyozli aksiya, musharaka, marja, mudaraba, spred, maxsus fond, ekspropriatsiya.

Nazorat savollari (takrorlash uchun)

1. Xalqaro moliya instituti tushunchasi nima?
2. Xalqaro moliya institutlari faoliyatining asosiy tamoyillari qanday?
3. Xalqaro moliya institutlarining vazifalari nimalardan iborat?
4. Xalqaro moliya institutlari qaysi maqsadlarni ko‘zlaydi?
5. Ko‘p tomonlama moliyaviy yordam deganda nimani tushunasiz?
6. Xalqaro moliya institutlari qanday loyihalarni moliyalashtiradi?
7. Infratuzilma va ijtimoiy rivojlanish loyihalari orasidagi farq nimada?
8. Barqaror iqtisodiy o‘sish va mintaqaviy integratsiya nima uchun muhim?
9. Xalqaro moliya institutlari qaysi davlatlar yoki mintaqalar manfaatini qo‘llab-quvvatlaydi?
10. Moliyaviy resurslar institut faoliyatida qanday rol o‘ynaydi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari

1. OTBning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

A) Savdo-sotiqni cheklash

B) Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy o‘sish, infratuzilma va kambag‘allikka qarshi kurash

C) Faqat energetika sohasini rivojlantirish

D) Moliyaviy nazoratni kuchaytirish

2. Xalqaro moliya institutlarining global iqtisodiyotdagi ahamiyati nimada?

A) Ular xalqaro savdoni cheklaydi

B) Moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi, iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi

C) Faqat rivojlangan mamlakatlarga foyda keltiradi

D) Soliq siyosatini belgilaydi

3. Xalqaro moliya institutlarining asosiy tamoyillariga nimalar kiradi?

A) Mustaqillik, shaffoflik, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash

B) Maxfiylik, siyosiy manfaatdorlik

C) Faqat donor mamlakatlar manfaatini ko‘zlash

D) Mahalliy soliqlarni yig‘ish

4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) qachon tashkil etilgan?

A) 1918-yil

B) 1944-yil Bretton-Vuds konferensiyasida

C) 1960-yil Rim shartnomasi bilan

D) 1971-yilda AQShda

5. Xalqaro valyuta jamg‘armasining asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Harbiy xarajatlarni moliyalashtirish

B) A’zolar o‘rtasida valyuta barqarorligini saqlash va to‘lov balansini muvofiqlashtirish

C) Faqat kredit berish

D) Ichki soliq siyosatini boshqarish

6. XVJning qaror qabul qilish mexanizmi qanday amalga oshiriladi?

A) Har bir davlat teng ovozga ega

B) Har bir a’zoning ovoz huquqi uning kvotasiga qarab belgilanadi

C) Faqat rivojlangan mamlakatlar ovoz beradi

D) Faqat direktorlar kengashi qaror qiladi

7. Jahon banki tizimi tarkibiga nechta asosiy tashkilot kiradi?

A) 2 ta

B) 3 ta

C) 5 ta

D) 7 ta

8. Jahon bankining asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Faqat kredit berish

B) Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishni va kambag‘allikni kamaytirishni qo‘llab-quvvatlash

C) Valyuta kursini belgilash
D) Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish

9. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) qaysi tashkilot tarkibiga kiradi?

A) XVJ
B) Jahon banki guruhi
C) Yevropa Markaziy banki
D) OECD

10. Xalqaro moliya institutlarining global iqtisodiyotdagi ahamiyati nimada?

A) Ular xalqaro savdoni cheklaydi
B) Moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi, iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi
C) Faqat rivojlangan mamlakatlarga foyda keltiradi
D) Soliq siyosatini belgilaydi

11. Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA) kimlarga yordam beradi?

A) Rivojlangan davlatlarga
B) Past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarga
C) Xususiy korxonalarga
D) Faqat banklarga

12. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD) qanday faoliyat yuritadi?

A) Urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish orqali
B) Faqat to‘lov balansini tahlil qiladi
C) Soliq yig‘imlarini nazorat qiladi
D) Naqd valyuta almashtirishni amalga oshiradi

13. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) qachon tashkil topgan?

A) 1944-yil
B) 1991-yil
C) 1975-yil
D) 2001-yil

14. YTTBning asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Rivojlangan mamlakatlarga kredit berish

B) Bozor iqtisodiyotiga o‘tuvchi davlatlarda islohotlarni qo‘llab-quvvatlash

C) Faqat infratuzilmani rivojlantirish

D) Energiya resurslarini sotib olish

15. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) qayerda joylashgan?

A) Tokio (Yaponiya)

B) London (Buyuk Britaniya)

C) Nyu-York (AQSh)

D) Berlin (Germaniya)

GLOSSARIY

Aktiv savdo balansi (active trade balance) — Davlatning eksport qilib yuborgan tovarlari qiymati import qilinishdagidan ko‘p bo‘lgan holat.

Aktiv to‘lov balansi (active payments balance) — bu mamlakatning tashqi iqtisodiy operatsiyalari natijasida chet eldan kelib tushgan jami tushumlar miqdori uning xorijga to‘lagan to‘lovlari va amalga oshirgan xarajatlaridan oshib ketgan holatni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, mamlakat eksportdan ko‘proq daromad olayotgan va importga nisbatan kamroq to‘lovlar amalga oshirayotgan bo‘lsa, uning to‘lov balansi aktiv holatda bo‘ladi.

Almashuv shartlari. Milliy valyuta boshqa valyutalarga nisbatan qanday erkinlikda almashishi mumkinligiga qarab uch turga bo‘linadi: to‘liq almashinadigan, qisman almashinadigan, umuman almashinmaydigan.

Amalga oshirish – Moliyaviy yoki iqtisodiy reja, buyurtma yoki operatsiyani bajarish jarayoni.

Asia Express – bu Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasida faoliyat yurituvchi xalqaro pul o‘tkazmalari tizimidir. U naqd pul yuborish va olish, shuningdek, bank kartalari orqali pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Bank amaliyoti – Bank tomonidan amalga oshiriladigan kundalik moliyaviy operatsiyalar va xizmatlar.

Bank hisob raqami orqali pul yuborish – Mablag‘ni bank hisob raqamidan boshqa hisob raqamga transfer qilish.

Bank kreditlari esa, asosan, eksport va import operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ssuda shaklida taqdim etiladi. Ular tovarlar, ularning hujjatlari, shuningdek, veksellar yoki trattalar garoviga asoslanadi. Ayrim hollarda banklar yirik, ishonchli eksportyor korxonalarga hech qanday rasmiy kafolatsiz, ya’ni **blank kredit** ko‘rinishida ham mablag‘ ajratishi mumkin.

Bank orqali pul jo‘natish – Mablag‘ni bank tizimi orqali yuborish va qabul qilish shakli.

Bank xizmati – Bankning mijozlarga koʻrsatadigan moliyaviy xizmatlari, shu jumladan valyuta operatsiyalari, kreditlash va depozitlar.

Bankning xorijiy valyutadagi majburiyatlari esa — chet el valyutasidagi majburiyatlar va “kutilmagan holatlar” hisobvaraqlaridagi majburiyatlarni oʻz ichiga oladi.

Bankning xorijiy valyutadagi talablariga — xorijiy valyutadagi bank aktivlari hamda "kutilmagan holatlar" hisobvaraqlaridagi talablar kiradi.

Banknotlar (banknote; bill; note) — Pul sifatida chiqarilgan qogʻoz yoki polimer birlik boʻlib, u markaziy bank tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi.

Bar’yerli optsion (barrier option) — Muddati boʻyicha tavakkalchan boʻlib, faollashishi yoki muddati uzaytirilishi faqat belgilangan kursga erishilgach amalga oshiriladi.

Bazaviy stavka (base rate) — Kredit foizlarini hisoblashda asos qilib olinadigan stavka boʻlib, odatda banklararo bozor stavkasi yoki markaziy bankning rasmiy stavkasi boʻladi.

Bermuda optsionlari (Bermuda options) — Ayrim jihatlari boʻyicha Amerika va Yevropa optsionlarining aralash varianti.

Birja valyuta bozori — bu rasmiy va tartibga solingan joyda, ya’ni valyuta birjalarida faoliyat yuritadigan bozor. Bu yerda savdo qat’iy qoidalarga amal qilgan holda, belgilangan vaqtlarda amalga oshiriladi. Milliy valyuta kursi ham asosan birjada aniqlanadi. Birja bozori savdo ishtirokchilari orasida oshkoralikni ta’minlaydi, shuningdek, kurslarni shakllantirishda asosiy rol oʻynaydi. Bu bozorda banklar, moliyaviy institutlar, kompaniyalar va boshqa investorlar qatnashadi.

Birjadan tashqari valyuta bozori -bu tartibga solinmagan, yoki kamroq tartibga solingan bozor boʻlib, unda valyuta savdosi banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar oʻrtasida amalga oshiriladi. Bu bozor koʻproq telefon, elektron platformalar yoki boshqa kommunikatsiya vositalari orqali ishlaydi. Birjadan tashqari bozor yuqori likvidlikka ega

va unga kirish imkoniyati kengroq. Bu yerda savdo hajmi katta bo‘lishi sababli, kurslar tez o‘zgarishi mumkin.

Bozor kursi – Valyuta bozoridagi talab va taklif asosida shakllangan erkin valyuta kursi.

Bozor likvidligi – Aktivni tez va katta yo‘qotishlarsiz naqd pulga aylantirish qobiliyati.

Bozorning global o‘zgarishlarga sezgirligi — siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy voqealar bozor narxlariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bretton-Vuds valyuta tizimi — Ikkinchi jahon urushi yakunidan so‘ng AQShda shakllantirilgan xalqaro valyuta tizimi bo‘lib, unda AQSh dollari oltin zaxiralari bilan bevosita bog‘lab qo‘yilgan, qolgan davlatlarning milliy valyutalari esa dollarga nisbatan qat’iy kurs asosida belgilangan. Bu tizim global moliyaviy barqarorlikni saqlash va xalqaro savdo aloqalarini muvofiqlashtirish maqsadida joriy etilgan.

Chegara stavkasi — banklarga kechki kreditlar berishda qo‘llaniladigan foiz stavkasi;

Cheklar – Mablag‘ni to‘lashni buyuruvchi hujjat, ko‘pincha bank orqali ishlatiladi.

Chet el valyutasi – Milliy valyutadan boshqa davlatning pul birligi, xalqaro operatsiyalar va savdo uchun ishlatiladi.

Clearing banklar – Banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi va to‘lovlarni muvofiqlashtiruvchi moliyaviy institutlar.

Contact — bu xalqaro pul jo‘natmalari tizimi bo‘lib, dunyo bo‘ylab 100 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi. Tizim orqali naqd pul yuborish yoki bank hisob raqamiga mablag‘ o‘tkazish mumkin. Contact xizmatlari tezkor va xavfsiz bo‘lib, ko‘plab banklar va agentliklar orqali amalga oshiriladi.

Daromadlilikni oshirish — valyuta kurslaridagi o‘zgarishlardan foyda olish imkoniyatlarini yaratish.

Davlat byudjeti – Davlatning bir yil ichida kutilayotgan daromad va xarajatlarini aks ettiruvchi moliyaviy reja.

Davlat byudjeti defitsiti – davlat xarajatlarining daromadlardan oshib ketgan holati.

Davlat byudjeti profitsiti – daromadlar xarajatlardan ortiq bo‘lgan holat.

Davlat qarzi (national debt; public debt) — Hukumat tomonidan qabul qilingan, lekin hali to‘lanmagan qarzlar va ularning foizlarining umumiy miqdori.

Davlatlararo kreditlar - bu ikki yoki undan ortiq davlat o‘rtasida bevosita tuziladigan kelishuvlar asosida beriladi. Ular, asosan, strategik ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirish, savdo balansi muvozanatini ta’minlash yoki favqulodda vaziyatlarda moliyaviy yordam ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi. Davlatlararo kreditlar odatda siyosiy va diplomatik munosabatlar doirasida rasmiylashtiriladi.

Deflyatsiya (deflation) — Moliya tizimida narxlar pasayishi, xizmatlar va tovarlar baholari pasayadi.

Denominatsiya (denomination) — Pul birligini yangi kursga moslab almashtirish. Masalan, 1994-yilda O‘zbekistonda yangi so‘m eski “so‘m-kupon” bilan 1000:1 nisbatda almashtirilgan.

Depozit – Bank yoki moliya institutiga mijoz tomonidan qo‘yilgan mablag‘, odatda foiz bilan hisoblanadi.

Depozit stavkasi — tijorat banklarining ortiqcha mablag‘larini EMBda saqlaganda to‘lanadigan foiz.

Devalvatsiya — bu milliy valyutaning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan ataylab yoki majburiy ravishda qadrsizlantirilish jarayonidir. Bunday choralar odatda mamlakat eksport salohiyatini oshirish, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda import hajmini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi.

Deviz zaxiralari – Davlat tomonidan xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun saqlanadigan chet el valyutalari.

Diskont siyosati (discount rate policy) — bu Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash yoki diskont stavkasini o‘zgartirish orqali mamlakatning to‘lov balansi hamda milliy valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan pul-kredit siyosatidir. Mazkur siyosat orqali ichki kredit hajmi, foiz stavkalari va kapital oqimlari boshqarilib, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsad qilinadi.

Diversifikatsiya – Moliyaviy risklarni kamaytirish uchun aktivlarni turli valyuta, instrument va bozorlar bo‘yicha taqsimlash.

Dollar bloki – Bir qator mamlakatlarning valyutasi AQSh dollariga bog‘langan valyuta tizimi.

Ekspansion monetar siyosat. Iqtisodni rag‘batlantirish uchun markaziy bank tomonidan pul taklifini oshirish, foiz stavkalarini pasaytirish orqali amalga oshiriladi.

Ekspansion siyosat — bu iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, bandlik darajasini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish maqsadida davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosatdir.

Ekspansionistik monetar siyosat esa — iqtisodiy faollikni oshirish uchun pul massasini ko‘paytirish, kreditlar hajmini kengaytirish va foiz stavkalarini pasaytirish orqali amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati turidir. Mazkur siyosat odatda iqtisodiy inqiroz yoki turg‘unlik davrlarida talabni rag‘batlantirish va investitsion faollikni oshirish maqsadida qo‘llanadi.

Eksport krediti — bu eksport qiluvchi mamlakatning banki yoki moliyaviy instituti tomonidan import qiluvchi mamlakatdagi bank yoki korxonaga mashinalar, uskunalar hamda boshqa investitsion tovarlarni xarid qilishni moliyalashtirish maqsadida ajratiladigan kredit turidir. Ushbu kredit turi xalqaro savdoni qo‘llab-quvvatlash, eksport hajmini kengaytirish va ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron to‘lov tizimlari — bu internet, mobil ilovalar yoki boshqa elektron aloqa vositalari orqali pul mablag‘larini o‘tkazish, to‘lovlarni amalga oshirish va hisob-kitoblarni yuritishni ta’minlovchi zamonaviy moliyaviy infratuzilmadir.

Emissiya — markaziy bank tomonidan muomalaga yangi pul mablag‘larini chiqarish yoki pul massasini oshirish jarayonidir. Ushbu jarayon iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish hamda pul muomalasini barqarorlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Erkin almashinadigan valyuta — xorijiy valyutalarga hech qanday cheklovlarsiz ayirboshlanadigan va xalqaro savdo hamda to‘lovlarda erkin qo‘llaniladigan milliy pul birligidir.

Erkin ishlatiladigan valyuta (freely usable currency) — bu xalqaro to‘lov operatsiyalarida keng qo‘llaniladigan, jahon bozorlarida bemalol konvertatsiya qilinadigan va xalqaro hisob-kitoblarda asosiy to‘lov vositasi sifatida tan olingan valyutadir.

Erkin ishlatiladigan valyutalar (freely usable currency) — to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha hech qanday valyutaviy cheklovlar mavjud bo‘lmagan mamlakatlarning milliy pullari.

Erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta – bu boshqa valyutalarga hech qanday cheklovlarsiz erkin ayirboshlanadigan valyutalar. Masalan, AQSh dollari, Yevro.

Erkin valyuta kurslari — bu davlat aralashuvisiz, faqat bozor mexanizmlari — talab va taklif nisbatiga ko‘ra shakllanadigan valyuta kursi bo‘lib, bunda kurs darajasi iqtisodiy omillar ta’sirida erkin o‘zgaradi.

Evrobondlar bozori — bu xalqaro miqyosda yirik moliyaviy institutlar, davlatlar va korporatsiyalar tomonidan xorijiy valyutada chiqarilgan uzoq muddatli qarz qog‘ozlari (obligatsiyalar) savdosi va sotib olinadigan bozor hisoblanadi. Ushbu bozor global moliya tizimining muhim qismi bo‘lib, u moliyaviy resurslarni xalqaro darajada samarali taqsimlash imkonini beradi.

Evrobondlar bozori – Xalqaro investorlar tomonidan chiqarilgan, chet el valyutasida denominatsiyalangan obligatsiyalar savdosi bo‘lgani bozor.

Evropa Markaziy Banki (EMB) — bu Yevrozonaning asosiy moliyaviy institutidir. U Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan va yagona valyuta — **evro**ni qabul qilgan davlatlarda pul-kredit siyosatini yuritadi. EMBning asosiy vazifasi narxlar barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va moliyaviy tizimni mustahkamlashdan iborat.

Yevropa valyuta ittifoqi (EVI) — bu Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida yagona valyuta — yevroni joriy etish, umumiy pul-kredit va valyuta siyosatini shakllantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan integratsion tizimdir.

Ekspansionistik siyosat — bu iqtisodiy o‘sishni faollashtirish, bandlik darajasini oshirish hamda ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy choralar majmuasidir.

Fiksing (fixing) — bu birja yoki markaziy bank tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida (odatda kuniga bir yoki bir necha marta) rasmiy tarzda e’lon qilinadigan valyuta kursi bo‘lib, u bozor operatsiyalarida asosiy ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Firma (tijorat) krediti — bu korxonalar o‘rtasida savdo yoki ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtirish uchun beriladigan qarz bo‘lib, u odatda tovar yetkazib berish yoki xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq tijorat bitimlari doirasida taqdim etiladi.

Firma (tijorat) krediti. Bu holatda eksport qiluvchi mamlakatdagi korxona importyor mamlakatdagi hamkor kompaniyaga to‘lovni keyinga qoldirish sharti bilan tovar yetkazib beradi. Bunday kredit turi tashqi savdo operatsiyalarida keng qo‘llanilib, tovar ayirboshlash jarayonini yengillashtiradi. Odatda, firma kreditining muddati 2 yildan 7 yilgacha davom etadi.

Foiz stavkalari – Banklar yoki moliya institutlari tomonidan qarz mablag‘lari uchun belgilangan foiz miqdori.

Forfeyting - eksportyorning qarz majburiyatlarini darhol to‘lab berish va ushbu risklarni uchinchi tomonga o‘tkazish mexanizmini anglatadi. Har ikkala shakl xalqaro savdo bitimlarida keng qo‘llanilib, eksport-import jarayonlarini soddalashtiradi.

Forvard operatsiyasi (forward) — bu oldindan kelishilgan kurs bo‘yicha ma’lum bir valyutani kelgusidagi sanada sotib olish yoki sotish majburiyatini nazarda tutuvchi moliyaviy bitim bo‘lib, u valyuta kursi tebranishlaridan himoyalanish (hedjing) vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Genuya valyuta tizimi — XVII asrda Italiya hududidagi Genuya shahrida shakllangan xalqaro moliya va savdo tizimi bo‘lib, u o‘sha davrda xalqaro hisob-kitoblarni markazlashtirish va valyuta operatsiyalarini muvofiqlashtirishda muhim rol o‘ynagan.

Giperinflyatsiya (hyperinflation) — bu iqtisodiyotda narxlar darajasining nihoyatda tez va keskin o‘sishi, pul birligining esa jadal sur’atlarda qadrsizlanishi holatidir. Odatda, bunday jarayon oylik inflyatsiya darajasi 50 foizdan yuqori bo‘lganda kuzatiladi.

Global valyuta oqimlari — bu turli mamlakatlar o‘rtasida valyuta, kapital va moliyaviy resurslarning xalqaro savdo, investitsiya va moliyaviy spekulyatsiyalar orqali harakatlanishini ifodalovchi tushunchadir.

Hedjing (hedging) — moliyaviy xavf-xatarlarni, jumladan, valyuta kursi, foiz stavkalari yoki tovar narxlaridagi o‘zgarishlar natijasidagi yo‘qotishlarni kamaytirish yoki bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan risklarni boshqarish strategiyasidir.

Hisob-raqam — bu bank mijozining mablag‘larini saqlash, to‘lovlar va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ochilgan shaxsiy yoki korporativ hisobdir.

Hududiy (mintaqaviy) valyuta tizimi — bu bir guruh davlatlarning iqtisodiy hamkorligi va moliyaviy integratsiyasi natijasida shakllanadigan tizim bo‘lib, u umumiy valyuta siyosatini yuritish, yagona hisob birligini joriy etish hamda mintaqaviy moliya institutlari orqali nazoratni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunday tizim milliy va jahon valyuta tizimlari o‘rtasida oraliq o‘rin tutadi. Hududiy valyuta tizimining asosiy maqsadi — a’zo mamlakatlar o‘rtasida savdo, investitsiya va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishdir. Uning amaliy namunasiga Yevropa valyuta-iqtisodiy ittifoqi va yevro hududini keltirish mumkin, bu yerda yagona valyuta — yevro joriy etilgan, hamda yagona pul-kredit siyosati olib boriladi.

Jahon valyuta tizimi esa, o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotlarni global xo‘jalik tizimi bilan bog‘lovchi murakkab mexanizm bo‘lib, xalqaro savdo, to‘lov balanslari, valyuta kurslari va moliyaviy oqimlarning muvofiqlashtirilgan tarzda ishlashini ta’minlaydi.

Hujjatlashtirilgan akkreditiv — bu bank tomonidan beriladigan kafolatli moliyaviy vosita bo‘lib, unda to‘lov faqat sotuvchi tomonidan shartnomada belgilangan hujjatlar (masalan, konosament, hisob-faktura, sug‘urta polisi va boshqalar) taqdim etilgandan keyingina

amalga oshiriladi. Ushbu mexanizm xalqaro savdoda ishonch va xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Hujjatli inkasso — bu to'lov shakli bo'lib, unda sotuvchi (eksportyor) o'z mahsulotiga oid hujjatlarni bank orqali xaridorga (importyorga) yuboradi, va xaridor ushbu hujjatlarni olish uchun tegishli to'lovni amalga oshirishi talab etiladi. Bu jarayon bank nazorati ostida kechadi va tomonlarning moliyaviy intizomini mustahkamlaydi.

Imtiyozli kredit (preferensial kredit) — bu past foizli yoki uzoq muddatli shartlarda beriladigan kredit bo'lib, odatda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratiladi.

Inflyatsiya — bu iqtisodiyotda tovar va xizmatlar narxlarining umumiy darajasining o'sishi natijasida pulning xarid qobiliyatining pasayish jarayonidir. Inflyatsiya darajasi odatda yillik foiz ko'rsatkichi bilan o'lchanadi va iqtisodiy barqarorlikning asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi.

IntelExpress – bu Rossiya va O'zbekiston o'rtasida faoliyat yurituvchi xalqaro pul o'tkazmalari tizimidir. U naqd pul yuborish va olish, shuningdek, bank kartalari orqali pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi. IntelExpress tizimi foydalanuvchilarga qulay xizmatlar taqdim etadi.

Investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash — xalqaro kreditlar yoki investitsiyalar orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga qaratilgan moliyaviy mexanizm.

Iqtisodiy integratsiya — bu bir nechta davlatlarning iqtisodiy tizimlarini bosqichma-bosqich yaqinlashtirish, yagona bozor, umumiy savdo, soliq va valyuta siyosatini shakllantirish jarayonidir.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlari — mintaqaviy va global iqtisodiy birlashmalar doirasida valyuta, moliya va savdo siyosatini muvofiqlashtirishni talab etadi, bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlik va o'sish uchun muhim shartdir.

Islom taraqqiyot banki (ITB) — 1975-yilda tashkil etilgan, islomiy moliya tamoyillariga asoslanib, rivojlanayotgan mamlakatlarga

investitsiyalar, kreditlar va grantlar orqali iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishga koʻmak beruvchi xalqaro moliyaviy institutdir.

Jahon banki — 1944-yilda tuzilgan xalqaro moliya tashkiloti boʻlib, u rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma, ta'lim, sogʻliqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarga moʻljallangan loyihalarni moliyalashtirish orqali ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlaydi.

Jahon iqtisodiy inqirozi — global miqyosda ishlab chiqarish hajmining keskin kamayishi, ishsizlikning ortishi, moliyaviy tizimning izdan chiqishi va umumiy iqtisodiy faollikning pasayishi bilan xarakterlanuvchi holatdir.

Jahon valyuta bozori — bu global moliyaviy maydon boʻlib, unda turli mamlakatlarning milliy valyutalari va ular bilan bogʻliq moliyaviy instrumentlar (forvard, svop, fyuchers va boshqalar) bilan savdo qilinadi.

Jahon valyuta tizimi — bu xalqaro hisob-kitoblarni yuritish, valyutalar oʻrtasidagi nisbatlarni tartibga solish hamda global moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yoʻnaltirilgan xalqaro iqtisodiy mexanizmlar majmuasidir. U milliy valyuta tizimlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi, xalqaro savdoning kengayishi va mamlakatlar oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlikning chuqurlashuvi jarayonida shakllanib borgan.

Jahon valyuta tizimining asosiy maqsadi — tashqi savdo operatsiyalarini, eksport-import hisob-kitoblarini, kapital va xizmatlar harakatini hamda boshqa xalqaro iqtisodiy faoliyatni samarali moliyaviy vositalar orqali muvofiqlashtirishdir.

Joʻnatish summasi — bu mablagʻ yuboruvchidan oluvchiga oʻtkazilayotgan umumiy miqdordagi pul summasini anglatadi.

Kapital harakati — mamlakatlar oʻrtasida investitsiyalar, kreditlar, depozitlar va boshqa moliyaviy vositalar shaklida amalga oshiriladigan mablagʻlar oqimidir.

Kapital oqimi — xalqaro miqyosda moliyaviy resurslarning harakati boʻlib, u iqtisodiy integratsiya va global investitsion faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Komissiya va xizmat haqi — pul o‘tkazmalari, hisob-kitoblar yoki boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank yoki to‘lov tizimlari tomonidan undiriladigan to‘lovdir.

Konsortsium kreditlari. Yirik hajmdagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bir nechta bank yoki moliya tashkilotlari hamkorlikda kredit ajratadi. Har bir ishtirokchi o‘z ulushini qo‘shib, risklarni taqsimlaydi. Bunday kreditlar ko‘pincha infratuzilma, transport va energetika loyihalarida ishlatiladi.

Konvergentsiya mezonlari (iqtisodiy yaqinlashuv shartlari) – Yevroga o‘tish uchun mamlakatlarning moliyaviy, byudjet va inflyatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha bajarishi kerak bo‘lgan talablar.

Konvertatsiya — bu milliy pul birligini boshqa davlat valyutasiga almashtirish jarayoni yoki shunday ayirboshlash imkoniyatini bildiruvchi iqtisodiy tushunchadir. U xalqaro savdo, investitsiya va moliyaviy operatsiyalarda muhim rol o‘ynaydi.

Kredit (credit) — bu qarz beruvchi (kreditor) tomonidan qarzdorga (qarz oluvchiga) pul yoki tovar shaklida muayyan miqdordagi mablag‘ni ajratish bo‘lib, u belgilangan muddat ichida foiz to‘lovi bilan qaytarilishi shart.

Kredit berish — bu bank yoki moliya instituti tomonidan mijozga vaqtincha foydalanish uchun mablag‘ ajratish jarayoni bo‘lib, u kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi va foiz to‘lovi evaziga qaytarilishi talab etiladi.

Kredit munosabatlari — bu kreditor va qarzdor o‘rtasida qarz mablag‘larini berish, foydalanish va qaytarish jarayonini tartibga soluvchi iqtisodiy-huquqiy aloqalardir.

Kredit siyosati — bu bank va moliya tashkilotlari tomonidan kreditlash jarayonini boshqarish, kredit resurslarini taqsimlash, risklarni kamaytirish va daromadlilikni ta’minlashga qaratilgan strategik faoliyat tizimidir.

Kredit xavfi (credit risk) — bu qarzdor tomonidan o‘z zimmasidagi majburiyatlarni bajarmaslik yoki ajratilgan mablag‘ni belgilangan muddatda va to‘liq qaytarmaslik ehtimoli bilan bog‘liq moliyaviy xavf turidir.

Kreditlash — bu bank yoki boshqa moliya instituti tomonidan mijozga muayyan shartlarda mablag‘ ajratish jarayoni bo‘lib, u foiz to‘lovi bilan qaytarilishi majburiy bo‘lgan moliyaviy operatsiyani anglatadi.

Kreditning maqsadlilik tamoyili — bu kredit resurslaridan faqat shartnomada ko‘rsatilgan aniq maqsadlar yo‘lida foydalanish zarurligini belgilovchi asosiy prinsipdir.

Kreditning muddatlilik tamoyili — bu ajratilgan kredit mablag‘lari qat’iy belgilangan vaqt ichida qaytarilishi lozimligini nazarda tutuvchi moliyaviy tamoyildir.

Kreditning qaytariluvchanlik tamoyili — bu qarz oluvchining olgan mablag‘larini kelajakda to‘liq va shartnomada belgilangan tartibda qaytarishini ta’minlovchi majburiy prinsipdir.

Kreditning to‘lovlilik tamoyili — bu qarzdor kredit mablag‘ini qaytarish bilan birga, foydalanilgan summa uchun belgilangan foiz to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi zarurligini bildiradi.

Kriptovalyuta — bu markaziy bank yoki hukumat tomonidan nazorat qilinmaydigan, maxsus kriptografik algoritmlar asosida yaratiladigan va raqamli shaklda mavjud bo‘lgan pul birligidir. U tranzaksiyalar xavfsizligini, maxfiyligini hamda markazlashtirilmagan boshqaruv tizimini ta’minlaydi.

Kross-kurs (cross rate) — bu ikki valyutaning o‘zaro nisbatini ifodalovchi kurs bo‘lib, u odatda ularning har biri uchinchi bir valyutaga, masalan, AQSh dollariga nisbatan kurslari orqali hisoblab chiqiladi.

Kurs beqarorligi — bu valyuta kursining qisqa vaqt ichida keskin o‘zgarishlarga uchrashi, natijada milliy valyuta qiymatining barqarorligini saqlab turish qiyinlashadigan holatni bildiradi.

KWIKPAY — bu Rossiyada markazlashtirilgan xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi bo‘lib, 2023-yilda ishga tushirilgan. U O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Armaniston, Gretsiya, Kipr, Isroil, Tailand, Filippin, Indoneziya, Vetnam, Shri-Lanka, Misr va Hindiston kabi mamlakatlarga pul yuborish va olish imkonini beradi.

LIBOR (London Interbank Offered Rate) — bu xalqaro moliya bozorida yirik banklar o‘rtasida beriladigan qisqa muddatli kreditlar uchun qo‘llaniladigan asosiy foiz stavkasi bo‘lib, global moliyaviy operatsiyalarda mezon sifatida ishlatiladi.

Likvidlikni ta’minlash — bu bank yoki moliya institutining mijozlarining to‘lov talablarini o‘z vaqtida bajarish maqsadida yetarli miqdorda valyuta va naqd pul zaxirasini saqlab turish jarayonidir.

Litsenziya turlari — bu moliya institutlariga faoliyat yuritish uchun beriladigan ruxsatnomalar bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

- **Bosh (umumiy) litsenziya** — keng qamrovli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi;
- **Ichki litsenziya** — faqat milliy miqyosdagi operatsiyalarni bajarishga ruxsat etadi;
- **Bir martalik litsenziya** — ma’lum bir moliyaviy operatsiyani amalga oshirish uchun beriladi.

Lizing — bu moliyaviy xizmat turi bo‘lib, u orqali texnika, uskunalar yoki ishlab chiqarish vositalari uzoq muddatli ijaraga beriladi, bunda mulk egaligi lizing beruvchida qoladi, biroq foydalanish huquqi lizing oluvchiga o‘tadi.

Lizing va forfeyting — **lizing** aktivlarni uzoq muddatli ijaraga olish orqali moliyalashtirish shaklini bildirsa, **forfeyting** eksport qarzlarini bank yoki moliya instituti tomonidan sotib olib, eksportyorni to‘lov kechikish xavfidan himoya qilishga qaratilgan moliyalashtirish mexanizmidir.

Maastrix shartnomasi – Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida iqtisodiy va moliyaviy siyosatni uyg‘unlashtirishni belgilovchi shartnoma.

Mandell–Fleming modeli – bu ochiq iqtisodiy tizimlar uchun yaratilgan makroiqtisodiy model bo‘lib, valyuta kurslari, foiz stavkalari va kapital harakatining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi.

Mundell–Fleming modeli — bu ochiq iqtisodiyot sharoitida milliy daromad, foiz stavkasi va valyuta kursi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiluvchi makroiqtisodiy modeldir. U IS–LM modelining xalqaro

savdo va kapital harakati omillari bilan kengaytirilgan shakli bo‘lib, fiskal hamda monetar siyosatning valyuta kursi rejimiga (erkin yoki qat’iy kurs) qarab turlicha natijalar berishini tushuntiradi.

Manfiy pozitsiya (short position) — bu treyder, investor yoki bank tomonidan valyutani (yoki moliyaviy aktivni) hozirgi vaqtda sotib yuborib, kelajakda uni arzonroq narxda qayta sotib olish orqali foyda olishni maqsad qilgan strategik holatdir. Bunday pozitsiya, odatda, valyuta kursi yoki aktiv narxining pasayishi kutilganda amalga oshiriladi.

Manfiy valyuta pozitsiyasi — bu aktivlardan kamroq passivlarga ega bo‘lgan holatdir. Bu degani, bank yoki kompaniya kelajakda ma’lum bir valyutani sotib olish majburiyatiga ega, ammo hozirda bu valyutani yetarli miqdorda ushlab turmaydi.

Markaziy bank – Milliy valuta, foiz stavkalari va pul-kredit siyosatini boshqaruvchi asosiy moliyaviy institut.

Market-meykerlar — bu turli valyutalarni bitimlar bo‘yicha sotib olish va sotish kurslarini doimiy ravishda taklif qiluvchi moliyaviy tashkilotlardir. Bozorning passiv ishtirokchilari sezilarli miqdordagi kapital bilan qatnashsa-da, bozorda kuchsiz ta’sir ko‘rsatadi va ularning faoliyati ochiq bozordagi kurslarni professional tarzda tartibga solishni talab qilishi mumkin.

Maxsus tortishish huquqlari (SDR) – IMF tomonidan yaratilib, xalqaro rezervlarni to‘ldirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun ishlatiladigan hisob birligi.

Milliy valyuta — bu muayyan davlat hududida qonuniy to‘lov vositasi sifatida qabul qilingan, barcha hisob-kitoblar, to‘lovlar va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ishlatiladigan pul birligidir. U markaziy bank tomonidan emissiya qilinadi va mamlakat iqtisodiyotining asosiy likvid vositasi hisoblanadi.

Milliy valyuta bozori — bu faqat bitta mamlakat doirasida milliy valyuta va xorijiy valyutalar bilan bog‘liq operatsiyalar amalga oshiriladigan moliyaviy maydon bo‘lib, unda konvertatsiya, valyuta ayirboshlash, eksport-import to‘lovlari va boshqa valyuta bitimlari

amalga oshiriladi. Ushbu bozor milliy moliyaviy tizimning barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Milliy valyuta bozori va oltin bozorining rejimi — bu mamlakat hududida valyuta va oltin bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga soluvchi tizimdir.

Milliy valyuta tizimi — bu har bir davlatning o‘z hududida amal qiluvchi pul-kredit siyosati va valyuta qonunchiligi asosida shakllanadigan tizimdir. U milliy valyutaning muomaladagi holati, konvertatsiya darajasi, valyuta kursining shakllanishi, valuta operatsiyalariga nisbatan cheklovlar, valuta zaxiralari bilan bog‘liq siyosatni o‘z ichiga oladi.

Milliy valyutaning pariteti – Milliy valutaning boshqa valyutaga nisbatan belgilangan rasmiy qiymati.

Milliy valyutaning pariteti. So‘mning pariteti uning xarid qobiliyatini AQSH dollarining xarid qobiliyati bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Chunki, so‘mning nominal almashuv kursi AQSH dollariga nisbatan aniqlanadi. Bunda so‘m to‘g‘ri kotirovkaga ega.

Mintaqaviy (hududiy) valyuta tizimi — bu bir nechta davlatlar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va integratsiyani kuchaytirish maqsadida shakllantirilgan valyuta tizimidir. Ushbu tizim doirasida mamlakatlar o‘zaro valyuta siyosatini muvofiqlashtiradilar, umumiy to‘lov mexanizmlarini joriy etadilar va mintaqaviy moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga intiladilar.

Mintaqaviy valyuta bozori — yaqin iqtisodiy hududlarda joylashgan bir nechta mamlakatlarning valyuta operatsiyalarini yagona moliyaviy maydonda amalga oshiruvchi bozor shaklidir. Bu bozor orqali davlatlar o‘rtasida valyuta ayirboshlash, xalqaro to‘lovlar va kapital harakati jarayonlari soddalashtiriladi.

Mobil va onlayn xizmatlar — pul o‘tkazmalari, hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy operatsiyalarni mobil ilovalar yoki internet-banking tizimlari orqali tez va xavfsiz amalga oshirish imkonini beruvchi zamonaviy texnologik vositalardir.

Moddiy ta’minlanganlik — bu kreditlash jarayonida qarzdorning majburiyatlarini bajarishini kafolatlovchi garov yoki boshqa moddiy aktivlar bilan ta’minlanish darajasidir.

Moliyaviy barqarorlik — mamlakat iqtisodiyotining ichki va tashqi moliyaviy zarbalarga bardosh bera olishi, bank tizimi va kapital bozorlarining uzluksiz ishlashini anglatadi.

Moliyaviy barqarorlik va inflyatsiya nazorati — Yevropa valyuta siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u valyuta qiymatini saqlab qolish, narxlar darajasining barqarorligini ta’minlash va inflyatsiya jarayonlarini cheklashga qaratilgan strategiyani ifodalaydi.

Moliyaviy bozorlardagi o‘zgarishlar — bu valyuta kurslari, foiz stavkalari, aktivlar qiymati va likvidlikdagi tebranishlarni o‘z ichiga olgan dinamik jarayondir.

Moliyaviy inqiroz — bu bank tizimi, kredit bozorlari yoki valyuta sohasida yuzaga keladigan jiddiy muvozanatsizlik natijasida moliyaviy barqarorlikning keskin buzilishi holatidir.

Moliyaviy instrumentlar – Kredit, obligatsiya, akkreditiv, cheklar va boshqa moliyaviy vositalar.

Moliyaviy kafolatlar – Tashqi savdo yoki kredit operatsiyalarini amalga oshirishda moliyaviy xavfni kamaytirish uchun taqdim etiladigan kafolatlar.

Moliyaviy kreditlar — yanada keng ko‘lamli maqsadlarda qo‘llaniladi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarini amalga oshirish, yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish, qimmatli qog‘ozlar xaridi, tashqi qarzlarni qaytarish yoki valyuta bozoridagi muvozanatni saqlash uchun ishlatiladi.

Moliyaviy markaz — xalqaro miqyosda moliya oqimlarini boshqarish, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish, investitsiyalarni jalb etish va yirik bank, sug‘urta hamda fond bozorlarini birlashtiruvchi muhim iqtisodiy markaz sifatida faoliyat yurituvchi shahar yoki mamlakatdir. Masalan, London, Nyu-York, Singapur va Dubay dunyodagi yetakchi moliyaviy markazlar sirasiga kiradi.

Moliyaviy operatsiyalar — bu pul mablag‘lari bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi amaliyotlar bo‘lib, ularga kredit berish, depozit qabul qilish, valyuta konvertatsiyasi, investitsiya kiritish, to‘lovlarni amalga oshirish va kapital harakatini boshqarish kiradi.

Moliyaviy risklarni boshqarish — korxona yoki tashkilotning moliyaviy yo‘qotish ehtimolini kamaytirish, noaniqliklarni nazorat qilish va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategik choralar majmuasidir. Bu jarayonda diversifikatsiya, sug‘urtalash, xedjing va monitoring usullari qo‘llaniladi.

Moliyaviy xavfsizlik — bu mamlakat, korxona yoki shaxsning moliyaviy resurslari va tizimini tashqi hamda ichki xavflardan himoyalangan, barqaror holatda ushlab turish qobiliyatini anglatadi. U moliyaviy barqarorlik, to‘lov qobiliyati va iqtisodiy xavflarni boshqarish orqali ta’minlanadi.

Moliyaviy xizmatlar — bu banklar, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya institutlari tomonidan aholiga hamda xo‘jalik subyektlariga taqdim etiladigan keng ko‘lamli xizmatlar majmuasidir. Ular orasida kreditlash, depozitlarni qabul qilish, to‘lov va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish, valyuta ayirboshlash, investitsion maslahatlar berish va moliyaviy aktivlarni boshqarish kabi jarayonlar mavjud. Mazkur xizmatlar iqtisodiyotda pul aylanishini ta’minlash, investitsiyalarni rag‘batlantirish va moliyaviy tizimning barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

Monetar siyosat – Pul hajmini va foiz stavkalarini boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash choralari.

MoneyGram — bu dunyo bo‘ylab 200 dan ortiq davlatlarda faoliyat ko‘rsatadigan xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi bo‘lib, O‘zbekistonda ham keng qo‘llaniladi. U orqali naqd pul yuborish yoki bank hisob raqamiga pul o‘tkazish imkoniyati mavjud. Xizmatlar tez va xavfsiz tarzda taqdim etiladi, ko‘plab bank va agentliklar orqali ishlaydi.

Multiplikator – Bank tizimida depozitlar orqali hosil bo‘ladigan qo‘shimcha pul hajmini ko‘rsatadigan koeffitsient.

Musbat pozitsiya (long position) – Treyder yoki bank valyutani koʻproq sotib olgan holat; kelajakda uning qadri oshishiga umid qiladi.

Musbat valyuta pozitsiyasi — bu bank yoki moliyaviy muassasada ma'lum bir chet el valutasida aktivlar passivlardan koʻp boʻlgan holatdir. Bunday holatda ular ma'lum miqdorda valyutani sotib olgan, ammo uni hali sotmagan yoki sotishga boʻlgan majburiyati past.

Naqd pul oʻtkazmalari — bu mablagʻlarni bevosita naqd shaklda, ya'ni bank yoki toʻlov tizimi orqali bir shaxsdan boshqasiga, yoki bir joydan boshqa joyga uzatish jarayonidir. Ushbu xizmat, odatda, tezkor toʻlovlar, xorijdan pul joʻnatmalari yoki shaxsiy mablagʻlarni yuborishda qoʻllaniladi.

Naqd pulsiz operatsiyalar — bu mablagʻlarning jismoniy (naqd) shaklda emas, balki elektron yoki hisob-kitob yoʻli bilan oʻtkaziladigan moliyaviy tranzaksiyalardir. Ularga xalqaro hisob-kitoblar, eksport-import toʻlovlari, bank oʻtkazmalari, plastik karta orqali toʻlovlar va onlayn tranzaksiyalar kiradi.

Naqd valyuta operatsiyalari — bank kassalari yoki rasmiy valyuta ayirboshlash shoxobchalari orqali xorijiy valyutani sotish va sotib olish bilan bogʻliq amaliy jarayonlardir. Bu operatsiyalar milliy valyuta kursini shakllantirishda va valyuta bozorining likvidligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Neytral pozitsiya – Valyuta bozorida risklarni kamaytirish yoki oʻrtacha holatni saqlash uchun hech qanday katta sotib olish yoki sotish operatsiyasini amalga oshirmagan holat.

Neytral valyuta pozitsiyasi — bu aktivlar va passivlar miqdori teng boʻlgan holatdir. Bunday pozitsiyada tashkilot valyuta kursining oʻzgarishidan kam ta'sirlanadi.

Nominal almashuv kursi. Oddiy qilib aytganda, bu — bozorda bir valyutaning boshqasiga ayirboshlanish kursi. Ya'ni, joriy bozordagi rasmiy kurs.

Ochiq hisoblar (ochiq hisob-kitobli kreditlar). Bu kredit shakli eksportyor va importyor oʻrtasidagi oʻzaro ishonch asosida amalga oshiriladi. Eksportyor har bir yetkazib berilgan mahsulot qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida yozib boradi, importyor esa

belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshiradi. Ushbu kredit turi odatda uzoq muddatli va doimiy hamkorlik aloqalari mavjud bo‘lgan firmalar o‘rtasida qo‘llaniladi.

Ochiq hisoblar krediti — bu eksport va import bitimlarini moliyalashtirishda to‘lovning muayyan muddatga kechiktirilgan tarzda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi moliyaviy mexanizmdir.

Ochiq valyuta pozitsiyalari jami hajmi — barcha xorijiy valyuta turlari bo‘yicha shakllangan ochiq valyuta pozitsiyalarining umumiy yig‘indisini anglatadi.

Ochiq valyuta pozitsiyalari uchun limitlar — har bir xorijiy valyuta turi kesimida ochiq pozitsiyalar hamda ularning jami hajmining bankning normativ kapitaliga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu me’yorlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilab beriladi.

Ochiq valyuta pozitsiyasi — bu bankning xorijiy valyutalardagi talablar hajmi ushbu valyutadagi majburiyatlar miqdoriga teng bo‘lmagan holatda vujudga keladigan valyuta pozitsiyasidir.

Oltin bloki — bu milliy valyutalarning qiymatini oltin zaxiralari bilan bog‘lashga asoslangan xalqaro moliyaviy tizimdir.

Oltin demonetizatsiyasi — oltinning pul birligi sifatidagi maqomini bekor qilish, ya’ni uni muomaladan chiqarish va milliy valyuta sifatida ishlatishni to‘xtatish jarayonidir.

Oltin standarti — bu milliy pul birligining qiymati oldindan belgilangan miqdordagi oltin bilan o‘lchanadigan va uning qiymati shu asosda aniqlanadigan valyuta tizimidir.

Operatsiya – Bank yoki moliyaviy institut tomonidan amalga oshiriladigan har qanday moliyaviy tranzaksiya yoki xizmat.

Oraliq kreditlar — kapital, tovar va xizmatlarning o‘zaro almashinuvini qo‘llab-quvvatlovchi kreditlar bo‘lib, ular ko‘pincha pudrat ishlarini bajarish, loyihalarni moliyalashtirish yoki texnik hamkorlik shaklida taqdim etiladi.

Osiyo optsionlari (average rate options) — Optsion muddati davomida valyuta kursining o‘rtacha qiymatiga asoslangan optsion turidir.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) – Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan xalqaro moliyaviy institut.

Paysend — bu xalqaro pul jo‘natmalari tizimi bo‘lib, 170 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi. O‘zbekiston ham bu tizimga kiradi va mamlakat bo‘ylab ko‘plab banklar orqali xizmatlar taqdim etiladi. Paysend orqali pul jo‘natish va olish jarayoni tez, xavfsiz va arzon bo‘lib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.

Pul massasi - bu muomaladagi barcha pul miqdori. Bu ichki bozordagi likvidlik, inflyatsiya darajasi va monetar siyosatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Pul massasi — bu mamlakat iqtisodiy tizimida muomalada bo‘lgan hamda tezda naqd shaklga o‘tishi mumkin bo‘lgan barcha pul mablag‘larining yig‘indisini anglatadi.

Pul o‘tkazmalari — moliyaviy resurslarni bir hisob-raqamdan boshqasiga, mahalliy yoki xalqaro darajada, elektron yoki an’anaviy usulda o‘tkazish jarayonidir.

Pul qabul qilish punktlari — aholiga pul yuborish va qabul qilish xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan maxsus bo‘lim yoki agentliklar hisoblanadi.

Pulni qabul qiluvchi shaxs — jo‘natilgan mablag‘ni olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

Pul siyosati — bu markaziy bank va hukumat tomonidan pul massasini hamda foiz stavkalarini tartibga solish orqali inflyatsiyani jilovlash va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

Pul-kredit siyosati — mamlakat iqtisodiyotida pul resurslari hamda kredit hajmini boshqarish orqali narxlar barqarorligini saqlash va iqtisodiy faollikni muvozanatlashni maqsad qilgan mexanizmdir.

Pul-kredit siyosati uyg‘unligi — bu Yevropa davlatlarida monetar siyosat va umumiy makroiqtisodiy strategiyalarni o‘zaro muvofiqlashtirish orqali yagona iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash jarayonidir.

Qarz mablag‘lari va ularning turlari – Xalqaro moliyaviy manbalar orqali berilgan mablag‘lar: bank, tijorat, davlatlararo.

Qarzlarni qayta moliyalashtirish (refinanslash). Mavjud qarzni yangi shartlar bilan qayta moliyalashtirish yoki uzaytirish jarayoni. Bu usulda qarzdor o‘zining avvalgi majburiyatlarini yopish uchun yangi, ko‘pincha qulayroq shartlardagi kredit oladi. Refinanslash mexanizmi mamlakatlarga qarz yukini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish xarajatlarini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni saqlashda yordam beradi.

Qattiq belgilangan kurs – Milliy valutaning boshqa valyutaga nisbatan rasmiy ravishda belgilangani va bozor tomonidan deyarli o‘zgarmaydigan kursi.

Qattiq valyuta (hard currency) — Siyosiy va iqtisodiy jihatdan barqaror mamlakatlar tomonidan chiqarilgan, yuqori likvidlikka ega va global bozorda ishonchli hisoblangan valyutadir

Qisqa valyuta pozitsiyalari jami — barcha turdagi xorijiy valyutalar bo‘yicha bankning qisqa pozitsiyalarining umumiy hajmi.

Qisqa valyuta pozitsiyasi esa, aksincha, bankning xorijiy valyutadagi majburiyatlari uning shu valyutadagi talablaridan ko‘proq bo‘lgan holatdagi ochiq pozitsiyani anglatadi.

Qonunchilikka muvofiqlik — regulyatorlar tomonidan belgilangan me’yorlarga rioya qilish;

Raqamli valyutalar (kripto-valyutalar) – Elektron shakldagi pul birligi, markaziy bank nazoratisiz va kriptografik usulda himoyalangan.

Rasmiy kurs – Davlat yoki markaziy bank tomonidan belgilangan valyuta kursi, odatda iqtisodiy tartibga solish uchun qo‘llaniladi.

Real almashuv kursi – bu kurs inflyatsiya darajalarini hisobga olgan holda hisoblanadi va u haqiqiy savdo sharoitlarini ifodalaydi. Nominal kursga nisbatan ko‘proq iqtisodiy haqiqatni aks ettiradi.

Refinanslash stavkasi — markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlar uchun belgilangan asosiy foiz stavkasi bo‘lib, u mamlakatdagi umumiy foiz siyosatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Regulyativ kapital — bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va risklarni qoplash maqsadida belgilangan minimal kapital hajmini anglatadi.

Regulyatsiya — banklar va moliyaviy institutlar faoliyatini qonunchilik hamda normativ hujjatlar orqali tartibga solish, ularning barqaror ishlashini nazorat qilish jarayonidir.

Restriksion siyosat — iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirish, inflyatsiya bosimini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni saqlash maqsadida pul-kredit yoki fiskal choralarni cheklovchi siyosat turidir.

Restriktiv monetar siyosat - Markaziy bank tomonidan inflyatsiyani jilovlash yoki iqtisodiy qizib ketishni oldini olish maqsadida pul hajmini kamaytirishga qaratilgan siyosat.

Restriktsion monetar siyosat – pul massasini kamaytirishga qaratilgan markaziy bank siyosati.

Revalvatsiya - bu valyutaning qiymatini ko‘tarish. Bu odatda inflyatsiyani pasaytirish yoki valyutaning kuchaygan iqtisodiy asoslarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Revalvatsiya – Milliy valyutaning boshqa valyutaga nisbatan qiymatini rasmiy ravishda oshirish jarayoni.

Rezerv valyuta - Jahon bo‘yicha keng qabul qilingan va boshqa valyutalarga nisbatan ishonchli hisoblangan valyutalar. Masalan: AQSh dollari, yevro, yapon iyenasi. 2. Xalqaro hisob-kitob va zaxira jamg‘armalarida ishlatiladigan yetakchi valyutalar.

Riskni kamaytirish — valyuta kursining kutilmagan o‘zgarishlaridan himoyalanish;

Restriksion siyosat – Iqtisodiy faollikni sekinlashtirish va inflyatsiyani kamaytirish maqsadida qo‘llaniladigan siyosat.

Savdo shartnomalari – Tovar yoki xizmatlar sotish va xarid qilish shartlarini huquqiy jihatdan belgilovchi hujjat.

Señoraj (seigniorage) — Naqd pul emitatsiyasi orqali davlatga keladigan daromad.

Siyosiy risk – Davlatning ichki yoki tashqi siyosati natijasida moliyaviy operatsiyalarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan xavf.

Sof eksport – Bir davlat tomonidan chet elga sotilgan tovar va xizmatlar qiymati bilan import qiymati orasidagi farq.

Spekulyativ kapital – Tez foyda olish maqsadida valyuta, qimmatli qog‘oz yoki boshqa moliyaviy aktivlar bo‘yicha amalga oshiriladigan qisqa muddatli investitsiyalar.

Spekulyativ operatsiyalar – valyuta kurslaridagi farqdan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan bitimlar.

Spot operatsiyasi (spot) — Bitim tuzilganidan keyin 2 ish kuni ichida amalga oshiriladigan joriy valyuta almashinuvi.

Spred (spread) – Sotib olish va sotish narxi orasidagi farq; banklar va treyderlar uchun daromad manbai.

Sterling bloki – Valyuta bloki bo‘lib, unda bir nechta mamlakat funt sterlingga bog‘langan.

Sug‘urta va garov mexanizmi – Kreditni qaytarish xavfini kamaytirish uchun kafolat va sug‘urta vositalari.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi – Bozor sharoitiga qarab o‘zgaruvchi foiz stavkasi.

Suzuvchi kurs rejimi – Valyuta kursi bozor talab va taklifiga qarab o‘zgaradigan tizim; davlat uni majburan belgilamaydi.

Suzuvchi valyuta kursi – Bozorning talab va taklifi asosida erkin shakllanadigan valyuta kursi.

Svop (swap) — Bir valyutani spot bo‘yicha sotish va forvard sharti bo‘yicha qaytarib olish yoki aksincha amalga oshiriladigan bitimdir.

SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) — Butun dunyodagi banklar o‘rtasida moliyaviy ma’lumotlarni tez va xavfsiz almashish uchun yaratilgan tarmoq. SWIFT banklarga moliyaviy ko‘rsatmalarni standart kodlar (BIC) orqali uzatish imkonini beradi

SWIFT tizimi – Xalqaro banklararo tezkor va xavfsiz pul o‘tkazmalarini amalga oshirish tarmog‘i bo‘lib, O‘zbekiston banklari ham ushbu tizim orqali xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshiradi. SWIFT tizimi orqali pul yuborish va olish jarayoni xavfsiz va ishonchli bo‘lib, banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

Talab va taklif – Bozor narxini belgilaydigan iqtisodiy tushuncha: talab – iste'molchilar xarid qilish istagi, taklif – sotuvchilar sotish hajmi.

Tartib – Bank yoki moliya institutida operatsiyalarni bajarish uchun belgilangan qoidalar va me'yorlar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat – Davlatning xorijiy mamlakatlar bilan amalga oshiradigan iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalari.

Tashqi moliyalashtirish – Tashqi manbalar orqali kompaniya yoki davlat loyihalarini moliyalashtirish.

Tashqi qarz – bu davlatning xorijiy moliyaviy institutlar, banklar yoki hukumatlardan olgan qarzi. U odatda valyutada ifodalanadi va to‘lov muddati bor. 2. Mamlakatning chet elga bo‘lgan umumiy qarz majburiyatlari.

Tashqi qarz — davlat, tashkilot yoki korporatsiyaning xorijiy kreditorlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini ifodalaydi.

Tashqi savdo — mamlakatning boshqa davlatlar bilan tovar va xizmatlarni eksport qilish hamda import qilish jarayonidir.

Tashqi savdoni moliyalashtirish — eksport-import bitimlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kreditlar, kafolatlar yoki boshqa moliyaviy instrumentlar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimidir.

Tezkor o‘tkazmalar — mablag‘larni qisqa vaqt ichida, odatda bir necha daqiqa yoki soat ichida, jo‘natuvchidan qabul qiluvchiga yetkazib berish imkonini beruvchi to‘lov xizmati turidir.

Tijorat banki – Mahalliy va xalqaro moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi, kredit berish va depozitlarni boshqaruvchi moliya instituti.

Tijorat banki – Mahalliy va xalqaro valyuta operatsiyalari, kredit berish va depozitlarni boshqarish bilan shug‘ullanuvchi moliyaviy institut.

Tijorat kreditlari — asosan tashqi savdo operatsiyalari hamda xizmat ko‘rsatish sohasidagi bitimlarni moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlardir. Ular eksportyor va importyor o‘rtasidagi hisob-kitoblarni soddalashtirib, savdo aylanmasining kengayishiga yordam beradi.

Tijorat kreditlari – bu yirik banklar, korporatsiyalar yoki sug‘urta kompaniyalari tomonidan eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish uchun taqdim etiladi. Ular qisqa yoki o‘rta muddatli bo‘lib, tijorat shartlariga asoslanadi va ko‘pincha akkreditivlar, veksellar yoki boshqa hisob-kitob hujjatlari orqali rasmiylashtiriladi.

To‘lov balansi – Bir davlatning chet el bilan barcha iqtisodiy operatsiyalari hisobga olingan moliyaviy hisobi; import, eksport, kapital oqimlari va xizmatlar kiritiladi.

To‘lov balansi – mamlakatning boshqa davlatlar bilan amalga oshirgan iqtisodiy operatsiyalarining statistik ko‘rinishi. **2.** Mamlakatning xorijiy dunyo bilan barcha moliyaviy va tovar aloqalari statistik ifodasi. Eksport, import, investitsiya, kredit va boshqa oqimlar hisobga olinadi.

To‘lov balansi defitsiti – mamlakatning import va to‘lovlari eksport va tushumlaridan oshib ketgan holati.

To‘lov balansidagi defitsit – agar mamlakat chetga ko‘ra turgan mablag‘dan ko‘ra ko‘proq import qilsa yoki pul yuborsa, balansda manfiy farq (defitsit) paydo bo‘ladi.

To‘lov muddatlari – Moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun belgilangan vaqt oralig‘i.

To‘lov shakllari – Tashqi savdoda pul mablag‘larini yetkazish usullari: naqd, akkreditiv, inkasso yoki elektron to‘lovlar.

To‘lov topshiriqnomasi – Bank orqali mablag‘ni boshqa hisob-raqamga o‘tkazishni buyuruvchi hujjat.

To’lov balansi – Bir davlatning chet el bilan barcha iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalarini aks ettiruvchi hisob-kitob.

Tovar krediti – bu eksportyor tomonidan importyor (xaridor)ga mahsulot yoki xizmatni qarzga berish shaklida amalga oshiriladi. Xaridor tovarni olgach, belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshiradi. Tovar kreditlari xalqaro savdo faoliyatini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ustama foiz (marja) – Kredit bo‘yicha asosiy foizga qo‘shiladigan qo‘shimcha foiz.

Uzun valyuta pozitsiyalari jami esa — barcha xorijiy valyutalar bo‘yicha bankning uzun pozitsiyalarining umumiy yig‘indisi hisoblanadi.

Uzun valyuta pozitsiyasi — bankning xorijiy valyutadagi talablar miqdori uning shu valyutadagi majburiyatlar miqdoridan yuqori bo‘lgan holatda vujudga keladigan ochiq pozitsiya.

Valyuta – Milliy yoki chet el pul birligi, savdo, investitsiya va moliyaviy operatsiyalar uchun ishlatiladi.

Valyuta ayirboshlash – Bir davlat valyutasini boshqa davlat valyutasiga almashtirish jarayoni.

Valyuta barqarorligi – Valyutaning qiymatini uzluksiz va sezilarli tebranishsiz saqlash holati.

Valyuta birjasi — bu valyutalar savdosi amalga oshiriladigan maxsus tashkilot yoki bozor maydoni bo‘lib, unda milliy va xorijiy valyutalar sotib olinadi va sotiladi. Valyuta birjasi xalqaro va milliy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi, chunki u erda milliy valyutaning almashuv kursi shakllanadi.

Valyuta birjasi (currency market) — Xorijiy valyutalarning savdosi va almashinuvi amalga oshiriladigan moliyaviy bozor.

Valyuta bloki – Bir qator mamlakatlarning valyutalarini birlashma ichida bog‘lash orqali barqarorlashtirish tizimi.

Valyuta bozori – bu turli mamlakatlarning valyutalarini xarid qilish va sotish maqsadida faoliyat yuritadigan maxsus tashkil etilgan markazlardir.

Valyuta bozorlari – Milliy va xalqaro valyutalarning sotib olinishi va sotilishi amalga oshiriladigan bozorlar.

Valyuta bozorlarining mavjudligi – valyuta kurslarini shakllantirish, valyutalarni sotish va sotib olish orqali munosabatlar chuqurlashadi.

Valyuta cheklovlari – Davlat tomonidan valyuta operatsiyalari va konvertatsiyasini cheklash yoki nazorat qilish chorasi.

Valyuta inqirozi – Milliy valyuta kursining keskin tushishi yoki iqtisodiy barqarorlikning buzilishi.

Valyuta inqirozi – Valyuta kursining keskin tushishi yoki barqarorligini yo‘qotishi bilan bog‘liq iqtisodiy inqiroz.

Valyuta interventsiyasi (currency intervention) — Markaziy bank yoki hukumat tomonidan valyuta bozoriga aralashish bo‘lib, odatda valyuta kursini barqarorlashtirish yoki inflyatsiyani nazorat qilish uchun amalga oshiriladi. Bu jarayonda davlat valyuta sotadi yoki xarid qiladi.

Valyuta konvertatsiyasi — bir mamlakat pul birligini boshqa davlat valyutasiga ayirboshlash jarayonidir.

Valyuta kreditlari — xorijiy valyutada ajratiladigan qarz mablag‘lari bo‘lib, xalqaro savdo va investitsiyalarni moliyalashtirishda qo‘llaniladi

Valyuta kursi — bir mamlakat pul birligining boshqa davlat pul birligiga nisbatan almashuv qiymatini ko‘rsatuvchi iqtisodiy ko‘rsatkichdir. Oddiy qilib aytganda, bu bir valyutaning boshqasiga almashtirish narxidir

Valyuta kursi (exchange rate) — mamlakat pul birligining boshqa valyutaga nisbatan qiymatini belgilovchi o‘lchov bo‘lib, uning darajasi ichki iqtisodiy holat, tashqi savdo balansi, inflyatsiya darajasi hamda pul-kredit siyosatining samaradorligi kabi omillarga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Valyuta kursi rejimi. Milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursi turlicha belgilanishi mumkin. Hozirgi vaqtda uch xil rejim mavjud: erkin suzuvchi kurs, bunda kurs bozor talab va taklifiga qarab belgilanadi; qat’iy belgilangan kurs, bunda davlat kursni ma’lum darajada ushlab turadi; boshqariladigan suzuvchi kurs, ya’ni amalda erkin kurs bo‘lsa-da, markaziy bank zarur holatlarda aralashib turadi. Ushbu tizim 1970-yillarda paydo bo‘lib, hozirda keng qo‘llaniladi.

Valyuta kursi rejimlari – valyuta kursining qanday usulda shakllanishini belgilovchi tizim (masalan, erkin suzuvchi, qat’iy belgilangan yoki aralash).

Valyuta kursi tizimlari (rejimlari) - bu turli mamlakatlarning valyuta kurslarini boshqarish usullarini anglatadi. Masalan, erkin

suzuvchi kurs, qat'iy belgilangan kurs, yoki aralash kurs tizimlari mavjud.

Valyuta kurslarining muvofiqlashtirilishi – Yevropa mamlakatlarida valyuta kurslarini bir-biriga moslashtirish jarayoni.

Valyuta mexanizmi (ERM I va ERM II) – Milliy valyutalarni Yevroga nisbatan barqarorlashtirish va kurslarni nazorat qilish tizimi.

Valyuta munosabatlari — bu turli mamlakatlar o'rtasidagi savdo, moliya va investitsiya jarayonlarida xorijiy valyutalardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy aloqalar tizimidir. Bunday munosabatlar xalqaro to'lovlar, valyuta almashinuvi, kreditlash, investitsiya faoliyati hamda boshqa moliyaviy operatsiyalar jarayonida shakllanadi va doimiy rivojlanib boradi.

Valyuta muomalasi – Valyutaning tovar, xizmat yoki moliyaviy operatsiyalarda ishlatilishi.

Valyuta nazorati – Davlat tomonidan valyuta operatsiyalarini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi.

Valyuta operatsiyalari — bu turli davlatlarning milliy valyutalarini xarid qilish, sotish yoki almashtirishga qaratilgan moliyaviy bitimlardir. Bunday operatsiyalar ichki va tashqi bozor sharoitlarida amalga oshiriladi. Ularning asosiy maqsadi — mijozlarning valyutaga bo'lgan ehtiyojini qondirish, to'lov balansini ta'minlash va valyuta risklarini boshqarishdir.

Valyuta pariteti – valyutalar orasidagi nisbat, odatda narxlar darajasi va xarid qobiliyati asosida belgilanadi.

Valyuta pariteti. Bu milliy valyuta qiymatining boshqa davlat valyutasiga nisbatan rasmiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Aslida u valyutalar xarid qobiliyati orqali aniqlanadi. Agar paritet va bozor kursi o'rtasida katta tafovut yuzaga kelsa, mamlakat markaziy banki devalvatsiya orqali muvozanatni tiklashga majbur bo'ladi. Aks holda, xorijiy valyutaga haddan tashqari talab kuchayib, iqtisodiy nomutanosibliklar paydo bo'lishi mumkin. Ikki davlat valyutalarining o'zaro teng almashish qiymati. Bu ko'pincha rasmiy yoki belgilangan kursga asoslangan bo'ladi. Valyutalar o'rtasidagi paritet, ayni paytda, xarid qobiliyati tengligi orqali ham belgilanadi.

Valyuta pozitsiyasi — bu bankning xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlari o‘rtasidagi nisbatni ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u bank tomonidan xorijiy valyutada amalga oshiriladigan valyuta oldi-sotdi bitimlari hamda boshqa operatsiyalar natijasida bankning valyutadagi aktiv va passivlari hajmining o‘zgarishidan kelib chiqadi.

Valyuta pozitsiyasini boshqarish — bu bank yoki moliyaviy muassasaning chet el valyutalaridagi aktivlari va passivlari o‘rtasidagi balansni nazorat qilish jarayoni hisoblanadi. Maqsad — valyuta kursining o‘zgarishidan kelib chiqadigan moliyaviy risklarni kamaytirish va tashkilotning barqaror moliyaviy holatini ta’minlash.

Valyuta rezervlari – Davlat tomonidan xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun saqlanadigan chet el valyutalari, oltin va boshqa aktivlar.

Valyuta risklari – Valyuta kursining kutilmagan o‘zgarishlari natijasida yuzaga keladigan moliyaviy zarar xavfi.

Valyuta siyosati — bu davlat tomonidan valyuta munosabatlarini shakllantirish, boshqarish va tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar tizimidir. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash, inflyatsiya jarayonlarini nazorat ostida saqlash hamda xalqaro savdo faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Valyuta tanlovi – Investor yoki korxona qaysi valyutada aktiv saqlash yoki operatsiya qilishni tanlashi.

Valyuta tizimi — bu xalqaro yoki milliy miqyosda pul-moliya munosabatlarini tashkil etuvchi va tartibga soluvchi iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar yig‘indisidir. U valyuta ayirboshlash, to‘lov-hisob-kitoblar, valyuta kursini belgilash, konvertatsiya, valuta cheklovlari va valuta nazorati kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi.

Valyuta zaxiralari — bu davlat yoki markaziy bank tomonidan iqtisodiy barqarorlikni saqlash, to‘lov balansi muvozanatini ta’minlash va valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida to‘plangan moliyaviy aktivlardir.

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish esa — mamlakat zaxiralarini bir nechta xorijiy valyutalar shaklida saqlash orqali ularning xavfini kamaytirish va barqarorligini oshirish jarayonidir.

Valyutaning erkin konvertirlanishi — bu xorijiy valyutaga nisbatan cheklovsiz va bozor mexanizmlari orqali amalga oshiriladigan ayirboshlash imkoniyatini bildiradi. Boshqacha aytganda, bir mamlakat valyutasini boshqa mamlakatlar valyutalariga hech qanday ruxsatnoma yoki tartibiy to‘siqlarsiz almashtirish mumkin bo‘lsa, u holda bu valyuta erkin konvertirlanadi, deb baholanadi.

Valyutaviy cheklovlar – bu amaldagi valyuta operatsiyalari va kapital harakati bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotlarga nisbatan joriy etilgan cheklovlardir.

Vekselli kredit (tratta) – To‘lovni kechiktirishni ta’minlovchi veksellar orqali beriladigan qarz.

Vekselli kredit. Bu shaklda eksportchi o‘z mahsulotini sotish bo‘yicha kelishuvni amalga oshirgach, importyorga o‘tkazma veksel — **tratta**ni taqdim etadi. Importyor esa ushbu hujjatni qabul qilib, unda belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi, ya’ni vekselni **aktsept** qiladi.

Visa Direct — bu dunyodagi yetakchi xalqaro to‘lov tizimlaridan biri bo‘lib, Visa kartalari orqali tezkor pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi. U foydalanuvchilarga naqd pul olishga hojat qoldirmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank kartasiga pul yuborish imkoniyatini taqdim etadi. Tizim ko‘plab mamlakatlarda va banklarda ishlaydi.

Western Union — bu dunyo bo‘yicha eng yirik xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlaridan biri bo‘lib, 200 dan ortiq davlat va hududlarda faoliyat yuritadi. O‘zbekiston ham ushbu tizimga kiradi va mamlakat bo‘ylab ko‘plab filiallar va agentliklar orqali xizmatlar taqdim etiladi.

Western Union – Xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatlarini ko‘rsatadigan global kompaniya.

Xalqaro bank krediti — bu, odatda, xorijiy valyutada beriladigan va xalqaro moliyaviy institutlar yoki tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan qarz shaklidir.

Xalqaro hisob-kitoblar — bu xorijiy valyutalarda ifodalangan talab va majburiyatlarni bajarish hamda ularni boshqarish jarayonini o‘z ichiga olgan tizim bo‘lib, u turli mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasida shakllanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda to‘lov vositasi sifatida asosan quyidagi asosiy valyutalar qo‘llaniladi: AQSh dollari (USD), Yevro (EUR), Britaniya funt sterlingi (GBP), Yaponiya iyenasi (JPY) hamda Xitoy yuani (CNY).

Xalqaro kredit — bu bir mamlakat, tashkilot yoki korxona tomonidan boshqa davlat yoki subyektga muayyan shartlar asosida vaqtincha foydalanish uchun beriladigan moliyaviy resursdir. Ushbu mablag‘lar belgilangan muddatda va oldindan kelishilgan shartlarga muvofiq qaytarilishi lozim bo‘lib, ular odatda tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtirish, investitsion loyihalarni amalga oshirish yoki qisqa muddatli likvidlik muammolarini hal etish maqsadida taqdim etiladi.

Xalqaro kredit shakllari (bank, tijorat, davlatlararo) – Kredit beruvchi tashkilotga qarab ajratiladigan asosiy shakllar.

Xalqaro moliyaviy institutlar krediti – IMF, Jahon banki yoki boshqa xalqaro institutlar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar.

Xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari. Bu turdagi kreditlar Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) kabi yirik xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ajratiladi. Ular, odatda, uzoq muddatli, past foizli va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan shartlar asosida beriladi.

Xalqaro moliyaviy munosabatlar – Davlatlar va xalqaro institutlar o‘rtasida moliyaviy resurslar almashinuvi va kreditlash jarayonlari.

Xalqaro obligatsiyalar – Davlat yoki korporatsiyalar tomonidan chet el investorlariga chiqarilgan qarz qog‘ozlari.

Xalqaro pul o‘tkazmalari — bu jahon bo‘ylab shaxslarning mablag‘larini juda qisqa muddat ichida yuborishga imkon beruvchi noyob bank xizmatidir. Pul jo‘natmalari yuqori xavfsizlik darajasiga ega bo‘lib, istalgan masofaga bir necha daqiqa ichida yetkaziladi va faqat ko‘rsatilgan shaxsga naqd pul shaklida topshirilishi kafolatlanadi.

Xalqaro pul o‘tkazmalari – Mablag‘ni davlatlararo transfer qilish jarayoni, xalqaro standartlarga muvofiq.

Xalqaro rezerv valyutalar (reserve currency) — bu markaziy banklar va hukumatlar tomonidan chet elda saqlanadigan hamda xalqaro hisob-kitoblar va to‘lovlarda keng qo‘llaniladigan asosiy valyutalardir. Ular global moliya tizimida likvidlikni ta’minlash va valyuta kurslarining barqarorligini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro rezervlar — bu davlatning zaxira fondini tashkil etuvchi chet el valyutalari, oltin va boshqa moliyaviy aktivlar majmuasidir. Ular mamlakatning tashqi iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, milliy valyutani qo‘llab-quvvatlash hamda favqulodda moliyaviy holatlarda tashqi to‘lov majburiyatlarini bajarish maqsadida saqlanadi.

Xalqaro savdoning kengayishi – mamlakatlar o‘rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuvi valyutalarga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi.

Xalqaro ssuda kapitali – Davlatlar va kompaniyalar tomonidan xalqaro savdo yoki investitsiyalar uchun ajratilgan mablag‘lar.

Xalqaro tijorat krediti — asosan tovar shaklida taqdim etiladi hamda eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Xalqaro to‘lov balansi – Bir davlatning chet el bilan barcha iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalari hisobga olingan hisoboti.

Xalqaro to‘lov qobiliyati. Davlatning o‘z majburiyatlarini xorijiy valyutada o‘z vaqtida va to‘liq bajara olishi ham milliy valyuta tizimining muhim qismi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich mamlakat iqtisodiyotining mustahkamligi va tashqi bozorlardagi ishonchliligini belgilaydi.

Xalqaro to‘lov tizimlarining rivojlanishi – zamonaviy banklararo hisob-kitob tizimlari orqali turli mamlakatlar o‘rtasida valyuta bilan hisob-kitoblar soddalashadi.

Xalqaro to‘lovlar – Turli mamlakatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan pul o‘tkazmalari va moliyaviy operatsiyalar.

Xalqaro valyuta – Turli davlatlar o‘rtasida ishlatiladigan, global qabul qilingan pul birligi.

Xalqaro valyuta fondi (IMF) – Mamlakatlar o‘rtasida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, valyuta muammolarini hal qilish va iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro moliya instituti.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) – Mamlakatlar o‘rtasida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va valyuta muammolarini hal qilishga xizmat qiladigan xalqaro moliya instituti.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) – Xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va davlatlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi xalqaro institut.

Xalqaro valyuta munosabatlari — bu xalqaro iqtisodiy aloqalar doirasida shakllanadigan, jahon moliya bozori hamda xalqaro valyuta tizimida valyutalarning harakati bilan bog‘liq iqtisodiy va moliyaviy jarayonlar majmuasidir. Mazkur munosabatlar global iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali xalqaro savdo, investitsiya va moliya oqimlari ta’minlanadi hamda valyuta resurslarining aylanish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar ifodalanadi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida quyidagi subyektlar faoliyat yuritadi: markaziy banklar, tijorat banklari, moliya vazirliklari, xalqaro moliya institutlari (masalan, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, Jahon banki va boshqalar), transmilliy korporatsiyalar hamda eksport-import faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar.

Xalqaro valyuta operatsiyalari — jahon moliya bozorida valyuta oqimlarining harakatini ta’minlovchi va xalqaro xo‘jalik subyektlarining moliyaviy manfaat hamda ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi murakkab iqtisodiy mexanizmni anglatadi.

Xalqaro valyuta tizimi — bu xalqaro valyuta tizimi butun dunyo miqyosida valyuta munosabatlarini tartibga soladi. Uning asosiy maqsadi — davlatlar o‘rtasida to‘lovlar muvozanatini ta’minlash,

valyuta kurslarini barqarorlashtirish va moliyaviy inqirozlarning oldini olishdir. Bu tizim xalqaro moliya institutlari (Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki va boshqalar) orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro valyuta tizimi esa turli davlatlarning o‘zaro valyutaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi global mexanizm sifatida ishlaydi. U xalqaro to‘lov tizimi, valyuta konvertatsiyasi, hisob-kitoblar, valyuta kurslari va kredit munosabatlarini belgilaydi. Bu tizimning shakllanishi asosan tarixiy bosqichlarga borib taqaladi — masalan, Bretton-Vuds kelishuvi asosida XX asrda jahon valyuta tizimining muhim poydevorlari qo‘yilgan.

Xaridor va sotuvchi – Savdo operatsiyasida mahsulot yoki xizmatni sotib oluvchi va sotuvchi shaxs yoki tashkilot.

Xavfsiz pul o‘tkazish – Mablag‘ni yo‘qotish va firibgarlikdan himoyalangan tarzda yuborish tizimi.

Xedj (hedge) — Valyuta kursi o‘zgarishidan kelib chiqadigan riskni kamaytirish uchun sug‘urtalash, masalan fyuchers shartnomasi orqali amalga oshiriladi.

Xorijiy valuta – Milliy valyutadan boshqa davlatning pul birligi, xalqaro savdo va investitsiya operatsiyalarida ishlatiladi. 2. boshqa mamlakatlar tomonidan chiqarilgan pul birligi.

Xorijiy valyuta – bu o‘z mamlakatingizdan tashqari davlatlarning pul birliklari. Masalan, O‘zbekistonda AQSh dollari yoki yevro xorijiy valyuta hisoblanadi.

Yagona valyuta – Yevro (€) – Yevropa Ittifoqi a’zo davlatlarida ishlatiladigan yagona pul birligi.

Yamayka valyuta tizimi – 1976-yilda qabul qilingan tizim, erkin suzuvchi valyuta kurslarini rasmiylashtirgan xalqaro valyuta tizimi.

Yevro dollarlar (eurodollars) — AQSH dollarlarining AQSH tashqarisida muomalada bo‘lishi.

Yevro hududi (EuroZone) – Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar, ular yagona valyuta — yevrodan foydalanadigan iqtisodiy hudud.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) – Yevropada iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va bozorni birlashtirish maqsadida tashkil etilgan tashkilot.

Yevropa Ittifoqi (YI) – Iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy hamkorlik asosida birlashgan Yevropa davlatlari tashkiloti.

Yevropa Markaziy banki (YMB) – Yevrovalutani boshqaruvchi va Yevropa pul-kredit siyosatini shakllantiruvchi asosiy institut.

Yevropa valyuta birligi (ECU) – Yevrodan oldin YEV mamlakatlarining birlashtirilgan hisob birligi sifatida ishlatilgan moliyaviy vosita.

Yevropa valyuta birligi (ECU) — Yevropa iqtisodiy hamjamiyati ichida qo‘llanilgan hisob-valyuta birligi.

Yevropa valyuta tizimi (YVT) — bu Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash maqsadida shakllantirilgan hududiy valyuta tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim Yevropa davlatlari o‘rtasida valyuta kurslarini muvofiqlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi davlat-huquqiy mexanizmdir.

Yevrovalyuta (eurocurrency) — Milliy valyutaning o‘sha davlat tashqarisida, asosan banklarda saqlanadigan qismi.

Yevrozona (Eurozone) – Yevro valyutasini rasmiy pul birligi sifatida qabul qilgan Yevropa mamlakatlari guruhi.

Yumshoq valyuta (soft currency) — bu bozorlarda ishonch past, barqarorligi zaif bo‘lgan valyutalar. Ular ko‘pincha inflyatsiyaga moyil, tez qadrsizlanadi. Global miqyosda to‘lov vositasi sifatida deyarli qabul qilinmaydigan, valyuta konvertatsiyasiga cheklov bor yoki barqaror kursga ega bo‘lmagan milliy valyutadir.

Zolotaya Korona — bu Rossiya markazlashgan xalqaro pul jo‘natmalari tizimi bo‘lib, 2004-yildan beri faoliyat yuritadi. U orqali naqd pulni tezkor va xavfsiz tarzda yuborish, shuningdek, bank hisoblariga pul o‘tkazish mumkin. Tizim 20 dan ortiq mamlakatlarda ishlaydi va Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston kabi MDH davlatlarida keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi T.: “O’zbekiston” 2023-yil

2. O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni(yangi tahriri). – T.: “O‘zbekiston”, 2019-yil 22-oktyabr. O‘RQ-573-son

3. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida (yangi tahriri)”gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 24-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2015-yil 15-mayda ma’qullangan//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2015. - № 22. - 4-40-b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-maydagi PF-5057-sonli “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlaming eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta’minlashni yanada rag‘batlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2017. -№ 22. -26-27-b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017. -№ 6 (766). - 32-b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ulaming resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2015. -№ 18. —3-4-b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 9-martdagi PQ-1725-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.-T.: 2012. -№ ll.-6-8-b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013-yil 26-apreldagi 9/1-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 3-iyunda 2465-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2013. - №23. - 68- 101-b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlami qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2015. - №28. - 22-33-b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2015. - №27,- 17- 29-b.

13. O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari. Ro ‘yxat raqami №3281, 31 avgust 2020 yil.

14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 104 b.

15. Арустамов Е.А., Андреев Р.С. Внешнеэкономическая деятельность. – М.: KNORUS, 2011. – 168 с.

16. Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник -М.: КноРус, 2020. 542 с.

17. Глориозов А.Г. Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. - М.: Юрайт, 2011. - С.205-206.

18. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения. - М.: КНОРУС, 2016.-440 с.

19. Моисеев С.Р. Банк Стокгольма и первые европейские банкноты//Банковское дело. – М.: 2014. - №1. - С.81-84.

20. Смирнов А.Л. Технологии экспортного финансирования //Банковское дело. – М.: 2012. - №4. — С. 60-61.

21. Каримова А.М. Деньги и кредит. Учебник / Самаркандский институт экономики и сервиса – Самарканд.: Издательство ООО «STAR-SEL», 2024 – 415 стр.

22. Niyazov. Z.D. Pul va kredit. Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STAR-SEL"MCHJ nashriyoti 2024 – 400 bet.

23. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi / F.M. Mullajonov tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – T.: “O’zbekiston”, 2011. – 368 b

24. Каримова А.М., Маликова Д.М., Шарипова Н.Д. Анализ банковской безопасности и управление кредитным портфелем. Учебное пособие / Самаркандский институт экономики и сервиса – Самарканд.: Издательство ООО «STAR-SEL», 224 –248 стр.

25. Vaxabov A., Razikova G., Xajibakiev Sh. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O’quv qo’llanma.-T.: «Moliya», 2011 y. - 708 bet.

26. Глориозов А.Г., Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. – М.: Юрайт, 2011. – 905 с.

27. Jumaev N.X. O’zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodogiyasini takomillashtirish.T. “Fan va texnologiya”, 2007 y. 286 b.

28. Jumaev N., Ziyaev M., Berdiyarov B. va boshqalar. O’zbekistonda milliy valyuta tizimini rivojlantirish: muammolari va echimlari. Monografiya.-T.: «Moliya», 2011 y. - 184 b.

29. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения и финансовые отношения. –М.: Финансы и статистика, 2016, -184 с.

30. Красавина Л.Н. Международные валютные, кредитные и финансовые отношения. Учебник М.: Юрайт. 2015. – 345 с.

31. Махлуп Ф. Теория валютного курса. Этот изменчивый обменный курс. Сборник статьей. Пер. с англ - М.: Дело, 2001.-С. 22-82.

32. Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2007. - С. 625-626.

33. Tojiev R.R. "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Darslik.-Toshkent. TDIU nashriyoti, 2009-yil, 301 b.

34. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – 880 с.

35. Худяков Л. Международные финансовые центры в многополярном мире// Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2012. – №1. - С. 30-39.

36. Хлебникова Д.В. Реформа управления Международным валютным фондом в свете решений саммитов «Группы 20»//Деньги и кредит. – М.: 2014. - №4. – С. 60-66.

37. www.imf.org.

38. www.world.com.

39. www.ebrd.com.

40. www.adb.com.

41. www.ibr.com.

42. www.cbu.uz.

43. www.stat.uz.

44. www.cbr.ru.

A.M. KARIMOVA, O.M.PARDAYEV,
Z.D. NIYOZOV, Z.X.ZAXIDOVA

XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

Darslik

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

Darslik institut Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (3-sonli majlis bayoni, Ro'xatga olish raqami 306-31/10).

"MAHORAT" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Samarqand - 2026

ISBN: 978-9910-5132-6-8

Tasdiqnoma № 3278 (13.12.2021)
Nashrga ruxsat etildi: 22.04. 2026 y.
© «MAHORAT» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.



2026 yilda chop etildi.
Qog'oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog'ozi.
"Times New Roman" garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 17.62
Buyurtma № 0060A/26. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.

7978